

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

TABIY FANLAR FAKULTETI



**TABIY FANLAR: YANGI YONDASHUVLAR VA DOLZARB
TADQIQOTLAR**

*Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya
2024 yilning 18-19-oktyabr*

**ЕСТЕСТВЕННЫЕ НАУКИ: НОВЫЕ ПОДХОДЫ И АКТУАЛЬНЫЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ**

*Международная научно-практическая конференция
18-19 октября 2024 года*

NATURAL SCIENCES: NEW APPROACHES AND ACTUAL RESEARCHES

*International scientific and practical conference
October 18-19, 2024*

“Tabiiy fanlar: yangi yondashuvlar va dolzarb tadqiqotlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. -Toshkent: TDPU, 2024.- 470 bet.

Mazkur to‘plamda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida 2024 yil 18-19-oktyabr kunlari bo‘lib o‘tgan “Tabiiy fanlar: yangi yondashuvlar va dolzarb tadqiqotlar” mavzusida tashkil etilgan Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ishtirokchilarining ilmiy maqola materiallari o‘rin olgan. Konferensiyaning II qismida “Bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishning muammo va yechimlari”. “XXI asr kimyosi va uning dolzarb tadqiqotlari”, “Biologiya fani va ta’limning dolzarb masalalari” masalalarini qamrab olgan.

Mazkur to‘plam kimyo, biologiya, zoologiya, botanika, ekologiya sohasi mutaxasislari, doktorantlar, magistrantlar, talabalar hamda ushbu fanlarga qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan.

TAHRIR HAY’ATI A’ZOLARI:

G.A.Shaxmurova -	b.f.d., prof.
P.Mirxamidova -	b.f.d., prof.
O‘.E.Xo‘janazarov -	b.f.d., prof.
G.S.Ergasheva -	b.f.d., prof.
U.E.Raxmatov -	p.f.n. (PhD), dots.
R.Sh.Berdiqulov -	p.f.n. (PhD), dots.
A.Yu.Iskandarov	dots. (O‘zbekiston)
I.E.Shernazarov -	p.f.d. (DSc), prof. v.b.
F.A.Alimova -	p.f.d. (DSc), prof. v.b.
G‘.A.Razakov -	p.f.f.d. (PhD), dots. v.b.
S.I.Zayniyev	p.f.f.d. (PhD), dots. v.b.

To‘plamda berilgan maqolalarning ilmiyligi, mazmuni va keltirilgan statistik ma’lumotlarga mualliflar mas’ul.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2024 yil 18-19- oktyabr

KIRISH SO‘ZI

Mamlakatimizda fan, ta’lim-tarbiya va ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlash, oliy ta’lim tizimini rivojlantirish, uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ta’lim shakllari va mazmunini takomillashtirish borasida olib borayotgan islohotlar o‘quv jarayoniga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlarini kengaytirish orqali amalga oshirilmoqda. Bugungi barqaror rivojlanish tabiiy fanlar tizimida yangi yondoshuvlar va dolzarb tadqiqotlarni olib borish, turli geoekologik muammolarni yechishda ta’lim tizimining ahamiyati va o‘sib kelayotgan yosh avlodning savodxonligini oshirish, ularning ongi va madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish, ta’lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etish texnologiyalarini takomillashtirishga e’tibor qaratmoqda.

Muhtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning ta’lim tizimni va fan taraqqiyotining yuqori bosqichlarga olib chiqish borasidagi quyidagi fikrlar o‘rinlidir, *“Biz O‘zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma’rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz. Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo‘lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Shuning uchun ham bog‘chadan boshlab oliy o‘quv yurtigacha – ta’limning barcha bo‘g‘inlarini isloh qilishni boshladik. Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a’zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma’rifat, yuksak ma’naviyat kerak. Ilm yo‘q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to‘g‘ri yo‘ldan adashish bo‘ladi. Sharq donishmandlari aytganidek, “Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!”*. Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish, chinakam ma’rifat va yuksak madaniyat egasi bo‘lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak.

Ushbu *“Tabiiy fanlar: yangi yondoshuvlar va dolzarb tadqiqotlar”* mavzusida o‘tkazilayotgan anjumanda ta’lim sifatini tubdan oshirish, ta’lim muassasalarida fanlarni o‘qitishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish, ta’lim muassasalarini zamonaviy laboratoriyalar, darsliklar va boshqa o‘quv jihozlari bilan ta’minlash, ushbu yo‘nalishlarga malakali o‘qituvchi-murabbiylarni jalb etish, kadrlar tayyorlash va ilm-fan natijalaridan foydalanishda ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarish sohalari o‘rtasida o‘zaro yaqin muloqot va hamkorlikni yo‘lga qo‘yish masalalariga e’tibor qaratilgan. Konferensiyada respublikamiz oliy ta’lim muassasalari bilan bir qatorda 10 dan ortiq xorijiy universitetlarning professor-o‘qituvchilari va boshqa bir ilmiy tekshirish institutlarining yetuk olimlari hamda tadqiqotchilari ishtirok etishlari kutilmoqda. O‘ylaymizki, ishtirokchilar konferensiyada tabiiy fanlar xususan, kimyo, biologiya, geografiya va geoekologiya fanlari ta’limi samaradorligini oshirish yuzasidan muhim xulosalar ishlab chiqadilar hamda kelgusi rejalar belgilab olinadi, ilmiy izlanishlarda tadqiq qilinmagan dolzarb mavzular aniqlanib, yangi tadqiqotlar uchun zamin yaratiladi.

Mazkur xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasining naqadar dolzarbligi uning nomidan ham ko‘rinib turibdi. Uning asosiy maqsadi Yangi O‘zbekistonimiz hududlaridagi mavjud tabiiy fanlarga oid muammolarni muhokama qilish hamda ularning ilmiy asoslangan yechimlariga qaratiladi. Bu ilm sohasida ustoz-shogird an’analarning yanada mustahkamlanishiga imkon yaratadi. Anjuman o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga to‘laligicha erishishiga ishonamiz. Bunda barchangizga omad, ilmiy ishlarda ravnaq, sog‘lik-salomatlik va oilaviy xotirjamlik tilab qolamiz. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetiga xush kelibsiz!

Abdug‘affor Kirgizbayev
Nizomiy nomidagi TDPU rektori

Muharir: Razakov G'.A.

Сманова З.А., Яхшиева З.З., Мадусманова Н.К., Азимова Д.А.*

(Toshkent, O'zbekiston)

ОСНОВНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ СОВРЕМЕННОЙ ХИМИИ

Аннотация: В статье рассматриваются основные тенденции современной химии и приводятся новые направления. Показаны практические возможности и прогностические задачи химии.

Ключевые слова: Современная химия, основные тенденции химии, интеграционные направления химии

ZAMONAVIY KIMIYONING ASOSIY TENDENSIYALARI

THE MAIN TRENDS OF MODERN CHEMISTRY

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy kimyoning asosiy tendentsiyalari va muhokama qilingan kimyoning yangi yo'nalishlari. Kimyoning amaliy imkoniyatlari va bashoratli vazifalari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: zamonaviy kimyo, kimyoning asosiy tendentsiyalari, kimyoning integratsiya yo'nalishlari.

Annotation The article discusses the main trends in modern chemistry. New directions of chemistry are given. Practical possibilities and prognostic tasks of chemistry are shown.

Keywords: Modern chemistry, the main trends of chemistry, integration directions of chemistry.

Цель современной химии на сегодняшний день удовлетворять нужды каждого человека и общества в целом. Молекулярная биология, генная инженерия и биотехнология, наука о материалах являются фундаментально химическими науками. Прогресс медицины и охраны здоровья – это проблемы химии болезней, лекарств, пищи; нейрофизиология и работа мозга – это прежде всего нейрохимия, химия нейромедиаторов, химия памяти. Человечество ждёт от химии новых материалов с магическими свойствами, новых источников и аккумуляторов энергии, новых чистых и безопасных технологий и т.д. [1]. Химию 21 века можно рассматривать как разветвленную систему знаний, которая находится в процессе интенсивного развития. Это структурирование химии по задачам и целям, по ее внутренней логике, которая не разделяет химию на отдельные ветви, а организует как единую науку и объединяет химиков в единое сообщество [2]. Направлениями развития современной химии на рубеже 21 века являются: проблема химического элемента, исследование структуры химических соединений, учение о химических процессах, эволюционная химия, химия чрезвычайно быстротекущих реакций (фемтохимия), развитие электроники на молекулярном уровне, Создание и развитие «химической медицины», решение проблемы «химического бессмертия» и т.д.

Сманова З.А.* - ¹Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека, Ташкент, Узбекистан
Яхшиева З.З.² - Джизакский государственный педагогический университет, Джизах, Узбекистан



А.Л.Бучаченко



А.Л.Бучаченко

"Интеграционные" направления в химии были сформулированы академиком В.А. Легасовым и А.Л. Бучаченко [3].

На сегодняшний день определены основные направления по структуре и иерархии общих проблем химии, которые приведены ниже, это:

- искусство химического синтеза;
- химическая структура и функция;
- управление химическими процессами;
- химическое материаловедение;
- химическая технология;
- химическая энергетика;
- химическая аналитика и диагностика;
- химия жизни.

Наличие у химии развитого теоретического фундамента стимулирует ее практические возможности и дает надежную основу для прогнозирования.

Прогностическая задача химии 21 века состоит в предсказании условий синтеза веществ с заранее заданными свойствами, причем основные количественные характеристики этих свойств могут быть заранее рассчитаны [4]. Сегодня появилась возможность решать эволюционные проблемы применительно к своим объектам. Это проблемы самопроизвольного синтеза новых химических соединений, являющихся более высокоорганизованными продуктами по сравнению с исходными веществами. Современная химия и ее тенденции также охватывают и химическую промышленность и экологические проблемы химии тоже.

Химическая промышленность является основной и наиболее бурно развивающейся отраслью, которая составляет базу современного научно-технического прогресса. Производимые химической промышленностью реагенты и материалы широко используются в технологических процессах самых различных отраслей хозяйства. В современную эпоху химическая

промышленность явилась своего рода индикатором, определяющим степень модернизации хозяйственного механизма любой страны.

Если рассмотреть химическую промышленность Узбекистана, то её можно разделить на:

1. Горно-химическую промышленность, включающую добычу первичного химического сырья.

2. Основная химия, специализирующаяся на производстве минеральных удобрений, кислот, соды и других веществ, составляющих как бы «пищу» для других отраслей экономики.

3. Производство и переработка полимерных материалов.

4. Отрасли индустрии (фотохимическая, бытовая химия и т.д.) мало связанных между собой относящуюся к разнородной группе. Развитие химических знаний уже на сегодняшний день позволяет надеяться на разрешение многих проблем, стоящих перед человечеством. Это прежде всего возможность значительного ускорения химических превращений в «мягких» условиях за счет объединения в катализаторах будущего следующих достоинств: гетерогенного, гомогенного катализа; достижение близкой к 100% селективности процессов; осуществление новых важных энергетически затрудненных процессов путем сопряжения эндо- и экзотермических реакций; существенная экономия углеводородного сырья и переход от нефти к углю как более распространенному сырьевому источнику [5].

Сегодня уже совершенно ясны перспективы создания и развития новой химии, на основе которой будут созданы малоотходные, безотходные и энергосберегающие промышленные технологии.

На рубеже 21 века к основным тенденциям аналитической химии по Ю.А. Золотову можно отнести:

1. Химический анализ, который все больше становится «вне лабораторным»;

2. Переход от валового анализа к анализу вещественному;

3. Тенденция к неразрушающему контролю твердых образцов; 4. Автоматизация анализа и миниатюризация аналитических приборов и анализа в целом;

5. Изменение корней;

6. Распознавание образов;

7. Использование многоступенчатого анализа;

8. Движение к более активному применению достижений физики или биохимии;

9. Обсуждаются также изменения в аналитических методах, например, их гибридизация. Есть изменения даже в аналитическом сообществе и подходах к образованию.

Литература:

1. Кухта В.К., Морозкина Т.С., Олецкий Э.И., Таганова А.Д. Биологическая химия. М.:Бионом. 2008. 687с.
2. Денисов В.Я., Лузгарев С.В. Современные тенденции развития химических наук // Успехи современного естествознания. – 2007. – № 11. – С. 33-35.
3. Легасов В. А., Маринин А. С., Синянский В. Ф. Экспериментальное и расчётное исследование химической модели шаровой молнии. - М.: ИАЭ, 1978. - 11 с.
4. Супрамолекулярная химия: Концепции и перспективы/ Ж.-М. Лен. Пер. с англ.- Новосибирск: Наука. Сиб. предприятие РАН, 1998.- 334 с.
5. Кнунянц И. Л. 2-е изд. -БСЭ, 1998 [ISBN 5-85270-253-6](#)

Shomurotova Sh.X.*

(Toshkent, O‘zbekiston)

BO‘LAJAK KIMYO O‘QITUVCHILARGA ILLYUSTRATIV TUSHUNTIRISH ASOSIDA “ERITMALAR” MAVZUSINI O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya: Ushbu maqola talabalarning kimyo fanidan kimyoviy bilimlarini rivojlantirishda o‘ziga xos yondashuv va pedagogik ta‘sir usullari, ularni illyustratsiya g‘oyaviy va estetik tarbiya vositalaridan va bunga ta‘sir etuvchi omillar, ta‘lim jarayonida ilmiy izlanishlardan samarali foydalanish masalalariga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: pedagogik ta‘sir usullari, ta‘lim, izlanishlar, illyustrativ tushuntirish, ta‘lim jarayoni, innovatsion yondashuv, usul, integrativ yondashuv.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ ТЕМЫ «РАСТВОРЫ» БУДУЩИМ УЧИТЕЛЯМ ХИМИИ НА ОСНОВЕ ИЛЛЮСТРАЦИОННОГО ОБЪЯСНЕНИЯ

Аннотация: данная статья посвящена конкретному подходу и методам педагогического воздействия на развитие химических знаний студентов-химиков, их иллюстрацию, идейно-эстетическим средствам обучения и факторам, влияющим на это, эффективному использованию научных исследований в учебном процессе.

Ключевые слова: методы педагогического воздействия, обучение, исследование, иллюстративное объяснение, образовательный процесс, инновационный подход, метод, интегративный подход.

IMPROVING METHODS OF TEACHING THE SUBJECT “SOLUTIONS” TO FUTURE CHEMISTRY TEACHERS BASED ON ILLUSTRATIONAL EXPLANATION

Abstract: this article is devoted to a specific approach and methods of pedagogical influence on the development of chemical knowledge of chemistry students, their illustration, ideological and aesthetic means of teaching and factors influencing this, the effective use of scientific research in the educational process.

Key words: methods of pedagogical influence, training, research, illustrative explanation, educational process, innovative approach, method, integrative approach.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligini yil sayin barqarorlashtirib borar ekan, uning istiqboli bugungi avlodning har tomonlama bilimdon, ma‘naviy va jismoniy jihatdan barkamol insonlar bo‘lib yetishishlariga bog‘liqdir. Eng avvalo, yosh avlodning ilmiy – dunyoviy bilimlar asoslarini puxta egallashi, ularda keng

* Shirin Xajiyevna Shomurotova- Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika universiteti professor v.b, PhD

dunyoqarash hamda tafakkur ko‘lamining hosil bo‘lishi va ma’naviy – axloqiy sifatlarning shakllanishi uchun ta’lim – tarbiya ishlarini samarali tashkil etilishiga erishish lozim. Zero, yurtning porloq istiqbolini yaratish, uning nomini jahonga keng yoyish, ulug‘ ajdodlar tomonidan yaratilgan milliy – madaniy merosimizni jamiyatga namoyish etish, ularni boyitish, O‘zbekiston Respublikasini rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy egallashini ta’minlash, yosh avlodning komil inson bo‘lib kamol topishiga bevosita bog‘liqdir[1].

XX asrning 20 – yillaridan illyustratsiya g‘oyaviy va estetik tarbiya vositalaridan biri sifatida muhim ro‘l o‘ynay boshladi hamda texnik imkoniyatlari kengaydi. Ksilografiya, rasm taraqqiy eta boshladi, fotomontaj yuzaga keldi, plakatlar hosil bo‘la boshladi, kitob va illyustratsiya birligi kuchaydi, darsliklarda illyustrativ materaillar rivojlana boshladi. Hozirgi kunda maktab kimyo darsligining eritmalarga oid mavzularida illyustrativ materiallarning ishlab chiqilishi ahamiyatligi bilan bir qatorda ayni mavzular uchun illyustrativ materiallar ishlab chiqishda innovatsion texnologiyalar yordamida nazariy va amaliy bilimlarni mohiyatini yanada yaxshiroq tushunish imkoni mavjud. Albatta, bu boradagi islohotlar samarasini soha talablariga to‘liq javob bera oladigan kadrlarsiz tasavvur etish qiyin. Shu sababli tizimdagi pedagog xodimlar mahoratini ilg‘or usullar orqali muntazam oshirib borish mexanizmini yaratish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta’lim-tarbiya jarayoniga keng tatbiq etgan holda, uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatish ishlarini takomillashtirish masalasi ham dolzarb sanaladi. Ilmiy uslub, xoh u tabiiy ilmlar bo‘lsin, xoh hayot, sotsiologiya, fazo ilmi bo‘lsin, bulardagi izlanishlar falsafiy fikrlarga yoki chuqur o‘ylash, o‘tkir aqlli kishilarning gapiga asosan bo‘lmaydi, balki tajriba va guvohlik asosida bo‘ladi. Bunda esa sezish a‘zolari, xususan, eshitish va ko‘rish a‘zolari katta o‘rin tutadi. Hodisa, narsa, jarayonlarni tasviriy shaklda va yassi modellar vositasida ifoda etish, jismning holatini to‘liq tushunish va bilib olishga yordam berish **illyustratsiya** deb ataladi. Uning asosiy vazifasi – o‘rgatish. Illyustratsiya usulining vositasi sifatida suratlar, jadvallar, rangli xaritalar, albomlar va atlaslardan foydalaniladi.

Ko‘rgazma qurollarini va illyustratsiya shakllarini tanlaganda uning bilim olish jarayonidagi ta’lim – tarbiyaviy vazifasini, joyini va ahamiyatini hisobga olish lozim. Bundan tashqari ko‘rgazmali materialni eng ma’qul hajmdagisini tanlab olish zarur hisoblanadi. Tajribalar shuni ko‘rsatdiki, katta hajmdagi illyustratsiya materiallari o‘quvchini o‘rganilayotgan hodisalarning tub mohiyatini aniqlashdan chalg‘itadi. Illyustrativ tushuntirish usulida o‘qituvchi o‘quvchilarga turli metodlardan foydalanib, masalan, o‘qituvchining tushuntirishi, kitob bilan ishlash, magnitofon yoki kompyuterdan foydalanish kabilar yordamida tayyor bilimlarni bayon etadi. Bunda ko‘rgazmali o‘qitish vositalari – eksperiment, ekran qo‘llanmalari,


jadvallardan foydalanadi. O'qituvchining tushuntirishi asosida laboratoriya tajribalaridan foydalaniladi. Illyustrativ tushuntirishda o'quvchilarning ongli, lekin reproduktiv faoliyati yuzaga keladi. Bu metod o'qitishda keng qo'llaniladi, chunki bunda bilimlarning minimal bazasi tez to'planadi, ular asosida o'quvchilarning tadqiqot faoliyatlarini kuchaytirish mumkin. Ba'zi hollarda bu usulni amalga oshirish zarur hisoblanadi. Masalan, elementlarning kimyoviy belgilarini o'rganishda o'qituvchi kimyoviy belgilarning yozilishi va nomlanishini ko'rsatadi, so'ngra o'quvchilarga ularni qayta mashq qilib o'rganish taklif etiladi. Mashqlarni o'yin tariqasida, innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda bajarish mumkin.

Shu bilan birgalikda xorijiy darslik-adabiyotlar, metodik qo'llanmalar va ilmiy maqolalardan ham keng foydalanildi. Misol uchun, Abigail Beall, Jack Challoner, Adrian Dingle, Derek Harvey, Bea Perks kabi olim va illyustratorlar tomonidan ishlab chiqilgan "Science as you've never seen it before" illyustrativ kitobi, Javier Garcia – Martinez va Elena Serrano-Torregrosalar muallifligida yozilgan "Chemistry Education. Best practices, opportunities and trends with a foreword by Peter Atkin" nomli metodik qo'llanmasi, Bo Chang, Renmei Xu va Tiffany Watt tomonidan taqdim etilgan "The Impact of Colours on Learning" ilmiy maqolasi tahlil sifatida boshqa ko'plab adabiyotlardan foydalanildi. Mani Ramaswamy tomonidan AQShning Nyu York shtati "DK Publishing" nashriyoti tomonidan 2020 – yilda chop etilgan "SuperSimpleChemistry" nomli o'smirlar uchun mo'ljallangan kitobida kimyo fanini maksimal osonlashtirilgan va illyustrativ tasvirlarga boyitilgan versiyasini ko'rishimiz mumkin. Bunda eng qiyin jarayonlarni ham vizual tasvirlarga tayangan holda osonlik bilan ifodalangani o'qitish jarayonida yanada qo'l keladi.

Quyida eritmalarga oid mavzularni o'qitish jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan ba'zi bir illyustrativ materiallar, darslikda berilgan tasvirlar hamda tadqiqot uchun tayyorlangan illyustratsiyalar farqi hamda tahlili keltirib o'tilgan:


Bunday aralashmalar **gomogen aralashmalar** deyiladi. Agar tuproqni suvda eritib ko'rsak-chi? Tuproq suvda erimaydi, loyqa suv hosil qiladi – bunday bir xil bo'lmagan aralashmalarni **geterogen aralashmalar** (har xil) deb ataladi va ularni osongina gomogen tarkibiy qismlarga ajratish mumkin".

Yuqoridagi jummalarda aralashmalarining turlari, jumladan, gomogen hamda geterogen aralashmalarining farqlari keltirilganligi aks ettirilgan. Mavzu davomida geterogen aralashmalarining ajratilish usullari ko'rsatib o'tilgan, ammo hech qanday illyustratsiv material taqdim etilmagan. Tadqiqot uchun esa quyidagi suratlar orqali bu ikki xil aralashmaning farqlarini ko'rsatib beruvchi illustratsiya tanlab olindi:



1-rasm. Ikki xil aralashma

Yuqoridagi tasviriy material ko‘rsatilib, darsning mustahkamlash qismiga kelganda, quyida keltirilgan surat savol tariqasida taqdim etildi:



2-rasm. Ikki xil aralashma molekullari ko‘rinishi

Savolning mazmuni “suratda keltirilgan aralashmalarning turlarini yozing” – ko‘rinishda edi. Savolga deyarli barcha (3/15) o‘quvchilar to‘g‘ri javob berishgan. Unga vazifa sifatida esa har bir aralashma turiga 5 donadan hayotiy misol yozib kelishlari so‘ralgan va o‘qituvchi tomonidan javoblar tahlil qilindi, baholandi.

Hozirgi kunda vatanimiz kelajagi bo‘lgan yoshlarni zamon talablari asosida puxta bilim olishi, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi, vatanparvar, ma‘naviyati yuksak shaxs etib shakllantirishda ta‘lim tarbiyaning ulkan beqiyos hissasi bor. Joriy qilinayotgan yangi pedagogik texnologiyalarning asosiy vazifasi o‘quvchilarga beriladigan bilimlarni o‘zlashtirilishining samaradorligini oshirishdir. Kimyo fanida eritmalar bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlarning ahamiyati kattaligi sababli, uni o‘qitishga yangi pedagogik texnologiyalarni joriy qilish muhim masala hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shirin Khajiyevna Shomurotova. (2023). Improving methodological training of future chemistry teachers based on integrated education. *Web of Teachers: Inderscience Research*, 1(9), 124–127.
2. Umridinov A.I. (Yaponiyaning Nagoya universiteti, “Biznes huquqi” fakulteti professori) – “Talaba do‘stimga 78+ tavsiya”, Toshkent “Yuridik adabiyotlar publish”, 2022-yil, 101-102 betlar.

3. S. S. Xajieva, (2023). Kimyoni o'qitishda innovatsion yondashuvdan foydalanish. *Science and innovation*, 2(Special Issue 7), 114-117.

4. Sh.X.Shomurotova, Saidov U.O Kompleks birikmalar kimyosi fanini o'qitishda talabalarda amaliy ko'nikmalarni shakllantrish. Pedagogical sciences and teaching methods: a collection scientific works of the International scientific conference (12-13 June, 2021) - Copenhagen: "Science Edition", 2021, pp.-20-22.

Kultayev K.K., Berdikulova S.M.*

(Toshkent, O'zbekiston)

“MURAKKAB EFIRLAR” MAVUSIDA DIDAKTIK O‘YINLARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya: *Ushbu maqolada materialida didaktika fanining ta'lim jarayonidagi o'rni, ba'zi didaktik o'yinlar -uchinchisini va to'rtinchisini topish kerak, kimyoviy piramida, kimyoviy reburs kabi o'yinlar tatbig'i bayon etildi.*

Kalit so'zlar: *didaktika, didaktik o'yinlar, kimyoviy piramida, uchinchisini va to'rtinchisini topish kerak, kimyoviy reburs, murakkab efirlar, karbon kislotalari, bir atomli spirtlar.*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ДИДАКТИЧЕСКИХ ИГР ПО ТЕМЕ «СЛОЖНЫЕ ЭФИРЫ».

THE USE OF DIDACTIC GAMES ON THE TOPIC OF ESTERS.

Аннотация: *В данной статье описаны роль дидактической науки в учебном процессе, а также применение некоторые дидактические игры, такие как – найди третью и чет-вертую, химическая пирамида и химический ребус.*

Annotation: *This thesis describes the role of didactic science in the educational process, as well as the use of some didactic games, such as find the third and fourth, chemical pyramid and chemical rebus.*

Ключевые слова: *дидактика, дидактические игры, химическая пирамида, необходимо-мост найти третью и четвертую, химический ребус, сложные эфиры, карбоновые кислоты, одноатомные спирты.*

Key words: *didactics, didactic games, chemical pyramid, the need to find the third and fourth, chemical puzzle, esters, carboxylic acids, monohydric alcohols.*

Hozirgi kunda o'quvchilarning o'quv bilish faolliklarini kuchaytirish, o'qitish sifatini oshirish va samaradorligini yaxshilash maqsadida innovasion xarak-terga ega ta'lim shakllaridan foydanish dolzarbdir. Shu sababli an'anaviy darslar o'rniga noan'anaviy muqobil ta'limni, yangi texnologiyalarni, interfaol ta'limni joriy etishni hayotning o'zi talab etmoqda. Ta'lim jarayonini tashkil etishda o'quvchi shaxsiy qobiliyati, moyilligi, uning o'z kuchi imkoniyatlariga ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishini asos qilib olish maqsadga mos keladi. Moddiy va ma'naviy olam to'g'risidagi bilimlarni yoshlarga o'rgatish, ta'limni tashkil etish, boshqarish va nazorat etish kabi muammolarni yechish didaktika fanining asosiy masalasidir. Didaktika - bu pedagogika faniing bir qismi bo'lib, ta'lim va tarbiya masalalarini o'rganish va ishlab chiqish bilan shug'ullanadigan fandır. Didaktika grekcha “didaktikas” so'zidan olingan bo'lib, “o'qitish” ma'nosini anglatadi. Didaktik o'yin - bu mos keladigan ta'lim berish usulidir. Didaktik

* **Kultayev Kuzibay Kazakbaevich**- Nizomiy nomidagi TDPU, Kimyo va uni o'qitish metodikasi kafedrası dosenti, k.f.n., E-mail: Kultayev60@bk.ru.

Berdikulova Sabina Marat qizi - Nizomiy nomidagi TDPU, 4- kurs talabasi.

o'yinlarning asosiy turlari: intellektual (aqliy) va harakatli hamda aralash o'yinlardan iborat. Bular o'quv-chilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, ma'naviy, ma'rifiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirkorlik, bunyodkorlik, mehnat, kasbiy ko'nikmalarini rivojlan nirishga yor-dam beradi [1,2]. Ushbu maqolada murakkab efirlar mavzusini o'qitishda foy-dalanishi mumkin bo'lgan didaktik o'yinlardan misollar keltirildi.

Didaktik o'yinlar texnologiyalari o'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadal-lashtirishga asoslangan. Ular o'quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega.

Didaktik o'yinlarning asosiy turlari: Intellektual (aqliy) va harakatli hamda aralash o'yinlardan iborat. Bu o'yinlar ishtirokchilarda aqliy, jismoniy ahloqiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirkorlik, mehnat va boshqa ko'nikmalarni rivojlan-tirishga yordam beradi.

Didaktik o'yinlar o'quvchilarda tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, tadqiq qilish, hisoblash, o'lchash, yasash, sinash, kuzatish, solishtirish hulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki jamoa tarkibida ishlash, ahloq odob o'rgatish, yangi bilimlar o'rgatish va boshqa faoliyat turlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'yin-larga ajratiladi. Didaktik o'yinlardan amalda foydalanish orqali boshqa usullar yor-damida erishish qiyin bo'lgan ta'lim- tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish ko'z-da tutiladi. Turli o'quv fanlariga oid didaktik o'yinlar mavjud bo'lib, ular shu fan-larni sifatli o'rgatish maqsadlariga xizmat qiladi.

Didaktik o'yin texnologiyalari amalga oshiriladigan ayrim noananaviy dars shakillari mavjud. Masalan, ishchanlik o'yini darsidars mavzusi bo'yicha masala-larni hal etish jarayonida o'quvchilarning faol ishtirok etishini ta'minlash orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish mashqi.

"Mo'jizalar maydoni" darsi - o'quvchilar bilan o'tkaziladigan qiziqarli o'yin bo'lib, turli savollarga belgilangan vaqt davomida to'g'ri javoblar topish va g'oli-blarni rag'batlantirish orqali o'quvchilarda fikrlash, topqirlik, ziyraklik va bilimla-rini kengaytirib borish sifatlarini shakillantiradi.

Didaktik o'yin turlarini tanlash me'zonlari:

- ishtirokchilar tarkibi bo'yicha o'g'il-bolalar, qiz-bolalar, qiz bolalar, o'smirlar katta yoshdagilar uchun o'yinlar;
- ishtirokchilar soni bo'yicha - yakka, juftlikda kichik guruh, sinf jamoasi, raqobotdosh komandalar, sinflar aro va ommaviy o'yinlar ;
- o'yin jarayoni bo'yicha - fikrlash, o'ylash topog'onlik, harakatlar musobaqa va boshqalarga yo'naltirilgan yo'llar;


- vaqt me'yor bo'yicha dars, mashg'ulot vaqtining reja bo'yicha ajratilgan qismi, o'yin maqsadiga erishguncha, g'olib yoki g'oliblar aniqlanguncha davom etadigan va boshqa o'yinlar [3].

1. Uchinchisini va to'rtinchisini topish kerak. O'quvchilarga tutash doirachalar uchligi va to'rtligi tarqatiladi. Ularning ikkitasi ichida formulalar yozilgan. Uchin-chisi va to'rtinchisining ichida esa so'roq belgisi qo'yiladi. O'quvchilar mantiqan fikrlash orqali reaksiyaga kirishi yoki reaksiya natijasida ajralib chiqishi lozim bo'lgan moddaning formulasini uchinchi va to'rtinchi doiracha ichiga yozish bilan javob beradi. Masalan:

1. $\text{HCOOH} + \text{CH}_3\text{OH} \rightarrow ? + ?$ 2. $\text{CH}_3\text{COOH} + \text{C}_2\text{H}_5\text{OH} \rightarrow ? + ?$
 3. $\text{HCOOH} + \text{C}_2\text{H}_5\text{OH} \rightarrow ? + ?$ 4. $\text{CH}_3\text{COOH} + \text{CH}_3\text{OH} \rightarrow ? + ?$
 5. $\text{CH}_3\text{COOCH}_3 + \text{H}_2\text{O} \rightarrow ? + ?$ 6. $\text{HCOOC}_2\text{H}_5 + \text{H}_2\text{O} \rightarrow ? + ?$
 7. $\text{HCOOCH}_3 + \text{H}_2\text{O} \rightarrow ? + ?$ 8. $\text{CH}_3\text{COOC}_3\text{H}_7 + \text{H}_2\text{O} \rightarrow ? + ?$

Javoblar: 1. $\text{HCOOCH}_3 + \text{H}_2\text{O}$; 2. $\text{CH}_3\text{COC}_2\text{H}_5 + \text{H}_2\text{O}$ 3. $\text{HCOOC}_2\text{H}_5 + \text{H}_2\text{O}$;
 4. $\text{CH}_3\text{COOCH}_3 + \text{H}_2\text{O}$; 5. $\text{CH}_3\text{COOH} + \text{CH}_3\text{OH}$; 6. $\text{HCOOH} + \text{CH}_3\text{OH}$;
 7. $\text{HCOOH} + \text{CH}_3\text{OH}$; 8. $\text{CH}_3\text{COOH} + \text{C}_3\text{H}_7\text{OH}$

2. Kimyoviy piramida. Bu o'yin o'quvchilarning murakkab efirlar, karbon kislotalari va spirtlar mavzusi bo'yicha o'rgangan bilimlari asosida mushohada yuritishiga asoslangan. Berilgan topshiriq eterifikatsiya reaksiyasi asosida murakkab efirlarning olinishi xaqidagi bilimlarni umumlashtirish asosida javob topishni talab etadi. Quyidagi piramida etilspirti asosida olingan murakkab efirni aniqlash orqali piramidaning uch qismi egallanadi.



3. Kimyoviy chaynvord. Bu didaktik o'yin yordamida yashiringan olim nomini topish lozim bo'ladi (mashhur kimyogar olimning familiyasi, kimyoviy atamalar yoki nomlari kodlangan xarflar tizimi orqali topiladi). Quyidagi chaynvord-da yog'ni sintezlagan olimning nomini (1- jadval) va etilbutirat efiri hidi keladigan meva nomini (2 -jadval) topish talab etiladi.

1-jadval

Formula	Spirt	Murakkab efir	Karbon kislota	Oddiy efir
HCOOH	a	d	b	x
CH ₃ COOCH ₃	k	e	yu	w
CH ₃ OCH ₃	m	c	g	r
C ₂ H ₅ OH	t	p	h	q
C ₂ H ₅ OC ₂ H ₅	n	l	s	sh

CH ₃ COOH	j	sh	o	z
----------------------	---	----	---	---





Javob: Bertlo

2-jadval

Formula	Murakkab efir	Karbon kislota	Aldegid	Oddiy efir
C ₂ H ₅ COOCH ₃	a	f	w	o
CH ₃ CHO	k	l	n	p
CH ₃ COOH	b	a	sh	y
CH ₃ OCH ₃	yu	j	ch	n
CH ₃ CH ₂ COOH	a	r	h	z
C ₂ H ₅ CHO	d	q	s	x

Javob: Ananas

4. Kimyoviy reburs. Bu o'yinda o'zaro ta'sirlashuvchi yoki reaksiya davomida hosil bo'ladigan moddalarni aniqlash va ularning formulalarini so'roq belgisi o'rniga yozib chiqiladi[4,5,6]. Masalan, quyidagi kimyoviy rebursda so'roq belgilaring tartib raqamiga mos keladigan moddalarni aniqlash va tegishli o'rin-larga ularning formulalarini yozish lozim bo'ladi. Topshiriq: So'roq belgisi (?) o'rniga tegishli moddalarni yozing.



Javob : 1. CH₃CHO 2. H₂O 3. CH₃COONa 4. HCOONa 5. CH₃COOK 6. Ag 7. C₂H₅OH 8. (CH₃COO)₂Ca 9. CH₃Cl 10. C₂H₄ 11. CH₃OH 12. CH₃COOC₂H₅

Har bir didaktik o'yin kimyoviy bilimlar, ma'lumotlar, qonunlar va qonuniyatlariga tayanilgan holda tuziladi va uni yechish uchun o'quvchidan katta bilim talab etadi. Natijasida o'quvchi bilim olishga intiladi. Didaktik o'yinlar o'quvchi-lardagi nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish uchun imkon beradi. O'quvchi-larning mustaqil fikrlashi natijasida maqolada keltirilgan didaktik o'yinlar yechi-ladi, bu esa sinfda o'quvchilarning sifat ko'rsatkichini oshiradi. O'quvchilarda aqliy, kasbiy, estetik, mehnatsevarlik, jamoada birgalikda ishlash, ma'rifiy va ma'naviy ko'nikmalar rivojlanadi.

Xulosa. Didaktik o'yinlarni qo'llash o'quvchilarning kimyo faniga bo'lgan qiziqishlarni oshirish va o'quvchilarda mukammal bilimlarni yuzaga keltirish, o'quvchilar faolligini oshirishga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Н.Т. Омонov, Н.Х. Хо‘jaev, S.A. Madyarova, E.U. Eshchanov “ Pedagogik texnologiyalar va pedagogik moharot “, Toshkent, 2012 yil, 90- 96 bet.
3. М.С. Пак Дидактика химии , Москва, Владивосток , 2004, с. 315
4. Mirzaulukova M.U. Didaktik o‘yinlar turlari va maqsadlari, Talqin va tatqiqot-lat respublika ilmiy -uslubiy jurnal, № 5, 50- 53 bet
5. Kultayev K.K., Kurbanbaeva D.D. Didaktik o‘yinlar asosida organik moddalarni o‘rganish. Kimyo fanini o‘qitishning istiqbollari; kecha, bugun, ertaga. Respublika ilmiy ommaviy anjuman, Jizzax, JDPU, 2022 yil. 229-232 bet
6. Kultayev K.K., Kurbanbaeva D.D. Organik moddalarni o‘rgatishda o‘yinli texnologiyalarni qo‘llash. Kimyo fanini o‘qitishning istiqbollari; kecha, bugun, ertaga. Respublika ilmiy ommaviy anjuman, Jizzax, JDPU, 2022 yil, 223- 225 bet

Kultayev K.K., Kamalova M. K.*

(Toshkent, O‘zbekiston)

“AMINOKISLOTALAR” MAVZUSINI O‘QITISHDA INTERFAOL USUL DAN FOYDALANISH

Annotatsiya: Ushbu maqolada interfaol usullarning ta’lim jaroyonida muhimligi ifodalandi va “assessment” interfaol usulining “Aminokislotalar” mavzusini o‘quvchilarga tushuntirishda tatbig‘i ko‘rsatildi.

Kalit so‘zlar: aminokislotalar, glitsii, alanin, xelat, kompleks tuz, karbon kislotalar, aminlar, oqsillar, peptidlar.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНОГО МЕТОДОВ ПРИ ОБУЧЕНИЕ «АМИНОКИСЛОТЫ».

Аннотация: В данной статье описаны важность интерактивных методов в образовательном процессе и показано применение интерактивного метода «Ассесмента» при объяснении студентам тему «Аминокислоты».

Ключевые слова: аминокислоты, глициин, аланин, хелат, комплексная соль, карбоновые кислоты, амины, белки, пептиды.

USING AN INTERACTIVE METHOD IN TEACHING “AMINOACID”

Annotation: This article describes the importance of interactive methods in the educational process and shows the use of the interactive “assessment” method when explaining the topic “Aminoacids” to students.

Key words: aminoacids, glycium, alanine, chelate, complex salt, carboxylic acids, amines, proteins, peptides.

Zamonoviy ta’lim texnologiyalari asosida dars mashg‘ulotlarini olib borish hozirgi kunning dolbzarb vazifalaridir. Interfaol ta’lim shunday texnologiyalardan biri bo‘lib, bu ta’limda o‘qituvchi va talaba, o‘qituvchi va talabalar, talaba-talabalarning o‘rtalarida o‘zaro hamkorlik, hamfikrlilik, hamjihatlik yuzaga keladi. Bu hamkorlik o‘quv materialini o‘zlashtirish, nazariy va amaliy bilimlarni boyitishga xizmat qiladi. Shuningdek, muammoli vaziyatlarning ijobiy hal etilishini Bu hamkorlik o‘quv materialini o‘zlashtirish, nazariy va amaliy bilimlarni boyitishga xizmat qiladi. Shuningdek, muammoli vaziyatlarning ijobiy hal etilishini ta’minlaydi.

* **Kultayev Kuzibay Kazakbaevich** - Nizomiy nomidagi TDPU, Kimyo va uni o‘qitish metodi-kasi kafedراسи dotsenti, k.f.n., E-mail: Kultayev60@bk.ru.

Камалова Мавлуда Каурат qizi - Nizomiy nomidagi TDPU, 4- kurs talabasi.

Ta'lim jarayonining ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro psixologik yaqinlik va birlikni ham yuzaga keltiradi [1,2].

Ushbu maqolada "Aminokislotalar" mavzusini o'qitishda "Assesment" usuli tatbig'i ifodalandi.

"Assesment" inglizcha "assessment" so'zidan olingan bo'lib, "baxo", "baxolash", ma'nolarini bildiradi. Assesment metodi talabalarning bilim, ko'nikma va malakalari darajasini xar tomonlama, xolis baxolash imkoniyatlarini ta'minlovchi topshiriqlar to'plami bo'lib, u biografik anketa, ta'lim soxasidagi yutuqlar bayoni, o'quv individual topshirig'i, baxs munozora, intervyu, ijodiy ish, test, individual keys, taqdimot, ekspert kuzatish, rolli xamda ishbilarmonlik o'yinlari kabilardan tashkil topadi. Bu metod asosan quyidagi uch maqsadga xizmat qiladi:

1) talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini xar tomonlama, xolis baxolash;

2) talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlagtirish imkoniyatlarini aniqlash;

3) talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan istiqbol reja (maqsadli dastur) ni shakllantirish.

Metodning qo'llanishi. "Assesment" metodi o'quv mashg'ulotlaining barcha turlarida (dars boshlanishida yoki dars oxirida yoki o'quv predmetining biron bir bo'limi tugallanganida) o'tilgan mavzuni o'zlashtirganlik darajasini baxolash, takrorlash, mustaxkamlash yoki oraliq va yakuniy nazorat o'tkazish uchun, shuningdek, yangi mavzuni boshlashdan oldin ta'lim oluvchilarning bilimlarini tekshrib olish, malaka oshirishga ketgan tinglovchilarning dastlabki bilimlarini, ko'nikma, malakalarini aniqlab olish uchun mo'ljallangan. Ushbu metodni mashg'ulot jarayonida yoki mashg'ulotning bir qismida xamda yakka tartibda qo'llash mumkin. Bu metoddan uyga vazifa berishda xam foydalanish mumkni. Bunda topshiriqlar shakli jadvaldagi ko'rinishda bo'lishi mumkni [3,4,5].

"Assesment" metodi bo'yicha topshiriqlar namunasi

Test. Tegishli fan bo'yicha o'tilgan (bo'lim, kurs) yuzasidan 1- 2 ta test beriladi.	Muammoli vaziyat. O'tilgan mavzu asosida aniq hayotiy xodisaga asoslangan muomma beriladi
Simptom. Mavzu bo'yicha ilmiy na-zariy fikrlar, g'oyalar, ta'riqlar, tugal-lanmagan fikr ko'rinishida beriladi, masalan:ta'rif bering....., ilmiy asoslang....., yoring..., va b.q.	Amaliy ko'nikma. O'tilgan mavzu mazmunini hayotga, ish faoliyatida qo'llanishdagi ko'nikmalarga tegishli topshiriqlar beriladi, masalan:....., chizing, xisoblang, to'ldiring, toping, solishtiring ... va boshqalar.

“Assesment” metodi bo‘yicha “Aminokislotalar” mavzusi bo‘yicha olingan bilimlarni baholash uchun topshiriqlar namunasi.

Test topshiriqlari:

1). 13,5 g aminosirka kislotasi massa ulushi 20 % bo‘lgan xlorid kislotaning necha gramm bilan reaksiyaga krishadi.

- A. 32,85 B. 33,5 C. 30 D. 33 E. 31,25

Yechish:

$$13,5 \text{ g} \dots\dots\dots X \text{ g}$$



$$75 \text{ g} \dots\dots\dots 36,5 \text{ g}$$

$$X = 13,5 \cdot 36,5 / 75 = 6,57 \text{ g}$$

b) m eritma (HCl) = 6,57 / 0,2 = 32,85 g

2. 1,5 mol 6-aminokapron kislotadan necha gramm kaprolaktam hosil bo‘ladi ?

- A. 169,5 B. 193,5 C. 113 D. 141 E. 282,5

Yechish :

$$1,5 \text{ mol} \dots\dots\dots x \text{ g}$$



$$1 \text{ mol} \dots\dots\dots 129 \text{ g}$$

$$X = 1,5 \cdot 129 = 193,5 \text{ g}$$

3). 2- aminopropion kislotadagi uglerod atomlarining oksidlanish darajalarini aniqlang.

- A. -4, +2, -2 B. -3,+1,-3 C. +2, -1, +3 D. +3,0,-3 Javob. D

4). 1,5 g glisin bilan NaOH nin 100 ml 0,2 M eritmasi o‘zoro tasirlashganda hosil bo‘lgan tuz massasin (g) toping.

- A. 2,8 B. 1,8 C. 2,24 D. 2,14 E. 1,94

Yechish:

a) $m(\text{NaOH}) = 0,2 \cdot 0,140 = 0,8 \text{ g}$

$$1,5 \text{ g} \dots\dots\dots 0,8 \text{ g} \qquad \qquad \qquad x \text{ g}$$



$$75 \text{ g} \dots\dots\dots 40 \text{ g} \qquad \qquad \qquad 97 \text{ g}$$

$n(\text{glisin}) = 1,5 / 75 = 0,02 \text{ mol} \qquad n(\text{NaOH}) = 0,8 / 40 = 0,02 \text{ mol}$

e) $m(\text{tuz}) = 0,02 \cdot 97 = 1,94 \text{ g}$

Simptom topshiriqlaridan namunalar:

№	Aminokislotalari	Aminokislotalarнинг formulalari va xususiyatlari
1	Aminokarbon kislotalarga misollar yozing	$\text{NH}_2\text{CH}_2\text{COOH}$, $\text{NH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{COOH}$, $\text{CH}_3\text{CH}(\text{NH}_2)\text{COOH}$, $\text{C}_6\text{H}_5\text{CH}_2\text{CH}(\text{NH}_2)\text{COOH}$, $\text{CH}_3\text{C}(\text{CH}_3)(\text{NH}_2)\text{COOH}$, $\text{NH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{COOH}$

2	Kislota va ishqorlar ta'sirida tuz hosil eting.	$\text{NH}_2\text{CH}_2\text{COOH} + \text{HCl} \rightarrow \text{HCl}\cdot\text{NH}_2\text{CH}_2\text{COOH}$ $\text{NH}_2\text{CH}_2\text{COOH} + \text{NaOH} \rightarrow \text{NH}_2\text{CH}_2\text{COONa} + \text{H}_2\text{O}$ $\text{NH}_2\text{CH}_2\text{COOH} + \text{HONO} \rightarrow \text{HOCH}_2\text{COOH} + \text{N}_2 + \text{H}_2\text{O}$ $\text{NH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{COOH} + \text{HONO} \rightarrow \text{HOCH}_2\text{CH}_2\text{COOH} + \text{N}_2 + \text{H}_2\text{O}$
3	C ₅ H ₁₁ NH ₂ kislotasi isomerlarini yozing	$\text{NH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{COOH}$ $\text{CH}_3\text{CH}(\text{NH}_2)\text{CH}_2\text{CH}_2\text{COOH}$ $\text{CH}_3\text{CH}_2\text{CH}(\text{NH}_2)\text{CH}_2\text{COOH}$ $\text{CH}_3\text{CH}_2\text{CH}_2\text{CH}(\text{NH}_2)\text{COOH}$ $\text{CH}_3\text{C}(\text{NH}_2)(\text{CH}_3)\text{CH}_2\text{COOH}$ $\text{CH}_3\text{CH}_2\text{CH}(\text{NH}_2)(\text{CH}_3)\text{COOH}$ $\text{CH}_3\text{CH}(\text{NH}_2)\text{CH}(\text{CH}_3)\text{COOH}$
4	Glisin va alaninni olish reaksiya tenglamasini yozing	$\text{ClCH}_2\text{COOH} + 2 \text{NH}_3 \rightarrow \text{NH}_2\text{CH}_2\text{COOH} + \text{NH}_4\text{Cl}$ $\text{BrCH}_2\text{CH}_2\text{COOH} + 2\text{NH}_3 \rightarrow \text{NH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{COOH} + \text{NH}_4\text{Br}$
5	Ichki kompleks tuz yoki xelat nima?	α-aminokislotalarning mis(II)- tuzlri bilan ta'sirlashganda xelat hosil bo'ladi. Unda mis (II)-kationi faqat karboksil guruh bilan emas, balki azot atomi bilan ham bog'-lanadi.

Muammoli vaziyat. Qanday aminokislotalar insonlar va xayvonlar organizmida sintezlanmaydi? Inson va xayvonlar organizmida sintezlanmaydigan 8 ta aminokislota mavjud, ular valin, izoleysin, leysin, treonin, metionin, lizin, fenilalanin, triptofanlardan iborat. Ularga bo'lgan ehtiyoj oziq-ovqat bilan etarli miqdorda ta'minlanadi. Ikkita aminokislota- arginin va histidin - shartli ravishda muhim deb xisoblanadi, ular inson tanasida oz miqdorda hosil bo'ladi, lekin inson bu aminokislotalarga bo'lgan ehtiyojning katta qismini oziq-ovqat manbalaridan qoplaydi. Tananing shakllanishi va faol o'sishi davrida bolalar va o'smirlar uchun zarur va muhim aminokislotalarni etarli miqdorda etkazib berish juda muxim. Hayvonlar oqsillari bu aminokislotalarga boy, ba'zi dukkakkililar, yong'oqlar, kunga boqar kabi o'simlik barcha aminokislotalarni to'liq ta'minlay oladi.

Amaliy ko'nikma (to'ldiring) jadvali. Formulasi keltirilgan aminokislotalarga xos belgilarini yozing.

Aminokislota	Agregat holati	Molekulyar massasi	Tabiatda tarqalishi
Glisin NH ₂ CH ₂ COOH	Kristal modda	75	Inson organizmida va ipak oqsili tarkibida uchraydi.
Alanin	Kristal modda	89	Ipak fibrionida

CH ₃ CH(NH ₂)COOH			uchraydi
Valin CH ₃ CH ₂ CH(NH ₂)COOH	Kristal modda	103	Kazein, gemog-lobin, va albumin, oillar tarkibida bo'-ladi.

Xulosa. "Aminokislotalar" mavzusini o'qitishda interfaol metodlarni qo'llash talaba yoki o'quvchining aminokislotalar haqidagi ma'lumotlarni oson o'rganishga imkon beradi. Interfaol metodlarni tatbiq etish uchun o'qituvchi kimyo fanini o'zlashtirgan, malaka va tajribaga ega bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E.A. Iskandarov, O.J. Suyunov Pedagogik texnologiyalar va ulardan ijti-moiy iqtisodiy fanlarni o'qitishda foydalanish (o'quv uslubiy qo'llanma), Samar-qand, 2012 yil, 160 bet
2. O'.M. Muxamedov, M.H. Usmanboeva, S.S. Rustamov Ta'limni tashkil etishda zamonoviy interfaol metodlar, Toshkent, 2016 yil, 43 bet
3. O.U. Avlaev, S.N. Jo'raeva, S.R. Mnrzaeva. "Ta'lim metodlari". O'kuv-uslubiy ko'llanma. Toshkent: - «Navro'z» nashriyo-ti. 2017 yil, 108 -109 bet.
4. K.K. Kultayev, X. Azimova. Organik kimyo fanida innovatsion texnolo-giyalardan foydalanish, European Journal of Business Social Sciences Voume O7 Issue 05 May 2019, 564-573 bet
5. Kultayev K. K. To'yingan uglevodorodlar mavzusiga interfaol usullarning tatbig'i. Mug'allim xem uzluksiz bulumlengupuy. 2/1- san, 2023, mart -aprel, Ilmiy metodik jurnal, Nukus, 92-98 bet

Shernazarov I.E.*

TALABALARGA KIMYO FANINI O'QITISHDA KOMPYUTER TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AVZALLIGI VA ISTIQBOLLAR.

Annatatsiya: Maqolada oliy ta'lim muassasalarida kimyo fanlarini o'qitishda axborot texnologiyalaridan (kompyuter texnologiyalari) foydalanish talabalarni bilim olishlari va ularni dars o'tish uchun olingan bilimlar asosida shakllangan ko'nikmalar va bu ko'nikmalarni rivojlantirish, malakalarini oshirishlari uchun asosiy vositalardan biri sifatida foydalanish zarurati ifoda etilgan.

Kalit so'zlar: OTM, KT, virtual laboratoriya, elektron ta'lim, vizual xotira

**ПРЕИМУЩЕСТВА И ПЕРСПЕКТИВЫ
ИСПОЛЬЗОВАНИЯ КОМПЬЮТЕРНЫХ
ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ СТУДЕНТОВ
ХИМИИ.**

**ADVANTAGES AND PROSPECTS OF USING
COMPUTER TECHNOLOGIES IN TEACHING
CHEMISTRY STUDENTS.**

Annatatsiya: В статье выражена необходимость использования информационных технологий (компьютерных технологий) при преподавании химии в высших учебных заведениях в качестве одного из основных средств обучения учащихся и использования ими навыков, сформированных на основе знаний, полученных для

Annotation: The article expresses the need to use information technology (computer technology) when teaching chemistry in higher educational institutions, as one of the main means of teaching students and using skills formed on the basis of knowledge gained for passing the lesson, and developing these skills,

* Shernazarov Iskandar Ergashovich - Nizomiy nomidagi TDPU p.f.d.DSc, professor v.b.

прохождения урока, и развития этих умений, improving their qualifications.
повышения их квалификации.

Ключевые слова: *ОТМ, СТ, виртуальная лаборатория, электронное обучение, визуальная память.* **Keywords:** *ATM, CT, virtual laboratory, e-learning, visual memory*

ОТМда kompyuter texnologiyalari elementlari pedagogik texnologiyalar usul va uslublarini amalga oshirish vositalaridan biri hisoblanadi. Talabalarga ta'lim berish, ularni intellektual qobiliyatini rivojlantirish va tarbiyalashda, o'ziga xos texnologiyani tanlab yondoshmasdan, eng samarali natijalarga erishish mumkin emas, bu faqat bitta texnologiyani qo'llash orqali amalga oshiriladi hamda buning natijasilari salbiy yoki ijobiy samaralari aniqlanadi. Barcha mavjud texnologiyalar elementlari, vositalar va usullarni qo'llashda muayyan, OTMlarga moslashtirilgan tizimli, murakkab bo'lmagan, talabani fikrlash qobiliyatidan kelib chiqqan holda qo'llanilsa, natijalarga erishishga imkon beradi [1].

Kimyo murakkab, lekin juda qiziqarli fan: uning tajribalari unutilmas, muammolarni hal qilish, tenglamalar tuzish qiyin ko'rinadi. Kimyoni o'rganish umumta'lim maktablarining 7-sinfidan boshlanadi, ya'ni o'quvchining intellektual qobiliyatini shakllantishi paydo bo'lada, lekin bungacha o'quvchi ma'lum bir kimyoviy bilimlarga tabiatshunoslik kursini o'qish mobaynida erishgan bo'ladi. O'quvchilarga esa imkoniyat berish va ularni jalb qilish kerak; ularni qo'llab-quvvatlash, o'zini himoya qilish va o'zini - o'zi bosqarishga imkon berish talab etiladi. Shu davrda ham o'quvchilarga kimyo faniga oid ma'lumotlarni shakllantirishda kompyuter texnologiyalari foydalanish kelajakda ularga kimyo faniga oid kompetensiyalarni rivojlantirish, ularni hayotiy ko'nikmalarini hamda savodxonligini oshirish juda oson kechadi [2]. Keyinchalik talabalar haqiqiy laboratoriya uskunalari va kimyoviy moddalar bilan ishlashdan zavqlanib, mavjud vositalar, texnikalar, texnologiyalarning mavjud arsenaliga qo'shimcha ravishda slaydlar va animatsiyalar nomoyishli tasvirlash tayyorlay olish qobiliyatlarini ham oshirishga sabab bo'ladi. Mashg'ulotni katta qiziqish, xilma-xillik, rang-baranglik, yodda qolarlik darajasida olib borilishini ta'minlashda kompyuter texnologiyalardan bemalol foydalanish ko'nikmalariga ega bo'ladilar [3].

Ma'lumki, XXI asr o'quvchilari - bu kompyuter texnologiyalari davri o'quvchilari, ular har qanday ma'lumotni o'qituvchidan oldin egallashga erishishi mumkin. Shuning uchun o'qituvchi - o'quvchi yoki talabaga nisbatan KT yo'nalishida bir qadam oldinda yurishi zamon talabiga mosdir. Demak professor - o'qituvchi darsda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali qo'yidagilarni amalga oshiriladi:

ta'lim resurslaridan foydalangan holda multimediya darslarini o'tkazish (multimedia texnologiyalari axborotni taqdim etishning bir necha usullarini

birlashtiradi: matn, harakatsiz tasvirlar, harakatlanuvchi tasvirlar va ovoz interaktiv mahsulotga Media vositalari sezilarli idrok barcha yo‘llarini faollashtirish orqali o‘quv materiallar boyitish imkonini beradi);

“virtual laboratoriya” dan foydalanish (olingan natijalarni batafsil tahlil qilish bilan bir nechta murakkab kimyoviy eksperimentlarni o‘tkazish texnologiyasi);

elektron ta‘lim testlarini qo‘llash (o‘quv testlarining tuzilishi o‘quvchiga amalga oshirilgan o‘quv harakatlariga muqobil muqobil to‘plamlarni izchil taqdim etishni nazarda tutadi, bu oxir-oqibatda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan ketmaketlikni yaratadi);

vazifalar, talaba o‘zi uchun o‘quv materialining muayyan darajasini shakllantiradi va ayni paytda uni o‘qituvchiga namoyish etadi;

test tayyorlash dasturlari yordamida test nazorati, shuningdek kimyo fanidan talabalar uchun onlayn test sinovi;

o‘z prezentatsiyalaringizni, videofilmlarni yaratish. Taqdimot materiallarini algoritmik tartibda joylashtirilgan yorqin va qo‘llab quvvatlovchi tasvirlar tizimi sifatida keng ishlatiladi. Ularni qo‘llash qulay, chunki u o‘qituvchining vaqtini chegaralaydi;

ta‘riflar, atamalarga e‘tibor berishga imkon beradi;

vizual xotirani rivojlantirgan talabalar uchun yorqin rasmlar, tasvirlar yanada esda qolarli, eslab qolish va fikrlash kengayadi [4-5].

Taqdimotdan foydalangan holda dars yanada tuzilgan bo‘lib, taqdimot uning asosiy qismi bo‘lib, unda fikrlashning mantiqi dars oxirida va eng muhimi, butun ishning natijasiga to‘g‘ri keladi. Kimyo bo‘yicha darsdan tashqari faoliyat axborot-kommunikatsiya texnologiyalarisiz ham amalga oshirilmaydi. Ulardan ba‘zilari quyidagilardir:

iqtidorli talabalarni masofaviy viktorinalar, tanlovlar, blits-turnirlarda ishtirok etish; talabalarning yakuniy attestatsiyasiga tayyorgarlik ko‘rish;

mavzu bo‘yicha loyiha faoliyati va h. k [6].

KT pedagogik tajribani umumlashtirish va tarqatish imkonini beradi. 2021-2022 o‘quv yillarda kimyo fanlari darslarida joriy etish juda rivojlandi. Ularni amalga oshirishda asosiy texnologiya-tizimli va faol yondashuvdir. Talabalarning yordami bilan mashg‘ulotlarni, auditoriyadan tashqari tadbirlarni, ularni o‘rnatishni va keyin namoyishni tashkil qilish mumkin bo‘ladi. Bu sizga foydalanilayotgan texnikaning haqiqiy ishini, talabalarning faoliyatini faollashtirish usullarini ko‘rish imkonini beradi. Aytish joizki, dastur komp’yuter texnologiyalari elementlari talabaga ko‘p miqdordagi materiallarni yetkazib berishda, yangi materiallar bilan boyitishda keng o‘rin egallaydi, ta‘lim jarayonini uzluksiz davom etishini ta‘minlaydi [7].

O'quv-tarbiya jarayoniga yangi axborot va kommunikativ vositalar joriy etilishi munosabati bilan o'quvchilar uchun kompyuter ta'lim texnologiyalari atamasi paydo bo'ldi. Bu atama bugungi kunda, u vositalari, usullari va ta'lim usullari tizimini qo'llash yaxlit ilmiy ishlab chiqilgan metodologiyasi aks ettiradi. Shu bilan birga, oliy ta'lim muassasalari talabalari va umumta'lim maktab o'quvchilarni o'qitish, rivojlantirish va o'qitishni samarali hal etish maqsadida o'quv-tarbiya jarayonida foydalanish uchun yuqoridagi tizimni yagona umumiy didaktik g'oya bilan birlashtiradigan ilmiy-uslubiy kontsepsiya asos bo'lib xizmat qiladi. OTMlarida kimyo fanlarini o'qitishda kompyuter texnologiyalari har bir ma'lumot uchun alohida holatda qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalarni amalga oshirish vositalaridan biri hisoblanadi [8].

Barcha mavjud pedagogik texnologiyalar, texnikalar va usullarni qo'llashda muayyan oliy ta'lim muassasalarida o'rgatiladigan fanlarga moslashtirilgan tizimli, murakkab, moslashtirilgan yondashuv muayyan talabaga o'quv jarayonida yaxshi natijalarga erishishga imkon beradi.

Kimyo fanini o'qitish jarayonida yangi axborot va kompyuter texnologiyalarini qo'llash oddiy an'anaviy o'qitish tizimiga nisbatan o'quv jarayonining tubdan o'zgarishiga, talaba-o'quvchilarni kimyo faniga bo'lgan qiziqishlarini oshishiga, ularni ilm olishga, olgan bilimlari darajasini kengaytirilishiga sabab bo'lmoqda [9].

Zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalari juda keng imkoniyatli ta'lim tizimi hisoblanadi. Bunga kompyuter tarmoqlari, internet, elektron ta'lim resurslari:

elektron darslik, elektron o'quv qo'llanma, virtual stendlar, multimediya vositalari, axborot tizimlarini boshqarish, axborotlarni uzatish kabilar kiradi.

Kimyo fanini o'qitish jarayoniga zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalarini qo'llash o'qituvchi uchun haddan tashqari imkoniyatlar eshigini ochib beradi. Bunday vositalar yordamida dars jarayoni tashkil qilinsa, talabalar diqqatini ko'proq jalb qilinadi, vaqtdan yutiladi va ta'lim sifati yaxshilanadi. Buning natijasida olingan nazariy bilimlari mustahkamlanadi, talabalarning bilim olish saviyasi oshiriladi.

Axborot texnologiyalari vositasi yordamida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish natijasida masofaviy o'qish imkoniyati ham tug'iladi. Internet tarmog'i yordamida masofaviy ta'lim olish mukammal ravishda takomillashib bormoqda. Bu imkoniyat yordamida talabalar kimyo fanidan faqatgina darsliklar doirasida emas, balki, dunyo bo'yicha kimyo faniga oid yangiliklardan baxramand bo'lishlari mumkin [9-10].

Kompyuter texnikasi vositasida internet tarmog'idan foydalanib – yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash, ularning malakasini oshirishni yo'lga

qo'yishni, ilmiy-texnik va o'quv-metodik yangiliklarning so'nggi yutuqlaridan foydalanish imkoniyati yaratiladi.

Mamlakatimizda har tomonlama yetuk va barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish, ularni dunyo standartlariga javob bera oladigan mutaxassis kadr bo'lib yetishuvini ta'minlash oliy o'quv yurtlari professor o'qituvchilari oldiga o'z kasbiga nisbatan nihoyatda mas'uliyatli yondashuvni talab qiladi. Mana shular professor-o'qituvchilarning o'z ustlarida ishlashni, kam vaqt sarflab, ko'p ma'lumot berish yo'llarini izlab topishni taqozo etadi [10].

Shunday qilib, dastur axborot-kommunikatsiya texnologiyalari elementlari o'qituvchiga yordam berishda, yangi materiallar bilan boyitishda davom etmoqda ta'lim jarayoni boshqa texnologiyalar bilan birgalikda samaralidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Michael Seery. Technology enhanced learning in the chemistry classroom.: Paper Presented to [International Conference on Initiatives in Chemistry Teacher Training, Limerick IT](#), November 2013.

2. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti: Avtoref. ped. fan. dokt. dis. – T.: 2007. – 38 b.

3. Лихачев В. Н. Компьютерные модели в школьном курсе химии.: Автореферат. дис. канд. пед. наук. – Москва: - 2003. -18 с.

4. Lutfillaev M.H. Oliy ta'lim o'quv jarayonini takomillashtirishda axborot texnologiyalarini integrasiyalash nazariyasi va amaliyoti (Informatika va tabiiy fanlar misolida): Ped .fan. dokt. dis. -Samarqand, 2004. -211 b.

5. Shernazarov I.E. “Axborot kommunikasiya va pedagogik texnologiyani integrasiyasida organik kimyo fanini o'qitish metodikasi takomillashtirish”// Elektron qo'llanma. O'zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligi № DGU 05835. 05.12.2018

6. Shernazarov I.E. Improving the methodology of teaching organic chemistry in the integration of information and pedagogical technologies// International conference on Eurasian studies.-Georgia, 10 october 2018,-p 164-172

7. Shernazarov I.E. Use of pedagogical, information and communication technologies, as well as interactive teaching methods in consolidating of organic chemistry lessons// Austrian Journal of Technical and Natural Sciences, - Vienna №11-12, 2018 November-December – p 66-69

8. Shernazarov I.E. Akademik litseylarda “Organik kimyo” kursida “Uglevodorodlar” mavzusidagi laboratoriya ishlarini axborot kommunikasiya va pedagogik texnologiyalar yordamida o'qitish// O'z MU xabarlarini № 1/4/1, 2018 y. 383-386 b

9. Shernazarov I.E. Akademik litseylarda “Organik kimyo” kursidan “To'yingan uglevodorodlar” mavzusini axborot texnologiyalarni joriy etib o'qitish// O'z MU xabarlarini № 3/1, 2018 y. 552-557 b

10. Shernazarov I.E., Abduqodirov A.A. Methodology of information technology information of ifodalization of components in organic chemistry course// Asian journal of multidimensional research. - India, Vol 7, 2018, september, - p 425-432

Temirov N.O., Yo'ldosheva S.R *

(Toshkent, O'zbekiston)

KIMYO TA'LIMIDA INTEGRATIV YONDASHUVNING AHAMIYATI

Annotatsiya: *Kimyoni o'qitishda integrativ yondashuvni amalga oshirish fanga oid kompetensiyalarni takomillashtirish orqali, bo'lajak kimyo o'qituvchilarini kimyoviy bilimlarni va dunyoqarashini shakllantirishning o'rni keltirib o'tilgan.*

Kalit so'zi: *Integrativ yondashuv, kimyo ta'lim, ichki integrativ yondashuv, tashqi integrativ yondashuv, o'quvchi, ta'lim tizimi.*

ВАЖНОСТЬ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА В ХИМИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация: *Отмечена роль реализаcиu интегративного подхода в обучении химии путем совершенствования естественнонаучных компетенций, формирования химических знаний и мировоззрения будущих учителей химии.*

Ключевые слова: *Интегративный подход, химическое образование, внутренний интегративный подход, внешний интегративный подход, студент, образовательная система.*

IMPORTANCE OF INTEGRATIVE APPROACH IN CHEMISTRY EDUCATION

Annotation: *The role of implementing an integrative approach in teaching chemistry by improving the competences related to science, forming chemical knowledge and worldview of future chemistry teachers is highlighted.*

Keywords: *Integrative approach, chemistry education, internal integrative approach, external integrative approach, student, educational system.*

Bugungi kunda qabul qilingan ustuvor vazifalar davlat boshqaruvi tizimini bugungi va ertangi kun talablaridan kelib chiqib, yanada takomillashtirishni taqozo qiladi. Bu borada 2022-2026-yillarga mo'ljallangan, O'zbekiston Respublikasida ma'muriy boshqaruv sohasidagi islohatlar konsepsiyasi tuzildi. Ushbu konsepsiyaga muvofiq, davlat boshqaruvi organlari tuzilmasini, vazifa va vakolatlarni optimallashtirish, davlatning iqtisodiy boshqarishdagi rolini keskin kamaytirish bo'yicha aniq tadbirlar amalga oshiriladi [1].

O'quvchilarning kimyoviy dunyoqarashini rivojlantirishning usullaridan biri, bu dars mashg'ulotlarida har bir integrativ yondashuv asosida mavzuni o'qitish jarayonida kimyo fanini o'rganishga qiziqishlarini oshirishga erishiladi.

Integrativ yondashuvni kimyo ta'limida amalga oshirishni ichki integrativ yondashuv va tashqi integrativ yondashuv orqali amalga oshirish mumkin[8] (1-jadval).

Shunday ekan o'quvchilarning kimyoviy tafakkurini kengaytirishda integrativ yondashuvning nechog'lik beqiyos ekanligi e'tirof etgan holda har bir talabani tabiiy fanlarga bo'lgan qiziqishini orttirish hozirgi kun pedagogining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Tabiiy fanlar jumlasiga kiruvchi biologiya, kimyo va fizika fanlarining jadal rivojlanishi, ular o'rtasida integrallashgan fanlarning vujudga kelishi uzluksiz ta'lim

***Temirov Nurali Orifjonovich** – Nizomiy nomidagi TDPU Kimyo va uni o'qitish metodikasi kafedrasida dotsenti v.b., PhD.;

Yo'ldosheva Sitara Rahimjon qizi- Nizomiy nomidagi TDPU Kimyo ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi.

tizimi turlarida o'qitiladigan biologiya o'quv fani mazmunini ham integrallashni taqozo etmoqda.

1-jadval



Buning uchun o'qituvchilar yuqorida qayd etilgan fanlarning rivojidadagi so'nggi yutuqlar, ularning fan va texnika, xalq xo'jaligi va inson hayotidagi ahamiyatini anglashi, ularni o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari, bilim zaxiralariga monand holda didaktik qayta ishlashi va mavzularning mazmuniga kiritish yo'llarini belgilashi lozim[2].

Kimyo fanini o'qitishda tabiiy fanlarni integrallash, ya'ni integrativ yondashuvning amalga oshirish ta'lim-tarbiya jarayonining muhim didaktik sharti bo'lib, u quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. O'quvchilar uchun asosiy bilim manbai bo'lgan o'quv materialining ilmiyligi va izchilligi, boshqa tabiiy fanlardan o'zlashtirilgan tushunchalarning didaktik bog'liqligini ta'minlaydi.

2. O'quvchilar tomonidan bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish ortadi va aqliy rivojlanish tezlashadi.

3. Tabiiy fanlarni integrallash, ya'ni o'qitishda integrativ yondashuvning bosqichma bosqich va izchil amalga oshirish orqali o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirishga imkon yaratadi[3].

Integrativ yondashuvning o'qitishdagi mohiyati va ahamiyati:

-turdosh fanlar chegarasida yangi fanlarning tashkil topishi;

-turli fan sohalaridan bilimlarni majmuaviy qo'llash orqali ilmiy bilishning yangi usullarini yaratish;

- o'quvchilarning ekologik tarbiyalanishida, o'quvchilarda ta'lim jarayonida ilmiy dunyoqarashning shakllantirilishida, ularni mehnatga tayyorlashda, asosiy kasbiy tanlashga tayyorgarlik jarayonida kasb-hunar muassasasining tutgan o'rni oishishi;
- o'quvchilar zo'riqishini kamaytirish muammosining hal qilinishi[4].

Integrativ yondashuvni amalga oshirish bo'yicha pedagoglar faoliyatining asosiy yo'nalishlari:

-bir o'quv fani boshqasining o'rganishi uchun "Zamin" tayyorlaydigan o'quv fanlarini o'qitishning vaqti bo'yicha moslashtirilishi;

-umumiy tushunchalar shakllantirishda, qonunlar va nazariyalarni o'rganishda izchillikni ta'minlaydi[5];

-umumiy tushunchalar, qonunlar va nazariyalarni talqin qilishda ularning yagonaligini, ularni o'zlashtirishga o'quvchilarning yagonaligini ta'minlash;

- o'quvchilarda o'quv mehnatining umumiy malakasi va ko'nikmalarin shakllantirishdagi, ularni rivojlantirishdagi izchilligidagi, umumiy yondashuvlarni ta'minlash;

-turdosh fanlarni o'rganishda o'quvchilar olgan bilimlarini faol qo'llash va chuqurlashtirish uchun sharoitlarni yaratish;

-turli o'quv fanlarini o'rganadigan har-xil tUSDagi hodisalarning o'zaro aloqalarini yoritish;

-turli o'quv fanlarida qo'llaniladigan tadqiq qilishning usullari umumiyiligini ko'rsatish (kuzatish, tajriba, nazariy taxlil va h.k.);

-turli o'quv fanlarida o'quvchilar olgan bilimlarini majmuaviy qo'llashni talab qiluvchi mashqlar tizimini ishlab chiqish, o'quvchilarning ularni bajarishlarini tashkil qilish;

-turli o'quv fanlarini o'rganishda bir xil muammolar va masalalarning bir necha bor tarkrorlanishini bartaraf etadi[6];

-o'quvchilar turli o'quv fanlarini o'rganishda olgan bilimlarini hal qilinadigan o'quv mashg'ulotlarining majmuaviy shakllarini ishlab chiqish[7].

Ta'lim tizimida kimyo fanida integrativ yondashuv fanga oid kompetensiyalar takomillashtirish orqali bo'lajak kimyo o'qituvchilarini kimyoviy bilimlarni va dunyoqarashini shakllantiradi. Bu esa ta'lim tizimida integrativ yondashuvdan foydalanishning o'ziga xos istiqbolli va samarali xususiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60 sonli Farmoni.
2. Ergashovich S. I., Orifjonovich T. N. Clear and Natural in Teaching Higher Education Institution Students on the Basis of the International Stem Education Program Characteristics of Integration of Sciences //JournalNX. – T. 6. – №. 12. – C. 234-237.

3. Temirov N. Improvement of technologies of professional skill development of teachers of higher educational institutions based on an innovative approach //Science and Innovation. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 464-469.

4. Temirov N. Innovatsion ёндашув асосида олий таълим муассасалари ўқитувчиларини касбий маҳоратини ривожлантириш технологияларини такомиллаштириш //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. B5. – С. 464-469.

5. Orifjonovich T. N. The importance of improving science competencies through interdiscipline integration //Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. – 2021. – Т. 1. – №. 1.5 Pedagogical sciences.

6. Темиров Н. О., Миркомиллов Ш. М., Алимова Ф. А. К вопросу об обучении прикладном значении металлов //ВВС 94 Z 40. – С. 46.

7. Temirov N. O. Development of Competence in Chemistry on the Basis of an Integrative Approach //Telematique. – 2023. – Т. 22. – №. 01. – С. 2875-2883.

8. Temirov N.O. Umumiy kimyoni o'qitishda fanlararo integratsiya orqali fanga oid kompetensiyalarni shakllanishi. //ЎзМу хабарлари журнали.–Тошкент.–2021.–1/4-сон.–Б. 176-179. (13.00.00 №15)

9. Темиров Н.О. Кимё фанини узлуксизлигини таъминлаш мақсадида бўлажак ўқитувчиларини интегратив ёндашув асосида фанга оид компетенциясини такомиллаштириш. //Узлуксиз таълим журнали.–Тошкент.–2021.–3-сон.–Б. 47-51. (13.00.00 №9)

10. Темиров Н.О. Умумий кимё фанидан фанлараро интегрatsиясидан фойдаланиб ўтказилган педагогик эксперимент натижалари. // International multidisciplinary scientific conference on the engineering&technology.–Egypt 2021. В. 220-223.

Temirov N.O.*

(Toshkent, O'zbekiston)

KIMYO TA'LIMIDA INTEGRATIV YONDASHUVNING O'RNI

Annatsiya: *Ta'lim tizimida kimyo fanini mavzularini tushuntirishda, integrativ yondashuvdan foydalanib mavzuni to'liq yoritib berish hamda o'quvchilar va bo'lajak kimyo fani o'qituvchilarni kimyoviy bilimlarini oshirishga xizmat qilishi ta'kidlab o'tilgan.*

Kalit so'zi: *bo'lajak kimyo o'qituvchilari, fanlararo integrativ yondashuv, diffuziya, o'quvchilar, Xalqaro baholash(PISA) dasturlari. kimyo, biologiya.*

РОЛЬ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА В ХИМИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация: *В системе образования подчеркивается, что при объяснении тем химии с использованием интегративного подхода тема будет раскрыта в полной мере и послужит совершенствованию химических знаний учащихся и будущих учителей химии.*

Ключевые слова: *будущие учителя химии, междисциплинарный интегративный подход, диффузия, студенты, программы международной оценки (PISA). химия, биология.*

ROLE OF INTEGRATIVE APPROACH IN CHEMISTRY EDUCATION

Abstract: *In the educational system, it is emphasized that in explaining the topics of chemistry, using an integrative approach, the topic will be fully covered and it will serve to improve the chemical knowledge of students and future teachers of chemistry.*

Keywords: *future chemistry teachers, interdisciplinary integrative approach, diffusion, students, International Assessment (PISA) programs. chemistry, biology.*

Bugungi kunda qabul qilingan ustuvor vazifalar davlat boshqaruvi tizimini bugungi va ertangi kun talablaridan kelib chiqib, yanada takomillashtirishni taqozo

***Temirov Nurali Orifjonovich** – Nizomiy nomidagi TDPU Kimyo va uni o'qitish metodikasi kafedrasida dotsenti v.b., PhD.

qiladi. Bu borada 2022-2026-yillarga mo'ljallangan, O'zbekiston Respublikasida ma'muriy boshqaruv sohasidagi islohatlar konsepsiyasi tuzildi. Ushbu konsepsiyaga muvofiq, davlat boshqaruvi organlari tuzilmasini, vazifa va vakolatlarni optimallashtirish, davlatning iqtisodiy boshqarishdagi rolini keskin kamaytirish bo'yicha aniq tadbirlar amalga oshiriladi [1].

Shu bois uzluksiz ta'lim tarkibiy qismi bo'lgan *umumiy o'rta ta'lim tizimida* kimyo fanini mavzularini tushuntirishda tabiiy va aniq fanlar bilan integratsiyasidan foydalanish o'quvchilarni kimyoviy bilimlarini oshirishga xizmat qiladi. Shunday ekan *oliy ta'lim tizimida* bo'lajak kimyo o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida ta'limning uzluksizligini ta'minlash maqsadida, ularga fanlararo integratsiya orqali bosqichma-bosqich tushuntirish kerak bo'ladi. Masalan: 7-sinf kimyo kursida o'quvchilariga diffuziya hodisasini ta'rifi berilgan (Bir modda molekulalari boshqa modda molekulalari orasida tarqalishi mumkin va bu hodisa *diffuziya* deb ataladi.) va molekulalar doimo harakatda bo'lishini Broun mikroskopda suyuqlikdagi mayda qattiq zarrachalarning harakatini kuzatganligi va ular uzluksiz harakat qilishini aniqlagani haqida ma'lumot berilgan.

Umumta'limning 7-sinf kimyo kursida "Suv eng yaxshi erituvchi. Eruvchanlik", "Eritmalar" mavzusida dengiz va okeanlarda tuzlar erishi, eruvchanlik, to'yingan va to'yinmagan eritmalar bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Bu jarayon diffuziya hodisasi ekanligi yuzasidan, ma'lumotlar keltirilmagan. 8-sinf kimyo kursida "Elektrolitlar va noelektrolitlar", "Elektrolitik dissotsiatsiya nazariyasi", "Kislota, ishqorlar va tuzlarning dissotsiatsiya" mavzularida diffuziya hodisasi yuz beradi, bu jarayonni integrativ yondashuv asosida (biologiya, fizika fanlari bilan) yoritilmagan[2]. 9-sinfning kimyo darslarida mavzularni tushuntirish jarayonida diffuziya hodisasiga asoslangan jarayonlar berilgan, lekin diffuziya hodisasi asosida ma'lumotlar tushuntirilmagan.

Umumta'lim maktablarida kimyo kursida o'quvchilarga diffuziya hodisasini tushuntirishda biologik va fizik jarayonlardan foydalanish o'quvchilarda tayanch kompetensiyasini takomillashtiradi. Diffuziya hodisasiga doir uzluksizlikni ta'minlash maqsadida bo'lajak kimyo o'qituvchilar uchun dars jarayonida tushuntirishlari lozim bo'lgan tushunchalarni keltirib o'tamiz.

Diffuziya (lotincha diffuziya-tarqalish, sochilish) hodisasi kimyo o'quv fanini o'rganish uchun muhim hisoblanadi va bu hodisani, tabiiy va aniq fanlar bilan integrativ yondashuv asosida tushuntirish o'quvchi va bo'lajak kimyo o'qituvchilariga kimyoviy bilimlarni chuqur o'rganishga xizmat qiladi. Masalan: Biologiya fanini mavzularini o'rganishda, insonlar, o'simlik va hayvonlar dunyosida diffuziyani ahamiyati juda katta. O'simliklar hayotidagi ildizning tuproqdan suv va

unda erigan mineral moddalarning yutilishini diffuziya hodisasiga misol qilishimiz mumkin[3].

Diffuziya hodisasini fizika fanidan o‘rin olgan “Molekulyar-kinetika nazariya”, “Diffuziya”, “Bor harakati” va “Aerodinamika” mavzularini o‘rganishda muhim tushunchalardan sanaladi.

Diffuziya hodisasi gazlarda tezroq, suyuqlikda sekinroq, qattiq jismlarda juda sekin boradi. Diffuziyaning borish tezligi temperturaga ham bog‘liq. Temperatura ortishi bilan diffuziya tezlashadi, temperatura pasayishi bilan diffuziya sekinlashadi. Diffuziya hodisasi tabiatda muhim rol o‘ynaydi. Masalan: diffuziya hodisasi tufayli havoga sanoat korxonalaridan chiqqan zaharli gazlar tarqalib ketadi.

Nafas chiqarganda chiqqan karbonat angidrid gazi ham burun atrofiga to‘planib qolmaydi. Sabzavotlarni tuzlash ham diffuziya hodisasiga asoslangan.

Diffuziya hodisasini integrativ yondashuv asosida tushuntirib bo‘lgandan so‘ng, bo‘lajak kimyo o‘qituvchilariga topshiriq beriladi, ya‘ni kelajakda pedagogik faoliyatida o‘quvchilarga tushuntirishda va ularga amaliy mashg‘ulotlarda bajarishlari lozim bo‘lgan kompetensiyalarni shakllantirishi uchun. Masalan: Suyuqlikda diffuziya hodisasini o‘rganish (Uyga vazifa sifatida bajariladi).

Kerakli asboblari: ikkita stakan, KMnO_4 kristallari.

Ishni bajarish tartibi.

1. Birinchi stakanga sovuq suv quyib sovutkichga joylashtiring. Ikkinchisiga ham suv quyib, issiqroq joydagi shkafga qo‘ying.
2. Stakanlardagi suvni chayqatib yubormasdan ularga KMnO_4 kristallarini soling.
3. Bir kunda ikki mahal stakanlardagi suvning qizarishini kuzating va yuqori tomonga necha millimetr ko‘tarilganini aniqlang.
4. Kuzatishlar natijasiga ko‘ra diffuziyaning borish tezligini hisoblang. bunda, h -diffuziya natijasida qizil ranga bo‘yalib qolgan suyuqlik balandligi, t - vaqt.
5. Kuzatishlar to‘g‘risida xulosalar yozing.

Yuqoridagi kabi tushunchalarni uzluksiz ta‘lim tizimining barcha bosqichlarida integrativ yondoshuv asosida kimyoni o‘qitish jarayonida qo‘llanilishi natijasida bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarida fanga oid kompetensiyalar shakllanadi. Shakllangan kompetensiya negizida integrativ yondashuv asosida bo‘lajak kimyo o‘qituvchilariga quyidagilar rivojlanadi va pedagoglik faoliyati davomida shakllangan kompetensiyani qo‘llay oladi:

➤ integrativ yondashuv o‘quvchilarda mavzuni faqat yodlashdan bosqichma-bosqich voz kechishiga yordam beradi hamda olingan bilimlarni kundalik turmush bilan bog‘lash imkoni yaratiladi;

➤ xalqaro baholash (PISA) dasturlari asosida savol va topshiriqlarni tuzish, baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi hamda kimyo fani balki boshqa fanlarga bo‘lgan qiziqish ortishiga va bilimlarni shakllanishiga erishadi.

Bo‘lajak kimyo o‘qituvchilari olingan bilimlar asosida umumta’lim maktablarida o‘zining pedagogik faoliyati davomida qo‘llashi natijasida o‘quvchilarida quyidagilar shakllanadi:

➤ o‘quvchilar mavzuni yodlashdan bosqichma-bosqich voz kechish va shu asosida olingan bilimlarni kundalik turmush bilan bog‘lash:

➤ o‘quvchilarda fanlararo integrativ yondoshuv asosida o‘quvchilar nafaqat kimyo fani balki boshqa fanlarga bo‘lgan qiziqish ortadi:

➤ o‘quvchilarda xalqaro baholash (PISA) dasturlari asosida savol va topshiriqlarni bajarishga imkoniyat yaratadi hamda boshqa fanlarda qo‘llash ko‘nikmasi shakllanadi;

➤ o‘quvchilar kimyoviy tushunchalarni hayotida yuz berayotgan voqealar bilan bog‘lashni o‘rganadi va bilimlar mustahkamlana boshlanadi;

➤ olingan bilimlarini kundalik hayotga qo‘llashga undaydi, o‘zini-o‘zi nazorat qilishni o‘rganadi, integrativ yondashuvdan foydalanish o‘quvchilarda kimyoviy bilim, ko‘nikma va malakalarni oshadi[4].

Xulosa o‘rnida quyidagilarni ta’kidlash mumkinki, uzluksiz ta’lim tizimida umumiy kimyo fanida fanga oid kompetensiyalar takomillashtirish orqali bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarini kimyoviy bilimlarni va dunyoqarashini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60 sonli Farmoni.
2. Orifjonovich T. N. The importance of improving science competencies through interdiscipline integration //Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. – 2021. – T. 1. – №. 1.5 Pedagogical sciences.
3. Temirov N.O. Umumiy kimyoni o‘qitishda fanlararo integratsiya orqali fanga oid kompetensiyalarni shakllanishi. //ЎзМу хабарлари журнали.–Тошкент.-2021.-1/4-сон.-Б. 176-179.
4. Темиров Н.О. Кимё фанини узлуксизлигини таъминлаш мақсадида бўлажак ўқитувчиларини интегратив ёндашув асосида фанга оид компетенциясини такомиллаштириш. //Узлуксиз таълим журнали.–Тошкент.-2021.-3-сон.-Б. 47-51.

Sapayeva G.I., Urunbayeva A.A.*

(Toshkent, O'zbekiston)

KIMYONI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA VA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA VOSITALARINING DIDAKTIK FUNKSIYALARI

Annotatsiya: Mamlakatimizda va xorijda uzuluksiz ta'limning yanada takomillashtirish ishlari olib borilmoqda. Asosan ta'lim tizimida axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, o'qitishni tashkil qilishda innovatsion yondashishni rivojlantiruvchi va barcha ta'lim jarayonlarini modernizatsiyalash kuchi sifatida qaralmoqda.

Kalit so'zlar: ta'lim, axborot, kommunikatsiya, texnologiya, innovatsiya, ta'lim, jarayon, modernizatsiya.

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ФУНКЦИИ ИНФОРМАЦИОННО- КОММУНИКАЦИОННЫХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ СРЕДСТВ, ИСПОЛЪЗУЕМЫХ В ОБУЧЕНИИ ХИМИИ.

Аннотация: Дальнейшее совершенствование непрерывного образования осуществляется в нашей стране и за рубежом. В связи с этим использование информационно-коммуникативных технологий рассматривается как сила, развивающая инновационный подход к организации образования и модернизирующая все образовательные процессы.

Ключевые слова: зарубежье, образование, информатсия, коммуникатсия, технологии, инноватсия, образование, процесс, модернизатсия.

DIDACTIC FUNCTIONS OF INFORMATION-COMMUNICATION AND PEDAGOGICAL TECHNOLOGY TOOLS USED IN TEACHING CHEMISTRY.

Abstract: Further improvement of continuous education is being carried out in our country and abroad. In this regard, the use of information and communication technologies is considered as a force that develops an innovative approach to the organization of education and modernizes all educational processes.

Key words: abroad, education, information, communication, technology, innovation, education, process, modernization.

Zamonaviy ta'lim tizimining joriy etilishi, o'quv jarayoniga axborot texnologiyalari yutuqlarini tadbiq qilish bilan chambarchas bog'liq. Bu ayniqsa axborot va telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan o'qitishning yangi shakl va vositalariga taalluqlidir. Bular qatoriga elektron ta'lim beruvchi vositalarni faol qo'llashni taqozo etadigan elektron o'qitishni kiritishimiz mumkin. Shu bois bugun bo'lajak o'qituvchilarga faqatgina tayyor elektron qo'llanmalardan foydalanishni o'rgatish bilan cheklanib qolmay, balki ularning yangi ko'rinishlarini yaratish usullari, yo'llari va vositalarini o'rgatish ham muhim tadbirlardan hisoblanadi.

Mamlakatimizda va xorijda uzuluksiz ta'limning yanada takomillashtirish ishlari olib borilmoqda. Bunda axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, o'qitishni tashkil qilishda innovatsion yondashishni rivojlantiruvchi va barcha ta'lim jarayonlarini modernizatsiya qilish kuchi sifatida qaralmoqda. Hozirgi kungacha elektron qo'llanmalardan foydalanish metodikalari bo'yicha o'zbek tilida bajarilgan ishlar yetarli bo'lmaganligidan ba'zi ishlab chiqilgan elektron

*Sapayeva Gulzor – Nizomiy nomidagi TDPU Kimyo va uni o'qitish metodikasi kafedrasini o'qituvchisi;
Urunbayeva Akmerjan- Nizomiy nomidagi TDPU Kimyo ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi.

qo'llanmalarda ham animatsiyalar kam, ko'p mavzular matn shaklida berilgan. Mavzudagi ob'ektlar ko'p hollarda rasmlar holda keltirilgan. Kimyo fanini o'qitishda talabalarda tasavvurni rivojlantirish muhim hisoblanadi. Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmasdan, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiya vaqt taqsimotiga muvofiq dasturlanib, ilmiy jihatdan asoslangan hamda kutilgan natijaga erishishni ta'minlovchi pedagogik jarayonning barcha bosqich va qismlarining vazifalari aniq belgilangan tizim.


Zamonaviy pedagogik texnologiya boshqa sohalardagi texnologik jarayonlar bilan uzluksiz bog'lanib an'anaviy o'quv jarayoniga, uning samarasini oshirishga ta'sir ko'rsatishning yangi imkoniyatlarini egallab oladi. Zamonaviy ta'lim turlari o'ziga xos o'qitish xususiyatiga ega bo'lib, har bir texnologiya alohida-alohida ko'rib chiqiladi. Yuqoridagilarga asoslangan holda shuni aytish mumkinki, ta'lim muassasalarida yangi pedagogik texnologiyalar, zamonaviy o'qitish uslublaridan foydalanib, jahon talablari darajasida talaba va o'quvchilarni o'qitish mumkin. Ta'lim jarayoni-o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi ma'lum maqsadlar asosida belgilangan bilim va ko'nikmalarni tarkib toptirishga yo'naltirilgan o'zaro ta'sirlashuv jarayonidir. Ta'lim jarayoni nihoyatda murakkab va ko'p komponentlidir. Ta'lim samaradorligi pedagog va talaba-o'quvchining faolliligiga, ta'lim vositalarining mavjudligiga, ta'lim jarayonining tashkiliy, ilmiy-metodik mukammalligiga. jamiyatda ilmi kishilarga bo'lgan ehtiyojga va boshqa hali aniqlanmagan ko'pgina omillarga bog'liq.

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda ya'ni o'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib kelmoqda. Ta'lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi. Ta'lim mazmunini o'zlashtirishda talabalarining bilim saviyasi, o'zlashtirish qobiliyati, ta'lim manbai, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda og'zaki, ko'rgazmali va amaliy kabi uch guruhga bo'linadigan metodlarning quyidagi variantlari qo'llaniladi:

-o'qitishning ma'ruza (suhbat) metodi;

-o'qitishning amaliy ishlar metodi;

- laboratoriya ishlari metodi;-mustaqil ishlar metodi;
- muammoli-evristik modellashtirish metodi;-ilmiy-tadqiqot metodlari;
- o'qitishning muammoli-izlanish va reproduktiv metodi;
- o'qitishning induktiv va deduktiv metodi;
- o'qitishning nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish metodi.



1-rasm. Nazoratning o'zaro bog'langan asosiy didaktik vazifalari.

Barcha o'quv predmetlar qatoriga kimyo fani asosida puxta va samarali o'zlashtirishda zamonaviy ped texnologiyalardan foydalanishning o'rne katta. O'quvchilarning berilgan mavzular mazmunini tushunishi, unda aks etgan kimyoviy tushunchalar, qonunlar, ayrim moddalar misolida daliliy ma'lumotlarni o'zlashtirishda o'qitish metodlari yordamida amalga oshiriladi. Bularning barchasi talab darajasida bo'lishi uchun bugungi kunda kimyo ta'limida ham zamonaviy ped texnologiyalardan foydalanish yaxshi samara beradi. Xususan, anorganik kimyo darslarining o'qitilishida zamonaviy ped texnologiyalaridan foydalanish, o'quvchilar uchun darsning tushunarlik darajasini oshirmoqda. Buning natijasida o'quvchilarning bilim olish salohiyati o'smoqda.

Kimyo fani mazmuni yuqorida qayd etilganidek, mikroolamning o'ziga xos xususiyatlari, ya'ni kimyoviy moddalarning tuzilishi, tirik organizm va tabiatda uchrashi, olinishi, kimyoviy moddalarning xossalari, ular o'rtasidagi jarayonlarni talabalarga bevosita kuzatish imkoniyati bo'lmaydi, mazkur jarayonlarni vizual holatga aylantirish ko'zlangan natijani beradi. Jumladan:

talabalarda kimyoviy moddalarning tuzilishi, olinishi va xossalari, ular o'rtasida boradigan reaksiyalari haqida tasavvur hosil qilish, abstraksiyalash va xotirada saqlash imkonini beradi;

talabalarning motivlari va o'zlashtirish darajasini e'tiborga olgan holda zarur hollarda takroran o'rganish va talabalarning bilimidagi bo'shliqlarni to'ldirish imkonini beradi;

kimyoviy jarayonlarni animatsiyalar tarzida virtuellashtirish talabalarning ko'rgazmali-obrazli fikr yuritishi va o'quv materialini to'liq o'zlashtirishga zamin tayyorlaydi;

kimyo darsida animatsiyalardan foydalanish darsning barcha bosqichlarida talabalarning bilish jarayonini faollashtirishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sapayeva G.I. Oliy ta'lim muassasalarida "Analitik kimyo" fanini o'qitishda axborot - kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish// "Zamonaviy ta'lim" ilmiy-uslubiy jurnal" №10 (119). 2022. -B 32-38. (13.00.00; № 9)
2. Sapayeva G.I. "Axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalar integratsiyasida talabalarga Analitik kimyo fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish". Elektron o'quv qo'llanma. – № DGU 23675. 2023 yil.
3. Sapayeva G.I. Kimyo o'qitishning umumiy metodlari va ularning turlari// "Ilm-fan muammolari magistrantlar talqinida" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. 2024. -B 130-134.
4. Smanova Z., Sapayeva G.I. Zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar asosida analitik kimyo fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish//"Kimyo fanini o'qitishning istiqbollari kecha, bugun, ertaga" Respublika ilmiy- amaliy konferensiyasi. 2023. -B 171-173.
5. Shernazarov I. E., Sapaeva G. I., Smanova Z.A. Using the concepts of analytical chemistry based on the integration of information communication and pedagogical technologies in formation of natural scientific literacy of students// Eurasian journal of academic research. Innovative Academy Research Support Center. 2023, – Pp. 50-64. (UIF № 43, SJIF № 23)
6. Ibodullyeva M. I., Sobirova N., Sapayeva G. The use of test tasks in the study of analytical chemistry // "Modern achievements of natural sciences and innovations in teaching". 2021. – Pp. 174-177

Alimova F.A., Sodiqova U.B.*

(Toshkent, O'zbekiston)

O'QUVCHILARDA 4K KO'NIKMALARINI HAMKORLIKDA ISHLASH TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANGAN HOLDA SHAKILLANTIRISH

Annotatsiya: Ushu maqolada o'quvchilarda 4K ko'nikmalarini mustaqil fikrlash, ijod etish, hamkorlikda ishlash va muloqot ko'nikmalarini rivojlantiruvchi interfaol metodlar orqali shakillantirishga qaratilgan topshiriqlar berilgan.

Kalit so'zlar: hamkorlik, 4K, insert, fizik va kimyoviy o'zgarishlar.

ФОРМИРОВАНИЕ НАВЫКОВ 4К У УЧАЩИХСЯ С ПОМОЩЬЮ ТЕХНОЛОГИИ СОВМЕСТНОЙ РАБОТЫ

Аннотация: В этой статье даны задания, направленные на формирование у учащихся навыков 4К с помощью интерактивных методов, которые развивают навыки самостоятельного мышления, творчества, совместной работы и

SHAPING 4K SKILLS IN STUDENTS USING COLLABORATIVE PERFORMANCE TECHNOLOGY

Abstract: This article provides tasks aimed at shaping 4K skills in students through interactive techniques that develop independent thinking, creativity, collaborative work, and communication skills.

Key words: collaboration, 4K, insert, physical

* **Alimova Farzona Abdukamalovna**– Toshkent davlat pedagogika universiteti pedagogika fanlari doktori, professor

Sodiqova Umidaxon Baxtiyor qizi- Toshkent davlat pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi

Ключевые слова: сотрудничество, 4К, вставка, физические и химические изменения.

Kimyo darslarida kollaboratsiya - o'zaro manfaatli hamkorlik bo'lib, unda bir nechta o'quvchilar qandaydir loyiha yoki faoliyatda kerakli natijaga erishish uchun birlashadilar. 7-sinf kimyo darsligida berilgan loyiha ishlarini bajarishda aynan kollaboratsiya asosida darslarni tashkil etish o'quvchilarni bir jamoa bo'lib ishlashga, fikrlashga, olingan natijalarni birgalikda tahlil qilishga va kimyo fani bo'yicha ko'nikmalarini amaliyotda qo'llay olishlariga katta yordam beradi. Kollaboraya barcha sohalarda uchraydi jumladan ta'limda ham. Hamkorlikda o'qitish texnologiyalari - pedagogik jarayonni takomillashtirish va uni o'quvchi shaxsiga yo'naltirishga asoslangan. Bu texnologiyalar ijodkor shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan ijodiy muhitni yaratish, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Hamkorlik ta'limining mohiyati - o'qituvchi va o'quvchilarning ta'lim jarayonida birgalikda ishlashlari, bir- irlarini chuqur tushuna olishlari, bir-birlariga nisbatan yaqinlikni his qilishlari, ta'lim maqsadiga erishganlik natijalarini hamkorlikda tahlil qilishidan iborat [2].

7-sinf o'quvchilarida "Fizik va kimyoviy o'zgarishlar" mavzusini o'tishda "insert" metodi hamkorlikda ishlashni shakllantirishda yaxshi samara beradi. Bu metod o'quvchilarda kundalik hayotda ro'y berayotgan jarayonlarni kuzatishlari, taqqoslashlari va xulosa qilishlari, ushbu jarayonlar orqali qanday o'zgarish sodir bo'layotganini anglab olishlariga xizmat qiladi [3].

"Ha" - bilganlarimni tasdiqlaydi, **" +"** - yangi ma'lumot, **" -"** - bilganlarimga zid **" ?"** - meni o'ylantirib qo'ydi belgilaridan foydalaniladi.

Ha	+	-	?
"ha" O'qiganlaringizdan aniq bilgan yoki bilaman deb o'ylagan ma'lumot	"musbat" o'qiganlaringiz orasida siz uchun yangi bo'lgan ma'lumot	"manfiy" o'qiganlaringiz, bilganlaringizga qarama-qarashi ma'lumot	"savol" o'qiganlaringizdan siz uchun tushunarli bo'lmagan yoki shu haqda ko'proq narsa bilishni istagan ma'lumot

1-topshiriq.Quyida berilgan jarayonlarni o'qing va 1-jadvaldagidek joylashtirib chiqing: oltingugurt suyuqlanganda yangi modda hosil bo'lmaydi, shishaning maydalanishi fizik jarayon, ohak suvda eritilganda yangi moddalar hosil bo'ladi, uzum sharbatining bijg'ishi najitasida yangi moddalar hosil bo'ladi, qatiq iviganda yangi moddaga aylanadi, temirning xlolanganda yangi moddaga aylanadi, temir magnitga tortilganda uning xossalari o'zgaradi, sut achiganda uning tarkibi o'zgaradi, muz erib yana suvga aylanadi, shakar suvda eriganda yangi modda hosil bo'ladi,

brom agregat holatiga ko‘ra hajmga ega lekin shaklga ega emas, qo‘rg‘oshin issiqlik ta’sira suyuqlanadi, mis esa qorayadi[1].

1-jadval

Ha	+	-	?
qog‘ozning yonishi kimyoviy,uning bo‘laklarga bo‘lish esa fizik jarayon	suv muzlaganda uning agregat holati o‘zgaradi xolos	yodning sublimatsiyalanishi kimyoviy jarayon	yog‘ va suv sovuqda qotadi ammo benzin qotmaydi

2-topshiriq. Quyidagi jarayonlarni fizik va kimyoviy hodisalarga ajrating

Jarayonlar	Fizik hodisa	Kimyoviy hodisa
Temirning zanglashi		+
Tuzning erishi		
Sutning achishi		
Qatiqning ivishi		
Mis simning qorayishi		
Uzum sharbatining bijg‘ishi		
Temirning magnitga tortilishi		
Oltinugurtning suyuqlanishi		
Oltinugurtning yonishi		
Shakarning ko‘mirlanishi		
Yodning sublimatsiyalanishi		

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Asqarov I.,Gpirov K.,Azamatova D.-7-sinf kimyo darsligi 2022-yil.26-bet
2. Tolipova J. O. Pedagogik texnologiyalar – do‘stona muhit yaratish omili. Toshkent: UNICEFning O‘zbekistondagi vakolatxonasi, 2005. 128 b.
3. Xotamov I.S., Olimov M.K., Madrahimova G.R., Foziljonov I.S.. Kreativ fikrlash. O‘quv qo‘llanma – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti. - T.: “Iqtisodiyot”, 2021 y. 188 b.

Ибрагимова Т.В.*

(Грозный, Россия)

**МАГИСТЕРСКОЕ ОБУЧЕНИЕ УЧИТЕЛЯ ХИМИИ В УСЛОВИЯХ СОПРЯЖЕНИЯ НЕСКОЛЬКИХ
КВАЛИФИКАЦИЙ ПО ОДНОМУ УРОВНЮ: МАГИСТРАТУРА-МАГИСТРАТУРА**

Аннотация статьи: В данной статье рассматривается программа магистратуры, по результатам освоения которой выпускнику присваиваются 2 квалификации. Освещены условия для проектирования такой образовательной программы. Представленная образовательная программа с 2 квалификациями может использоваться образовательными организациями высшего образования при проектировании образовательных программ с целью повышения конкурентоспособности и привлекательности для абитуриентов.

Ключевые слова: образование, химия, образовательная программа, магистратура

**BOSHQA BIR BOSHQA BIR BIR BOSHQA
MALAKALIKLARNI BOGLANISH
SHARTLARIDA KIMYO FANNI
O'QITUVCHILARINING MAGISTRATSIYA
TA'YORI: MAGISTRATSIYA DAVOLATI BIR**

**MASTER'S DEGREE TRAINING OF A
CHEMISTRY TEACHER IN THE CONDITIONS OF
CONJUGATION OF SEVERAL QUALIFICATIONS
AT ONE LEVEL: MASTER'S DEGREE-MASTER'S
DEGREE**

Annotatsiya: Ushbu maqolada magistratura dasturi muhokama qilinadi, uning natijalariga ko'ra bitiruvchiga 2 ta malaka beriladi. Bunday ta'lim dasturini ishlab chiqish shartlari ta'kidlangan. Taqdim etilgan 2 ta malakaga ega ta'lim dasturidan oliy ta'lim muassasalari tomonidan abituriyentlar uchun raqobatbardoshlik va jozibadorlikni oshirish maqsadida ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Kalit so'zlar: ta'lim, kimyo, ta'lim dasturi, magistratura.

Abstract of the article: This article examines the master's program, upon completion of which the graduate is awarded 2 qualifications. The conditions for designing such an educational program are highlighted. The presented educational program with 2 qualifications can be used by higher education organizations when designing educational programs in order to increase competitiveness and attractiveness for applicants.

Keywords: education, chemistry, educational program, master's program.

Присвоение выпускнику сразу двух квалификаций - один из эффективных механизмов взаимодействия вузов с реальным сектором, который разработан Минобрнауки России в рамках поручения Президента Российской Федерации Владимира Путина.

В ФГБОУ ВО «Чеченский государственный педагогический университет» запустили новую программу магистратуры по направлению подготовки 44.04.01 профиль «Методические системы и технологии в предметном обучении (химии и биологии)». По магистратуре предусматривается возможность одновременного получения обучающимися двух квалификаций – 44.04.01 Педагогическое образование, (Педагог) и 44.04.04 Профессиональное обучение (по отраслям) (Руководитель образовательной организацией).

Возможность получения дополнительной квалификации регулируется Федеральным законом «Об образовании в Российской Федерации», где говорится о возможности одновременного получения обучающимися

* **Ibragimova Taisa Vohidovna** – Chechen davlat pedagogika universiteti kimyo va kimyo o'qitish metodikasi kafedrasini mudiri

нескольких квалификаций п. 14 Порядка организации и осуществления образовательной деятельности по образовательным программам высшего образования – программам бакалавриата, программам специалитета, программам магистратуры, вступивший в силу с 1 сентября 2022 года.

Новая магистерская программа предоставляет уникальную возможность учителям химии и биологии получить диплом с двумя квалификациями.

Структура и содержание основной образовательной программы отвечает требованиям федерального государственного образовательного стандарта высшего образования (ФГОС ВО).

Образовательная программа высшего образования, реализуемая в ФГБОУ ВО «Чеченский государственный педагогический университет» по направлению подготовки 44.04.01 Педагогическое образование, 44.04.04 Профессиональное обучение (по отраслям), профиль «Методические системы и технологии в предметном обучении (химии и биологии)», квалификация «магистр», представляет собой систему документов, разработанную и утвержденную Университетом с учетом потребностей регионального рынка труда, требований федеральных органов исполнительной власти и соответствующих отраслевых требований на основе федерального государственного образовательного стандарта высшего образования по направлению подготовки 44.04.01 Педагогическое образование и 44.04.04 Профессиональное обучение (по отраслям) и учетом Методических рекомендаций по разработке и реализации образовательных программ высшего образования, предусматривающих возможность одновременного получения обучающимися нескольких квалификаций (Министерство науки и высшего образования Российской Федерации, от 21.07.2023 г. №МН-5/2645-ДА), в рамках разъяснений о применении отдельных норм Федерального закона от 29 декабря 2012 г. № 273-ФЗ «Об образовании в Российской Федерации» с учетом изменений, внесенных Федеральным законом от 26 мая 2021 г. № 144-ФЗ.

ОП ВО по направлению подготовки 44.04.01 Педагогическое образование, 44.04.04 Профессиональное обучение (по отраслям) (уровень магистратуры), профиль «Методические системы и технологии в предметном обучении (химии и биологии)» имеет своей целью формирование у обучающихся совокупности универсальных, общепрофессиональных и профессиональных компетенций, которая должна обеспечивать выпускнику способность осуществлять профессиональную деятельность в сфере профессиональной деятельности 01 Образование и наука и решать задачи профессиональной деятельности следующих типов, установленных ФГОС ВО: педагогический, организационно-управленческий, научно-исследовательский.

Область профессиональной деятельности и сферы профессиональной деятельности в которых выпускники, освоившие программу, могут осуществлять профессиональную деятельность: 01 Образование и наука (в сферах: дошкольного, начального общего, основного общего, среднего общего образования, профессионального обучения, профессионального образования, дополнительного образования; научных исследований).

Мы живем в среде с растущей конкуренцией. Получить вместо одной профессии две - хорошее карьерное преимущество.

Список литература

1. Преподаватель высшей школы в современном образовательном пространстве: монография / Е. В. Красильникова, А. В. Тюлина, А. А. Кольцова [и др.]. — Тверь: Тверская ГСХА, 2018. — 158 с. — ISBN 978-5-91488-150-1. — Текст: электронный // Лань: электронно-библиотечная система. — URL: <https://e.lanbook.com/book/134116> (дата обращения: 11.07.2024). — Режим доступа: для авториз. пользователей.» (Преподаватель высшей школы в современном образовательном пространстве: монография / Е. В. Красильникова, А. В. Тюлина, А. А. Кольцова [и др.]. — Тверь: Тверская ГСХА, 2018. — ISBN 978-5-91488-150-1. — Текст: электронный // Лань: электронно-библиотечная система. — URL: <https://e.lanbook.com/book/134116>).

2. Полябин, С. В. Модели основных профессиональных образовательных программ высшего образования: учебно-методическое пособие / С. В. Полябин, Г. В. Кондратов, В. В. Степанишин. — Москва: МГАВМиБ им. К.И. Скрябина, 2021. — 113 с. — Текст: электронный // Лань: электронно-библиотечная система. — URL: <https://e.lanbook.com/book/196253> (дата обращения: 11.07.2024). — Режим доступа: для авториз. пользователей.» (Полябин, С. В. Модели основных профессиональных образовательных программ высшего образования : учебно-методическое пособие / С. В. Полябин, Г. В. Кондратов, В. В. Степанишин. — Москва: МГАВМиБ им. К.И. Скрябина, 2021. — 113 с. — Текст: электронный // Лань: электронно-библиотечная система. — URL: <https://e.lanbook.com/book/196253>).

3. Полябин, С. В. Модели программ дополнительного и дополнительного профессионального образования: учебно-методическое пособие / С. В. Полябин, Г. В. Кондратов, В. В. Степанишин. — Москва: МГАВМиБ им. К.И. Скрябина, 2023. — 49 с. — Текст: электронный // Лань: электронно-библиотечная система. — URL: <https://e.lanbook.com/book/392876> (дата обращения: 11.07.2024). — Режим доступа: для авториз. пользователей.» (Полябин, С. В. Модели программ дополнительного и дополнительного профессионального образования: учебно-методическое пособие / С. В. Полябин, Г. В. Кондратов, В. В. Степанишин. — Москва: МГАВМиБ им. К.И. Скрябина, 2023. — 49 с. — Текст: электронный // Лань: электронно-библиотечная система. — URL: <https://e.lanbook.com/book/392876>).

4. Примерные основные образовательные программы по направлениям подготовки УГСН 44.00.00 «Образование и педагогические науки» (бакалавриат): учебно-методическое пособие / под общей редакцией Л. А. Трубиной. — Москва: МПГУ, [б. г.]. — Том 1 — 2019. — 188 с. — ISBN 978-5-4263-0725-4. — Текст: электронный // Лань: электронно-библиотечная система. — URL: <https://e.lanbook.com/book/125142> (дата обращения: 11.07.2024). — Режим доступа: для авториз. пользователей.» (Примерные основные образовательные программы по направлениям подготовки УГСН 44.00.00 «Образование и педагогические науки» (бакалавриат) : учебно-методическое пособие / под общей редакцией Л. А. Трубиной. — Москва: МПГУ, [б. г.]. — Том 1 — 2019. — ISBN 978-5-4263-0725-4. —

Текст: электронный // Лань : электронно-библиотечная система. — URL: <https://e.lanbook.com/book/125142>.

5. Буторина, А. Н. Проектирование образовательных программ подготовки педагога: современные вызовы: монография: монография / А. Н. Буторина; под редакцией О. Е. Постниковой, Е. Н. Старостиной. — Архангельск: САФУ, 2018. — 109 с. — ISBN 978-5-261-01285-6. — Текст: электронный // Лань: электронно-библиотечная система. — URL: <https://e.lanbook.com/book/161777> (дата обращения: 11.07.2024). — Режим доступа: для авториз. пользователей.» (Буторина, А. Н. Проектирование образовательных программ подготовки педагога: современные вызовы: монография: монография / А. Н. Буторина; под редакцией О. Е. Постниковой, Е. Н. Старостиной. — Архангельск: САФУ, 2018. — ISBN 978-5-261-01285-6. — Текст: электронный // Лань: электронно-библиотечная система. — URL: <https://e.lanbook.com/book/161777>).

6. Коблева, А. Л. Развитие человеческого капитала в сфере образования: учебное пособие для вузов / А. Л. Коблева. — Москва: Издательство Юрайт, 2024. — 153 с. — (Высшее образование). — ISBN 978-5-534-13791-0. — Текст: электронный // Образовательная платформа Юрайт [сайт]. — URL: <https://urait.ru/bcode/544004>.

7. Образовательный процесс в профессиональном образовании: учебное пособие для вузов / В. И. Блинов [и др.]; под общей редакцией В. И. Блинова. — Москва: Издательство Юрайт, 2024. — 314 с. — (Высшее образование). — ISBN 978-5-534-00080-1. — Текст: электронный // Образовательная платформа Юрайт [сайт]. — URL: <https://urait.ru/bcode/539108>.

Эльмурзаева Р.А.*

(Грозный, Россия)

АНАЛИТИКА ПОТРЕБНОСТИ В УЧИТЕЛЯХ ХИМИИ И БИОЛОГИИ В СИСТЕМЕ ОБЩЕГО ОБРАЗОВАНИЯ ЧЕЧЕНСКОЙ РЕСПУБЛИКИ

Аннотация статьи: В статье представлен аналитический отчет о потребности в педагогических кадрах Чеченской республики.

Ключевые слова: образование, химия, биология, образовательная система, педагогические кадры, Чеченская республика..

ANALITIKA CHECHEN RESPUBLIKASI UMUMIY TA'LIM TIZIMINING KIMYO VA BIOLOGIYA O'QITUVCHILARIGA ENTIYOJLAR

Anonatsiya: Maqolada Checheniston Respublikasida pedagogik kadrlarga bo'lgan ehtiyoj to'g'risida tahliliy hisobot taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, kimyo, biologiya, ta'lim tizimi, o'qituvchilar tarkibi, Checheniston Respublikasi

ANALYTICS NEEDS FOR CHEMISTRY AND BIOLOGY TEACHERS IN THE GENERAL EDUCATION SYSTEM OF THE CHECHEN REPUBLIC

Abstract of the article: The article presents an analytical report on the need for teaching staff in the Chechen Republic.

Keywords: education, chemistry, biology, educational system, teaching staff, Chechen Republic.

Стратегией социально-экономического развития Чеченской Республики до 2035 года повышение качества системы образования отнесено к ориентирам внутренних преобразований Чеченской Республики.

* Эльмурзаева Румиса Абуязитовна – Проректор по образовательной деятельности ФГБОУ ВО «Чеченский государственный педагогический университет»

В частности, заявлено, что несмотря на спрос на рабочие места в Чеченской Республике, низкая производительность труда является одним из основных препятствий для интенсивного роста региональной экономики. Существенным образом на данное обстоятельство влияет недостаток квалифицированных кадров, что свидетельствует о слабости системы профессионального образования разного уровня. Нехватка учителей приводит к снижению качества образования. Для решения обозначенных проблем наряду с внедрением передовых производственных технологий и высокоэффективного оборудования необходимо решать вопросы повышения качества системы образования.

Министерство образования и науки Чеченской Республики является органом исполнительной власти Чеченской Республики, осуществляющим государственное управление и переданные государственные полномочия Российской Федерации в сфере образования Чеченской Республики.

Численность государственных и муниципальных общеобразовательных организаций республики - 496 единиц на общую численность 299 852 учащихся.

Численность педагогических работников составляет 25 949 чел., средняя заработная плата педагогических работников составляет 28 525 руб.

Количество государственных учреждений среднего профессионального образования - 20, в них: студентов - 22 060 чел., преподавателей - 1 312 человек. Количество учреждений высшего профессионального образования - 4, в них студентов – 33 395 чел., преподавателей – 1 189 чел. (включая совместителей).

Количество частных общеобразовательных организаций - 52, в них учащихся - 6 706 чел.

Министерство образования и науки Чеченской Республики реализует государственную программу Чеченской Республики «Развитие образования Чеченской Республики на 2020-2024 годы», в которую вошли 10 подпрограмм, в том числе подпрограммы «Развитие системы среднего профессионального образования Чеченской Республики», «Обеспечение реализации программы в сфере дошкольного образования»; «Развитие системы дошкольного образования Чеченской Республики».

Образование как вид деятельности входит в топ видов деятельности, вносящих основной вклад в объем ВРП Чеченской Республики (11,8%) и объявлено в республике приоритетным социальным сектором для развития с целью подготовки кадров, способных сделать экономику Чеченской Республики конкурентоспособной и интегрированной в международное

сообщество с одновременным сохранением этнического и национального своеобразия.

В качестве цели развития системы образования ЧР определена подготовка кадров, способных сделать экономику Чеченской Республики конкурентоспособной и интегрированной в международное сообщество с одновременным сохранением этнического и национального своеобразия.

Среди задач по направлению «Образование» в Чеченской Республике заявлены, в частности:

- обеспечение доступности дошкольного образования;
- поддержка непрерывности образования;
- создание условий для обеспечения преемственности в системе "дошкольное образование - школа - вуз - дополнительное профессиональное образование";
- обеспечение уровня образования, гарантирующего трудоустройство;
- обеспечение подготовки высококвалифицированных специалистов для народного хозяйства Чеченской Республики;
- интеграция общего и дополнительного образования, доступность профессионального образования.

Для реализации целей Стратегии социально-экономического развития Чеченской Республики до 2035 года сектор «Образование» разделен на два подсектора – «Общее образование» и «Профессиональное образование».

Подсектор «Общее образование» по состоянию на сентябрь 2019 года включает в себя дошкольное образование (всего 455 ДОУ, в том числе 37 государственных, 395 муниципальных и 23 частных), общее образование (всего 531 общеобразовательная организация (из них 15 начальных, 45 основных, 414 средних, 5 коррекционных, 2 вечерние и 50 частных), дополнительное образование детей (67 учреждений дополнительного образования).

Подсектор «Профессиональное образование» включает в себя среднее профессиональное образование (государственные и частные организации), высшее образование (представлено тремя федеральными государственными бюджетными образовательными организациями, включая ЧГПУ).

Кадровая потребность в Чеченской Республике формируется на основе двух факторов:

- потребность в кадрах, связанная с созданием дополнительных рабочих мест в республике;
- потребность в кадрах, связанная с уходом занятого населения с рынка труда республики.

Оценка первой составляющей является выражением количества рабочих мест, создаваемых на территории региона ежегодно.

Показатель потребности региона в кадрах, связанной с выбытием занятого населения с рынка труда, отражает количество работников, которые, освобождая рабочее место, покидают рынок труда региона. Первая причина, по которой происходит такое выбытие, — это перемещение работника за пределы региона на постоянное место жительства и работы.

Другая причина заключается в том, что занятый работник перестает быть трудоспособным (выход на пенсию и прекращение трудовой деятельности, смерть в трудоспособном возрасте, состояние здоровья, несовместимое с осуществлением трудовой деятельности).

По данным Росстата на 2019 год численность детей в возрасте 0-7 лет по Чеченской Республике составила 214 388 человек, в том числе в возрасте 3-7 лет -124 255 человек.

Коэффициент рождаемости в Чеченской Республике - один из самых высоких в Северо-Кавказском федеральном округе и составил к 2023 году 2,9 при суммарном показателе по стране 1,5. К 2024 году в республике в сфере образования занято 86,5 трудового населения.

Динамика развития демографической ситуации в республике диктует необходимость создания новых дошкольных образовательных учреждений. К 2020 году в Чеченской Республике создано 15 840 дополнительных мест в дошкольных учреждениях. К 2022 году в республике введены в эксплуатацию еще 39 детских садов, а дефицит ученических мест по Чеченской Республике составил 87522 единицы.

В Чеченской Республике быстрыми темпами идет строительство и ввод в эксплуатацию новых образовательных организаций (детских садов и школ).


Соответственно, возрастает потребность в кадрах для системы дошкольного образования и общеобразовательных организаций республики. В республике постоянно создаются рабочие места. По данным Министерства экономики и территориального развития ЧР прогнозируемое значение новых рабочих мест составляет 11 единиц. Потребность в профессиональных кадрах по УГСН 44.00.00

Образование и педагогические науки на среднесрочную и долгосрочную перспективу составляет:

- **Первый прогнозный год – 512;**
- **Второй прогнозный год – 437;**
- **Третий прогнозный год – 370.**

Складывающаяся благоприятная демографическая картина определяет потребность региона в педагогических кадрах. Анализ вакансий в школах республики за последние 5 лет показывает рост востребованности учителей и других работников в системе общего образования.

График 1. Потребность в педагогических работниках по Чеченской Республике



В горных муниципальных территориальных образованиях (Ачхой-Мартановский район, Веденский район, Шаройский район, Курчалоевский район, Ножай-Юртовский район) функционируют малокомплектные школы. В них востребованы педагогические работники, которые могут обучать по разным предметам, выполнять различные трудовые функции. Складывающаяся картина социально-экономического развития республики указывает на востребованность педагогических работников в системе общего образования. В таблице 1 отражена кадровая потребность в школах Чеченской Республики за последние 5 лет:

Таблица 1. Потребность педагогических работников по муниципальным территориальным образованиям

№	Муниципальный район	Количество вакансий педагогических работников				
		2020г.	2021г.	2022г.	2023г.	2024г.
1	г. Аргун	0	14	16	15	27
2	Ачхой-Мартановский район	16	17	21	45	34
3	Веденский район	11	9	13	23	30
4	г. Грозный	28	88	70	101	89
5	Грозненский район	10	1	2	24	25
6	Гудермесский район	18	9	19	21	19

7	Итум-Калинский район	5	2	8	2	2
8	Курчалоевский район	0	1	1	3	3
9	Надтеречный район	6	15	15	16	14
10	Наурский район	8	5	6	14	15
11	Ножай-Юртовский район	12	4	11	22	6
12	Сунженский/Серноводский район	4	0	0	3	3
13	Урус-Мартановский район	16	7	8	11	10
14	Шалинский район	4	0	64	14	14
15	Шатойский район	13	0	3	2	1
16	Шаройский район	2	2	0	2	2
17	Шелковской район	61	6	20	48	53
	Специальные (коррекционные) школы	-	2	17	22	22
	Всего	215	190	245	393	373


Кадровая потребность школ республики неоднородна. На диаграмме 1 показано процентное соотношение дефицита педагогических работников по муниципальным образованиям.

Диаграмма 1. Соотношение востребованности педагогических кадров в муниципальных территориальных образованиях



Сопоставительный анализ вакансий, представленных на официальном сайте Министерства образования и науки Чеченской Республики, указывает на достаточно высокую востребованность педагогических работников в школах муниципальных районов и городов республики (график 1).

График 2. Сопоставительный анализ востребованности педагогических работников в течение последних трех лет (с 2022 по 2024 годы)



На графике 2 отражены пиковые значения востребованности педагогических работников в некоторых муниципальных образованиях. Среди них: Ачхой-Мартановский район, г. Грозный, Шалинский район, Шелковской район.

На основе анализа востребованности педагогических работников (графики 3-20) в муниципальных районах можно выделить административные образования, в школах которых наблюдается некоторая устойчивая тенденция нехватки педагогических кадров.

Среди них:


- Ачхой-Мартановский район;
- Веденский район;
- г. Грозный;
- Грозненский район,
- Гудермесский район;
- Надтеречный район;
- Наурский район;
- Шелковской район;
- специальные (коррекционные) школы Чеченской Республики.

В высокогорных административно-территориальных образованиях, таких, как Итум-Калинский район, Шаройский район, Шатойский район, а также в гористой части Ачхой-Мартановского, Курчалоевского и Ножай-Юртовского районов располагается значительная часть малокомплектных школ.

В таких школах наиболее остро ощущается дефицит одного или двух педагогов. Именно этим объясняются пики на графиках 8, 9, 16 и 17.

Кадровая потребность в педагогических работниках в малокомплектных школах в 2024 году отражена на диаграмме 2.

Диаграмма 2. Кадровая потребность в малокомплектных школах




Общая потребность в педагогических кадрах в муниципальных образованиях в 2024 году отображена в таблице 2.

Таблица 2. Соотношение потребности в педагогических кадрах по муниципальным образованиям Чеченской Республики

Муниципальное образование	Доля потребности педагогических работников
г. Аргун	7%
Ачхой-Мартановский район	9%
Веденский район	8%
г. Грозный	24%
Грозненский район	6,7%
Гудермесский район	5%
Итум-Калинский район	0,5%
Курчалоевский район	0,8%
Надтеречный район	3,8%
Наурский район	4%
Ножай-Юртовский район	1,6%
Серноводский район	0,8%
Урус-Мартановский район	2,7%
Шалинский район	3,8%
Шатойский район	0,3%
Шаройский район	0,5%
Шелковской район	14%
Специальные (коррекционные) школы	5,9%

На диаграмме 3 представлена долевое соотношение потребности педагогических работников в 2024 году в муниципальных образованиях Чеченской Республики.

Диаграмма 3. Соотношение потребности в педагогических кадрах по муниципальным образованиям Чеченской Республики



В ходе изучения проблемы кадровой потребности в Чеченской Республике проводился анализ востребованности педагогов-предметников. Анализ проводился по показателям, выявленным к марту 2024 года.

По результатам исследования востребовано 257 учителей. В таблице 3 представлено количество востребованных учителей-предметников по муниципальным районам.

По итогам анализа установлено, что наиболее востребованы филологи (русский язык и литература, чеченский язык и литература, английский язык), учителя математики и естественных наук. Об этом свидетельствует соотношение доли востребованных педагогов-предметников к общему количеству потребности в педагогических кадрах, представленное на диаграмме 4.


Таблица 3. Количество педагогов-предметников, востребованных в муниципальных районах республики.

Муниципальный район	Русский яз. и лит-ра	Англ. язык	Чечен. яз. и лит-ра	Матем.	Физика	Химия	Биология	История	Обществ.	Нач. классы	Музыка	ИЗО	Физ-ра	ОБЖ	Географ.	Технол.	Информ-ка
г. Аргун	2	2		7			1	1	1								1
Ачхой-Маргановский район	5	3		4	4	3	1	1			2	1	1		1		
Веденский район	4			4	4	4	1	1		2							
г. Грозный	5	2	7	10	3	3	4	5	2	3	1	1	1	1		1	
Грозненский район	2	2		4		1	1	1	1	1			1	1			
Гудермесский район	4	2	1	6	2	1	1								1		1
Итум-Калинский район						1											
Курчалоевский район	1					1	1										
Надтеречный район	3	1		1	2	1	2	2	1						1		
Наурский район	3	2	2	3				1							1		
Ножай-Юртовский	5	4		5	3	1	1			3							

район																	
Серноводский район	1			1						1							
Урус-Мартановский район			1	2	2												
Шалинский район	3	2		1		1		1					1		1		
Шатойский район		1		1													
Шаройский район					2												
Шелковской район	4	14	2	2	6	4	1	1		2			2				

Диаграмма 4. Соотношение доли востребованных педагогов-предметников к общему количеству потребности в педагогических кадрах в республике.

Кадровая потребность может меняться с каждым годом. Для выявления наиболее общих тенденций в потребности учителей-предметников проводился анализ изменения количества востребованных педагогов за последние 4 года, с 2021 по 2024 годы.



Выводы

1. В школах республики наиболее востребованы учителя русского языка и литературы, английского языка, математики, физики, химии, биологии.

2. Ожидается, что в среднесрочной и долгосрочной перспективе до 2030 года число обучающихся общеобразовательных школ в ЧР вырастет, соответственно, будет расти ежегодная дополнительная потребность в педагогических работниках.

Список литературы

1. Отчет о результатах самообследования ФГБОУ ВО «Чеченский государственный педагогический университет» за 2023 год (протокол Ученого совета №8 от 26 марта 2024 года).

2. Письмо Минпросвещения России от 07.11.2023г. № Ф3-1546/08 «О направлении обновленной редакции методических рекомендаций» (Ядро ВПО).

3. Программа развития Федерального государственного бюджетного образовательного учреждения высшего образования «Чеченский государственный педагогический университет» на 2023 – 2025 годы (протокол Ученого совета №2 от 22 сентября 2023 года, утв. 2 апреля 2024 года Заместителем Министра просвещения РФ Т.В. Васильевой).

4. Стратегия социально-экономического развития Чеченской Республики до 2035 года (утв. Распоряжением Правительства Чеченской республики от 04.03.2021 года №145).

Iskandarov A.Yu., Kuchkarov M.A.*

(Toshkent, O'zbekiston)

KIMYO TA'LIMIDA MODDA MIQDORI TUSHUNCHASI ASOSIDA MAVZULARARO VERTIKAL INTEGRATSIYANI TAMINLASH

Annotatsiya: *Mazkur maqolada kimyo ta'limida masalalar yechish davomida modda miqdori tushunchasining tutgan o'rni, u orqali genetik bog'lanishlarni bajarish imkoniyatlari tahliliy bayon etilgan. Unda modda miqdori tushunchasining mavzulararo integratsiyani ta'minlashdagi markaziy pozitsiyani egallashi asoslangan.*

Kalit so'zlar: *Si-sistemi, mol, Avogadro, konsepsiya, vertikal integratsiya, mol ekvivalent.*

ОБЕСПЕЧЕНИЕ МЕЖПРЕДМЕТНОЙ ВЕРТИКАЛЬНОЙ ИНТЕГРАЦИИ НА ОСНОВЕ ПОНЯТИЯ КОЛИЧЕСТВА ВЕЩЕСТВА В ХИМИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация: *В данной статье анализируется роль понятия количества вещества при решении задач в химическом образовании, возможность осуществления через него генетических связей. Он основан на том факте, что концепция количества вещества занимает центральное место в обеспечении межпредметной интеграции.*

Ключевые слова: *Си-система, моль, Авогадро, понятие, вертикальная интеграция, моль эквивалент.*

ENSURING INTERDISCIPLINARY VERTICAL INTEGRATION BASED ON THE CONCEPT OF THE AMOUNT OF SUBSTANCE IN CHEMICAL EDUCATION

Abstract: *This article analyzes the role of the concept of quantity of a substance in solving problems in chemical education, the possibility of making genetic connections through it. It is based on the fact that the concept of quantity of matter is central to ensuring interdisciplinary integration.*

Keywords: *Si-system, mole, Avogadro, concept, vertical integration, mole equivalent.*

Zamonaviy ta'limning xarakterli xususiyatlaridan biri ilmiy-texnika taraqqiyotining misli ko'rilmagan tezlikda rivojlanishi va natijada hayot tarzining jadal o'zgarishi bilan tavsiflanadi. Ma'lum sohalaridagi aniq bilimlar ko'pincha ta'lim oluvchilar ta'lim muassasasini bitirgan vaqtga qadar ham eskirishga ulgurmoqda. Inson bilim va ko'nikmalarini doimo to'ldirib, butun hayotini o'rganishga va qayta tayyorlashga hozir bo'lishi talab etiladi. Bu holat kelajakda ham yanada jadal davom etishi ehtimoli juda yuqori. Mamlakatimizda bu jarayon ijtimoiy tizimning

***Iskandarov Aybek Yuldashevich** – Toshkent davlat pedagogika universiteti Kimyo o'qitish metodikasi kafedrasini muduri, dotsent;

Kuchkarov Mexridin Asamovich - Toshkent davlat pedagogika universiteti Kimyo o'qitish metodikasi kafedrasini v.b. dotsent (PhD)

o'zgarishiga, sanoatning butun tarmoqlarini, qishloq xo'jaligini, tibbiyot, mudofa tizimini qayta tashkil etish bilan birga amalga oshib boradi, buning natijasida aholining katta qismi boshqa faoliyat turlariga qayta yo'nilishi va qayta tayyorlanishi talab etiladi. Yangi sharoitlarda davom etayotgan jarayonlarni mas'uliyatli, faol, ijodiy va chuqur anglab, tahlil qila oladigan, mavjud muammolarni ochib bera oladigan va ularni tobora murakkablashib borayotgan dunyoda hal qilishning optimal usullarini topadigan vakolatli ijrochi mutaxassislarni ham, menejerlarni ham, tadbirkorlarni ham shakllantirish nihoyatda muhim bo'lib bormoqda. Shuning uchun, hozirgi zamon ta'lim tizimining barcha darajalaridagi maqsadlaridan biri, xususan, oliy ta'lim bosqichida nafaqat talabalar tomonidan ma'lum miqdordagi bilimlarning assimilyatsiyasi, balki nazariy fikrlash tarzining shakllanishi talab etilib, bu ularga mustaqil ravishda bilimlarni egallash, xilma-xil ma'lumotlarga o'zlarini yo'naltirish, vaziyatning yaxlit tasvirini yaratish, tahlil qilingan obyektning uning barcha aloqalari va bog'lanishlarni ko'rish imkonini beradigan yo'ldir [1, 2]. Bu maqsadga erishishda kimyodan masalalar yechish jarayoni alohida o'rin tutadi.

Kimyodan masalalar yechishda xalqaro standartda qabul qilingan o'lchov birliklaridan foydalanish bir birlikdan ikkinchi birlikga o'tish kabi qiyinchiliklarni keltirib chiqarmaydi. O'lchovlar bo'yicha xalqaro Bosh konferensiya qarori bilan (Parijda 1971-y). SI-sistemasiga modda miqdori birligi „mol“ kiritiladi. Kimyoda turli hisoblashlar olib borishda, masalar yechishda moldan foydalanish joriy etildi. Shunga qaramasdan „modda miqdori“ tushunchasi metodik adabiyotlarda yaxshi yoritilmaydi, yoki chalkashtirib yuborilgan [3, 4].

Modda massasi gramm yoki kilogrammda ifodalansa, modda miqdori moddani tashkil etuvchi atomlar, molekulalar soni bilan ifodalandi.


Mol- 12 g uglerod moddasida nechta uglerod atomlari bo'lsa, tarkibida shuncha atom, molekula, ion va boshqa zarrachalar bilan har qanday modda miqdoridir.

2 gramm uglerod moddasi tarkibida Avogadro soniga ($6,02 \cdot 10^{23}$) teng bo'lgan uglerod atomlarini saqlaydi. Demak, tarkibida Avogadro doimiysi $N_A = 6,02 \cdot 10^{23}$ mol bilan ifodalanadi va 1 mol har qanday moddadagi atom yoki molekular sonini ko'rsatadi. Kimyoviy formula va tenglamalar bo'yicha mol asosida hisoblashlar olib borish masalalar yechishning eng qulay usuli hisoblanadi. Mol tushunchasi o'quvchilarda bu masalalar yechish bilan shakllanib boradi. Lekin darslik va metodik qo'llanmalarda bu masalaning yoritilishi yetarli emas.

O'quvchilarda mol asosida masalalar yechishda ko'nikma va malakalarini shakllantirish uchun modda miqdorini aniqlashga oid ko'rgazmalida Sistema ishlab chiqiladi. Unda massa, hajm, atom va molekulalar soni yordamida modda miqdorini aniqlash tenglamalari keltirilib, ularning bir-biriga bog'lanish tenglamalari ishlab chiqildi. Dastabki jadvaldan foydalanib, modda miqdorini berilgan massa, hajm,

atom va molekular soni asosida aniqlashga oid masalalar yechish, so'ngra berilgan modda miqdori yordamida massa, hajm, atom yoki molekular sonini aniqlash va jadvalda keltirilgan tenglamalar orasidagi bog'lanishlar bo'yicha hisoblashlar olib boriladi [5, 6].

Masalalarning murakkabligi oshib borish tarkibida mol asosida kimyoviy tenglamalar bo'yicha masalalar yechish darslari o'tkaziladi. Modda miqdori tushunchasini dastlabki kimyoviy hisoblashlar konsepsiyasini markazida joylashib, qolgan kattaliklarni (massa, hajm, zarrachalar soni, ekvivalent miqdori) o'zaro bog'lovchi komponenti sifatida qarash mumkin. Shu bilan birga moddaning mol miqdori fan doirasidagi mavzulararo integratsiyani taminlashda ham muhim o'rin tutadi. Vertikal integratsiya mohiyat – turli xil o'quv yillarida turli xil qiyinchilik darajasida takrorlanadigan bitta mavzuga oid materialni birlashtirishdir.



1-rasm. Modda miqdorining turli fizik kattaliklar bilan bog'lanishlari.

Mol asosidagi hisoblashlarning namunalari quyida keltiriladi.

1. Massasi 3,42 gramm bo'lgan aluminiy sulfat moddasining miqdorini aniqlang. Yechish: modda miqdori (n) uning massasi (m) va molyar massasi (M) orasidagi bog'lanish, quyidagicha ifodalanadi.

$$n(\text{Al}_2(\text{SO}_4)_3) = \frac{m}{M} = \frac{3,42 \text{ g}}{342 \text{ g/mol}} = 0,01 \text{ mol}$$

2. 1,12 l har qanday gaz (n.sh.da) qancha molga ega bo'ladi.

$$n = V/V_m = 1,12 \text{ l} / 22,4 \text{ l/mol} = 0,05 \text{ mol}$$

3. Tarkibida $1,5 \cdot 10^{22}$ dona molekula saqlovchi moddaning miqdorini aniqlang.

$$n = N/N_A = 1,5 \cdot 10^{22} / 6,02 \cdot 10^{23} = 0,025 \text{ mol}$$

4. 1ml vodorod (n.sh.da) tarkibida qancha molekula saqlaydi.

$$N/N_A = V/V_m; N = V \cdot N_A / V_m = 1 \text{ ml} \cdot 6,02 \cdot 10^{23} / 22400 \text{ ml} = 0,00027 \cdot 10^{23} = 2,7 \cdot 10^{19}$$

5. Tarkibida $1 \cdot 10^{23}$ dona molekula saqlovchi azotning massasini hisoblang.

$$m/M = N/N_A, m_{(N_2)} = N \cdot M / N_A = 1 \cdot 10^{23} \cdot 28 \text{ g/mol} / 6,02 \cdot 10^{23} \text{ mol} = 4,65 \text{ g}$$

Masala: 11,1gramm malaxit parchalanganda hosil bo'ladigan mis(II)oksidning miqdorini aniqlang

Berilgan:


$$M(\text{Cu}(\text{OH})_2, \text{CuCO}_3) = 11,1$$

$$M(\text{Cu}(\text{OH})_2 \text{CuCO}_3) = 222 \text{ g/mol}$$

$$M(\text{CuO}) = 80 \text{ g/mol}$$

$$n(\text{CuO}) = ?$$

$$0,05 \text{ mol} \qquad \qquad \qquad x \text{ mol}$$



$$1 \text{ mol} \qquad \qquad \qquad 2 \text{ mol}$$

Malaxitning modda miqdorini aniqlaymiz.

$$n = \frac{11,1 \text{ g}}{222 \text{ g/mol}} = 0,05 \text{ mol}$$

Mis(II) -oksidining miqdorini aniqlaymiz.

$$x/2 = 0,05/1, \quad x = 2 \cdot 0,05/1 = 0,1 \text{ mol}$$

Demak, masalalar yechishning tayanch tenglamalari sistemasini ishlab chiqish va darsda undan foydalanish, masalalar yechish orqali mavzuning tayanch tushunchalari va o'quvchilarda bilimni shakllantirib borish, dars samaradorligini oshirishning muhim vositasi ekanligi aniqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kuchkarov M.A., Iskandarov A.I. Kimyoviy masalalarning mazmuni va ularning yechimiga doir yondashuvlar //Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari . - Toshkent, 2022. - №1. – B. 4-8.
2. Rahmatullayev N.F., Iskandarov A.Yu. "Eritmalar" mavzusi bo'yicha o'quvchilarning masalalar yechish tafakkurini rivojlantirish // Pedagogik ta'lim. –Toshkent, 2006. - №1. –B. 43-47.
3. Shernazarov I.E., Iskandarov O.Yu., Xasanova S.G'. Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilari uchun kimyo fanidan PISA konteks topshiriqlar to'plami. -T.: LESSON PRESS,

2021. -320 b.

4. Yuldashevich, I. A., Asamovich, K. M., & Ergashovich, S. I. (2023). Eksperimental tajribalar yordamida o'quvchilarda tadqiqotchilik, amaliy va tabiiy-ilmiy savodxonligini shakllantirish. *Innovation: The journal of Social Sciences and Researches*, 1(5), 59-67.

5. Злотников Э. Графические тесты по химии. <https://him.1sept.ru/article.php?ID=200403702>.

6. Кучкаров М.А. Об использовании электронной таблицы в химических вычислениях. // Химия в школе. –Москва, 2011. -№4. –С.53-54.

Xamidova L.Z., Qochqorova R.R. *
(Toshkent, O'zbekiston)

INTER FAOL METODLARNI QO'LLAB KIMYOVIY REAKSIYA TURLARI MAVZUSINI O'QITISH METODIKASI

Annotatsiya: Ushbu maqolada "Kimyoviy reaksiya turlari" mavzusini o'qitishda interfaol dni qo'llash haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar. Metod, an'anaviy metod, faol metod, interfaol metod, muammoli vaziyat, birikish lish, o'rin olish, almashinish reaksiyalari.

**МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ТЕМЫ ТИПЫ
ХИМИЧЕСКИХ РЕАКЦИЙ,
ПОДДЕРЖИВАЮЩИХ МЕЖАКТИВНЫЕ
МЕТОДЫ**

Аннотация: В данной статье рассматривается применение интерактивного метода в преподавании темы "виды химических реакций".

Ключевые слова. Метод, традиционный метод, активный метод, интерактивный метод, проблемная ситуация, реакции привязанности, диссоциация, приобретения места, обмена.

**METHODS OF TEACHING THE TOPIC TYPES
OF CHEMICAL REACTIONS SUPPORTING
INTERACTIVE METHODS**

Abstract: This article discusses the application of the interactive method in teaching the topic "types of chemical reactions".

Keywords. Method, traditional method, active method, interactive method, problematic situation, attachment reactions, dissociation, place acquisition, exchange.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallagan yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60 sonli Farmonida belgilab berilgan vazifalarga muvofiq ta'lim sifatini oshirish bo'yicha belgilangan, o'rta ta'lim tizimini zamon talablariga moslashtirish yuzasidan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida darsliklarni yangilash dasturini amalga oshirish ishlari tashkil etish ko'zda tutilgan[1].

Dars o'tishning bir necha metodlari mavjud bo'lib shulardan ba'zilari ustida to'xtalib o'tmoqchimiz; An'anaviy metodni qo'llab dars o'qitilganda mavzuning mohiyatini asosan ma'ruza qilib aytib tushuntirib beriladi. Darsda faqat o'qituvchi faol bo'ladi. Bunday metodni «Kimyo fanini rivojlanish tarixi» mavzusini o'tishda qo'llash mumkin. Faol metodni qo'llab dars o'tilganda o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga o'quvchilar javob qaytaradilar. Bundan tashqari darsning

* **Qochqorova Ra'no Rasulovna** – Nizomiy nomidagi TDPU Kimyo va uni o'qitish metodikasi kafedrasida dotsenti v.b., PhD.;

Xamidova Lochinoy Zohidjon qizi- Nizomiy nomidagi TDPU Kimyo ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi.

mavzusiga doir yangiliklar bo'yicha o'quvchilar ham o'zlarining fikrlarini bildiradilar. Bu metod ko'pincha yangi mavzuni mustahkamlash qismida qo'llash katta samara beradi[3].




Interfaol metodda esa o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga o'quvchilar javob qaytarishi bilan birga o'quvchilar bir-biriga savol berib o'zaro ham savol javob qiladilar. Bu metodni darsni o'quvchilar bilimini baholash qismida ko'proq qo'llaniladi. Fikrimizni quyidagi chizmada ifodalash mumkin;

Olimlardan N. Suvorova, S.Zairbek interfaol ta'limni interfaol muloqot deb tushunadilar, bunda o'rganuvchilar tanqidiy fikrlashni, qaror qabul qilishni, muhokamalarda ishtirok etishni va boshqa odamlar bilan muloqot qilishni o'rganadilar. M.V.Klarin o'quvchilarning bilim faolligi har tomonlama rag'batlantirish zarurligini ta'kidlaydi, bunda har xil turdagi interfaol metodlardan foydalanish va uning davomida o'quvchilar faolligi oshib, o'quvchilar o'zlashtirishi darajasi ko'tariladi. Kimyo fani eksperimental fanlar qatoriga kirganligi sababli amaliyot bilan uzviy bog'langan. O'quvchilarning tez va oson fanni o'zlashtirishi darslarni tushunish maqsadida turli xil interfaol metodlardan qo'llash maqsadga muvofiqdir. Bu metodlar qatoriga biz "Interfaol metod", "Aqliy hujum", "Muammoli vaziyat yaratish", "Klaster", "Kim qayerda xato qildi", "Assisment", "Qiyin savol metodi" va boshqa o'quvchilarni faollikka undovchi, aqlini charxlovchi metodlar to'plamini kiritishimiz mumkin.

3 BOSQICHLI INTERVYU METODI

Ushbu metodda o'quvchilar teng sondagi 3 guruhga bo'linadi. Har bir guruhdan mavzuni yaxshi o'zlashtirgan bir o'quvchi tekshiruvchi bo'lib, bir o'quvchi esa pedagog yani o'qituvchi sifatida taqsimlanadi. O'qituvchi nima qilish kerakligini o'quvchilarga tushuntiradi va o'zi chetda turib o'quvchilarni kuzatadi. Har bir guruhdan tayinlangan tekshiruvchilar qarama-qarshi guruhning o'quvchilarini hamda pedagogning harakatlari va xato kamchiliklarini tekshiradi. 1- guruh pedagogi o'quvchilarini boshqaradi va 2- guruhga savol beradi. 2- guruh 3- guruhga savol beradi. 3- guruh esa 1- guruhga savollar beradi. Shu tariqa jamoalar o'rtasida bahs munozarali savol javoblar o'tkaziladi. Misol uchun kimyoviy reaksiya turlari mavzusini o'qitishda 3 bosqichli intervyu metodini qo'llasak: 28 nafar o'quvchini 3 guruhga ajratib olamiz. Har bir guruhdan e'tiborli, faol o'zlashtiruvchi bittadan o'quvchi tekshiruvchi bo'lib chiqadi. Yana har bir guruhdan bittadan o'quvchi pedagog bo'lib guruhini boshqaradi. 1=2 2=3 3=1 guruhlarga savollar berib boriladi. Oxirida tekshiruvchilar tomonidan mulohazali savollar beiladi.

Guruhlarga beriladigan savollardan namunalar 1- jadval

Birikish reaksiyasiga 5 ta formula yozib bering	Parchalanish reaksiyasiga 5 ta misol yozing	O‘rin olish reaksiyasiga 5 ta misol yozing
 <p>Ushbu rasm qaysi reaksiya turiga mos va qanday hodisa yuz beryapti fikringizni isbotlang</p>	 <p>Ushbu formulalar orqali nima ifodalanganini isbotlang</p>	 <p>Ushbu rasm qaysi reaksiya turiga mos va qanday hodisa yuz beryapti fikringizni isbotlang</p>
$\text{Ba}(\text{OH})_2 + \text{H}_2\text{SO}_4 = \text{BaSO}_4 + 2\text{H}_2\text{O}$ <p>Ushbu reaksiya tenglamasini nomlang qaysi kimyoviy reaksiya turiga kirishini ayting</p>	$6\text{P} + \text{KClO}_3 = 5\text{KCl} + 3\text{P}_2\text{O}_5$ <p>Ushbu reaksiyani nomlang va qaysi kimyoviy reaksiya turiga kirishini ayting</p>	$\text{Ca}(\text{HO})_2 + \text{CO}_2 = \text{CaCO}_2 + \text{H}_2\text{O}$ <p>Reaksiyani nomlang va qaysi kimyoviy reaksiya turiga kirishini ayting</p>

Har bir savolga guruhlar o‘z jamoasini himoya qilgan holda javoblar aytiladi va isbotlab beradilar. Isbotlash natijasida guruhlarning fikrlari turlicha bo‘lishi mumkin. Masalan yuqorida keltirilgan jadvalning 1- rasmda keltirilgan savoning javobini bir guruh parchalanish reaksiyasi deb javob bersa yana bir guruh esa ekzotermik holat yuz beryapti deb aytadi va o‘z fikrini asoslaydilar. Bahs munozara vaqtida o‘quvchilarning shovqin solmasligini guruhdagi o‘qituvchi nazorat qiladi, tekshiruvchi esa pedagoglarni va o‘quvchilarni to‘g‘ri savol tuzildimi, to‘g‘ri javob berdimi kim qayerda yanglish javob berdi kabi holatlarni tekshiradi. Fan o‘qituvchisi esa o‘quvchilarni nazorat qiladi, uyga vazifa beradi va baholaydi.

Men amaliyot 2022-2023, 2023-2024 o‘quv yillari davomida Toshkent shahar Sergeli tumanidagi 332-sonli umumta’lim maktabida amaliyot o‘tdim. Amaliyot davrida men yuqorida keltirilgan metodlar orasidan “Interfaol metod”ni qo‘lab dars o‘tdim. Buning uchun eng avvalosifat o‘zlashtirish darajasi o‘zaro nisbatan teng bo‘lgan ikkita 7^a va 7^b- sinflarni tanlab oldim. So‘ngra bu ikkala sinf o‘quvchilarining kimyo fani bo‘yicha sifat o‘zlashtirishini Kundalik com.uz bo‘yicha aniqladim. Olgan ma’lumotimni quyidagi jadvalda keltirilgan.

7^a va 7^b sinf o'quvchilarining kimyo fanidan sifat o'zlashtirish natijalari 2-jadval

Sinflar / Baholar	Jami o'quvchilar soni	«3»baho	«4»baho	«5»baho	Sifat o'zlashtirish
7 ^a	28nafar	14	9	5	50
7 ^b	28nafar	15	10	3	46

So'ngra 7b- sinfda bir necha mavzularni jumladan kimyoviy reaksiya turlari mavzusini ham yuqorida keltirilgan interfaol metodlarni qo'llab dars o'tdim. Interfaol uslub qo'llanilganida sinf o'quvchilari faollashib dars qiziqarli o'tishi bilan birga o'quvchilar o'tilgan darsni yaxshi o'zlashtirib oldi. Buning natijasida bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar soni kamayib «4» va «5» baho olgan o'quvchilar sonini ortishi hisobiga sinfning sifat o'zlashtirishi ko'tarildi.

7^b sinf o'quvchilarining tajriba sinov o'tkazilganidan keyingi o'zlashtirish natijalari kimyo fanidan sifat o'zlashtirish natijalari 3-jadval

Sinflar / Baholar	Jami o'quvchilar soni	«3»baho	«4»baho	«5»baho	Sifat o'zlashtirish
7 ^a	28	14	9	5	50
7 ^b	28	13	11	4	53

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, 7b sinfning sifat o'zlashtirishini 7% ga o'sishi sinf o'quvchilariga interfaol usulda dars o'tishning natijasi degan xulosaga keldim. Demak, o'quvchilarga interfaol usulda dars o'tish yaxshi samara berarkan. Chunki o'quvchilar o'zlarining fikrlarini mustaqil bayon qilib, hatto fikrlarini isbotlab berishga ham harakat qiladi[5].

Xulosa qilib aytganda, zamon talab darajasida o'quv jarayonlari tashkil etish, kimyo fanini o'qitishda interfaol metodlarning o'rni, o'quvchilarning o'zlashtirish darsjasini oshiradi va fanni keng doirada tushunishini, ularning kimyo faniga qiziqish salohiyatini kuchaytiradi.

Kimyoviy reaksiya turlari mavzusini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish darsni qiziqarli va qizg'in o'tishiga, darsni olib borishda vaqtni tejagan holda tushunarli, keng yoritilgan hamda barcha o'quvchilarning o'z qarashlari, erkin fikrlarini bemalol yoritadigan, mantiqiy fikrlashini o'stiradigan, kimyoviy

reaksiyalarni bir biridan osonlikcha ajratib yoza oladigan holatga keltiradi. Bu gaplarinmi isboti sifatida 7- sinf o'quvchilari bilan olib borgan tajribam yorqin na'munadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallagan yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60 sonli Farmoni.
2. "Umumiy kimyo" O'rta ta'lim muassasalarining 11-sinfi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari uchun darslik.
3. Parpiyev N.A, Muftaxov A.F, Rahimov H.R, Anorganik kimyo [3-qism], Toshkent 2000-2003.
4. Tajribalar uchun qo'llanma- M.Shukurov 2019-yil
5. N.G.Rahmatullayev, H.T. Omonov, Sh.M. Mirkomilov; «Kimyo o'qitish metodikasi» Toshkent. «Iqtisod-Moliya», 2013yil.

Fayzullayeva Ch.O. *

(Toshkent, O'zbekiston)

KIMYONI O'QITISHDA MAKTAB O'QUVCHILARINI XXI ASR HAYOTIY KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH KOMPETENSIYASI

Annotatsiya: Ushbu maqolada kundalik hayotda kimyoning ahamiyati va o'quvchilarni kimyoviy jarayonlarni atrofimizdagi hodisalar bilan bog'lashga o'rgatish ko'nikmalarini shakllantirish usullari ko'rib chiqiladi. Maqolada kimyo olimlarining tajribalari va takliflari keltirilgan. Kundalik hayotdagi kimyoviy jarayonlarni o'rganishning amaliy usullari taklif etilgan va ularning potentsial samaradorligi baholangan.

Kalit so'zlar: kimyo, amaliy ko'nikma, hodisa, kimyoviy jarayonlar, loyiha, kundalik hayot, kuzatishkundaligi, uy sharoitida tajribalar, kompetensiya.

КОМПЕТЕНЦИЯ РАЗВИТИЕ ЖИЗНЕННЫХ НАВЫКОВ ШКОЛЬНИКОВ XXI ВЕКА В ПРЕПОДАВАНИИ ХИМИИ

Аннотация: В этой статье рассматривается важность химии в повседневной жизни и способы формирования навыков для обучения студентов связывать химические процессы с явлениями вокруг нас. В статье представлены эксперименты и предложения ученых-химиков. Были предложены практические методы изучения химических процессов в повседневной жизни и оценена их потенциальная эффективность.

Ключевые слова: химия, практические навыки, явление, химические процессы, проект, повседневная жизнь, дневник наблюдения, домашние эксперименты, компетентность.

COMPETENCE DEVELOPMENT OF LIFE SKILLS OF SCHOOLCHILDREN OF THE XXI CENTURY IN TEACHING CHEMISTRY

Abstract: This article examines the importance of chemistry in everyday life and how to form skills for teaching students to relate chemical processes to the phenomena around us. The article presents experiments and suggestions of chemical scientists. Practical methods for studying chemical processes in everyday life were proposed and their potential effectiveness was evaluated.

Keywords: chemistry, practical skills, phenomenon, chemical processes, project, daily life, observation diary, home experiments, competence.

O'zbekiston olimlari tomonidan maktab kimyosiga bo'lgan qiziqishni shakllantirish uchun turli xil usullar va metodlarni ishlab chiqish muammosi ko'pchilik taniqli metodistlar tomonidan o'rganilgan.

* Fayzullayeva Charos – Nizomiy nomidagi TDPU mustaqil izlanuvchi

Kimyo darslariga qiziqishni oshirish haqida Y.U. Xodakov shunday yozadi: uning fikricha, bu jarayonda evristik suhbat muhim rol o'ynaydi, chunki u o'quvchilarni yuqori darajadagi fikriy faoliyatda ushlab turadi, shuningdek, ularning tafakkurini rivojlantiradi va faniga bo'lgan qiziqishni uyg'otadi. Evristik suhbat faqat darsda ma'lum bir muammo qo'yilgan bo'lsa amalga oshadi. Biroq, har bir suhbat dars mavzusi muammo qo'yishga imkon bermaydi. Kimyoni hayot bilan bog'lash darsda muammoli vaziyatlarni yaratish va ularni hal qilish uchun eng yaxshi imkoniyatni taqdim etadi, bu jarayonda o'quvchilarning nazariy bilimlari va amaliy tajribasidan foydalanish mumkin.


2023-2024 - yillar davomida Toshkent shahridagi maktablarda o'tkazilgan kuzatish va so'rovlarga ko'ra, o'quvchilar quyidagi materiallarga qiziqish bildirishgan:

- ✓ tarixiy material (kimyo fanining rivojlanish tarixi, kashfiyotlar tarixi);
- ✓ buyuk kimyogarlarning hayoti haqidagi biografik materiallar;
- ✓ tabiat sirlari, g'ayrioddiy tabiat hodisalarini tushuntirish;
- ✓ uyda ishlatiladigan mahsulotlarning kimyoviy formulasi, tuzulishi haqida ma'lumot;
- ✓ moddalarning inson organizmiga biologik ta'siri haqida ma'lumot;
- ✓ yangi kashfiyotlar, yanada rivojlangan xususiyatlarga ega moddalarni ishlab chiqish bilan bog'liq materiallar;
- ✓ kimyo fanining yoki ishlab chiqarishning yutuqlarini ko'rsatadigan faktologik materiallar;
- ✓ agar kimyoviy materiallar tushunarli va maket tarzda taqdim etilsa, u holda o'quvchilarda kimyoga qiziqish yanada ortadi.

Nega aynan shunday material o'quvchilarni qiziqtiradi? Ushbu savolga javob berish uchun, materialni qabul qilish jarayonini tahlil qilish va o'quvchilarning ushbu jarayonda qanday faoliyat ko'rsatishini aniqlash kerak.

Franz Lezerning ta'kidlashicha, xotira faoliyati ma'lumotlarni qabul qilishdan boshlanadi, bu esa katta darajada tanlash jarayoni hisoblanadi.

O'quvchiga to'plangan ulkan miqdordagi ma'lumotlardan u avvalambor o'ziga muhim bo'lmaganini ajratib oladi. Yaxshi tanish bo'lgan narsalar tezroq esda qoladi va uzoqroq saqlanadi. Boshqacha qilib aytganda, xotiraning sifati va qabul qilish jarayonining intensivligi bizning bilimlarimizning hajmi va ma'lumotlarga bo'lgan qiziqishimizga bevosita bog'liq. Shu bilan birga, chuqur bilimlar qabul qilish jarayonining yuqori intensivligini ta'minlaydi.



Barcha keltirilgan misollarda, qiziqish uyg'otadigan materiallar o'quvchilarga tabiatshunoslik, biologiya, fizika va boshqa fanlardan ma'lum bo'lgan ma'lumotlarga

asoslanadi. O'quvchilar yangi bilimlarni oldingi o'rganganlari bilan solishtirib, sabab-oqibat bog'lanishlarini tahlil qilib, qarama-qarshiliklarni aniqlab, ulardan chiqish yo'llarini topishadi, bu esa fikr yuritishni rag'batlantiradi. Yangi narsalarni eski ma'lumotlar asosida bilish doimo qiziqarli. Bu jarayonda ijobiy his-tuyg'ular (kashfiyotdan zavqlanish) yuzaga keladi, bu esa o'quvchilarning dars davomida diqqatini saqlashga yordam beradi.

O'qituvchiga yordam berishi mumkin bo'lgan vositalar orasida adabiy asarlarning parchalari, she'r qatorlari, rasm, kino fragmentlari, videodarsliklar, videomashg'ulotlar, taqdimotlar va virtual laboratoriya boshqalar mavjud.

O'quvchilarda tabiat jumboqlarini tushuntirish katta qiziqish uyg'otadi. Tabiatdagi kimyoviy hodisalarni o'rganish ularni tahlil qilish, sabablarini o'rganish o'quvchida qiziqish uyg'otadi. Masalan uyda ishlatadigan oqma gaz tarkibi, uning qanday olinishi, qay holatda uchrashi va ishlatilish sohalarini o'rganish va uni tajribada ko'rish ularda qiziqishni yanada orttiradi.[3].

Masalan, V.S.Korotkevichning «Qora Olshanskiy qal'asi» hikoyasidan quyidagi parchani tushuntirish:

Italiyada itlar g'orining haqida eshitganmisiz? U yerda shunday bir g'or bor. Inson kirib yurishi mumkin, ammo it yoki quyon bir necha daqiqadan keyin halok bo'ladi.

Nega?

Vulkanik yoriqlardan karbonat angidrid ajraladi. U havodan og'ir bo'lgani uchun, pastga to'planadi. Insonning boshi bu zonadan yuqorida bo'ladi. Itniki esa yo'q.

O'quvchilar havoning, karbonat angidrid gazining, uglerod oksidining molekulyar massalarini, ushbu gazlarning xususiyatlarini taqqoslab, ularning inson organizmiga qanday ta'sir qilishiga oid xulosalar chiqaradilar.

Analitik qobiliyatlarni rivojlantirish va oddiy mantiqiy operatsiyalarni bajarish ko'nikmalarini shakllantirish uchun darslarda turli solishtirish va sabab-oqibat bog'lanishlarini aniqlash bo'yicha topshiriqlarni qo'llash zarur. Masalan, "Metallar" mavzusini o'rganishda o'quvchilarga quyidagi mantiqiy zanjirni tuzishni taklif qilish mumkin. Kristall tarkibida qo'rg'oshin mavjud. —» Qo'rg'oshin birikmalari inson salomatligi uchun xavfli. —» Qo'rg'oshin faoliyat darajasi bo'yicha vodorodgacha bo'lgan qatorga kiradi. —> Qo'rg'oshin kislotalar bilan o'zaro ta'sirlashadi. —> Kislotalar mavjud bo'lgan mahsulotlarni kristall idishlarda saqlash mumkin emas.

O'quvchilarga yashash muhiti, kimyoviy moddalarning kundalik hayotda va ishlab chiqarishda qo'llanilishi va ularni xavfsiz ishlatish haqida ilmiy ma'lumotlarni olish qiziqarli va foydali. Bunday material fikr yuritishni rag'batlantiradi: solishtirish,

tahlil qilish, sabab-oqibat bog'lanishlarini izlash, qarama-qarshiliklarni bartaraf etish, tasavvur qilish va prognoz qilish kabi faoliyatlarni amalga oshiradi.

O'qituvchining miya faoliyatini yaxshi to'ldiradigan va qiziqish uyg'otadigan omil video fragmentlar hisoblanadi. Ushbu videolar moddalar va reaksiyalarni qanday qo'llash, tabiatda yuz berayotgan kimyoviy jarayonlarni rang-barang namoyish etish, kimyo ishlab chiqarish jarayonlarini ko'rsatish kabi jihatlarni taqdim etadi. Bunday materiallarni tayyorlash o'qituvchidan katta vaqt sarfini talab qiladi. Ular qo'shimcha darslarda o'quvchilarning mustaqil ishlarini faol jalb qilish orqali tayyorlanishi mumkin va kimyo kabinetining axborot bazasini yaratish va doimiy ravishda yaxshilash imkonini beradi.

So'rovnomalarda o'quvchilar doimo kimyoviy tajribani qiziqish uyg'otadigan omil sifatida ta'kidlaydilar.

V.N. Verxovskiy kimyoviy tajribalarni kimyo o'rganishga qiziqishni shakllantirish vositasi sifatida ko'rgan. U tajribalar yordamida o'qituvchi tomonidan qo'yilgan savollarga javob topish mumkinligini ta'kidlagan. V.N.Verxovskiy tadqiqot eksperimenti metodologiyasini ishlab chiqdi [1].

L.A. Tsvetkov ham kimyoviy tajribalar orqali darsga qiziqishni oshirish haqida yozgan. U tajribalar muammolarni amaliy hal qilish imkoniyatini yaratadi, ilmfanlarning amaliy qo'llanilishini ko'rsatadi, uning hayot bilan bog'liqligini ochib beradi va mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi deb ta'kidlagan. [2].

Eksperimentlarni o'qitishda ishlab chiqish bo'yicha Y.U. Surin, I.N. Chertkov, P.N.Zhukov, T.S.Nazarova, A.A Grabetsky, va G.M.Chernobylskaya kabi olimlarning ishlarini e'tiborga olish lozim. Shuningdek, G.A.Shipareva uyda o'rganish uchun tajribalar ishlari ham muhimdir.

O'quvchilar laboratoriya va amaliy ishlar davomida mustaqil ravishda o'tkazadigan tajribalar, shuningdek, uyda bajariladigan tajribalar, o'quvchilarda qiziqishni tabiiy ravishda uyg'otadi. Buning sababi shundaki, bu tajribalar faoliyat ehtiyojini to'liq qondirish imkonini beradi: birinchidan, tajribaning nafaqat kimyoviy mohiyatini, balki tajribani o'tkazish texnologiyasini (xavfsizlik texnikasini hisobga olgan holda) ham tushunish zarur. Ikkinchidan, kuzatish natijalarini yozib olish, xulosalar chiqarish lozim. Buning uchun natijalarni tahlil qilish, sabab-oqibat bog'lanishlarini izlash va umumlashtirish kerak. Uchinchidan, tajribalarni o'tkazish jarayonida bir qadar jismoniy faoliyat ehtiyojini qondirish imkoniyati bo'ladi. Hayot bilan bog'liqligini ko'rsatuvchi tajribalar maxsus qiziqish uyg'otadi. Masalan: xamir tayyorlash jarayonida soda va sirka bilan reaksiyasi, turli sharoitlarda temir qirqishning korroziya tezligi, ichimlik sodasi eritmasida indikatorning rangining o'zgarishi, spirtidan tayyorlangan yod eritmasining natriy tiosulfat bilan tozalash va

hokazo. Dars vaqtining cheklanganligi amaliy ishlarning hajmini kengaytirishga imkon bermaydi, ammo o'quvchilar tomonidan sinfdan tashqarida tayyorlangan amaliy mazmunga ega tajribalar darsda foydalanish orqali kimyoviy reaksiyalarni hayotda qo'llashni ko'rgazmali ravishda namoyish etish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Верховский В.Н., Смирнов А.Д.. Техника химического эксперимента.-М.: Просвещение, 1975-Т.1 - 368.; 1975 - т.2 - 384с.
2. Цветков Л.А. Эксперимент по органической химии в средней школе. Методика и техника. Пособие для учителей.-М., «Просвещение», 1973-286с.
3. БраунТ., Лемей Г.Ю. Химия-в центре наук. В 2-х частях. пер.с англ.-М.: Мир, 1983.-448с. Ч 1.
4. Gabrielian O.S., Kazantsev Yu.N. Har bir inson uchun kimyo: O.S. Gabrielianing darsliklariga didaktik qo'shimcha. —М.: Sirin' Prema, 2006.— 104 b.
5. Быстрицкая Е.В. Составление и решение расчетных задач с прикладным содержанием.//Химия в школе. 2000.№7. С.56-59.

Mamadaliyeva N. I., Eshchanova D.I.*

(Toshkent, O'zbekiston)

KIMYODAN MASALALAR YECHISHNI TASHKIL ETISHDA AXBOROT - KOMMUNIKASION TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada kimyo kusida masala yechishga axborot tizimini joriy etish, mutaxassislarni kompyuterda ishlashga o'rgatish, axborot - kommunikasion texnologiyalari yordamida o'quvchilarning ilmiy ko'nikma va malakalarini shakillantirish yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *kimyo, axborot tizimini, kompyuter, masala yechish.*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОРГАНИЗАЦИИ РЕШЕНИЯ ЗАДАЧ ПО ХИМИИ

АННОТАЦИЯ: *В данной статье описано внедрение информационной системы решения задач по химии, обучение специалистов работе на компьютере, формирование научных умений и компетенций студентов с помощью информационно-коммуникационных технологий.*

Ключевые слова: *химия, информационная система, компьютер, решение задач.*

USE OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN ORGANIZING THE SOLUTION OF PROBLEMS IN CHEMISTRY

ABSTRACT: *This article describes the implementation of an information system for solving problems in chemistry, training specialists to work on a computer, and the formation of scientific skills and competencies in students using information and communication technologies.*


Keywords: *chemistry, information system, computer, problem solving.*

* **Mamadaliyeva Nodira Isakovna** – Nizomiy nomidagi TDPU Kimyo ova uni o'qitish metodikasi kafderasi dotsenti, (PhD). n.mamadaliyeva@yandex.ru

Eshchanova Dilzoda Rustamovna- Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, mustaqil tadqiqotchi eshchanovdilzoda@gmail.com

Yangi axborot - kommunikasion texnologiyalari hozirgi vaqtda eng dolzarb mavzulardan biri bo'lib kelmoqda, sababi har bir sohani o'rganish, izlanish va tajriba orttirish uchun turli usullardan foydalanish kerak bo'ladi. Shuning uchun, hozir yangi axborot - kommunikasion texnologiyalaridan foydalanish mahsadga muvofiqdir. Hozirgi zamon mutaxassislari, faoliyat doiralari qanday bo'lishidan qat'iy nazar, informatika bo'yicha keng ko'lamdagi bilimlarga, zamonaviy hisoblash texnikasi, informasion aloqa va kommunikasiya tizimlari, orgtexnika vositalari va ulardan foydalanish borasida yetarli malakalarga ega bo'lishi, hamda, yangi informasion texnika va texnologiya asoslarini uning ertangi kuni, rivoji to'hrisidagi bilimlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'lishi kerak.

Zamonaviy hisoblash texnikalari va informasion texnologiyaning kun sayin rivojlanib, jamiyatning esa tobora informatizasiyalashib borishi sababli, uzluksiz ta'lim tizimining o'rta va yuqori bosqichlariga informatika, ishlab chiqarish va boshqarish jarayonlarini kompyuterlashtirish bo'yicha bir qator o'quv fanlari kiritilgan. XX asr o'rtalariga kelib tezkor mashina mexanizmlardan foydalana boshlandi, murakkab texnika va texnologiyalar o'ylab topildi. Ko'pgina masalalarni hal hilish jarayonida axborot hajmi behisob bir majmuaga aylanadi, hamda bu axborotlarni yihish va uzatish vositalarni yaratish, ularni vahtida hayta ishlab, boshharish uchun zarur bo'lgan choralarni belgilab chihish kerak bo'lib holgan.




1-rasm. Termodinamika reaksiyaning issiqlik effekti

Ko'pchilik vazifalarni bajarishda boshharish jarayonlarini takomillashtirish, axborot tizimini joriy etish, mutaxassislarni kompyuterda ishlashga o'rgatish muhim ahamiyatga ega. AKT o'quvchilarni rag'batlantiradi va qiziqishini oshiradi. AKT o'quvchilarni kelajakdagi faoliyatiga tayyorlashga ko'mak beradi. Hozirgi zamonda

mehnat faoliyati o'quvchilar qoniqish bilan ishlatayotgan kompyuterlar, texnologiyalar, dasturlar va qurilmalar yordamida boshqariladi. Kimodan ekzotermik va endotermik jarayonlarga oid masalalarni AKT yordamida videoroliklar, animatsiyalar shaklida reaksiya tenglama yoki masalalarni ko'rsatib, o'quvchilarga shu asosida masala echishni topshiriq qilib berish mumkin. Termodinamika reaksiyaning issiqlik effektini tushuntirishda qo'llash mumkin (1-rasm).

O'quvchilar bu videorolik va animatsiyalarni tomosha qilishadi va ulardan foydalanib, masala shartini tuzadilar, hamda natijani oladilar (2-rasm).



2-rasm. Mis (II) xloridni natriy gidrokarbonat bilan reaksiyasi.

Kimyo- fan sifatida yuqori darajadagi abstrakt mazmunga ega. Kimyoda biz kimyoviy voqealarni "makro-darajada" kuzatamiz "mikro-darajada" talqin qilamiz va tushuntiramiz va keyin "ramziy darajada" (formula, tenglama, grafik tuzulishi, masalalar yechish va boshqalar asosida) taqdim etamiz.

2. Turg'unov, E., Nizamov, I., & Sodiqov, M. (2023). BUTIN-2-DIOL-1, 4 OLINISHI VA UNING XOSSALARI. *Theoretical and experimental chemistry and modern problems of chemical technology*, 1(01).
3. Содиков, М. К., Хужаназарова, С. Р. К., & Тургунов, Э. (2021). СИНТЕЗ ПРОСТЫХ И СЛОЖНЫХ ЭФИРОВ АЦЕТИЛЕНОВЫХ СПИРТОВ. *Universum: химия и биология*, (7-1 (85)), 85-90.
4. A. Altiyev, B. Altimhammedova "To'rtlamchi ammoniy birikmalari" Xalqaro ilmiy jurnal "BULLETEN OF SCIENCE" No1 (58) T.2. 2023-yil.
5. Abdiraximov Aliqul Xoliyorovich "Morfolinning alkil galogenidlar ishtirokida to'rtlamchi tuzlari sintezi" nomli maqolasi.
6. Kimyo va kimyogarlar 2013 yil 7-son "Kimyo ixlosmandlari" jurnali Xlor bilan tajribalar 7-qism.
7. Borisov Dmitriy Nikolayevich "Neftkimyo homashyolari asosida to'rtlamchi ammoniyli birikmalar" Kazan – 2008-yil.

Kuchkarov M.A., Raxmatullayeva V.A.*

(Toshkent, O'zbekiston)

SABAB-OQIBAT MUNOSABATLARINI O'RNATISH KO'NIKMALARINING KIMYO TA'LIMIDAGI O'RNI

Annotatsiya: Ushbu maqolada sabab-oqibat munosabatlarini o'rnatish ko'nikmalarining kimyo ta'limida tutgan o'rni tahliliy bayon etilgan. Unda sabab-oqibat munosabatlari asosida yondashuvning kimyo ta'limidagi imkoniyatlari, turlariga urg'u berilgan. Sabab-oqibat munosabatlarini o'rnatish asosida yondashuv tahliliy, kritik, kreativ fikrlash, ilmiy bashorat qilish qobiliyatlarini shakllantirishga yordam berishi asoslangan.

Kalit so'zlar: sabab-oqibat munosabati, dialektik munosabatlar, differensial yondashuv, induktiv yondashuv, deduktiv yondashuv, kognitiv kompetensiya, eksperiment, gipoteza, motivatsiya, algoritm, bilimlar analizi, bilimlar sintezi, kimyoviy qonunlar, kimyoviy nazariyalar, kimyoviy qoidalar.

**РОЛЬ НАВЫКОВ ПОСТРОЕНИЯ
ПРИЧИННО-СЛЕДСТВЕННЫХ СВЯЗЕЙ В
ХИМИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ**

**THE ROLE OF CAUSE-AND EFFECT
SKILLS IN CHEMICAL EDUCATION**

Аннотация: В данной статье анализируются роль навыков по установлению причинно-следственных связей **Annotation:** This article analyzes the role of causal skills in chemistry education. The main attention is paid to the possibilities and types of the

* **Kuchkarov Mehrididdin Asamovich** – Toshkent davlat pedagogika universiteti Kimyo va uni o'qitish metodikasi kafedrasida v/b. dotsenti, PhD

Raxmatullayeva Vazira Azamjon qizi - Toshkent davlat pedagogika universiteti talabasi

в образовании по химии. Основное внимание уделяется возможностям и типам причинно-следственного подхода в обучении химии. Подход, основанный на установлении причинно-следственных связей, основан на формировании навыков аналитического, критического, творческого мышления, научного прогнозирования.

Ключевые слова: причинно-следственная связь, диалектические отношения, дифференциальный подход, индуктивный подход, дедуктивный подход, когнитивная компетентность, эксперимент, гипотеза, мотивация, алгоритм, анализ знаний, синтез знаний, химические законы, химические теории, химические правила.

cause-and-effect approach in teaching chemistry. The approach based on the establishment of cause-and-effect relationships is based on the formation of analytical, critical, creative thinking, and scientific forecasting skills.

Key words: cause-and-effect relationship, dialectical relations, differential approach, inductive approach, deductive approach, cognitive competence, experiment, hypothesis, motivation, algorithm, knowledge analysis, knowledge synthesis, chemical laws, chemical theories, chemical rules.

Hozirgi kunda ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan vazifalar sirasiga nafaqat malakali ijrochini yetishtirish, balki bugungi axborot oqimidan samarali foydalanadigan, murakkab munosabatlarga boyib borayotgan hayot davomida mustaqil va oqilona qaror qabul qiluvchi, voqea, hodisalarga, vaziyatga mustaqil baho beruvchi va shunga muvofiq faoliyat tashkil etuvchi kadrlarni yetishtirish vazifasi ham kiradi. Inson hayoti va faoliyati uchun kelajakda foydalanish uchun to'plangan zahiralar, o'rgangan har bir narsaning qandaydir ichki yuklamalar zaxirasiga ega bo'lishi emas, balki funktsional faoliyat fazilatlarini namoyon qilish va undan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Shuning uchun o'quvchilar tomonidan yangi bilim, ko'nikma va malakalarni, jumladan, o'rganish qobiliyatini mustaqil o'zlashtirish muammosi ahamiyat kasb etib, bugungi kunda ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Buning uchun universal o'quv faoliyatini rivojlantirish katta imkoniyatlarni taqdim etadi. Universal o'quv faoliyati - bu o'quvchilarni turli fan sohalarida ham, o'quv faoliyatining o'zi tuzilmasida ham keng yo'naltirish, shu jumladan o'quvchilarning maqsadli yo'naltirilganligi, qadriyat-semantik va operatsion xususiyatlarini anglab yetishi imkoniyatini ochib beradigan umumlashtirilgan faoliyatlardir.

Sabab-oqibat munosabatlarini o'rnatish o'quvchilarida turli fanlar bo'yicha shakllantiriladigan asosiy universal faoliyat yo'nalishlaridan biridir. Bu borada kimyo ta'limi juda katta yuklama bilan fanlar markazida turadi.

Sabab-oqibat munosabatlarini shakllantirish uslubi aqliy faoliyatlarni bosqichma-bosqich shakllantiruvchi texnologiyasiga asoslangan. Pedagogika fanida sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash qobiliyatini shakllantirish muammosi ko'pchilik tadqiqotlarda ham alohida o'rin tutadi [1, 4, 7]. Sabab-oqibat munosabatlarini o'rnatish qobiliyatini samarali shakllantirish uchun o'qituvchi zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratishi kerak. Bunday pedagogik shartlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

o'quvchilar mavjud hodisalar va yangi faktlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarga duch keladigan muammoli vaziyatlar yaratish;

o'quvchilar yechim topishlari va ularni asoslab berishi kerak bo'lgan ochiq vazifalar;

gipotezalar, taxminlar va ularni kichik guruhlarda muhokama qilish;

olingan bilimlarning amaliy ahamiyatini aniqlash va uni hayotiy vaziyatlarda qo'llash bo'yicha takliflar.

Agar o'qituvchi ijobiy ruhiy muhit va muvaffaqiyatga yo'naltiruvchi vaziyatni yaratsa, bu o'quv vazifalarini muvaffaqiyatli hal qilishda turli xil o'quv imkoniyatlariga ega bo'lgan har bir o'quvchiga ishonch bag'ishlaydi [2].

Sabab-oqibat munosabatlarini o'rnatish qobiliyati bir qator mantiqiy operatsiyalarni (tahlil, sintezlash, taqqoslash, abstraktlashtirish, umumlashtirish) bajarishga asoslangan fikrlash va xulosalarni chiqarish orqali haqiqatni bilishning murakkab, integrativ jarayonidir.

Ta'lim faoliyati jarayonida sabab-oqibat munosabatlarini o'rnatish qobiliyati bir necha bosqichlardan o'tishi kerak. Dastlab ushbu mantiqiy fikrlash uslubi maxsus assimilyatsiya predmeti sifatida, keyin obyektlar va hodisalar o'rtasida bog'liqlik o'rnatish vositasi va nihoyat, maktab o'quvchisi keyingi sinflarda muvaffaqiyatli intellektual rivojlanish uchun maktabda egallashi kerak bo'lgan umumiy universal ta'limiy-tarbiyaviy ko'nikmalarning bir qismi sifatida faoliyat yuritadi.

Sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash ko'nikmasi quyidagi tarkibiy elementlarni o'z ichiga oladi:

taqdim etilgan hodisani (jarayon, voqelik, vaziyatni) tushunish;

hodisalarning umumiy va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

fenomenning muhim belgilarini (sabablarini) aniqlash;

hodisaning mumkin bo'lgan oqibatlari haqida hukmni shakllantirish.

fikrlash va xulosalar orqali qilingan taxminlarni asoslash.

Sabab-oqibat munosabatlarini o'rnatish ko'nikmalarining bunday tuzilishi, o'quvchilarning dastlab nisbatan sodda ko'nikmalarga ega bo'lishini nazarda tutadi:

obyektlarning xossalarini farqlash;

obyektlarning umumiy va o'ziga xos xususiyatlari haqida tasavvurga ega bo'lish;

obyektlardagi muhim va asosiy bo'lmagan xususiyatlarni aniqlash;

obyektlarning o'ta zarur va yetarli darajadagi xususiyatlarini ajratish;

predmetning detallari va kelib chiqishiga doir ma'lumotlarni o'rganish;

eng oddiy xulosalarni chiqarish.

Tadqiqot qobiliyatlarini samarali rivojlantirish uchun o'qituvchi zarur pedagogik shart-sharoitlarni, jumladan, ijobiy ruhiy muhitni, maqsadli pedagogik faoliyatning tashkillashtirilganligi, muvaffaqiyatga yo'naltiruvchi muhitni yaratishi muhim, bu esa

har bir o'quvchiga murakkab ta'limiy vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishda ishonch, motivatsiya bag'ishlaydi.

Bundan tashqari, faoliyatni tashkil qilishda o'qituvchining ma'lum bir algoritmgga rioya qilishi ham muhimdir:

o'quvchilar mavjud hodisalar va yangi faktlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarga duch keladigan muammoli vaziyatlarni yaratish;

o'quvchilarni o'z g'oyalari va taxminlarini shakllantirishga va ifoda etishga, kichik guruhlarda muhokama qilish orqali farazlarni ilgari surishga rag'batlantirish;

o'quvchilarni olingan bilimlarning amaliy ahamiyatiga yo'naltirish.

Sabab-oqibat munosabatlarini o'rnatish qobiliyatini rivojlantirishning yana bir muhim sharti – o'quvchilarning propedevtik (tayyorgarlik) ko'nikmalariga asoslangan tadbirlarni tashkil etishdir. Bu turdagi bilimlar majmuasidan foydalanish o'rganilayotgan materialni takrorlash va o'quvchi tomonidan yangi faktlar bilan taqqoslash uchun zarur bo'lgan bilimlarni ongli ravishda tanlab olish, ya'ni sabab-oqibat munosabatlarini o'rnatish bilan bog'liq bo'ladi.

Xabardor bo'lish, anglash va tafakkur qilish ongga xos xususiyat bo'lib, bu sabab va oqibatlarni aniqlash, savollarga javob berish, muntazamliklarni o'rnatish, sabab-oqibat munosabatlarini ochib berish bilan bog'liq bo'lib, bunday yondashuv ayniqsa moddalarning tarkibi, tuzilishi, xossalari, ularning bir-biriga aylanishi, bu jarayonlarning shart-sharoitlari kabi tushunchalarni mujassamlashtirgan kimyo ta'limida alohida o'rin tutadi [5, 6, 7, 8].

O'rganish jarayonida sabab-oqibat munosabatni aniqlash ko'nikmasini shakllantirish bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Avval o'quvchi uchun mantiqiy faoliyat uslubi assimilyatsiya obyektiga aylanadi, keyin u hodisalar va obyektlar orasidagi bog'liqlikni topish vositasiga aylanadi, so'ngra muvaffaqiyatli intellektual rivojlanishi uchun o'zlashtiriladigan umumiy ta'limiy ko'nikmalarning bir qismiga aylanadi.

Bu maqsadda didaktik o'yinlarni qo'llash maqsadga muvofiq.

Sabab-oqibat ko'nikmalarini shakllantirish, intellektual faollikni rivojlantirish, ixtiyoriy harakatlarni talab qiladigan muammolarni qidirish vaziyatlarini yaratishning samarali usullari vositasida amalga oshiriladi. Vizuallashtirish tizimi muhim o'rin tutib, sabab-oqibat munosabatini yaratishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Ma'lum vaqt mobaynida ortirilgan tajribalar yordamida o'quvchilarning bilim va ko'nikmalari qadriyatlarga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Кривых С.В. Приобщение учащихся к методам научного познания как средства формирования рефлексивных умений при изучении химии. Дисс.канд. пед. наук. Омск, 1997. -187 с.

2. Минченков Е.Е. Совершенствование умений осуществлять умственные действия. // Химия в школе. 2000. - № - 3. - с. 19-25.
3. Смирнова Т.Ф. Формирование научного мировоззрения учащихся при изучении химии: Из опыта работы. Пособие для учителя. М.: Просвещение, 1984. - 175 с.
4. Суртаева Н.Н. Формирование и использование химической картины природы при обобщении знаний учащихся по химии. Дисс. канд. пед.наук. Л., 1987. - 225 с.
5. Чернобельская Г.М. Методика обучения химии в средней школе: Учеб. для студ. высш. учеб. заведений. М.: ВЛАДОС, 2000. - 336 с.
6. Ярких Л.А. Деятельность учителя химии по развитию умений устанавливает причинно-следственные связи при решении воспитательных задач: Автореф. дис... канд. пед.наук. –М.: 2004. -20 с.
7. Кучкаров, М. А. (2022, December). КИМЁВИЙ ЭКСПЕРИМЕНТ-ЎЎУВЧИЛАРНИНГ ТАНҚИДИЙ-ИЖОДИЙ ФИКРЛАШ ҚОБИЛИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРУВЧИ ВОСИТА СИФАТИДА. In *Proceedings of International Educators Conference* (Vol. 1, No. 3, pp. 313-317).
8. Asamovich, K. M., & Muxlisa, M. (2024). THE USE OF DIAGONAL SIMILARITY LAWS IN THE COMPARATIVE STUDY OF THE PROPERTIES OF CHEMICAL ELEMENTS. *Web of Teachers: Inderscience Research*, 2(1), 1-5.

Kuchkarov M.A., Turdiyev Z.Z.*
(Toshkent, O‘zbekiston)

KIMYO TA'LIMIDA MNEMOTEKNIKA VOSITALARIDAN FOYDALANISH KOGNITIV QOBILİYATLARNI SHAKLLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA

Annotatsiya: Ushbu maqolada kimyo fanini o‘qitishda mnemotexnika vositalaridan foydalanish orqali kognitiv qobiliyatlarini shakllantirish imkoniyatlari tahliliy bayon etilgan. Unda kimyo ta'limida mnemotexnika usullaridan foydalanishga urg'u berilgan. Axborotlarni o'zlashtirishda mnemotexnika usullaridan foydalanish o'quvchilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirib borishi asoslangan.

Kalit so‘slar: mnemotexnika, kognitiv qobiliyat, piktogramma, motivatsiya, aldegidlar, sifat reaksiya, indikator, metilzarg‘aldoq.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МНЕМОТЕХНИКИ В ХИМИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ КАК ИНСТРУМЕНТА ФОРМИРОВАНИЯ КOGNITИВНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ

THE USE OF MNEMONICS IN CHEMICAL EDUCATION AS A TOOL FOR THE FORMATION OF COGNITIVE ABILITIES

Аннотация: В данной статье аналитически изложены возможности формирования познавательных способностей через использование мнемотехники в обучении химии. В нем упор делался на использование методов мнемотехники в химическом образовании. Обосновано использование приемов мнемотехники в усвоении информации, развивает познавательные способности учащихся.

Annotation: This article analytically outlines the possibilities of forming cognitive abilities through the use of mnemonics in teaching chemistry. It focused on the use of mnemonics methods in chemical education. The use of mnemonics techniques in the assimilation of information is justified, develops the cognitive abilities of students.

Ключевые слова: мнемотехника, когнитивные способности, пиктограмма, мотивация, альдегиды, качественные реакции, индикатор, метилоранж.

Keywords: mnemonics, cognitive abilities, badges, motivation, aldehydes, kwalitatibong reaksiyon, tagapagpahiwatig, methyl orange.

*Kuchkarov Mehridin Asamovich – Toshkent davlat pedagogika universiteti Kimyo va uni o‘qitish metodikasi kafedrası v/b. dotsenti, PhD
Turdiyev Zarif Ziyodulla o‘g‘li- Sahrisabz tuman №74 maktab o‘qituvchisi

Hozirgi axborotlar bilan to‘yingan muhitda ta’lim oluvchilar uchun axborotlar bilan ishlash qobiliyatini rivojlantirish juda muhim ahamiyat kasb etadi. An’naviy o‘qitish usullari ma’ruzalar, darsliklar va sinf mashg‘ulotlarini o‘z ichiga olib, o‘quvchilar asosan o‘qituvchidan ma’lumot olish va dastur doirasida tahlil qilish hamda taqdim qilishga asoslangan bo‘lishiga qaramay ularda ham ko‘p hajmdagi axborotlarni o‘zlashtirish bilan bog‘liq muammolar mavjud edi. Muammoli ta’limni joriy etilishi qo‘yilgan muammolarni hal qilish orqali axborotlar bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishni o‘z ichiga olgan metodlar o‘quvchilarni hayotiy vaziyatlarga asoslangan yechimlarni ishlab chiqish uchun ma’lumotlarni izlash, ularni tahlil qilish va sintez qilishga yo‘naltiradi [1, 2]. Ta’limdagi kognitiv jarayonlar o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishini ta’minlaydi, barcha turdagi ma’lumotlar, manbalar va bilimlarni o‘zlashtirish sifatini ortishiga hissa qo‘shadi. Bu, o‘z navbatida, bilish jarayonini o‘zlashtirishga, turli xil bilimlarni semantik tahlil qilishga, fikrlash jarayonlarini rivojlantirishga va fanlarni o‘qitishda ijobiy motivatsiyani mustahkamlashga olib keladi. O‘quvchilarning kognitiv ko‘nikmalarini shakllantirishda, turli tuman bilimlarni keng qamrovda, zo‘riqishlarsiz, ko‘tarinki kayfiyatda o‘zlashtirish uchun yordamchi usullardan foydalanish zamon talabi hisoblanadi [3, 4, 5]. Qisqa vaqt ichida, katta hajmdagi axborotlarni oson o‘zlashtirishga imkon beruvchi usullardan biri mnemotexnika hisoblanadi.

Mnemotexnika biror tushunchani eslab qolishda, yaxshi tanish bo‘lgan boshqa bir tushuncha, belgi (piktogramma), so‘z yoki sonlar bilan bog‘liqlik tomonlarini topib, shu yo‘l bilan eslab qolishga asoslangan. Bu yo‘l bilan hech qiyinchiliksiz formulalarni, qoidalarni, sonlarni eslab qolishga, ko‘pincha bir-biri bilan adashtiriladigan tushunchalarni ajratib olishga erishish mumkin. Ma’lumotlarda sun’iy ravishda umumiyliklar topish orqali eslab qolinadigan ma’lumotlar hajmini oshirish va xotirada mustahkamlab borish mumkin. Mnemotexnikadan foydalanish ixtiyoriy xotirani boshqarish imkoniyatini oshiradi. Dastlab mnemotexnikadan oratorlar ritorikaning bir qismi sifatida uzun og‘zaki nutqlarini eslab qolish uchun foydalangan. Zamonaviy mnemotexnika endi faqat ma’lumotlar uchun xotiraga belgilar qo‘yish bo‘libgina qolmay, ham nazariy ham texnik jihatdan rivojlanib, har qanday esda saqlash qiyin bo‘lgan ma’lumotlarni ham bexato eslab qolish imkoniyatini beradi. Mnemotexnika usullaridan kimyo ta’lim tizimida ham samarali foydalanish mumkin.

Nazariy tushunchalar bilan ishlashda, masalalar yechish davomida yoki eksperimentlarni tashkil etish mobaynida ma’lum jarayonlar yoki ma’lumotlarning ketma-ketligini eslab qolish yoki ularni bir-biridan farqlab olish uchun ranglarga va ularning uchrash tartibiga bog‘lash orqali yodda saqlashni osonlashtirish mumkin [6].

1. Asamovich, K. M. (2023). POSSIBILITIES OF WIDE USE OF PRACTICAL METHODS IN CHEMISTRY EDUCATION. In *Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and H*
2. Asamovich, K. M. (2023, January). ТАЪЛИМДА ОБЪЕКТ ВА СУБЪЕКТЛАР ОРАСИДАГИ МУНОСАБАТЛАРНИНГ ФАОЛЛИК ДАРАЖАСИГА КЎРА ҚЎЛЛАНИЛАДИГАН МЕТОД ШАКЛЛАРИ. In *Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies* (Vol. 2, No. 1, pp. 165-168). *umanities* (Vol. 2, No. 1, pp. 44-47).
3. Kuchkarov, M. A. (2022). POSSIBILITIES OF USING A CHEMICAL EXPERIMENT ON THE FORMATION OF STUDENTS' CRITICAL THINKING COMPETENCIES. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(04), 108-112.
4. Kuchkarov, M. (2023). KIMYODAN NAZARIY BILIMLAR VA AMALIY KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHDA TURLI MANTIQUIY YONDASHUVLARDAN FOYDALANISH. *Theoretical and experimental chemistry and modern problems of chemical technology*, 1(01).
5. Kuchkarov, M. (2023). THE USE OF MNEMONIC METHODS IN CHEMICAL EDUCATION. *Theoretical and experimental chemistry and modern problems of chemical technology*, 1(01).
6. Yuldashevich, I. A., Asamovich, K. M., & Ergashovich, S. I. (2023). EKSPERIMENTAL TAJRIBALAR YORDAMIDA O'QUVCHILARDA TADQIQOTCHILIK, AMALIY VA TABIIY-ILMIY SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISH. *Innovation: The journal of Social Sciences and Researches*, 1(5), 59-67.

Bobojonov B.B., Bozorov A.O'., Madatov O'.A.*
(Toshkent, O'zbekiston)

XROMNI ATROF MUHIT HAMDA TIRIK ORGANIZIMLARGA TA'SIRI VA FIZIK-KIMYOVIY USULLAR YORDAMIDA ANIQLASH

Annotatsiya: *Mazkur maqolada xromni atrof muhit hamda tirik organizimlarga ta'siri va fizik-kimyoviy usullar yordamida aniqlash haqida qisqacha yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *potensiometrlik, 1,10-batofenantrolin, 2-gidroksi-5-yodatfenol, difenilkarbazid, N,N-dietil-1,4-fenilendiamin.*

ВОЗДЕЙСТВИЕ ХРОМА НА ОКРУЖАЮЩУЮ СРЕДУ И ЖИВЫЕ ОРГАНИЗМЫ И ОПРЕДЕЛЕНИЕ ФИЗИКО-ХИМИЧЕСКИМ МЕТОДАМИ

Аннотация: *В данной статье кратко рассмотрено влияние хрома на окружающую среду и живые организмы и его определение физико-химическими методами.*

Ключевые слова: *потенциометрический, 1,10-батифенантролин, 2-гидрокси-5-иодатефенол, дифенилкарбазид, N,N-диэтил-1,4-фенилендиамин.*

IMPACT OF CHROMIUM ON THE ENVIRONMENT AND LIVING ORGANISMS AND DETERMINATION BY PHYSICOCHEMICAL METHODS

Abstract: *This article briefly examines the impact of chromium on the environment and living organisms and its determination by physicochemical methods.*

Keywords: *potentiometric, 1,10-bathophenanthroline, 2-hydroxy-5-iodatephenol, diphenylcarbazide, N,N-diethyl-1,4-phenylenediamine.*

* **Bobojonov Bunyod Bo'jonovich**– Nizomiy nomidagi TDPU, Tabiiy fanlar fakulteti PhD, katta o'qituvchisi
Bozorov Asilbek O'ktam o'gli- Nizomiy nomidagi TDPU, 4-kurs talabasi
Madatov O'tkir Abdurahimovich- O'zbekiston Milliy universiteti Kimyo fakulteti PhD, katta o'qituvchisi

Xromni atrof muhit va tirik organizimlarga ta'siri: Xrom barcha tirik organizmlarda oz miqdorda bo'lsada ularning normal yashashi uchun zarur bo'lib, hayvonlar va odamlarning tanasida normal uglevod almashinuvini ta'minlash uchun zarurdir. Xrom insulin faolligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xromning hayvonlar va odamlar hayoti uchun ahamiyati aniqlangandan so'ng o'simliklardagi ta'sirini o'rganishga katta e'tibor berila boshlandi [1]. Xromning o'simliklar hayotidagi o'rni bo'yicha tadqiqotlar katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lishiga qaramay bu masala kam o'rganilgan va shuning uchun mahalliy va xorijiy adabiyotlarda yetarli darajada yoritilmagan [2]. Xromning qo'llaniladigan miqdori, birikmalarning shakllariga qarab, turli ekinlarning o'sishi va rivojlanishiga, ham ta'sir turlicha ekanligi o'rganilgan. Bu hosildorlik va mahsulot sifatida o'z aksini topdi [3]. Tuproqdagi xrom miqdori ko'paygan taqdirda, ushbu elementning o'simliklarning hosildorligiga salbiy ta'siri, shuningdek, uning ortiqcha to'planishi, inson va hayvonlar uchun xavfli bo'lganligi aniqlangan [4].

Xrom ionini fizik-kimyoviy usullar yordamida aniqlash: Xrom (VI) ionlarini potensiomertik PVC matritsali membrana sensori yordamida aniqlash uchun elektroaktiv nikel tris(1,10-batofenantrolin) xromiti tanlangan bo'lib erituvchi vositachisi sifatida 2-nitrofenil efiri tanlangan va eritma fosfat bufer yordamida pH=5 ga teng ekanligi o'rganilgan. Konsentratsiya $2 \cdot 10^{-2}$ - $8 \cdot 10^{-6}$ M ga $55,5 \pm 0,2$ mV holatda Cr^{6+} ionni aniqlash samaradorligi o'rganildi. Aniqlash chegarasi 0,4 mkg/ml teng bo'lishi aniqlandi. Eritmada Cr^{6+} hamda Cr^{3+} ionlari bo'lsa dastlab Cr^{3+} ionlari oksidlanib umumiy xromni o'lchash orqali Cr^{6+} va Cr^{3+} ionlarni ketma-ket aniqlash uchun qollanildi. 0,5-50 mkg/ml konsentratsiyasi darajasida Cr^{3+} hamda Cr^{6+} ionlarining o'rtacha tiklanishi mos ravishda $98,1 \pm 0,4\%$ va $99,1 \pm 0,4\%$ ni tashkil qiladi. Taklif etilgan usul ba'zi sanoat tarmoqlarining masalan, teri ko'nchilik, elektrokaplama, alyuminiy bo'yash hamda oqava suvlarida Cr^{3+} va Cr^{6+} ionlari aniqlashda qollanilgan. Natijalar standart difenil-karbazid spektrofotometrik usuli yordamida olingan ma'lumotlarga juda mos keladi [5].

Suv havzalarida og'ir metallar miqdorini davriy monitoring qilishning tez, arzon va sezgir tahliliy usuliga ehtiyoj katta bo'lib bu ishda birinchi marta kolorimetrik zondlash asosida oz miqdorda metallarni aniqlashning universal usuli taklif qilindi. Usul nanomaterial yordamida oldindan konsentratsiyani to'g'ridan-to'g'ri metall bilan boyitilgan nanomaterial yuzasida amalga oshiriladigan kolorimetrik tahlil bilan birlashtirildi. Bu usul namunani oldindan ishlov berish bosqichlaridan, murakkab kolorimetrik usul ishlab chiqishdan qochadi va shu bilan analitik protseduraning murakkabligini kamaytiradi. Konsentratsiya materiali sifatida amin-funksional mezopoz kremniy (AMS) ishlatilgan. AMS ning fizik-kimyoviy xossalari tasdiqlash uchun uning strukturaviy va kimyoviy tahlili o'tkazildi.

Kolorimetrik signalni maksimal darajada oshirish uchun oldindan konsentratsiya shartlari optimallashtirildi. AMS 0,5 mkg/l dan past bo'lgan Cr (VI) ionlarining konsentratsiyasida oqdan binafsha ranggacha sezilarli rang o'zgarishini ko'rsatgan. Bu usul boshqa metall ionlaridan kollorimetrik signalsiz Cr (VI) ionlari uchun yuqori selektiv ekanligi o'rganildi. Bu tahlil usuli resurslar cheklangan sharoitlarda organik/noorganik ifloslantiruvchi moddalarni markazlashtirilmagan monitoringi uchun katta imkoniyatlarga ega deb hisoblangan [6].

Xrom (VI) ionini aniqlashning spektroskopik analiz usullari: Hidrofob aminlar ishtirokida xrom (VI) ionining 2-gidroksi-5-yodatfenol (HITP) bilan komplekslanishini o'rganish uchun spektrofotometrik usullar qo'llanilgan. Hidrofob aminlardan (Am) o-oksilidin va m-ksilidin ishlatilgan. Xloroform, dixloretan va xlorbenzol eng yaxshi ekstraktorlar ekanligi isbotlangan. Xloroform bilan bitta ekstraksiyadan so'ng xromning 97,4-98,8% ionli assotsiatsiya sifatida ajralib chiqadi. Aralash ligand komplekslari kuchsiz kislotali muhitda pH=0,2-6,9 hosil bo'lishi aniqlangan. Komplekslarning yutilish spektrida maksimal $\lambda=475-492$ nm da kuzatilgan. Molyar yutilish koeffitsiyentlari $3,1 \cdot 10^4 - 3,3 \cdot 10^4$. Reaksiyaga kirishuvchi komponentlarning stoxiometrik nisbati Cr:HITP:Am=1:3:3. Ber qonuni xromning 0,5-20 $\mu\text{g/ml}$ konsentratsiyasi oralig'ida amal qiladi. Topilgan dalillar asosida tuproqlarda xromni aniqlashning fotometrik usullari ishlab chiqilgan [7].

Xromat difenilkarbazid (DFC) bilan kompleksi 546 nm da to'g'ridan-to'g'ri spektrofotometrik aniqlangan. Optimal sharoitda ko'pchilik metall ionlari (Cr (III), Fe (III), Cu (II), Hg (II), Mo (VI), V (V)) va noorganik anionlar xalaqit bermaydi. 0,02 ng/ml Cr (VI) ionini aniqlash chegarasiga 100 ml namuna yetarli ekanligi aniqlangan. Bu usul ichimlik suvi, yer usti va yer osti suvlari namunalarida Cr (VI) ionini aniqlashda muvaffaqiyatli qo'llanilgan [8].

Eritmadagi xrom ionlarini aniqlashning oddiy, tez va aniq spektrofotometrik usuli ishlab chiqilgan. Cr (VI) ionining N,N-dietil-1,4-fenilendiamin bilan reaksiyasi maksimal yutilish to'lqin uzunligi 530 nm bo'lgan qizil kompleks hosil bo'lishi aniqlandi. Molyar yutilish koeffitsiyentlari $5,0 \cdot 10^4$ l/mol·sm, aniqlash chegarasi 0,002 $\mu\text{g/ml}$ va 5,04 $\mu\text{g/ml}$. Cr (VI) ionini siklogeksan-diamintetraatsetat kislota bilan niqoblab Cr (VI) ionini, so'ngra Cr (III) ionini oksidlash orqali umumiy miqdorni aniqlash yo'li bilan o'lchangan. Usul qoniqarli natijalar bilan xrom ionini o'z ichiga olgan ba'zi sanoat oqava suvlarini tahlil qilishda qo'llanilgan [9].

Xulosa: Yuqoridagi adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlarni taxlili shuni ko'rsatdiki, so'ngi yillarda analitik kimyoda xrom (VI) ionini aniqlashning sezgirligini oshirish uchun turli xil usullar, jumladan organik reagentlardan foydalangan holda qattiq fazada aniqlash ishlari keng tarqalgan.

Adabiyotlar sharxini tahlili shuni ko'rsatadiki, xrom (VI) ionini fotometrik usullar bilan aniqlash uchun yuqoridagi organik reagentlarning ko'pchiligi analitik reaksiyalarga qo'yiladigan tablablarga javob bermaydi, metrologik tavsiflarini pastligi bilan qo'llash imkoniyatlarini cheklaydi. Qo'shimcha bo'lgan ajratish, konsentrlash operatsiyalarni bajarilishi talab qiladigan murakkab jarayonlarini ko'pligi va ushbu metallarni aniqlash ekspressligini pastligi kuzatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Камбурова М., Ранков В. Влияние на продължителното върхусдържанието на хром в ранно главесто зеле.// Научн. Труд. Высш. Селскостоп. Инст. Пловдив. 1993. Т 35. № 1. С 49-60.
2. Singh M., Bhandali D.K., Singh N. Effect of selenium and sulfur on the growth of sorghum (*Sorghum vulgare*) and availability of selenium and sulfur.// Indian J. Plant Physiology. 1976. № 1. P. 9-11.
3. Rueter D.J. The recognition and correction of trace element deficiencies.// Trace elements in soil plants-animal systems. 1975. P 291-293.
4. Шеуджен А.Х. Майкоп: ГУРИПП Адыгея.// Биогеохимия. 2003. 1028 с.
5. Hassan S.S.M., Abbas M.N., Moustafa G.A.E. Hydrogen chromate PVC matrix membrane sensor for potentiometric determination of chromium (III) and chromium (VI) ions.// Talanta 1996. V 43. № 5. С 797-804.
6. Rajesh G., Saranya G., Renganathan T., Pushpavanam S. Adsorptive colorimetric determination of chromium(VI) ions at ultratrace levels using amine functionalized mesoporous silica.// [Scientific Reports](#) .2022. V 12. № 1. P 5673.
7. Хасанова Н.С., Исследование реакций комплексования хрома (VI) с 2-гидрокси-5-едиофенолом в присутствии гидрофобных аминов.// Химья проблеме. 2019. Т 17. № 4. С 518-525.
8. Padarauskas A., Judzentiene A., Naujalis E., Paliulionyte V. On-line preconcentration and determination of chromium(VI) in waters by high-performance liquid chromatography using pre-column complexation with 1,5-diphenylcarbazine.//Journal of chromatography A. 1998. Т 808. № 1-2. С 193-199.
9. Zahang M., Zahang Q., Fang z., Lei Z. Colour reaction of chromium (VI) with N,N-diethyl-1,4-phenylenediamine in the presence of ethanol and cyclohexyldiamine tetraacetic acid as well as its application in the species analysis of chromium.// Talanta. 1999. Т 48. № 2. С 369-375.

Bobojonov B.B., Nasrullayeva M.K., Raximov S.B*
(Toshkent, O'zbekiston)

MOLIBDENNI ATROF MUHIT HAMDA TIRIK ORGANIZIMLARGA TA'SIRI VA FIZIK-KIMYOVIY USULLAR YORDAMIDA ANIQLASH

Annotatsiya: *Mazkur maqolada molibdenni atrof muhit hamda tirik organizimlarga ta'siri va fizik-kimyoviy usullar yordamida aniqlash haqida qisqacha yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *ferment, 4,4-gidroksietilendi, poliamin, pirogallol fosfat kislota,*

***Bobojonov Bunyod Bo'jonovich**– Nizomiy nomidagi TDPU, Tabiiy fanlar fakulteti PhD, katta o'qituvchisi
Nasrullayeva Marjona Komiljon qizi - Nizomiy nomidagi TDPU, 4-kurs talabasi
Raximov Samariddin Bahodirovich- O'zbekiston Milliy universiteti Kimyo fakulteti PhD, dotsent

albumin, 2,6,7-trigidroksi-9-(4-xlorofenil)-3H-ksanten-3-on, potensiometriki.

**ВОЗДЕЙСТВИЕ МОЛИБДЕН НА
ОКРУЖАЮЩУЮ СРЕДУ И ЖИВЫЕ
ОРГАНИЗМЫ И ОПРЕДЕЛЕНИЕ
ФИЗИКО-ХИМИЧЕСКИМИ МЕТОДАМИ**

Аннотация: В данной статье кратко рассмотрено влияние молибдена на окружающую среду и живые организмы и его определение физико-химическими методами.

Ключевые слова: фермент, 4,4-гидроксиэтиленди, полиамин, пирогаллол-фосфорная кислота, альбумин, 2,6,7-тригидрокси-9-(4-хлорфенил)-3H-ксантен-3-он, потенциометрический.

**IMPACT OF MOLYBDENUM ON THE
ENVIRONMENT AND LIVING ORGANISMS
AND DETERMINATION BY
PHYSICOCHEMICAL METHODS**

Abstract: This article briefly examines the impact of chromium on the environment and living organisms and its determination by physicochemical methods.

Keywords: enzyme, 4,4-hydroxyethylenedi, polyamine, pyrogallolphosphoric acid, albumin, 2,6,7-trihydroxy-9-(4-chlorophenyl)-3H-xanthen-3-one, potentiometric.

Molibdenni atrof muhit va tirik organizmlarga ta'siri: Ilmiy izlanishlar molibdenning 50-100 yil ichida tugashi mumkinligini ko'rsatadi, bu xolat eng qisqa vaqt ichida birlamchi molibden resurslaridan global foydalanishni sezilarli darajada kamaytirish kerakligini ta'kidlaydi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, asosiy e'tibor molibdenni qayta ishlashni oshirishga qaratilishi kerak, chunki uning asosiy joylarida molibdenni almashtirish salohiyati deyarli yo'q. Buning uchun muddati tugagan mahsulotlardan molibdenni qayta ishlash darajasini hozirgi 20% dan 80% dan ortiqroqqa oshirish kerak bo'ladi [1]. Molibdenning elektr o'tkazuvchanligi temirning elektr o'tkazuvchanligiga nisbatan yuqori va misga qaraganda past. Mexanik ta'siriga ko'ra, molibden volframdan biroz pastroq, ammo bosim bilan ishlov berish osonroq. O'tga chidamli metall molibden zamonaviy sanoatda turli qotishmalarga qo'shimcha sifatida ham, strukturaviy material sifatida ham keng qo'llaniladi [2]. Molibdenni olishning asosiy muammosi shundaki, uning erish temperaturasi juda yuqori: 2622°C. Shuning uchun uni ishlab chiqarish uchun ma'lum bo'lgan metallurgiya usullarini qo'llash mumkin emas bunday issiq pechni qoplash uchun material yo'q. U grafitdan tayyorlanishi mumkindek tuyuladi, ammo keyin eritilgan molibden bu elementni o'zlashtiradi va sovutilganda metallardan karbidlar ajralib chiqadi, bu esa materialni mo'rtlashtiradi. Bundan tashqari, molibden yuqori haroratlarda oksidlanadi [3]. Tabiiy suvlardagi molibdenning oksidlanish-qaytarilish kimyosi uning biologik evolyusiyadagi ishtiroki shuni ko'rsatadiki, molibden turli valentliklarga ega (III dan VI gacha) va 60 dan ortiq fermentlar uchun kofaktorlar hosil bo'lishida ishtirok etishi o'rganilgan [4].

Molibden ionini fizik-kimyoviy usullar yordamida aniqlash: Molibden (VI) ionlarining 4,4-gidroksietilendiamin va ba'zi poliaminlar asosidagi yangi anion almashinuvchilar bilan sorbsiyasi o'rganildi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sintez qilingan ion almashinuvchilar yuqori almashinish qobiliyatiga ega -11,0 mg·ekv/g gacha va shunga mos ravishda sorbsiya qobiliyati ortib boradi. Kompleks hosil qiluvchi anion almashinadigan smolaning tarkibi, tuzilishi IQ spektroskopiyasi va

elementar tahlil yo'li bilan o'rganildi [5]. Pirogallol fosfat kislotasi bilan kislotali muhitda molibden, volfram va titan ionlari bilan qizil rangli kompleks birikmalar hosil qilishi aniqlangan. Kislotali muhitda fosfat kislotasi Me-PA birikmalari analitik ahamiyatga ega emas, lekin kationik sirt faol moddalar mavjudligida ular yuqori metrologik xarakteristikalar bilan ajralib turadi [6]. Mo (VI) ionini benzenzoetan eritmasi bilan turli kislotasi-asos xossalari ega bufer aralashmalar, fon elektrolitlarida optimal titrlash sharoitida amperometrik titrlash shartlari va imkoniyatlari keltirilgan. Aniq kislotali xususiyatlarga ega bufer aralashmalar uchun titrlash egri chiziqlari olingan. Mo (VI) ionini turli metrologik xarakteristikalar va analitik parametrlarga ega benzenzoetan eritmasi bilan aniqlashning amperometrik usullari ishlab chiqilgan [7].

Molibden (VI) ionini aniqlashning spektroskopik analiz usullari: Qoramol va odam zardobidagi albumin oqsillarni aniqlash uchun $\text{pH}=2,2-3,7$ muxitda molibden (VI) ionini hamda 2,6,7-trigidroksi-9-(4-xlorofenil)-3*H*-ksanten-3-on (p-Cl-PF) ishtirokida xona haroratida 3 minut davomida reaksiyaga kirishib, supramolekulyar kompleks hosil qilingan. Hosil bo'lgan kompleks kamida 6 soat barqaror bo'lib, bu esa p-Cl-PF va Mo (VI) ion kompleksining 530 nm da maksimal yutilishi aniqlangan. Inson tanasi suyuqliklarining namunalari aniqlash natijalari 0,7-2,8% beshta aniqlashning nisbiy standart og'ishi bilan Bredford usuli natijalari bilan bir xil ekanligi aniqlangan [8]. Mo (VI)-salitsilfluoron-setilpiridin xlorid (CP) va Mo (VI)-salitsilfluoron- laurilxolin yodid (LC) tizimlarida muvozanatni o'rganish uchun spektrofotometrik usullar ishlatilgan. Molibdenni spektrofotometrik aniqlashda hosil bo'lgan komplekslar 1:4:2 hamda 1:4:4 nisbatda bo'lishi aniqlangan. Molyar so'nish koeffitsientlari $15,8 \cdot 10^4$ hamda $13,6 \cdot 10^4$ bilan tavsiflanadi. Kalibrlash egri chiziqlari molibden kontsentratsiyasi $0,20 \cdot 10^{-5}$ - $2,0 \cdot 10^{-5}$ M diapazonida chiziqli bo'lib, natijalarning nisbiy standart og'ishi 0,035 dan oshmaydi [9]. Suvli DMF muhitida molibden (VI) ionining oz miqdorini aniqlash uchun yuqori sezgir va selektiv spektrofotometrik usul ishlab chiqilgan. Molibden (VI) ionini 5-bromosalitsilaldehid izonikotinoilgidrazon bilan $\text{pH}=6,0$ sariq rangli kompleks hosil qiladi. Hosil bo'lgan kompleks 390 nm da maksimal yutilishga ega va 48 soatdan ko'proq vaqt davomida barqaror edi. Ber qonuni 0,24-4,79 mkg/ml oralig'ida amal qiladi. Taklif etilayotgan usulning molyar yutilish va Sandell indeksining sezgirligi mos ravishda $2,0 \cdot 10^4$ l/mol·sm va 0,02 mkg/sm² edi. Och sariq rangli kompleks 1:1 stoxiometriyaga ega Mo(VI)-5BrSAINH. Kompleksning barqarorlik konstantasi $1,86 \cdot 10^8$ deb aniqlanadi. Mo(VI) ionini aniqlash uchun ikkinchi tartibli hosilalarning sezgir va selektiv spektrofotometriyasi ham taklif qilingan. Turli kationlar va anionlarning interferensiyasi o'rganilgan. Ishlab chiqilgan usullar oziq-ovqat mahsulotlari va po'lat namunalari tarkibidan Mo(VI) ionini aniqlashda muvaffaqiyatli qo'llanilgan [10].

Молибден (V) иони kislotali muhitda tiosiyanat ishtirokida o-fenantrolin bilan to'q sariq kompleks hosil qiladi, uning so'rilishi 415 nm da o'lchanadi. Mo (VI) ionini Mo (V) ioniga aylantirish uchun askorbin kislota qaytaruvchi vosita sifatida ishlatiladi. Sandell usulining molyar assimilyatsiya qilish qobiliyati va sezgirligi $1,151 \cdot 10^4$ l/mol·sm hamda 0,0041 mkg/sm². Ber qonuni 5,5 mkg/ml gacha amal qiladi. Ishlab chiqilgan usul juda oddiy, tez, sezgir [11].

Xulosa: Asosiy metrologik va analitik tavsiflari bo'lgan oddiyliги, tejamkorligi, ekspressligi, ishonchliligi, arzonligi, ekspluatatsion xarajatlari bo'lishi kerak bo'lgan tegishli analitik usullarga talab hozirgi kunda yuqoriligi ko'rsatildi zamon talablariga javob beradigan usullarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Yangi usullarni texnik va boshqa parametrlar bo'yicha eng sodda, immobillangan organik reagentlardan foydalanishga asoslangan bu test usullari deb hisoblanishi mumkin.

Immobillangan organik reagentlarni qo'llash analitik kimyoning keng rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Usulning o'ziga hosligi immobillangan organik reagent yuzasida ajratish, konsentrlash va aniqlashning amalga oshirilishi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Henckens L.C.M., Driessen P.P.J. Molybdenum resources: Their depletion and safeguarding for future generations.// Resources. Conservation & Recycling journal homepage. [2018. P 127-128.](#)
2. Никонов Н.В. Молибден Свойства применение производство продукция.// М.: ООО Метотехника. 2014. 34 с.
3. Мотыляев А. Молибден.// Journal of Biomedical Materials Research A. 2017. С 23-29.
4. Sergio Sanudo-Wilhelmy. Redox chemistry of molybdenum in natural waters and its involvement in biological evolution.// Frontiers in Microbiology. 2012. V 3. P 427.
5. Ергожин Е.Е., Чалов Т.К., Ковригина Т.В., Мельников Е.А. Сорбция ионов молибдена (VI) новыми синтетическими сорбентами.// АО «Институт химических наук им. А.Б. Бектурова». Алматы. 2018. С 15-18. DOI: <https://doi.org/10.17308/sorpchrom>.
6. Медвецкий В., Тихомирова Т.И., Цизин Г.И., Дмитриенко С.Г. Сорбционное концентрирование α-молибдодокремниевой кислоты.// Московский государственный университет им. М.В. Ломоносова. химический факультет. 119899. ГСП-3. Москва. Ленинские горы. 2002. С 80-81.
7. Бакахонов А.А., Яхшиева З.З. Применение азосоединений для амперометрического титрования молибдена (VI).// "Journal of Natural Science" 2021. № 4 С 18-23. <http://natscience.jspi.uz>
8. Guo Zhong-Xian., Shen Han-Xi. Determination of protein based on absorbance decrease of molybdenum (VI) complex with 2,6,7-trihydroxy-9-(4-chlorophenyl)-3H-xanthen-3-one.// The Analyst. 1999. T 124. № 7. С 1093-1098.
9. Руденко Э.И., Петухова С.Л., Устьянцева К.А., Данилина Е.И. Равновесие в системе молибден (VI)-салицилфлуорон-кпав в сильноокислых средах.// Вестник ЮУрГУ. 2010. № 11. С 301-302.
10. Swetha M. Non-Extractive Spectrophotometric determination of Mo (VI) using 5-Bromosalicylaldehyde Isonicotinoyl hydrazone (5-BrSAINH).// IJAPBC. 2016. V 5. № 2. С 84-87.

11. Sonia B.,Kakkar L.R. A highly sensitive and selective spectrophotometric determination of molybdenum using o-Phenanthroline in presence of thiocyanate.// Der Chemica Sinica. 2013. V 2. № 4. С 32-43.

Ф.Турдибеков, З.Х.Махматкулова*

(Toshkent, O‘zbekiston)

ИЗУЧЕНИЕ СОРБЦИОННЫХ СВОЙСТВ БИОПОЛИМЕРА НА ОСНОВЕ ЦЕЛЛЮЛОЗЫ

Аннотация. Композиционный материал из целлюлозы и соевого протеина - новый композитный полимер, разработанный в начале 21 века. Он производится из соевого белка, который извлекается из соевых бобов в качестве сырья, и из целлюлозы, которая является наиболее распространенным природным полимером в мире. Композит целлюлоза/соевый белок в качестве мембраны имеет ряд преимуществ. Цель этого исследования изучить сорбционные свойства композиционного биополимера из целлюлозы, окрашенного прямыми и кислотными красителями с целью изучения сорбционных свойств.

Ключевые слова: мембрана, крашение, прямой краситель, кислотный краситель, целлюлоза, соевый белок.

**SELLULOZA ASOSIDAGI BIOPOLIMERNING
SORBSIYON**

XUSUSIYATLARINI O‘RGANISH

Annotasiya. Sellyuloza va soya oqsili kompozitsiyasi 21-asr boshlarida ishlab chiqilgan yangi kompozit polimerdir. U xom ashyo sifatida soyadan olinadigan soya oqsilidan va dunyodagi eng keng tarqalgan tabiiy polimer bo‘lgan sellyulozadan tayyorlanadi. Sellyuloza/soya oqsili kompozitsiyasi membrana sifatida bir qator afzalliklarga ega. Ushbu tadqiqotning maqsadi sorbsiya xususiyatlarini o‘rganish uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri va kislotali bo‘yoqlar bilan bo‘yalgan sellyulozadan tayyorlangan kompozit biopolimerning sorbsion xususiyatlarini o‘rganish edi.

Kalit so‘zlar: membrana, bo‘yash, to‘g‘ri bo‘yoq, kislotali bo‘yoq, sellyuloza, soya oqsili.

**STUDYING THE SORPTION PROPERTIES OF
BIOPOLYMER
BASED ON CELLULOSE**

Annotation. Cellulose and soy protein composite is a new composite polymer developed in the early 21st century. It is made from soy protein, which is extracted from soybeans as a raw material, and from cellulose, which is the most abundant natural polymer in the world. The cellulose/soy protein composite has a number of advantages as a membrane. The purpose of this study was to study the sorption properties of a composite biopolymer made of cellulose, dyed with direct and acidic dyes to study the sorption properties.

Key words: membrane, dyeing, direct dye, acid dye, cellulose, soy protein.

В последнее время растет интерес к использованию полимеров на основе природных полимеров вместо традиционных полимеров на основе нефти для изготовления биоразлагаемых материалов. Целлюлоза является природным ресурсом и натуральным биополимером с хорошей биосовместимостью, биоразлагаемостью и технологичностью, имеет значительный потенциал в химической, текстильной и легкой промышленности, сельском хозяйстве, бионауке и биотехнологии. До сих пор применялось несколько технологий для получения материалов на основе целлюлозы с эквивалентными или превосходящими физико-механическими свойствами по сравнению с материалами на основе нефти. Цель этого исследования изучить сорбционные свойства композиционного

* **З.Х.МАХМАТКУЛОВА** – Nizomiy nomidagi TDPU, Tabiiy fanlar fakulteti Kimyo ova uni o‘qitish metodikasi kafedrasida dotsenti

Ф.ТУРДИБЕКОВ - Qarshi davlat universiteti, 1-kurs magistranti. tohirturayev0526@gmail.com

биополимера из целлюлозы, окрашенного прямыми и кислотными красителями с целью изучения сорбционных свойств.

Композиционный материал из целлюлозы и соевого протеина - новый композитный полимер, разработанный в начале 21 века. Он производится из соевого белка, который извлекается из соевых бобов в качестве сырья, и из целлюлозы, которая является наиболее распространенным природным полимером в мире. Композит целлюлоза/соевый белок в качестве мембраны имеет ряд преимуществ. Это композитные мембраны прочные, гибкие, биоразлагаемые, биосовместимые, с хорошими механическими свойствами и могут использоваться в различных областях, например, в упаковке пищевых продуктов, в системах фильтрации и даже в медицинских и биомедицинских целях [1,2].

Таким образом, мембраны из целлюлозы и соевого белка производятся из натуральных полимеров и являются экологически чистыми по сравнению с другими полимерами, такими как хлопок, вискоза и т. д.

Мембраны из смеси целлюлозы и соевого белка обладают некоторыми типичными свойствами, такими как высокое поглощение влаги, природные антибактериальные свойства и наибольшая концентрация белка (~90% по весу), что дает способность реагировать со многими классами красителей, например, с прямыми и кислотными красителями.

До сих пор сообщалось о незначительном количестве исследований, касающихся красящих свойств композитных мембран на основе целлюлозы или белка.

Окрашивая мембраны из целлюлозы и соевого белка, чтобы лучше понять красящие свойства целлюлозы и соевого белка, были получены смешанные мембраны из двух полимеров. Целью данной исследовательской работы было получение мембран из смеси целлюлозы и соевого белка и исследование свойств их окрашивания прямым синим 160 и кислотным синим 281.

При разработке нового волокна важно понимать, какими будут его красящие свойства. Чтобы лучше понять красящие свойства смеси целлюлозы и соевого белка, можно использовать мембрану из двух полимеров. Окрашивая мембрану с использованием различных красителей и условий, можно достичь лучшего понимания процесса окрашивания.

Вместо окрашивания во время приготовления мембран этот метод включал окрашивание смешанных мембран после сушки в печи. Мембраны взвешивали индивидуально на весах для определения массы. Массу использовали для расчета правильной концентрации красителя для красильной ванны. Мембрану окрашивали либо в колбе Эрленмейера, либо в чашке Петри в соотношении красильной ванны 1:100. Для окрашивания при температуре выше комнатной использовалась электроплита. После окрашивания мембраны вынимали из ванны и замачивали в воде. Затем мембраны извлекали из воды и сушили в печи.

Коагуляция мембран в метаноле привела к перемещению красителя из мембраны в ванну, как показано ниже на рисунке 1.

Краситель: Кислотный красный 337

Краситель: Прямой голубой 160




Рис 1. Смешанные мембраны целлюлоза/соевый протеин, окрашенные в кислотном красном 337 и прямом голубом 160 красителях.

Прямые красители известны своей плохой стойкостью к стирке, поэтому устойчивость к стирке мембран всегда вызывала беспокойство. Удивительно, но моющиеся свойства мембраны с прямым синим 160 действительно сильны. При промывании образца с мембраны оставалось очень мало красителя. Вместо этого кислотный синий 281 имел плохую устойчивость к стирке. С мембраны уйдет достаточно красителя, и на мембране останутся видимые пятна. После сравнения двух мембран было решено, что прямой синий 160 работает лучше, чем кислотный синий 281, и исследования продолжились только с прямым красителем. [3]

Прямой краситель показал самые оптимальные показатели на смешанной мембране по сравнению с другими красителями, использованными в эксперименте. Окрашивание во время приготовления мембран привело к получению наиболее ровных мембран при их коагуляции в воде. Для коагуляции мембран следует использовать другие растворы, чтобы определить лучший метод коагуляции с помощью прямого красителя. Еще одним экспериментом должны стать характеристики смешанной мембраны после ее сшивки. Поперечное сшивание мембраны должно препятствовать выходу соевого белка из мембраны, что приводит к более точному измерению веса окрашенной мембраны.

Использованная литература:

1. Zhu Y., Douglass E., Theyson T., Hogan R., Kotek R. (2013). Cellulose and Soy Protein Based Membrane Networks. *Macromol. Symp.*, 329, 70-86.
2. [Mantripragada S., Dong M., Zhang L. \(2023\) Sustainable filter/adsorbent materials from cellulose-based electrospun nanofibrous membranes with soy protein coating for high-efficiency GenX fluorocarbon remediation from water. *Cellulose*, V.30, p. 7063-7078.](#)
3. Ramiz Boy, Richard Kotek, Dongwook Jung, Zuhro Mahmatkulova, Elisha Lliya. (2014) Effects of fine polymer structure on dyeing kinetics. *AATCC International Conference*, 2014/4 p.271.

Raxmonova S.S., Razakov G‘.A.*

(Toshkent, O‘zbekiston)

ERITMALARGA OID MASALALAR YECHISH

Annotatsiya: Eritmalar tirik organizmlar hayotida muhim ahamiyatga ega. Eritmalar kimyoviy birikmalar va oddiy mexanik aralashmalar o‘rtasida oraliq holatni egallaydilar. Eritmalarga oid masalalar yechish mavzuga doir tasavvurni boyitadi, fikrlashni kengaytiradi

*Razakov G‘ulomjon Abduvoxidovich – Toshkent davlat pedagogika universiteti Kimyo o‘qitish metodikasi kafedrasida v.b. dotsenti., p.f.f.d. (PhD). 5107077@mail.ru

Raxmonova Sabina Sanjar qizi- Toshkent davlat pedagogika universiteti talabasi, raxmonovasabina077@gmail.com

hamda kimyoni boshqa fanlar bilan integratsiyasini yoritib beradi.

Kalit soʻzlar: eritma, konsentratsiya, suyultirilgan eritma, konsentrlangan eritma, massa ulushi.

РЕШЕНИЕ ПРОБЛЕМ, СВЯЗАННЫХ С РЕШЕНИЯМИ

Аннотация: растворы важны для жизни живых организмов. Растворы занимают промежуточное положение между химическими соединениями и простыми механическими соединениями. Решение проблем, связанных с решениями, обогащает воображение по предмету, расширяет кругозор и проливает свет на интеграцию химии с другими науками.

Ключевые слова: раствор, концентратсия, разбавленный раствор, концентрированный раствор, массовая доля.

SOLVING PROBLEMS RELATED TO SOLUTIONS

Abstract: solutions are important for the life of living organisms. Solutions occupy an intermediate position between chemical compounds and simple mechanical compounds. Solving problems related to solutions enriches the imagination on the subject, broadens the horizons and sheds light on the integration of chemistry with other sciences.

Keywords: solution, concentration, dilute solution, concentrated solution, mass fraction.

Ikki va undan ortiq komponentlardan va ularning oʻzaro taʼsir mahsulotlaridan tashkil topgan gomogen sistemaga **eritma** deyiladi. Eritmalar tirik organizmlar hayotida muhim ahamiyatga ega. Masalan qon, limfa, va soʻlak suyuqliklari eritmalaridir. Eritmalar kimyoviy birikmalar va oddiy mexanik aralashmalar oʻrtasida oraliq holatni egallaydilar. Eritmalar kimyoviy birikmalarga oʻxshash **bir jinsli yaʼni gomogen** boʻladi.

Eritma jarayoni kimyoviy reaksiyaga oʻxshash issiqlik yutilishi yoki chiqishi bilan roʻy beradi. Eritmalar kimyoviy birikmalardan farq qilib tarkibi oʻzgaruvchan boʻlib, ham erituvchi ham erigan modda xossalari namoyon qiladi.

Erigan moddani erituvchidan fizikaviy usulda ajratib olish mumkin. Bu xossalari bilan eritma mexanik aralashmaga oʻxshaydi. Eritmaning yoki erituvchining hajm yoki massa birligida erigan modda miqdoriga **konsentratsiya** deyiladi.

Eritmada erigan modda miqdori koʻp boʻlsa, bunday eritma **konsentrlangan**, oz boʻlsa, **suyultirilgan eritma** deyiladi. Konsentratsiyani ifodalashning bir necha usullari mavjud. Erigan modda massasining eritmaning umumiy massasiga nisbati erigan **moddaning massa ulushi** deyiladi [1].

$$w = m_1/m_2$$

$$m_2 = m_1 + m_0$$

w- erigan modda massa ulushi; m_1 - erigan modda massasi, g

m_2 - eritmaning massasi, g; m_0 - erituvchining massasi, g.

Quyidagi masalalar yechilish tahlilni koʻrib chiqadigan boʻlsak:

1-masala: Kalsiy xloridning massa ulushi 0,02 boʻlgan 300g eritmasiga 200g suv qoʻshildi. Eritmadagi tuzning massa ulushini toping.

Berilgan:

$$\omega = 0,02$$

$$\text{Formulasi: } \omega = m_{\text{tuz}}/m_{\text{erit}}$$

$$m_{\text{erit}} = 300\text{g}$$

$$m_{\text{suv}} = 200\text{g}$$

$$\text{Yechimi: } m_{\text{tuz}} = \omega * m_{\text{erit}} = 0,02 * 300 = 6\text{g}$$

$\omega_{\text{(tuz)}}=?$

$$m_{\text{erit.}}=300+200=500\text{g}$$

$$\omega=m_{\text{tuz}}/m_{\text{erit.}}=6/500=0,0012$$

Javob: $\omega = 0,0012$

2-masala: Gipertoniya kasalligini davolashda magniy sulfatning 25% li eritmasi ishlatiladi. Shunday eritmaning 20 g miqdorini tayyorlash uchun necha gramm tuz kerak?

Berilgan:

$$C\% = 25\%$$

В народной медицине спиртовые растворы масла лаванды и цветки использовали при лечении мигрени, невралгии, ревматизма, сердечно-сосудистых заболеваний, при мочекаменной болезни и пиелонефрите, для лечебных ванн при воспалении суставов, как ранозаживляющее, при кожных заболеваниях и невралгиях, ушибах, вывихах и параличах. Снимет усталость и любое недомогание чай с лавандой. Рецепт: сухие цветки (чайная ложка) заварить 1/3 стакана кипятка, 10 минут настоять, процедить, пить перед сном. Головную боль снимет лавандовое масло или вода: втирать в область висков круговыми движениями. Спазмы в желудке уберёт отвар из листьев травы и цветков. Рецепт: принимать по 2 стакана в день (расход: чайная ложка лаванды - на 1 стакан кипятка). Успокоит нервную систему и спасёт от раздражения ванная с заваренными цветками растения. Принимать ванную процедуру 20 минут, после чего сразу же лечь в постель. 200 грамм сухой лаванды, зашитые в льняной мешочек и положенные под подушку, принесут крепкий сон и чудесные сновидения. Стекланные сосуды наполните цветками растения и расставьте в доме. Запах лета нормализует нервную систему, восстановит силы, усмирит гнев и снимет перепады настроения. При сухой экземе: 1/2 литра оливкового масла и 25 грамм цветков лаванды поставить на водяную баню на 2 часа, настоять 8-10 часов, после чего можно применять, как мазь. Срок годности - 6 недель. При бронхите накапайте несколько капель лавандового масла в ложку мёда. Сметь добавить к теплему молоку. Пить 1 раз перед сном. Грибковые заболевания ног уберут тёплые ванночки с добавлением лавандового масла: на одну столовую ложку морской соли – всего 5 капель масла. Отвар из листьев лаванды снимет тошноту, рвоту и зубную боль. Рецепт с эфирным маслом для наружного применения от дерматита: нужно смешать

чайную ложку масла лаванды с оливковым и протирать кожу утром и вечером. Таким образом лаванда в комбинации с оливковым маслом работает прекрасным дезинфицирующим средством, которое обеззараживает клетки кожи и подсушивает прыщики.



Список литературы

1. Umar A., Ahmed S., Gafforov Y. *Ganoderma pakistanicum* sp. nov. (Ganodermataceae, Basidiomycota) from Pakistan. *Nova Hedwigia*. 2021. 113(3-4). https://doi.org/10.1127/nova_hedwigia/2021/0656
2. Y.Takeda, T.Hayashi, T.Masuda, G.Honda, Y.Takaishi, M.Ito, H.Otsuka, K.Matsunami, Olimjon K.Kodzhimatov, O.A.Ashurmetov. Chemical constituents of an Uzbek medicinal plant, *Perovskia scrophularifolia*. *Journal Natural Medicine*. №61, 2006. pp. 84 -85. <https://doi.org/10.1007/s11418-006-0023-9>
3. Zokir Z. Kosimov, Olim K. Khojimatov and Rainer W. Bussmann//Quantitative Ethnobotany of medicinal plants used by the mountain population of the Kitab Region, Uzbekistan//Ethnobotany Research and Applications 26:37 (2023) - <http://dx.doi.org/10.32859/era.26.37.1-13>
4. Алимова, Ф. О. (2024). Анализ по жизненным формам лекарственных растений семейства Lamiaceae. *Modern education and development*, 1(1), 249-253.
5. Хокимова, Ф. А. (2024). ЛЕКАРСТВЕННЫЕ РАСТЕНИЯ И ИХ СВОЙСТВА. *Journal of new century innovations*, 44(1), 121-124.

**Absamatov T.N., Qurbonboyeva H.A., Zarifboyeva N.R., Qo‘chqorova D.G‘.,
Marqayeva A.E., Mahamatjonova Z.K., Jumamurodova A.O., Qorjavova
M.Sh.***
(Chirchiq O‘zbekiston)

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI “QIZIL KITOBI” GA KIRITILGAN AYRIM TURLAR

Annotatsiya. *Maqolada Toshkent viloyati hududida tarqalgan qizil kitobga kiritilgan o‘simliklar haqida qisqacha ma‘lumot keltirilgan. Toshkent viloyati hududida tarqalgan Greyg lolasi (Tulipa greigii) ning tarqalish hududlari, GAT xaritasi haqidagi ma‘lumotlar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *Qizil kitob, GAT xarita, Tulipa greigii, Toshkent viloyati o‘simliklar kadastr.*

НЕКОТОРЫЕ ВИДЫ, ВКЛЮЧЕННЫЕ В “КРАСНУЮ КНИГУ” ТАШКЕНТСКОЙ ОБЛАСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Аннотация. *В статье представлена краткая информация о растениях, занесенных в Красную книгу, распространенных на территории Ташкентской области. Приведены данные о регионах распространения Тюльпана Грейга (TULIPA GREIGII), распространенного на территории Ташкентской области, карта Гат.*

Ключевые слова: *Красная книга, карта Гат, Tulipa GREIGII, кадастр растений Ташкентской области.*

SOME SPECIES INCLUDED IN THE “RED BOOK” OF THE TASHKENT REGION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Annotation. *The article provides brief information about plants listed in the Red Book, distributed on the territory of the Tashkent region. The data on the distribution regions of the Greig Tulip (TULIPA GREIGII), widespread in the Tashkent region, the Gatchina map are presented.*

Keywords: *Red Book, map of the Ghats, Tulipa GREIGII, plant cadastre of the Tashkent region.*

Bioxilma-xillikning global baholash (UNEP) ma‘lumotlariga ko‘ra bugungi kunda turli omillar ta‘siri natijasida 30 000 dan ortiq o‘simlik va hayvon turlari yo‘qolib ketish xavfi ostida turibdi, oxirgi 400 yil ichida 654 o‘simlik turlari yo‘qolib ketgan. Shu nuqtai nazardan, bioxilma-xillikni o‘rganish, mahalliy floralardagi turlar tarkibini ro‘yxatga olish, kamyob turlarning zamonaviy holatini aniqlash va saqlab qolish zamonaviy botanikaning dolzarb muammolari qatoriga kiradi [1].

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti olimlari tomonidan 2019-2023 yillarda “Toshkent viloyati o‘simliklar kadastr” nomli davlat

* **Absamatov To‘lqin Normuratovich** – Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi. t. absamatov@cspi.uz
Qurbonboyeva Hulkar Anvar qizi - Chirchiq davlat pedagogika universiteti Biologiya yo‘nalishi 1-kurs talabasi
Zarifboyeva nazokat Rashid qizi - Chirchiq davlat pedagogika universiteti Biologiya yo‘nalishi 1-kurs talabasi
Qo‘chqorova Dilnura G‘olibjon qizi - Chirchiq davlat pedagogika universiteti Biologiya yo‘nalishi 1-kurs talabasi
Marqayeva Asila Elmurod qizi - Chirchiq davlat pedagogika universiteti Biologiya yo‘nalishi 1-kurs talabasi
Mahamatjonova Zuhraxon Kamoliddin qizi - Chirchiq davlat pedagogika universiteti Biologiya yo‘nalishi 1-kurs talabasi
Jumamurodova Aziza Oybek qizi - Chirchiq davlat pedagogika universiteti Biologiya yo‘nalishi 1-kurs talabasi
Qorjavova Marjona Shuhrat qizi - Chirchiq davlat pedagogika universiteti Biologiya yo‘nalishi 1-kurs talabasi

dasturi loyihasi bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari bilan tanishilganda, O'zbekiston Qizil kitobining 2019 yilgi nashrida Toshkent viloyatida tarqalgan 71 turdagi o'simlik turlari kiritilganligi aniqlangan [3].

2019 yilda chop etilgan O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobiga" Qabrison florasida Liliaceae oilasi *Tulipa* turkumining 3 ta o'simlik turi kiritilgan. Ular jami turlarni 2% tashkil etadi.

Tadqiqotlarimiz davomida O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitob" sahifalarida tadqiqot (Chirchiq shahri) hududi florasida tarqalishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilmagan noyob turlarning yangi o'sish populyatsiyasi aniqlandi va bu turlar to'g'risidagi ma'lumotlar boyitildi. Bu esa hududning o'ziga xos turlar tarkibiga ega ekanligidan dalolat beradi. Olingan ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobning keyingi nashrlarida foylaniladi.

Bu turlarning (TASH) fondida saqlanayotgan namunalari va olib borilgan dala tadqiqotlari natijasida yig'ilgan namunalardan foydalangan xolda turlarning nafaqat tadqiqot hududi uchun balki Toshkent viloyatida tarqalishi aks ettiruvchi GAT tuzildi.

Qizil kitobga kiritilgan o'simlik turlarini tahlilini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-noyabrdagi 914-son qarorida "*Hayvonot dunyosi obektlarining davlat hisobini, ulardan foydalanish hajmlari hisobini va davlat kadastrini yuritish tartibi to'g'risida*" keltirilgan yo'riqnoma asosida tahlil qilindi [5].

Tulipa greigii

O'simlikning ilmiy nomi	O'simlikning rus tilidagi nomi	O'simlikning o'zbek tilidagi nomi
<i>Tulipa greigi Regel</i>	Tyulpan Greyga	Qizil lola (greyg lolasi)
Maqomi	O'zR. Qizil Kitobi, 3 toifa	




1-rasm. Qizil lola

Turning qisqacha tavsifi: Bo'yi 10–50 sm oralig'idagi ko'p yillik piyozli o't. Piyoz tuxumsimon, yo'g'onligi 4 sm gacha, qobig'i qalin charmsimon qizg'ish-qo'ng'ir rangli, ichi qalin tukli. Barglari 3–4 tagacha chetlari to'liqinsimon, ustki qismida binafsha rang dog'lari bor. Gullari yakka, balandligi 10 sm gacha,

kosasimon, tashqi gulyonbarglari qayrilgan, qizil, to‘q sariq, ba‘zan sariq, och sariq yoki rang-barang. Gulining tubi tuxumsimon qora dog‘li, ko‘pincha sariq hoshiyali. Changchi iplari kalta, qora yoki sariq, changdonlari sariq, qora-binafsharang. Ko‘sagi cho‘ziq, uz. 5-7(11) sm. Aprel–may oylarida gullab, mevasi iyun–iyulda yetiladi.

Tog‘larning past va o‘rta qismlarida, soz va shag‘al tuproqli yonbag‘irlarda yakka-yakka yoki to‘p bo‘lib o‘sadi.

G‘arbiy Tyan-Shan kamyob endem turi (O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston). O‘zbekistonda Toshkent va Namangan viloyatlarida uchraydi.



2-rasm. Turning tarqalish xaritasi:

O‘shish joylari:

Turning umumiy tarqalish maydoni:

Tur populyatsiyasi soni: Toshkent viloyatida 49 ta populyatsiya topilgan

Turning umumiy soni: 100 ming tupga yaqin

Yerdan foydalanuvchi va hududdan foydalanish xarakteri: Chotqol davlat biosfera qo‘riqxonasi, Ugom-Chotqol biosfera rezervati, Ugom-Chotqol milliy bog‘i. Tabiatni muhofaza qilish, rekreatsiy.

O‘shish muhitining xolati: qoniqarli

Tavsiya etiladigan va amaldagi muhofaza choralari: Chotqol davlat biosfera qo‘riqxonasi, Ugom-Chotqol biosfera rezervati, Ugom-Chotqol milliy bog‘ida muhofaza etiladi

Ma‘lumot to‘plash usullari: sinov uchastkalarida ro‘yxatga olish, gerbariy ma‘lumotlarini geobog‘lash.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Камелин Р.В. Флорогенетический анализ естественной флоры горной Средней Азии. – Л.: Наука, 1973. – 313 с.

Толмачев А.И. Введение в географию растений. – Л.: ЛГУ, 1974. – 244 с.

Флора СССР. В 30 т. М., Л.: изд. АН СССР, 1934-1964.

<https://lex.uz/ru/docs/4043624>.

Ismatullayev B., Sul-tonboyev J., Sayfullayev M.*
(Navoiy, O‘zbekiston)

BIOLOGIYAFANNING RIVOJLANISH TARIXI VA BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada biologiya fani organizmlarning tuzilishi, funksiyasi va evolyutsiyasi bilan shug‘ullanish yoritilgan bo‘lib, uning tarixi qadimgi yunonlardan boshlangan bo‘lib, XIX asrda Charles Darvinning evolyutsiya nazariyasi bilan yangi bosqichga o‘tishi, bugungi kunda biologiya inson salomatligi, qishloq xo‘jaligi va ekologiyani saqlashda muhim ahamiyatga egaligi, Biologik tadqiqotlar biotexnologiya va genetik muhandislik orqali yangi dori vositalari va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishga xizmati, biologiya zamonaviy hayotda salomatlik va atrof-muhit muammolarini hal qilishda ajralmas rol o‘ynashi keng yoritildi.*

Kalit so‘zlar: *Embriogenez, mitoxondrial omillar, mushaklar, nevrologiya, autoimmun kasalliklar, epigenetik parametrlar.*

ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ И ЗНАЧЕНИЕ БИОЛОГИЧЕСКОЙ НАУКИ СЕГОДНЯ

Аннотация: *В этой статье рассказывается о биологической науке, занимающейся структурой, функциями и эволюцией организмов, ее история восходит к древним грекам и вышла на новый уровень в девятнадцатом веке с теорией эволюции Чарльза Дарвина, о том, как биология сегодня играет важную роль в поддержании здоровья человека, сельского хозяйства и экологии, биологические исследования с помощью биотехнологии и геной инженерии, новые лекарства и продукты питания- услуги по производству продуктов питания, широко освещалось, что биология играет неотъемлемую роль в решении проблем здоровья и окружающей среды в современной жизни.*

Ключевые слова: *Эмбриогенез, митохондриальные факторы, мышцы, неврология, аутоиммунные заболевания, эпигенетические параметры.*

THE HISTORY OF THE DEVELOPMENT AND IMPORTANCE OF BIOLOGICAL SCIENCE TODAY

Abstract: *This article tells about biological science dealing with the structure, functions and evolution of organisms, its history dates back to the ancient Greeks and reached a new level in the nineteenth century with the theory of evolution by Charles Darwin, how biology today plays an important role in maintaining human health, agriculture and ecology, biological research through biotechnology and genetic engineering, new medicines and food- food production services, it has been widely reported that biology plays an integral role in solving health and environmental problems in modern life.*

Keywords: *Embryogenesis, mitochondrial factors, muscles, neurology, autoimmune diseases, epigenetic parameters.*

Biologiya – fani hayot haqidagi barcha asosiy qonunlar to‘g‘risidagi bilimlarni o‘rgatadi va biologik jarayonlar hamda hodisalaning ochish bilan bog‘liq ko‘plab yutuqlar bilan tanishtiradi. Tirik organizmlarning asosiy xususiyatlari va ularning xilma-xilligini hayotiy misollar orqali ko‘rsatib beradi. Zologiyaga oid eng qadimgi asarlani eramizdan IV asr oldin buyuk yunon olimi Arastu yozganligi ko‘pchilika ma‘lum. Uning asarlarida 500 ga yaqin hayvon turiga tavsif berilgan.

*Ismatullayev B., Sul-tonboyev J., Sayfullayev M. - Navoiy davlat pedagogika instituti talabalari.

Shved olimi Karl Linney XVIII asrda hayvonlarni tur, urug‘, turkum, va sinflarga ajratib o‘rganishni taklif etgan. Ingliz olimi CH. Darvin XIX asr o‘rtalarida hayvonlarni o‘rganish orqali o‘zining evolyutsion ta‘limotini yaratdi. O‘simliklarni o‘rganish tarixi uzoq davrlarga borib taqaladi. Botanika to‘g‘risidagi dastlabki ma‘lumotlar eramizdan oldingi IV asrlarda paydo bo‘lgan. Dastlab o‘simliklardan faqat oziq-ovqat manbai sifatida foydalanilgan. Arxeologik ma‘lumotlarga ko‘ra, Misrda dorivor, oziq-ovqat va boshqa ko‘pchilik o‘simliklardan eramizdan avvalgi 6000-5000 yillar oldin foydalanilgan. Botanika fanining rivojlanishida dorishunoslarning roli katta ahamiyatga bo‘lgan. Dorivor o‘simliklarni ilmiy asosda o‘rganishga Gippokrat, Aristotel, Dioskorid, Pliniylar o‘zining hissasini qo‘shishgan. Botanika fani bundan 2400 yil oldin yuzaga keldi. Mashhur yunon faylasufi va tabiatshunos olimi Aristotel o‘simliklar haqida ancha ma‘lumotlar to‘plagan. Uning “O‘simliklar nazariyasi” nomli kitobi bizning davrimizgacha etib kelmadi. Aristotelning shogirdi Teofrast o‘simliklar haqidagi ma‘lumotlarni to‘pladi va ularning tasnifini yaratdi. Ular 600 ta o‘simlik turlarini ajratishga muvaffaq bo‘lishgan. Teofrast o‘zining ilmiy fikrlarini 10 tomli „O‘simliklarni tabiiy tarixi” asarida bayon etgan. Biologiya fani tarixiy jihatdan chuqur ildizlarga ega bo‘lib, u XVII asrda, mikroskopning ixtirosi bilan zamonaviy taraqqiyotiga kirishgan. Biologiya fanining rivojlanish jarayoniga quyidagi asosiy bosqichlar va voqealarni kiritish mumkin:

1. Antik davr: Qadimgi misr, yunon va rim biologi o‘z nazariyalarini rivojlantirgan. Aristotel, masalan, hayvonlarning tasnifi va anatomiyasi haqida ko‘plab ishlar qilgan.

2. Renesans va Ilmiy inqilob: XVII asrda mikroskopning ixtirosi orqali mikroskopik hayotga oid yangi ma‘lumotlar paydo bo‘ldi. Robert Guk va Anton Levenguk kabi olimlar hujayraning tuzilishini ochib berishdi.

3. Darvinning nazariyasi: Charles Darvinning „Tabiat tanlov” nazariyasi (1859) biologiyaning evolyutsion asoslarini yaratdi. Bu nazariya hayotning xilma-xilligini va turli organizmlar o‘rtasidagi aloqalarni tushunishda asosiy o‘rinda turadi.

4. Genetika rivoji: XX asr boshlarida Gregor Mendelning ishlaridan keyin genetika fani kengayib, irsiyat va genetik ma‘lumotlarning mexanizmlarini o‘rganishga imkon berdi. Mendelning qonunlari biologiya va agronomiya sohalarida katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

5. Molekulyar biologiya va biokimyo: 1950-yillarda DNK strukturasi aniqlanishi (James Watson va Francis Crick tomonidan) biotexnologiya va molekulyar biologiya rivojlanishiga olib keldi. Bu kashfiyot biologiya sohasida molekulyar darajada hayotni o‘rganishga imkon berdi.

6. Ekologiya va atrof-muhit biologiyasi: XX asrning o‘rtalaridan boshlab ekologiya ilmiy soha sifatida shakllandi. Ekologlar hayot va atrof-muhit o‘rtasidagi murakkab aloqalarni o‘rganish bilan mashg‘ul bo‘lishdi.

7. Biotexnologiya va gen muhandisligi: 1970-yillardan boshlab biotexnologiya, shu jumladan genetik modifikatsiya, organizmlar va mikroorganizmlarni ishlab

chiqarish jarayonida qo'llanila boshlandi. Ushbu soha qishloq xo'jaligini, dori ishlab chiqarishni va boshqa sanoat tarmoqlarini yangilashga yordam berdi.

8. Genomika va proteomika: Oxirgi yillarda genomik tadqiqotlar, odam genomi loyihasi va boshqa zamonaviy texnologiyalar orqali turli organizmlarning genetik ma'lumotlarini chuqur o'rganish mumkin bo'ldi.

Biologiya fani, bugungi kunda, tibbiyot, ekologiya, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalarda muhim ahamiyatga ega. Fanning rivojlanishi, yangi texnologiyalar va metodlarni o'z ichiga olib, hayotni o'rganish va anglashda yangiliklar kiritmoqda. Biologiya fani kutilayotgan yangi kashfiyotlar va yutuqlar bilan doimo yangilanib boradi. Biologiyada haligacha o'z tamani to'liq tasdig'ini topmagan va ilmiy muhokama davom etayotgan bir nechta muammolar mavjud. Ular orasida quyidagilarni keltirish mumkin:

1. Hayotning kelib chiqishi: Hayotning dastlabki shakllarining qanday paydo bo'lganligi haqidagi savol hali ham mahalliy va global darajada muhokama qilinmoqda.

2. Homiladorlikdagi rivojlanish mexanizmi: Embriogenez jarayonida genetik, ekologik va mitoxondrial omillar qanday o'zaro ta'sir etishi hali to'liq tushunilmagan. Homiladorlik davomida rivojlanishdagi muammolarni aniqlash va bartaraf etish jahon bo'yicha qiziqarli va dolzarb masala.

3. Mushaklar va nevrologiya o'rtasidagi munosabatlar: Mushaklarning qanday qilib ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'sir qilishini va bu o'zgarishlar qanday nevrologik jarayonlarga olib kelishini o'rganish yana bir qiziqarli soha.

4. Davolash va yallig'lanish jarayonlari: Yallig'lanishning noyob va murakkab jarayonlari, shuningdek, ayrim kasalliklar (masalan, saraton yoki autoimmun kasalliklar) bilan bog'liq bo'lgan yallig'lanish mexanizmlari hali ham to'liq ochildmagan.

5. DNK va RNKning roli: Genetik materialning qanday qilib turli organizmlar o'rtasida o'zgarishi va evolyutsiyaning mexanizmlarini aniqlashda, xususan, epigenetik parametrlar va transkripsiya jarayonlari haqida hali ham o'rganiladigan ko'p narsalar bor.

6. Tanadagi mikroblar va ularning inson salomatligidagi o'rni: Mikrobiom, yani tanamizda mavjud mikroorganizmlar hamda ularning insonning oziqlanishi, immun tizimi, ruhiy holati va boshqa xususiyatlariga qanday ta'sir qilishini o'rganish dolzarb vazifa hisoblanadi.

7. Ko'payish va evolyutsion jarayonlar: Qanday qilib turli organizmlar o'zaro reproduktiv va ma'naviy munosabatlar o'rnatishlari va bu jarayonning evolyutsiyadagi roli haqidagi savollar hali ham izlanmoqda.

Ushbu muammolar biologiya fanida davom etayotgan tadqiqotlar va tajribalar uchun asosiy maydonlarni yaratadi. Tabiiy bilimlar doimo rivojlanib bormoqda, shuning uchun yanada ko'proq kashfiyotlar qilinishi tabiiy.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Biologiyaning konseptual asoslari A.R. Malikova, M.X.Yuldashev
2. Tabiiy fanlarning zamonaviy kosepsiyasi Masharipova Gularam Kamilovna, Togayeva Gulandom Jummayevna
3. [<http://ziyonet.uz/uzc/library>]

Jo'rayeva D.Y.*

(Navoiy, O'zbekiston)

BIOLOGIYADAN MUSTAQIL TA'LIMDA BULUTLI HISOBLASHLAR

Annotatsiya: Ushbu tezisda talabalarning biologiyadan mustaqil ta'limini bulutli hisoblashlar va bulutli texnologiyalar asosida tashkil etishning mohiyati, qulayliklar, afzalliklari va yo'llari haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: bulutli texnologiya, "Elastik computing cloud", "bulutli xotira"lar, "bulutli server"lar, "bulutli xizmat turlari".

ОБЛАЧНЫЕ ВЫЧИСЛЕНИЯ В САМОСТОЯТЕЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ БИОЛОГИИ

Аннотация: В данной дипломной работе описаны сущность, удобство, преимущества и способы организационного самостоятельного обучения студентов по биологии на основе облачных вычислений и облачных технологий.

Ключевые слова: облачные технологии, «Эластичные вычисления в облаке», «облачное хранилище», «облачный сервер», «облачные сервисы».

CLOUD COMPUTING IN INDEPENDENT EDUCATION OF BIOLOGY

Abstract: This thesis describes the essence, convenience, advantages and ways of organizing independent education of students in biology based on cloud computing and cloud technologies.

Key words: cloud technology, "Elastic computing cloud", "cloud storage", "cloud server", "cloud services".

Ilm-fan, texnika va texnologiyalarning jadal rivojlanishi, shuningdek, axborot informatsion jamiyatning shakllanishi nafaqat ta'lim tizimini har qanday o'zgarishlarga tez moslasha oladigan sharoitlarni yaratish bilan bir qatorda oliy ta'lim sturkturasi va mazmunini yanada takomillashtirishni ham talab qiladi [3].


Dunyoda oliy ta'lim tizimini mazmunan o'zgartirish, raqamli ta'lim sharoitiga moslashtirish borasida ko'plab amaliy ishlar bajarilayotgan bir paytda talabalarda mazkur kompetentsiyalarni shakllantirish va rivojlantirish dolzarb masala hisoblanadi. Buni amalga oshirish uchun esa mustaqil ta'lim jarayonini zamon talabi darajasida to'g'ri tashkil etish, uning sifati va samaradorligini oshirish uchun axborot ta'lim muhitini yaratish va predmetlarni (fanlarni) o'zlashtirishda muhim dasturiy vosita sifatida bulutli texnologiyalarni joriy etsihga alohida e'tibor qaratish lozim [1].

Talabalarning mustaqil ta'limini takomillashtirishda bulutli texnologiyalarning didaktik imkoniyatlarini aniqlashda avvalombor ularning

*Jo'rayeva Dildora Yunusovna - Navoiy davlat pedagogika instituti, Biologiya kafedrasida o'qituvchisi

mohiyatini aniqlab olish zarur. “Bulut”, “bulutli texnologiya” atamaları hozirgi kunda yangi atama sifatida fanga kirib keldi hamda amaliyotda qo‘llanilyapti.

“Bulut” so‘zi bu yerda barcha texnik tafsilotlarni yashiradigan murakkab infratuzilmani ifodalovchi metafora sifatida mavjud. Bulutli hisoblash ma‘lumotlarni qayta ishlash texnologiyasidir, unda foydalanuvchiga internet xizmati sifatida kompyuter resurslari va imkoniyatlari taqdim etiladi. Bulutli ta‘lim muhitining tarkibiy tuzilishini quyidagicha ifodalash mumkin (1- rasm):



1-rasm. Zamonaviy Bulutli ta‘lim muhiti tarkibiy qismlari.

Web-texnologiya rivojlanishi bilan yangi onlayn platformalar, yangi onlayn xizmat turlari ham paydo bo‘la boshladi. “Elastik computing cloud” atamasini birinchi bo‘lib Amazon kompaniyasi 2006 yilda qo‘llay boshladi. Bu platformada Snapchat hozir ham faol ish olib boradi.

Hech qancha vaqt o‘tmasdan “cloud”, “Computing cloud” atamaları Google kompaniyasi tomonidan ham qo‘llanildi. “Bulut” atamasi metafora sifatida ishlatilib, dasturiy ta‘minot hisoblanadi.

“Bulutli texnologiya” nafaqat fayllarni saqlash uchun joy, balki juda keng imkoniyatlarga ega platformadir. Masalan, biznes sohasidan tortib, dasturiy ilovalarni “bulutli muhit”da ishlab chiqish, testlash, shuningdek, avtomatik ta‘lim texnologiyalarini qo‘llash imkoniyatlarini ham taklif qiladi [3].

Bulutli texnologiyalar dastlab axborot texnologiyalari (AT) sohasining yetuk-kompaniyalari tomonidan ishlatilgan bo‘lsa-da, keyinchalik kuchli hisoblash resurslarini talab qiladigan ishlarda hamda axborotlarni saqlash va qayta ishlash uchun boshqa sohalarda ham ishlatila boshlandi. Hozirda “bulutli xotira”lar (Dropbox kabi), “bulutli server”lar (pullik bo‘lsa-da, lekin ishonchli) va “bulutli xizmat turlari (servis)” mavjud bo‘lib, ko‘p ilovalar “bulutli xizmat turlari” dan foydalanadilar. Bularga misol qilib Instagram, Feysbuk, messenjerlar, elektron pochta xizmatlari, onlayn ta‘lim sohasida Google on-layn ilovalari, Zoom-konferensiyalar, LMS-tizimlari,

Smart–ta’lim texnologiyalari, shuningdek, taksi, taomlarni buyurtma qilish xizmatlarini taklif qiluvchi web-ilovalarni keltirish mumkin [2].

Bulutli texnologiyalar ta’lim jarayonini tashkil qilishning yangi usuli bo‘lib, ta’lim jarayonini tashkil etishning an’anaviy usullariga muqobil variantni taklif qiladi, shaxsiy ta’lim, jamoaviy o‘qitish va interfaol imkoniyatlar yaratadi.

Xulosa. Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida talabalarning mustaqil ta’lim olishini tashkil etishda global tarmoqning qidiruv tizimlaridan, bulutli-ta’lim muhitlaridan va ta’lim platformalaridan foydalanish samarali hisoblanadi. Bu muhitda talabalarning fanga oid jarayon va hodisalarni virtual shaklda o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lishlari orqali kompetentligi rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

Ibodova M.N. Biologiyadan o‘quvchilarning mustaqil ishlarini axborot resurslari vositasida takomillashtirish metodikasi. (Akademik litsey misolida) // p.f.f.d.(PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –T. 2019-49 b.

Hamidov J.A. Ta’lim jarayonida axborot texnologiyalarini qo‘llash o‘qitish samaradorligini oshirish omili // Kasb-hunar ta’limi.-Toshkent, 2013.- № 6.-B. 15-20.

Jo‘rayeva D.Yu. Talabalarni mustaqil ta’limni bulutli texnologiyalar asosida takomillashtirishning natijalari va ularni samaradorligi.// “Mug‘allim” ilmiy metodologik jurnali.2023 yil 4/2 son. ISSN 2181-7138 Nukus. –B. 53-59

Jo‘rayeva D.Yu Biologiya o‘qitish metodikasi fanidan mustaqil ta’limni bulutli texnologiyalar asosida tashkil etishning samaradorligini aniqlashda pedagogik tajriba-sinov usullari va tahlillari// “Elektron ta’lim” – “Электронное обучение” – “E-learning” March, 2024, No1, Vol. 5 ISSN 2181-119.-B.179-188.

Doniyorov M.N., Toshpo‘latova M.I.*
(Toshkent, O‘zbekiston)

XALQARO BAHOLASH TADQIQOTLARI TAHLILI (PISA, PIRLS, TIMSS)

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Xalqaro baholash tadqiqotlaridan foydalanishning ta’limiy tarbiyaviy ahamiyati, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida biologiyani o‘qitishda PISA, PIRLS, TIMSS tadqiqotlari topshiriqlarini tatbiq etishning maqsadi va ta’lim tizimidagi roli bayon etilgan. Shuningdek PISA, PIRLS, TIMSS topshiriqlarini o‘quvchilar bilish faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha fikrlar bayon etilgan. Shu o‘rinda PISA dasturini o‘rganish, uning muhim ahamiyati sanaladi.*

Kalit so‘zlar: *PISA, PIRLS, TIMSS, tabiiy fanlar, savodxonlik, kompetensiya, ekotizimlar, o‘qish kompetensiyasi.*

*Doniyorov Muxiddin Normamatovich - Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, o‘qituvchisi. doniyorovmuxiddin1987@gmail.com

Toshpo‘latova Maftuna Ibragimjon qizi - Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 3-kurs talabasi

АНАЛИЗ МЕЖДУНАРОДНЫХ ОЦЕНОЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ (PISA, PIRLS, TIMSS)

Аннотация. В данной статье рассматривается образовательно-воспитательное значение использования международных оценочных исследований, а также цель и роль внедрения заданий исследований PISA, PIRLS, TIMSS в преподавание биологии в общеобразовательных школах и их место в системе образования. Кроме того, излагаются соображения по развитию познавательной деятельности учащихся на основе заданий PISA, PIRLS, TIMSS. Изучение программы PISA имеет важное значение.

Ключевые слова: PISA, PIRLS, TIMSS, естественные науки, грамотность, компетенция, экосистемы, компетенция чтения.

ANALYSIS OF INTERNATIONAL ASSESSMENT STUDIES (PISA, PIRLS, TIMSS)

Annotation. This article examines the educational significance of the use of international assessment studies, as well as the purpose and role of the implementation of PISA, PIRLS, TIMSS research assignments in teaching biology in secondary schools and their place in the education system. In addition, considerations on the development of cognitive activity of students based on PISA, PIRLS, TIMSS assignments are presented. Studying the PISA program is important.

Keywords: PISA, PIRLS, TIMSS, natural sciences, literacy, competence, ecosystems, reading competence.

Kirish. Dunyoning yetakchi mutaxassislari tomonidan ishlab chiqilgan pedagogik baholash texnologiyalaridan foydalanish O‘zbekistonda ta’lim sifatini jahon standartlari darajasida baholashning milliy tizimini yaratish imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.04.2019 dagi PF-5712-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”ning birinchi bandida PISA xalqaro tadqiqotida O‘zbekistonning ishtirokini ta’minlash va 2030-yilga borib kuchli 30 talikka kirishga erishish maqsadli yo‘nalish etib belgilangan.

Umumiy ta’lim sifatini xalqaro monitoring qilish tizimida ishtirok etishning dolzarbligi quyidagilar bilan belgilanadi:

- o‘tkazilgan tadqiqotlarning yuqori ilmiy va texnik sifati tufayli ta’lim tizimini isloh qilish uchun xalqaro tadqiqotlar natijalaridan foydalanish;
- boshqa mamlakatlar bilan taqqoslash orqali ta’lim sifatini baholash imkoniyati;
- ta’lim sohasidagi milliy tadqiqotlar sifatini takomillashtirish;
- ta’lim sifatini baholash sohasida yangi metodika va texnologiyalarni ishlab chiqish.

O‘tkazilgan xalqaro tadqiqotlar natijalariga ko‘ra har bir mamlakat quyidagi ma’lumotlarga ega bo‘ladi:

- xalqaro miqyosda mamlakatning o‘rtacha balli;
- alohida guruhlar (gender farqlar, o‘quv fani bo‘limlari, o‘quv faoliyati turlari va b.) bo‘yicha aniqlangan ko‘rsatkichlar;
- o‘quvchilarning o‘qishda erishgan natijalari darajalari;
- mamlakatda ta’limning o‘zgarish tendensiyalari.

Ta'lim sifatini baholash bo'yicha asosiy xalqaro tadqiqotlar OECD Xalqaro iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (Organization for Economic Cooperation and Development) va IEA Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (International Association for the Evaluation of Educational Achievements) tomonidan olib boriladi.[1]

Umumiy ta'lim sifati bo'yicha uchta asosiy xalqaro qiyosiy tadqiqot – PISA, TIMSS va PIRLS bir-birini to'ldiradi. Ushbu uchta tadqiqotni bir vaqtning o'zida o'tkazish ta'lim tizimi haqida to'liqroq ma'lumot beradi va uning turli tomonlarini baholaydi. PISA, TIMSS va PIRLS tadqiqotlari natijalarini taqqoslash boshlang'ich, va o'rta umumta'lim maktablarida o'qish, matematika va tabiiy fanlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini ochib beradi va umumiy ta'lim sifatini xalqaro hamjamiyat tomonidan ishlab chiqilgan ta'lim ustuvorliklari nuqtai nazaridan baholaydi. Quyida boshlang'ich sinflarda o'qish savodxonligini baholovchi PIRLS xalqaro dasturini o'qish savodxonligi darslariga tatbiq etish usullarini ko'rib chiqamiz.

O'qish savodxonligi akademik muvaffaqiyatning asosidir va PIRLS yangi yoki qayta ko'rib chiqilgan strategiyalarning o'zlashtirishga qay darajada ta'sir qilishini o'rganish uchun qimmatli vositadir. PIRLS baholash dasturi o'qishning asosiy maqsadlari - badiiy o'qishda tajriba orttirish, ma'lumotga ega bo'lish va undan foydalanish hamda internetda ma'lumot qidirishni o'z ichiga olgan keng qamrovli tizimga asoslangan. 2021-yilning 5-14-aprel kunlari mamlakatimizda 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qib tushunish darajasini baholash bo'yicha ilk xalqaro tadqiqot o'tkazildi. Tadqiqotda respublikamizdagi 180 ta maktabda tahsil oluvchi 5948 nafar 4-sinf o'quvchilari hamda ularning ota-onalari, maktab direktorlari va sinf rahbarlari ishtirok etdi.

2023-yil 16-mayda Boston kolleji va IEA qoshidagi TIMSS va PIRLS xalqaro tadqiqot markazi PIRLSning 2021-yilgi xalqaro hisoboti natijalarini ommaga e'lon qiladi. Ushbu so'nggi PIRLS sikli COVID-19 tufayli maktablarning yopilishi va darslarning to'xtatilishi fonida ma'lumotlarni to'plash uchun yagona xalqaro keng ko'lamli tadqiqot bo'ldi. Mamlakatimizning PIRLS tadqiqotida ishtirok etishidan maqsad quyidagi bir qator savollarga javob olishdir:

- O'zbekistonlik boshlang'ich sinf bitiruvchilari boshqa mamlakatlardagi tengdoshlariga nisbatan qay darajada yaxshi o'qiydilar?

- O'zbekistonlik maktab o'quvchilari o'qish savodxonligining qaysi darajasiga ega?

- To'rtinchi sinf o'quvchilari o'qishni yoqtiradimi?

- O'qish savodxonligini rivojlantirishda oilaning o'rni qanday?

- Bugungi kunda mamlakatimiz maktablarida savodxonlikka o'rgatish jarayoni qanday tashkil etilgan?

- O'zbekistonda savodxonlikka o'rgatish jarayoni boshqa mamlakatlarga nisbatan o'ziga xos xususiyatlarga egami va agar shunday bo'lsa, bu xususiyatlar

nimalarda ko'zga tashlanadi? Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari foydalanadigan o'qitish usullari boshqa mamlakatlardagi o'qituvchilar qo'llaydigan usullardan farq qiladimi?

Xalqaro testning individual topshiriqlarini bajarish bosqichi tahlil qilinganda o'quvchilar duch kelgan ba'zi qiyinchiliklar aniqlandi. Xususan, natijalarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, har qanday ma'lumotni aniqlashtirish kerak bo'lganda matnga murojaat qilish odatining shakllanmaganligi ikkita tipik muammoga olib keladi: birinchidan, o'quvchilar matnda keltirilgan ma'lumotlarni va o'zlarining shaxsiy tajribalari asosida egalik qiladigan ma'lumotlarni (taxminan 37%) yaxshi farqlamaydilar va, ikkinchidan, matndagi ma'lumotlarni taxminan, noaniq o'zlashtirish bilan cheklanadilar (taxminan 26%). Bolalarga savollarga javob berishda doimiy ravishda matnga murojaat qilish, topshiriqlar qanday shakllantirilganiga e'tibor qaratishni o'rgatish juda muhim, chunki topshiriqlar deyarli har doim "Matnga tayanib...", "Matnga asoslanib...", "Matnda nima deyilgan..." shaklida beriladi. !gar savol batafsil javobni talab qilsa, o'quvchilar (65% gacha) fikrlarni yozma ravishda ifodalash jarayoni bilan bog'liq qiyinchiliklarga duch kelishadi. O'qilgan matnni yaxshi tushunadigan o'quvchilar, ko'p hollarda, o'z fikrlarini ifoda etishda qiynalغانining guvohi bo'lishimiz mumkin. Ular topshiriqda qo'yilgan savolga javobni shakllantirishda qiyinchiliklarga duch kelishadi, masalan: "Kichkina qiz – ushbu hikoyadagi muhim timsol. Nima sababdan sodir bo'lgan barcha voqealarda uning o'rnini juda muhimligini tushuntiring", "Nega fermerning do'sti burgutni uchishga majburlash uchun tog'larga olib chiqdi? Ikkita sababni ayting", "Nima uchun shisha idishga tuproq va qumni navbatma-navbat qatlam shaklida solish muhimligini tushuntiring", "Nima uchun yomg'ir chuvalchangi ustida o'tkazilgan tajribada kartoshka va piyoz bo'laklarini yerning yuqori qatlamiga qo'yish muhimligini tushuntiring". Aynan qo'yilgan savolga javob berish o'quvchilarda qiyinchilik tug'diradi. "Ushbu uchta tajribadan qaysi biri sizga juda qiziq tuyuldi? Javobingizni tushuntirish uchun matndan foydalaning", "Matnning yog'och bitlarini o'rganishga bag'ishlangan qismidagi rasimga qarang. Ushbu rasm sizga tajriba o'tkazish uchun nima qilish kerakligini tushunishga qanday yordam beradi?" Bolalar o'zining javobini batafsil yozishga qiynalishining sabablaridan birini shunday izohlash mumkin, ya'ni bolalar javobning aniqligi va javobni imlo qoidalariga muvofiq shakllantirish o'rtasidagi muvozanatni saqlashda qiynaladilar, bunda javoblarni baholashda imlo xatolari hisobga olinmasligini yodda saqlash muhim.[3]

O'quvchilar, shuningdek, "savol ichidagi savollar"ni o'z ichiga olgan ko'p qismli javobni talab qiluvchi topshiriqlarni bajarishda qiyinchilikka duch kelishadi, masalan, "Hikoyaning boshida va oxirida loy bo'lagi turlicha his-tuyg'ularga ega edi. Ularni tasvirlab bering. Uning his-tuyg'ulari nima uchun o'zgarganini tushuntiring", "Anyaning harakatlaridan siz uning fe'latvorini bilib oldingiz. Anya xarakteriga xos bo'lgan bitta xususiyatni yozing. Javobingizni asoslash uchun uning

qilgan ishidan ikkita misol yozing”. Bolalar topshiriqning barcha qismlarini bajarmaydilar, faqat topshiriqda berilgan savollarning bir qismiga javob beradilar.[4]

Yana bir muammo javoblardagi ba’zi rasmiyatchilik bilan bog’liq: ba’zida bolalar savolni shunchaki ko’chirib yozadilar, ba’zida ikkita misol keltirilishi kerak bo’lgan topshiriqlarda ular birinchi misolni ikkinchi qatorga ham ko’chirib yozadilar, bunda ular vaqt yo’qotadilar va, tabiiyki, takrorlangan javob uchun ball olmaydilar.

Xulosa. Ta’lim sifatini baholash bo’yicha xalqaro tadqiqotlarni ko’rib chiqib, natijalarni sarhisob qilar ekanmiz, shuni ta’kidlash joizki, dunyo mamlakatlarida maktab o’quvchilarining o’qishda erishadigan natijalariga qo’yiladigan talablar, o’quv dasturlari va darsliklarning boy tahliliy materiallari pedagogik baholash sifatining xalqaro standartlarini ommalashtirishga, monitoring tadqiqotlari madaniyatini shakllantirishga yordam beradi. Yurtimizda ta’lim sifatini baholash markazlari tomonidan olib boriladigan ta’lim sifati bo’yicha ma’lum monitoringlarning aksariyati umumiy konseptual yondashuvlardan va xalqaro tadqiqotlar vositalarining alohida elementlaridan foydalanishi maqsadga muvofiqdir. Zero, ta’lim sifatini baholash bo’yicha xalqaro qiyosiy tadqiqotlarda O’zbekistonning ishtirok etishi mamlakatimizda ta’lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratishda katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

- 1.A.B.Radjiyev, A.A.Ismailov, J.R.Narziyev, X.P.Ahmedov, G.O.Tog’aeva.va bosh O’quvchilar savodxonligini baholash bo’yicha xalqaro tadqiqotlar dasturi, qo’llanma, Toshkent, 2019 yil, 62 bet.
- 2.Doniyorov, M. (2022). methodology of using pisa tasks in teaching biology. Science and Innovation, 1(8), 1534-1541.
- 3.Doniyorov, M. (2023). “Biologiya darslarida pisa topshiriqlaridan foydalanish”. Biologiyaning Zamonaviy Tendensiyalari: Muammolar va Yechimlar, 1(5), 789–791. Retrieved from <https://inashr.uz/index.php/bztmy/article/view/4679>.
4. Ergashevich, R. U., Salimovna, P. M., & Mamayusufovich, A. S. (2023). Ways to use pedagogical technologies at the local level in biology lessons. European International Journal of Pedagogics, 3(05), 22-29.
5. Ergashevich, R. U. (2024, January). Methodological principles of professional competence development of the future biology teacher. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 1-5).
6. Increasing students’ cognitive activities in biology classes by introducing them to entrepreneurial activities.European Journal of Humanities and Educational Advancements (EJHEA) Available Online at: <https://www.scholarzest.com> Vol. 4 No.5, May 2023 ISSN: 2660-5589 I.T.Azimov, N.I. Mirzayeva
7. Normamatovych, D. M. (2023). The significance of the tasks of the pisa international program in the teaching of biological sciences. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 23, 132-138.7.
8. OMONQULOV, U. B. (2024). Bo’lajak biologiya o’qituvchilarining iqtidorli o’quvchilar bilan ishlashga metodik tayyorlashning konseptual asoslari. News of UzMU journal, 1(1.2), 177-180.
- 9.Raxmatov.U.E., Azimov I.T., Tog’aeva G.O. Biologiyadan PISA topshiriqlarini uzluksiz ta’lim jarayoniga tadbiiq etish metodikasi. Uzluksiz ta’lim. Ilmiy – uslubiy jurnal. T., 2020. – № 4–son. – V.17–21.
10. Raxmatov, U. (2024). Integrativ yonashuv asosida biologiyadan masala va mashqlar yechish fanini o’qitishning nazariy asoslari. News of UzMU journal, 1(1.2. 1), 178-181.

11. S.Jumayev. (2022). Pedagogical foundations of the development of educational and creative activities in the teaching of molecular biology in the continuing education system. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7309412>

12. Sukhrobjon Zayniyev. (2023). Methodology of preparing students for international olympiads through solution of problems related to the hardy-weinberg law. European International Journal of Pedagogics, 3(05), 16–21. <https://doi.org/10.55640/eijp-03-05-05>

Doniyorov M.N.*
(Toshkent, O‘zbekiston)

XALQARO BAHOLASH TADQIQOTLARI (PISA-2022)

Annotatsiya. *Xalqaro baholash tadqiqotlaridan foydalanishning ta’limiy tarbiyaviy ahamiyati, umumiy o’rta ta’lim maktablarida biologiyani o’qitishda PISA tadqiqotlari topshiriqlarini tatbiq etishning maqsadi va ta’lim tizimidagi roli bayon etilgan. O‘zbekistonning ta’lim sifatini baholovchi xalqaro miqyosdagi tadqiqotlarda ishtirok etishi ta’lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratishda katta ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotlar natijasida olingan ma’lumotlar mamlakatimizda ta’limning sifati va uning jahon ta’lim tizimidagi nisbiy mavqeini baholashga imkon beradi.*

Kalit so‘zlar. *PISA-2022, xalqaro baholash dasturi, tabiiy fanlar, savodxonlik, kompetensiya, ekotizimlar, o‘qish kompetensiyasi, tadqiqotlar, savodli shaxs.*

МЕЖДУНАРОДНЫЕ ОЦЕНОЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ (PISA-2022)

Абстрактный. *Описаны образовательная значимость использования международных оценочных исследований, цель реализация исследовательских задач PISA при преподавании биологии в общеобразовательных школах и роль в образовательной системе. Участие Узбекистана в международных исследованиях по оценке качества образования имеет большое значение в создании национальной системы оценки качества образования. Информация, полученная в результате этих исследований, позволяет оценить качество образования в нашей стране и его относительное положение в мировой системе образования.*

Ключевые слова. *PISA-2022, международная программа оценивания, естественные науки, грамотность, компетентность, экосистемы, читательская компетентность, исследования, грамотный человек.*

INTERNATIONAL EVALUATION STUDIES (PISA-2022)

Abstract. *The educational importance of using international assessment studies, the purpose of implementing PISA research tasks in teaching biology in general secondary schools and the role in the educational system are described. Uzbekistan's participation in international studies evaluating the quality of education is of great importance in creating a national system for evaluating the quality of education. The information obtained as a result of these studies allows us to assess the quality of education in our country and its relative position in the world education system.*

Keywords. *PISA-2022, international assessment program, natural sciences, literacy, competence, ecosystems, reading competence, research, literate person.*

*Doniyorov Muxiddin Normamatovich - Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, o‘qituvchisi. doniyorovmuxiddin1987@gmail.com

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoniga ko‘ra, 2030 yilgacha xalqaro baholash dasturlarida uzluksiz ishtirok etish, dunyoning ilg‘or mamlakatlari qatoriga erishish maqsadlari belgilab berildi. [1]

Mamlakatning mazkur tadqiqotlarda ishtirok etishi Jahon bankining “Bolalarni erta yoshdan rivojlantirishni takomillashtirish” loyihasi doirasida moliyaviy va texnik jihatdan qo‘llab-quvvatlangan.

O‘zbekistonda PISA-2022 tadqiqotini o‘tkazish bo‘yicha hukumat nomidan Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) bilan 2018 yil 11 - dekabrda shartnoma imzolangan bo‘lib, qariyb 5 yillik olib borilgan mehnatlar, chora-tadbirlar va tadqiqotlardan so‘ng, 2023 yil 5 dekabr kuni dunyo miqyosida mazkur tadqiqotning natijalari e‘lon qilindi.

O‘zbekiston PISA xalqaro tadqiqotida ilk marta ishtirok etdi. PISA-2022 dasturi 2000 yilda boshlanganidan buyon o‘tkazilgan xalqaro baholashning sakkizinchi bosqichi bo‘lib, unda 81 mamlakat ishtirok etdi. Ushbu ishtirokchilarning barchasi, shu jumladan, O‘zbekiston ham PISA-2022 loyihasi davrida COVID-19 pandemiyasi tufayli ko‘p qiyinchiliklarga duch keldi.

Mustaqil hayot sari ildamlayotgan 15 yoshli o‘smirlarning savodxonligi, kreativ va mantiqiy fikrlash qobiliyati, maktabda olgan bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olishi, bir so‘z bilan aytganda mustaqil hayotga tayyorgarligini o‘lchash vositasi sifatida PISA xalqaro baholash dasturi dunyoda yetakchi o‘rinlarni egallaydi.

O‘tgan davr mobaynida Xalqaro tadqiqot dasturlari haqida pedagoglarning salohiyatini rivojlantirish, o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalari, fanlar bo‘yicha savodxonligi, mantiqiy va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida 348 ta tayanch maktablar, 14 ta hududga mas’ul koordinatorlar belgilangan. [2]

Pedagoglarni uslubiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash uchun 260 nafar milliy va 1 750 nafar hududiy trenerlar tayyorlangan. Shuningdek, o‘qish, matematik, tabiiy-ilmiy savodxonlik va kreativ fikrlash yo‘nalishlari bo‘yicha 35 nomdagi o‘quv-uslubiy hamda 250 nomdagi videomateriallar ishlab chiqilgan.

PISA tadqiqotida mamlakatning barcha hududlaridan tasodifiy ravishda tanlab olingan 202 ta ta’lim muassasalari - umumta’lim maktablari, akademik litsey, kasb-hunar maktablaridagi 7 ming 363 nafar 15 yoshli o‘quvchilarning ishtiroki ta’minlandi.

O‘zbekiston tomonidan belgilangan PISA uchun mas’ul jamoa tomonidan tadqiqot materiallari o‘zbek, rus va qoraqalpoq tillariga tarjima qilinib, Belgiyadagi yirik xalqaro KAPSTAN lingvistika markazi tomonidan xalqaro verifikatsiyadan o‘tkazilgan. [5]

Avstraliya ta’lim tadqiqotlari tashkilotidan Ursula Shvantner xonim mas’ul maslahatchi sifatida jalb etildi. AQSH, Avstriya, Germaniya, Italiya, Gretsiya,

Serbiya, Tayland davlatlarida, shuningdek onlayn shaklda tashkil etilgan 27 ta xalqaro seminar va treninglarda 30 nafar mutaxassislarning malakasi oshirildi.

Maktab koordinatorlari, 54 nafar Milliy sifat nazoratchilari, 60 nafar test administratorlari, 60 nafar baholovchilar tayyorlandi.

Shu bilan birga, O‘zbekistonning PISA tadqiqotida birinchi marta ishtirok etayotganligi inobatga olingan holda 2022 yil 11-12 aprel kunlari tadqiqotning ramziy ochilishiga oid “Ta’limdagi xalqaro tadqiqotlarning Yangi O‘zbekiston taraqqiyotidagi o‘rni” mavzusidagi xalqaro anjuman o‘tkazildi.

Aytish kerakki, xalqaro tadqiqotlar har 3-5 yillik davriylikda dunyo mamlakatlarida bir vaqtning o‘zida amalga oshiriladi. 2019 yil noyabr oyida Inson kapitali indeksini aniqlashga doir tadqiqot, 2021 yilda Ta’limdagi uzilishlarni baholashga oid REDS hamda PIRLS tadqiqotlari, 2022 yilda PISA, 2023 yilda esa TIMSS tadqiqoti tashkil etildi. Bu izlanishlarda o‘quvchilarning matematik, tabiiy-ilmiiy va o‘qish savodxonligi, kreativ fikrlash ko‘nikmalarini baholash bo‘yicha test topshiriqlari, shuningdek, ta’lim olishga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash yuzasidan so‘rovnomalar o‘tkazildi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ustuvor maqsadlardan biri hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, jarayonlar Vestat, Ta’limdagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi tashkilotlarining vakillari tomonidan kuzatib borildi.[6]

Uzoq muddatli sa’y-harakatlar natijasida O‘zbekistonning ta’limga oid natijalari tarixda ilk marotaba xalqaro solishtirma tadqiqotlarning hisobotlarida namoyon bo‘ldi. REDS va “Ta’limdagi yo‘qotishlarni baholash” tadqiqotlari muayyan vaqt davomidagi uzilishlarning ta’lim tizimiga ta’sirini tahlil qilish imkonini bergan bo‘lsa, PIRLS xalqaro tadqiqotining natijalari boshlang‘ich ta’limning o‘ziga xos jihatlari haqida chaqiriqlarni keltirib chiqardi.

Natijalarga nazar soladigan bo‘lsak, O‘zbekiston, Jahon bankining Inson kapitali indeksida 0.62 indeks ko‘rsatkichini qayd etdi. Bu esa, keyinchalik davriy ravishda inson kapitali rivojlanishidagi o‘zgarishlarni kuzatib borish, xalqaro solishtirma tahlillar qilish imkonini beradi.

Jahon banki O‘zbekistondagi ta’lim sohasidagi islohotlarini qo‘llab-quvvatlashdan mamnun, – dedi Jahon bankining Markaziy Osiyodagi Inson taraqqiyoti dasturi rahbari Tazin Fasih xonim. – Bank ko‘magida mamlakat so‘nggi yillarda birinchi marta xalqaro baholash tadqiqotida qatnashib kelmoqda. Bank maktabgacha ta’lim va maktab ta’limi vazirligi bilan doimiy hamkorlikka sodiq qoladi. Biz bu borada hamkorlikni davom ettirishga tayyormiz. Ushbu baholashlar bizga ta’lim siyosati samaradorligini baholash hamda o‘quv jarayonlari va o‘quvchilarning yutuqlarini yaxshilashga oid ongli qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Ushbu tadbirlar O‘zbekistonda ta’limdagi islohotlar haqida xalqaro hamjamiyatning xabardorligini oshirish va mamlakatning dunyo miqyosda nufuzini yuksaltirishda muhim o‘rin tutadi.

Mazkur tadqiqotda O‘zbekistonga oid ma’lumotlarni chuqurroq tahlil qilish maqsadida Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining vakili Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotida 5 oy davomida treningda qatnashib, Milliy hisobotni yozishda ishtirok etdi.

Shuningdek, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi bilan Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti o‘rtasida erishilgan kelishuv hujjati esa mazkur nufuzli dasturning 2025 yildagi tadqiqotida ishtirok etish imkoniyatini yaratib berdi.

Xulosa. Ushbu xalqaro nufuzli tadqiqot berayotgan bir qator o‘rganish natijalari, jumladan, o‘quvchilarning matematika, o‘qish va tabiiy fanlar bo‘yicha yutuqlari, ularning hayotdan qoniqishi, kelajakdan umidlari, gender tenglik, maktab muhiti, COVID-19 pandemiyasi davridagi ta’lim, ta’limga investitsiya qilingan resurslar va ularning ta’lim yutuqlariga ta’siri kabi ma’lumotlar tizimni isloh qilish uchun tuzilayotgan rejalarning samaradorligini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida.
2. A.B.Radjiyev, A.A.Ismailov, J.R.Narziyev, X.P.Ahmedov, G.O.Tog‘aeva va bosh O‘quvchilar savodxonligini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlar dasturi, qo‘llanma, Toshkent, 2019 yil, 62 bet.
3. Doniyorov, M. (2022). methodology of using pisa tasks in teaching biology. Science and Innovation, 1(8), 1534-1541.
4. Normamatovych, D. M. (2023). The significance of the tasks of the pisa international program in the teaching of biological sciences. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 23, 132-138.7.
5. Raxmatov.U.E., Azimov I.T., Tog‘aeva G.O. Biologiyadan PISA topshiriqlarini uzluksiz ta’lim jarayoniga tadbiq etish metodikasi. Uzluksiz ta’lim. Ilmiy – uslubiy jurnal. T., 2020. – № 4–son. – V.17–21.
6. Doniyorov, M. (2023). “Biologiya darslarida pisa topshiriqlaridan foydalanish”. Biologiyaning Zamonaviy Tendensiyalari: Muammolar va Yechimlar,1(5),789–791.Retrieved from <https://inashr.uz/index.php/bztmy/article/view/4679>.
7. Normamatovich, D. M. (2024). Methodology Of Conducting And Organizing The Pisa Research. American Journal of Advanced Scientific Research, 1(3), 11-13.
8. Ergashevich, R. U., & Mamayusufovich, A. S. (2023). Issues of using integrative knowledge in forming students'professional competence.

Ibragimov O.A., Xonnazarova M.T.*
(Toshkent, O‘zbekiston)

HISORAK SUV OMBORIDAGI BALIQLAR TUR TARKIBI VA TARQALISHI

Annotatsiya. *Baliqlar - umurtqalilar kenja tipining katta sinfi, juda keng tarqalgan. Tuzilishi, hayot kechirishi va ekologik xususiyati suv muhitiga juda yaxshi moslangan. Baliqlarning qadimgi ajdodlari lansetnikka o‘xshash sodda tuzilgan xordalilar bo‘lgan. Tarixiy rivojlanish davomida dastlabki xordalilardan juft suzgich qanotli hayvonlar paydo bo‘lgan.*

Kalit so‘zlar. *Hisorak suv ombori, baliqlar, tarqalishi, oziqa, bioxilma-xillik, qulay sharoit.*

ВИДОВОЙ СОСТАВ И РАСПРЕДЕЛЕНИЕ РЫБ В ХИСОРАКСКОМ ВОДОХРАНИЛИЩЕ

Аннотация. *Рыбы — большой класс позвоночных животных, очень широко распространённый. Строение, жизнь и экологические характеристики очень хорошо адаптированы к водной среде. Древними предками рыб были хордовые с простым ланцетным строением. В ходе исторического развития из ранних хордовых появились двуногие животные.*

Ключевые слова. *Хисоракское водохранилище, рыбы, распространение, питание, биоразнообразие, благоприятные условия.*

SPECIES COMPOSITION AND DISTRIBUTION OF FISH IN HISORAK RESERVOIR

Abstract. *Fishes are a large class of vertebrates, very widespread. The structure, life and environmental characteristics are very well adapted to the aquatic environment. The ancient ancestors of fishes were chordates with a simple lanceolate structure. In the course of historical development, bipedal animals appeared from early chordates.*

Key words. *Hisorak reservoir, fish, distribution, food, biodiversity, favorable conditions.*

Hisorak suv ombori — Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumanidan 35 km uzoqlikda. Miroqi shaharchasida joylashdan suv ombori, yirik gidrotexnika inshooti va tabiat maskani sanaladi. 1988-yil qurilishi tugatilib foydalanishga topshirilgan.

Qashqadaryo viloyatida joylashgan Hisorak suv ombori O'zbekistonning muhim suv havzalaridan biri hisoblanadi. Ushbu suv ombori Qashqadaryo daryosining suvini yig'adi va baliqchilik, sug'orish hamda ichimlik suvi manbai sifatida foydalaniladi. Hisorak suv omborida turli xil baliq turlari uchraydi, ularning ba'zilari mahalliy baliqchilar orasida juda mashhur.

Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz tumanidagi tog‘lar bag‘rida qurilgan Hisorak suv ombori nafaqat yirik gidrotexnika inshooti, balki ajoyib tabiat maskani sanaladi. Suv ombori Qashqadaryoning irmog‘i bo‘lgan Oqsuv daryosi o‘zanida barpo etilgan, Shahrisabz tumani, Miroqi shaharchasidan 1,5 km uzoqlikda joylashgan.

Hisorak suv omboridagi keng tarqalgan baliq turlari quyidagilar:

Sudak – Bu yirtqich baliq turi bo'lib, katta va kuchli baliq sifatida ma'lum. U baliqchilar orasida mashhur.

*Ibragimov O.A. – Nizomiy nomidagi TDPU Biologiya yo‘nalishi talabasi.

Xonnazarova M.T. – Nizomiy nomidagi TDPU Zoologiya va anatomiya kafedrasida p.f.f.d. (PhD).

Karas – Odatda o'rta o'lchamdagi va juda chidamli baliq bo'lib, suv omborlarida keng tarqalgan.

Som – Hisorak suv omboridagi katta baliqlardan biri. U juda katta bo'lishi va kuchli bo'lgani uchun baliqchilarning sevimlisi.

Karamushka – Kichik baliqlar orasida keng tarqalgan, ko'pincha katta baliqlar uchun yem sifatida xizmat qiladi.

Amur – Suv havzalarini tozalashda muhim bo'lgan o'simlikxo'r baliq turi.

Tolstolobik – Odatda suv havzalarida o'simliklarni iste'mol qiluvchi baliq turi bo'lib, bu baliq ham ko'pincha sun'iy suv havzalarida ko'paytiriladi.

Hisorak suv ombori tabiiy resurslar va bioxilma-xilligi bilan baliqchilik uchun juda qulay joy hisoblanadi.

Sudaklar (*Lucioperca*) — olabug'asimonlar oilasiga mansub baliqlarning bir urug'i. 5 turi ma'lum. Gavdasining uzunligi 130 sm.gacha, vazni 20 kg gacha. Oddiy Sla xo'jalik ahamiyatiga ega. Orqasi yashil-kulrang, ikki yonida 8—12 ta qo'ng'ir-qora yo'llari bor. Yelka va dum suzgichlarida qora dog'lari bo'ladi; boshqa suzgichlari sarg'ish tusda. Erkagi suv tubida uya yasab, shu uyada urg'ochisi tashlagan uvildiriqni qo'riqlaydi. Baliq va boshqa hayvonlar bilan oziqlanadi [1;3].



2-rasm. Sudak

Karaslar (*Caras sius*) — karpsimonlar oilasiga mansub chuchuk suv baliqlari urug'i. Tanasining uz. 45 sm gacha, vazni 3 kg gacha. 2 turi, jumladan, O'zbekiston suv havzalarida kumushtovon karas (*Carassius afi nus gibello* Bloch) uchraydi. Tanasining shakli zog'ora baliqnikiga o'xshaydi, lekin mo'ylovining bo'lmasligi bilan undan farq qiladi. Yirik suyak tangachalar bilan qoplangan tanasining orqa tomoni och yashil yoki to'q jigarrang, yon tomonlari tillarang tusda. Juft suzgichlari qizg'ish. Sekin oqadigan, tubi loyqa suv havzalarida uchraydi. Mayda suv hayvonlari, fitoplankton va o'simliklar bilan oziqlanadi. 2—4 yoshida voyaga yetadi. Bahor va yoz oylarida uchraydi. Suv o'simliklari orasiga 160—400 ming uvildiriq sochadi. Kumushtovon galasi, odatda, faqat urg'ochi baliqlardan iborat.



2-rasm. Karas baliq.

Zog'ora baliq (*Cyprinus carpio*) (sazan) — karpsimonlar oilasiga mansub tur. Uzunligi 50—60 sm (ba'zan 1 m gacha), vazni 1,8—4,5 kg (ba'zan 16 kg va undan ortiqroq). Og'zi boshining pastki tomonida. Suzgich qanotlari qizg'ish tovlanib turadi. Orqa va anal suzgichlarida bittadan tishli suyak nurlari, yuqori labi va og'zi chetlarida bir juftan mo'ylovlari bo'ladi. O'rta, qora, Azov, Kaspiy va Orol dengizlari hamda tinch ocean havzalariga qarashli daryo va ko'llarda, shuningdek, Sirdaryo, Amurdaryo, Zarafshon va Murg'ob daryolarida tarqalgan. Areal chegarasida Yevropa zog'ora balig'i (*S. s. carpio*), Orol zog'ora balig'i (*S. s. aralensis*), Amur-Xitoy zog'ora balig'i (*S. s. haematopterus*) va Vetnam zog'ora balig'i (*S. s. viridiviolaceus*) deb ataladigan 4 kenja turdan iborat. Janubiy dengizlarga quyiladigan daryolarda yarim o'tkinchi guruhlarni hosil qiladi; dengizning daryo quyiladigan joylarida yashaydi. Tuxum qo'yish uchun daryoga ko'tariladi. 2-5 yoshida jinsiy voyaga yetadi. 98 mingdan 1,8 milliongacha uvildiriq tashlaydi. Aprel — iyul oylarida tuxum qo'yadi. Elimsimon tuxumlari o'simliklarga yopishib turadi. Yosh baliqchalar, zooplankton, voyaga yetgan davrida bentosdati o'simliklar va hasharotlar lichinkasi bilan oziqlanadi. Go'shti shirin va seryog'ligidan ko'plab ovlanadi, suv havzalarida boqiladi. Xonakilashtirilgan Zog'ora baliq karp deyiladi [1;2].



3-rasm. Zog'ora baliq

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zoologiya (Umurtqalilar zoologiyasi) [Matn]: darslik / S.Dadayev . Saparov K. —Toshkent: "Turon Iqbol", 2019. -720 b.
2. <https://en.wikipedia.org/wiki/Frog> <https://www.burkemuseum.org/collections-and-research/biology/herpetology/all-about-amphibians/all-about-frogs>
3. <https://www.amnh.org/exhibitions/frogs-a-chorus-of-colors/frog-fun-facts>

Ibragimova K.Z.*
(Toshkent, O‘zbekiston)

BIOLOGIYA DARSLARIDA TIMSS, PIRLS, PISSA, TALIS XALQARO BAHOLASH DASTURLARIDAN FOYDALANISH METODIKASI

Annotatsiya. *Respublikamizda ta’lim samaradorligini oshirish hozirgi kunning eng dolzarb masalalardan biridir. Ta’lim tizimida darslarni PIRLS, TIMSS, PISSA, TALIS topshiriqlaridan foydalangan holda botanika, zoologiya, odam va uning salomatligi fani yuzasidan foydalanish orqali ilmiy dunyoqarashni shakllantirish hisoblanadi. Barcha fanlar kabi umumta’lim tizimida o‘qitilayotgan biologiya fanini ham o‘qitishda TIMSS xalqaro baholash dasturidan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Botanika, zoologiya, odam va uning salomatligi fani mavzulari bo‘yicha xalqaro baholash dasturiga oid dars ishlanmalari va TIMSS topshiriqlari bazasi yaratildi.*

Kalit so‘zlar: *xalqaro baholash, TIMSS, PISSA, PIRLS, TALIS, Yo‘l xaritasi.*

**МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ
МЕЖДУНАРОДНЫХ ОЦЕНОЧНЫХ ПРОГРАММ
TIMSS, PIRLS, PISSA, TALIS НА УРОКАХ
БИОЛОГИИ**

Аннотация. *Повышение эффективности образования в нашей стране является одним из наиболее актуальных вопросов на сегодняшний день. В системе образования происходит формирование научного мировоззрения путем использования уроков ботаники, зоологии, человека и здоровья человека, с использованием задач PIRLS, TIMSS, PISSA, TALIS. Как и в случае со всеми другими предметами, использование Международной программы оценки TIMSS важно при преподавании биологии в системе общего образования. Создана база данных планов уроков и заданий TIMSS для Международной программы оценки по ботанике, зоологии, человеку и здоровью человека.*

Ключевые слова: *международная оценка, TIMSS, PISSA, PIRLS, TALIS, Дорожная карта.*

**METHODOLOGY FOR USING TIMSS, PIRLS,
PISSA, TALIS CHALCARO BAKHOLASH
PROGRAMS IN BIOLOGY CLASSES**

Annotation. *Improving the efficiency of education in our country is one of the most pressing issues today. In the education system is the formation of a scientific worldview through the use of lessons in botany, zoology, human and human health, using the tasks PIRLS, TIMSS, PISSA, TALIS. As with all subjects, the use of the TIMSS International Assessment Program is important in the teaching of biology in the general education system. A database of lesson plans and TIMSS assignments for the International Assessment Program in Botany, Zoology, Human and Human Health has been created.*

Keywords: *international assessment, TIMSS, PISSA, PIRLS, TALIS, Roadmap*

Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabdagi 997-son “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori bilan Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o‘rnatish, o‘quvchi-yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovasiya faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat

*Ibragimova Kamola Zokirjon qizi - Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti “Biologiya va uni o‘qitish metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi

qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tashkil etildi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev 25.01.2020 sanasidagi Oliy majlisga murojatnomasida 2021 yilgi xalqaro baholash jarayoniga tayyorgarlik ko'rishga alohida urg'u berib o'tganliklari har bir biologiya, matematika, kimyo, fizika bo'yicha o'qituvchilarning Xalqaro baholash tizimi PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS haqidagi bilimlarini takomillashtirishga va TIMSS, PISA bo'yicha topshiriqlar bankini yaratish hamda ta'lim tizimiga tatbiq etish muhimligini ko'rsatib berdi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta'minlash; O'zbekiston Respublikasining xalqaro baholash dasturlarida qayd etgan natijalarini boshqa davlatlar natijalari bilan qiyosiy taqqoslash; xalqaro baholash dasturlarini ta'lim jarayoniga joriy etish bo'yicha tizimli monitoring olib borish, ushbu sohadagi ilg'or tajribani ommalashtirish va uning asosida ta'lim muassasalari uchun tavsiyalar va qo'llanmalar ishlab chiqishda ishtirok etish; o'qitishning innovatsion usullaridan foydalangan holda o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlar bo'yicha pedagog kadrlarning malakasini oshirish bo'yicha o'quv-uslubiy tavsiyalar tayyorlash kabilar Milliy markazning asosiy vazifalari va faoliyatining yo'nalishlaridan etib belgilandi. Quyidagi xalqaro baholash dasturlari bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish belgilandi:

Progress in International Reading and Literacy Study (PIRLS) — boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholash;

Trends in International Mathematics and Science Study (TIMSS) — 4 va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash;

The Programme for International Student Assessment (PISA) — 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash;

The Teaching and Learning International Survey (TALIS) — rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish va ta'lim olish muhitini hamda o'qituvchilarning ish sharoitlarini o'rganish.

Xalqaro baholash dasturlari bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda O'zbekiston Respublikasining ishtirok etishiga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha «Yo'l xaritasi» ishlab chiqildi, unga ko'ra, o'quvchilarning yozma va nutq savodxonliklarini oshirish bo'yicha ilg'or milliy va xalqaro tajribalarni joriy etish; o'quvchilar mustaqil ta'lim olishlari uchun elektron shakldagi ta'limni rivojlantirish, unda o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan xalqaro tadqiqotlar bo'yicha savollar bazasini yaratish hamda boyitib borish; o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko'rish uchun mustaqil ta'limni joriy etish; xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish yuzasidan malakali o'qituvchi-trenerlar bilan hamkorlikda hududlarda o'quvlar tashkil etish kabilar belgilangan. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev 25.01.2020 sanasidagi Oliy majlisga

murojatnomasida 2021 yilgi xalqaro baholash jarayoniga tayyorgarlik ko'rishga alohida urg'u berib o'tganliklari har bir biologiya, matematika, kimyo, fizika bo'yicha o'qituvchilarning Xalqaro baholash tizimi PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS haqidagi bilimlarini takomillashtirishga va TIMSS, PISA bo'yicha topshiriqlar bankini yaratish hamda ta'lim tizimiga tatbiq etish muhimligini ko'rsatib berdi.

Keyingi 15 yil davomida TIMSS bo'yicha xalqaro baholash keyingi 15 yil mobaynida 5 marta maktab o'quvchilarning matematika va tabiiy fanlardan savodxonligini aniqlash maqsadida o'tkazildi.

Xar to'rt yilda bir marta o'tkaziladigan bu jarayonning 3ta boschichida 8-sinf o'quvchilarining savodxonlik darajasi aniqlangan bo'lsa birinchi marta 1999 yilda 4 sinf o'quvchilar orasida bu tadqiqot o'tkazilgan. 1995-yilda bitiruvchi sinf o'quvchilarning o'quv yutuqlarining matematika hamda fizika shuningdek matematika va tabiiy fanlardan chuqurlashtirilgan holda o'rganildi va baholandi. 2008 yilda esa o'rta maktab o'quvchilarining savodxonlik darajasi matematika va fizika bo'yicha sinab ko'rildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Ж.О. Толипова, И.Т.Азимов, Н.Б.Султонова “Биология” ўқитувчи китоби Тошкент 2016
- 2.А.Зикиряев, S.Fayzullaev “Biologiya atamalarining izohli lug‘ati”.-Т., “Bilim” 2004 у.
- 3.Shaxmurova G.A., Azimov I.T., Raxmatov U.E. “Biologiyadan masala va mashqlar yechish” O'quv – qo'llanma. –Toshkent: “Sano – standart”, 2017.

Ishanov A.A.*

(Qoraqalpog'iston, O'zbekiston)

SUTEMIZUVCHILAR SINFINI O'QITISHDA KLASTER METODIDAN FOYDALANISH METODIKASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Zoologiya darslarini tashkil qilish davomida talabalarda sutemizuvchilar sinfiga oid mavzularda Klaster metodidan foydalanish metodikasi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim samaradorligi, Klaster, bilish faoliyati, zoologiya, sutemizuvchilar, sistematika, kenja sinf, turkum, oila, tur.

МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ КЛАСТЕРНОГО МЕТОДА В ОБУЧЕНИИ КЛАССА МЛЕКОПИТАЮЩИХ

Аннотация. В данной статье описана методика использования метода Кластера в темах, связанных с классом млекопитающих, при организационных занятиях по зоологии.

Ключевые слова: образовательная эффективность, Кластер, познавательная деятельность, зоология, млекопитающие, систематика, младший класс, род, семейство, вид.

METHODOLOGY OF USING THE CLUSTER METHOD IN TEACHING THE CLASS OF MAMMALS

Annotation. This article describes the methodology of using the Cluster method in topics related to the class of mammals when organizing classes in zoology.

Key words: educational efficiency, cluster, cognitive activity, zoology, mammals, taxonomy, junior class, genus, family, species.

*Ishanov Almat Adilxanovich - Berdaq nomidagi QQDU mustaqil tadqiqotchisi.


Jahon ilmiy va imiy-tadqiqot muassasalarida pedagogik faoliyat olib borayotgan pedagoglar bilan bir qatorda bo'lajak o'qituvchilar kasbiy kompetentligini takomillashtirish, ularning pedagogik faoliyatini innovatsion yondashuvlar asosida tizimli tashkil etish, kasbiy malakalarni rivojlantirish borasida interfaol ta'lim texnologiyalarini samarali tatbiq etish jarayonga ustuvorlik berish nuqtai nazaridan qaratilmoqda. Ayniqsa, bo'lg'usi o'qituvchilarning innovatsion faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish maqsadida kreativ fikrlash qobiliyati, o'z ustida uzluksiz ravishda mustaqil ishlash, mustaqil ta'lim olish shart-sharoitlari, o'z-o'zini yutuq va kamchiliklarini holis ravishda tahlil qilish ko'nikmalarini tarkib toptirish borasida keng qamrovdagi amaliy tadqiqotlar tashkil etilmoqda. Talabalarning innovatsion faoliyatini doimiy tarzda tizimli tartibda rivojlantirib borish bo'yicha Angliya, Yaponiya, AQSh, Germaniya, Janubiy Koriya, Singapur, Rossiya kabi davlatlarda kasbiy-metodik qolaversa pedagogik faoliyatning majburiy tarkibiy qismi sifatida belgilab qo'yilgan[5].

Olib borilgan tadqiqotlarimiz ilmiy-metodik tahlillaridan ma'lum bo'lishicha, biologiya o'qitish metodikasini takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamdagi tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da zoologiya darslarida interfaol ta'lim texnologiyalari yetarlicha tadbiq etilmaganligini ko'rsatmoqda. Bu esa talabalarni zoologik bilimlarini takomillashtirish borasidagi tadqiqotlarni o'tkazish lozimligini taqozo etadi. Zoologiya fanini o'rganish jarayonida talabarning bilish faoliyatini faollashtirish, bilish mustaqilligini to'g'ri tashkil etish, kredit-modul tizimida o'tilgan mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini qay darajada rivojlanganligini aniqlash, ularni tizimlashtirish, yangi mavzu yuzasidan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish va baholash, shuningdek, yangi mavzuni o'rganish jarayonida interfaol ta'lim texnologiyalardan samarali foydalanishni ta'lim amaliyotiga tadbiq etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Bo'lajak biologiya o'qituvchisi o'zining kelgusidagi pedagogik faoliyati davomida foydalaniladigan interfaol ta'lim texnologiyalarini zoologiya darslarini tashkil etish jarayonida samarali foydalanishi uchun zoologiya fanining mazmunini to'liq o'zlashtirishi bilan bir qatorda interfaol ta'lim texnologiyalari va ularning o'ziga xos xususiyatlari, mazkur ta'lim texnologiyasidan foydalanishning metodik jihatlarini shakllantirgan va rivojlantirgan bo'lishi lozim[2].

Zoologiyaning barcha mavzulari qatorida "Yuksak darrandalar (Eutheria) yoki yo'ldoshlilar (Placentalia) infrasinfining umumiy tasnifi", "Yo'ldoshlilar (Placentalia) infrasinfining turkumlari, oila va asosiy turlarining tarqalishi, ahamiyati" mavzularni o'qitishda interfaol texnologiyalardan foydalanish muhim sanaladi[4].

Ta'limni tashkil etishga interfaol yondoshuvni qaror topshirish uchun pedagoglar bir qator shartlarga amal qilishlari lozim(1-rasm).



1-rasm. Interfaol ta'lim samaradorligini ta'minlovchi shartlar

Barcha fanlar kabi Zoologiya fanini va uning tarmoqlarini o'qitish jarayonida talabalarning o'quv - bilish faoliyatini faol tarzda tashkil etish va ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan interfaol ta'lim texnologiyalari va metodlaridan nisbatan ko'proq "*Klaster*" "*Venn diagrammasi*", "*Assesment*", "*SWOT-tahlil*", "*Tushunchalar tahlili*", "*Sinkveyn*", "*Keys-stadi*", kabi ko'plab metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bo'lajak biologiya o'qituvchilari o'qitishning barcha shakllarini tashkil etish davomida foydalanayotgan interfaol ta'lim texnologiyalari va metodlari o'zlashtirilayotgan mavzuning mazmunidan kelib chiqqan holda shu mavzuni o'rganish uchun bo'y beradigan turlarini farqlay olishi lozim[5].

Pedagogika oliy ta'lim tashkilotlarida talabalarining zoologiya fanilaridan olgan bilimlarini tizimlashtirish, mustahkamligini ta'minlash maqsadida biologiya darslarida Klaster metodidan foydalanish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi[1].

Klaster. Mazkur terminning lug'aviy ma'nosi shajara degan ma'noni ifodalaydi. Bu texnologiyadan zoologiya fanidan o'rin olgan mavzularni o'rganish jarayonida talabalarning o'zlashtirgan va o'zlashtiradigan sistematik kategoriya-larga doir birliklar orasidagi o'zaro bog'lanishini tizimli ravishda tushunib yetish, sistematik birliklarni uzviyligini tushunishga anglab yetish jarayonida tahliliy-tanqidiy fikr yuritish ko'nikmalarini shakllantirishga imkon yaratadi.


Zoologiya darslarida bu texnologiyadan foydalanishda sutemizuvchilar sinfi sinf doskasi yoki qog'oz o'rtasiga yoziladi; shundan so'ng esa kenja sinflar bir-biriga bog'liq holati ko'rsatkich bilan belgilanadi, keyin esa shu tartibda turkumlar va oilalar tarmoq hosil qilinadi; oldin o'rganilgan mavzu va o'rganiladigan mavzu o'rtasidagi sistematik bog'lanishlar haqida tegishli tartibda xulosa chiqariladi[5].

Darslikdan olgan bilimlaringiz asosida quyidagi Klaster orqali ifodalangan mashqni bajaring. Bunda sutemizuvchilar sinfi, turkumlari va oilalari, urug' kabi sistematik birliklar ifodalanadi va talabalar tomonidan amaliy mashg'ulotlar hamda mustaqil ta'lim topshiriqlari davomida bajariladi. Sutemizuvchilar sinfiga 4000-4500 ga yaqin tur kiradi. O'zbekistonda 7 ta turkumga kiruvchi 108 ta tur sutemizuvchilar

uchraydi[4]. Bu Cni talabalar o'zlashtirishlarida Klaster metodi muhim ahamiyat kasb etadi(2-rasm).

Zoologiyadan nafaqat sutemizuvchilar sinfi balki barcha mavzularni sistematik birliklarini o'qitish jarayonida maskur yondoshuvdan foydalanish talabalarning fanni o'zlashtirishi va sistematik tushunchalarni tizimlashtirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi[3].

Ta'lim-tarbiya jarayonida texnologiyadan nafaqat, yangi mavzuni o'rganish davomida, balki talabalarning zoologiya fanidan olgan bilimlarini yangi kutilmagan nostandart vaziyatlarni baholashda ham foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi.



2-rasm. Klasterni umumiy ko'rinishi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tolipova J.O. Biologiyani o'qitishda pedagogik texnologiyalar –T .: Cho'lpon nashriyoti, 2011. – 161 b.
2. Ergashevich, R. U., Salimovna, P. M., & Mamayusufovich, A. S. (2023). Ways to use pedagogical technologies at the local level in biology lessons. European International Journal of Pedagogics, 3(05), 22-29.
3. Ergashevich, R. U., & Mamayusufovich, A. S. (2023). Issues of using integrative knowledge in forming students'professional competence.
4. Dadayev S., Saparov K. Umurtqalilar zoologiyasi. Oliy o'quv yurtlari biologiya ixtisosligi bakalavriat bosqichi biologiya yo'nalishi talabalari uchun darslik. Toshkent, «TURON-IQBOL». 2019, 720 b.
5. O.S.Xolmurodova, A.A.Ishanov, M.S.Pardayeva, U.M.Omonqulov Biologiyani o'qitishda innovatsion texnologiyalar [Matn]: o'quv qo'llanma/- Toshkent: "ZUXRO BARAKA BIZNES" nashriyoti, 2024. - 280 b.

Xolmurodova O.S.*
(Toshkent, O‘zbekiston)

MASALA VA MASHQLAR YECHISH ORQALI TALABALARINING KREATIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Annotatsiya: Masala va mashqlar yechish orqali talabalarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishning o‘ziga xos jihatlari, ahamiyati, masalalar yechish va mashqlar bajarish metodikasi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim sifati, samaradorlik, integratsiya, biologiya, biologik masala va mashqlar

РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ БИОЛОГИИ ЧЕРЕЗ РЕШЕНИЕ УПРАЖНЕНИЙ

Аннотация. Выделены уникальные аспекты и важность развития творческих компетенций учащихся путем решения задач и упражнений, методика решения задач и выполнения упражнений.

Ключевые слова: качество образования, эффективность, интеграция, биология, биологические задачи и упражнения

DEVELOPMENT OF CREATIVE COMPETENCES OF FUTURE BIOLOGY TEACHERS THROUGH SOLVING EXERCISES

Annotation. The unique aspects and importance of developing students' creative competencies through solving problems and exercises, as well as methods for solving problems and completing exercises, are highlighted.

Keywords: quality of education, efficiency, integration, biology, biological tasks and exercises

Ta’lim har bir mamlakatning kelajagini ta’minlovchi kuch hisoblanadi. Ta’limning mamalakatda qay darajada rivojlanganligini aniqlash orqali uning kelajagini ko‘rish mumkin. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Taraqqiyot strategiyasida “Uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos holda yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish” ustuvor vazifa qilib belgilangan. Shu boisdan, bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarini biologik masalalar yechish va mashqlar bajarish asosida kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishning amaldagi metodlari va vositalarini takomillashtirish hamda amaliyotga joriy etish borasidagi ilmiy-amaliy tadqiqotlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi[6].


Kreativlik – bu shaxsning yangi kutilmagan nostandart, ijodiy fikrlash qobiliyati, qarorlar, moslashuvchan fikrlash jarayoni va yangi g‘oyalarni taklif qilish qobiliyati; mavjud bilimlarning nomutanosibligiga nisbatan sezgirlik, shaxsning muammolarga nisbatan sezgirliги va ularni hal qilishning qulay yo‘llarini topish tushuniladi[3].

Olib borilgan tadqiqodlarimizdan aniqlanishicha, shaxsning kreativligi uning tafakkuri, muloqot madaniyati, his-tuyg‘ulari, masalalar yechish va mashqlar bajarish, muammoli vaziyatlarda namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda

*Xolmurodova Ozoda Suvonkulovna - Nizomiy nomidagi TDPU mustaqil tadqiqotchisi

yoki uning muayyan xususiyatlarini, zehni o'tkirlikni ifodalaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bo'lajak biologiya o'qituvchilarini tayyorlashda biologik masalalar yechish va mashqlar bajarish orqali kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishning ayrim jihatlariga e'tibor berish maqsadga muvofiq. Bu borada biologik ta'lim mazmunini o'zida aks ettirgan topshiriqlar tizimini shakllantirish lozim. Biologiya fani darsligidan o'rin olgan mavzularning ko'pchiligidan kreativ kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladigan masala va mashqlarni zanjirini tuzish mumkin. Xususan, oziq zanjiri mavzusini o'qitish jarayonida quyidagi mashqlar orqali kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish mumkin[6].

1-mashq. Qaysi javobda kasatka (1), elodeya (2), silovsin (3) va na'matak (4) larning sxemadagi o'rni to'g'ri ko'rsatilgan?




- A) 1 - c; 2 - b; 3 - d; 4 - a B) 1 - d; 2 - b; 3 - a; 4 - a
 C) 1 - c; 2 - a; 3 - d; 4 - b D) 1 - d 2 - a; 3 - d; 4 - b

Bu mashqning javob C.

Chunki, sxema markazidagi ma'lumot barcha organizmlarga tegishli bo'lib, strelka yo'nalishi bo'yicha ko'rsatilgan ma'lumot shu organizmga tegishli ekanligini bildiradi. Mazkur mashqlarni bajarish orqali bo'lajak biologiya o'qituvchilari oziq zanjiri va uning qonuniyatlarining o'ziga xos jihatlarini to'liq tushinib yetishlariga asos bo'ladi[4,5].


Bo'lg'usi biologiya o'qituvchilarida kreativ kompetensiyalarni rivojlantirishda genetika va seleksiyaga oid masalalar yechish muhim amaliy ahamiyatga ega sanaladi.

2-mashq Qaysi javobda yuksak o'simliklardagi poliploidiya hodisasi to'g'ri ifodalangan? (x - xromosomalar soni, y - mahsuldorlik)



Bu mashqda javob A. Boisi poliploidiya organizmlarning hayotchanligi, mahsuldorligi va boshqa xususiyatlarini oshiradi[3].

1-masala. Quyidagi diagrammada DNK fragmentining birinchi zanjiridagi nukleotidlar soni ifodalangan. Ushbu fragmentning ikkinchi zanjiridagi nukleotidlar soni to'g'ri berilgan javobni aniqlash orqali masalani javobini aniqlang[1].



A) adenin - 180; guanin 120; timin - 100; sitozin - 160

B) adenin - 100; guanin 160; timin - 180; sitozin - 120

C) adenin - 180; guanin 100; timin - 120; sitozin - 160

D) adenin - 100; guanin 180; timin - 120; sitozin - 160

Bu masalaning to'g'ri javob A. Diagrammada DNK ning birinchi zanjiridagi nukleotidlar ifodalangan. Komplementarlik qoidasiga ko'ra har bir nukleotidning komplementar juftini aniqlash mumkin.(A-T, G-C).

Xulosa qilib aytganda, biologik bilimlarni o'quvchilar ongida shakllantirish uchun dastavval bo'lg'usi biologiya o'qituvchilari kreativ kompetensiyalarni o'zlarida rivojlantirishi lozim. Bu borada biologiyadan masala va mashqlar lokamativ funksiyasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rakhmatov U.E. A perfection of the professional competence of teachers by using of creative works in biology lessons under solving tasks and exercises //European Science Review, Vena. № 3–4. 2018, – P. 225 – 228. ISSN 2310 – 5577

2. Rakhmatov U.E., Shakhmurova G.A. Methodical Instructions of Improving Biology Teachers' Professional Competence for Conducting Modern Lesson (based on Solutions of Issues and Tasks) //Eastern European Scientific Journal. – №3. –2020. – P. 123 –16. ISSN 2199 –7977.

3. Raxmatov, U. (2024). Integrativ yonashuv asosida biologiyadan masala va mashqlar yechish fanini o'qitishning nazariy asoslari. News of UzMU journal, 1(1.2. 1), 178-181.

4. Рахматов. У.Э Развитие творческих способностей учащихся при использовании задач и задач на уроках биологии // В XLIII международной научно-практической конференции «Международный научный обзор проблем и перспектив современной науки и образования» (2018). (стр. 112-113).

5. Ergashevich, R. U. (2024, January). Methodological principles of professional competence development of the future biology teacher. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 1-5).

6. Kholmurodova O. S., Rakhmatov U.E. Problems of improving teaching in the process of biological education // Current research journal of pedagogics (ISSN –2767-3278) Volume 03 ISSUE 02 Sjiif impact factor (2021:5. 714) OCLC – 1242041055 Metadata if – 8.145

Ochilov E.U.*

(Toshkent, O'zbekiston)

O'QUVCHILARDA TADQIQOTCHILIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim jarayonida o'quvchilarning tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishning dolzarbligi ta'kidlanadi. Axborot-ta'lim muhitida o'quvchilarning kreativ va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish muhim omil sifatida ko'rsatilgan. Tadqiqotchilik faoliyatining ahamiyati, o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishdagi roli bayon qilinadi. Maqolada biologiya fani bu jarayon uchun istiqbolli soha sifatida alohida ajratib ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: tadqiqot, faoliyat, tadqiqotchilik faoliyati, tadqiqotchilik ko'nikmalari.

РАЗВИТИЕ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ НАВЫКОВ У СТУДЕНТОВ

Аннотация. В данной статье подчеркивается актуальность развития исследовательских навыков учащихся в образовательном процессе. В информативно-образовательной среде важным фактором является формирование у учащихся навыков творческого и самостоятельного мышления. Констатируется значение исследовательской деятельности и ее роль в развитии логического мышления студентов. В статье выделяется биологическая наука как перспективное направление для данного процесса.

Ключевые слова: исследование, деятельность, исследовательская деятельность, исследовательские навыки.

DEVELOPING STUDENTS' RESEARCH SKILLS

Abstract. This article emphasizes the relevance of developing pupils' research skills in the educational process. The formation of pupils' creative and independent thinking abilities in the information-educational environment is highlighted as an important factor. The significance of research activities and their role in developing pupils' logical thinking is discussed. The article specifically highlights biology as a promising field for this process.

Keywords: research, activity, research activities, research skills.

*Ochilov Eldor Utkir o'g'li - Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazi metodisti, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi. eldorochilov1993@gmail.com

Jahon miqyosida shaxsning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga imkon beruvchi axborot-ta'lim muhitini shakllantirishning muhim omili sifatida ta'lim oluvchilarning kreativligi hamda tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan amaliy ishlarni tayyorlash masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bunda o'quvchilarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Respublikamizda biologiya o'qitish metodikasini takomillashtirish va ta'lim jarayoniga interfaol pedagogik texnologiyalarni qo'llash bo'yicha izlanishlar olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son farmonida: "umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish" muhim ustuvor vazifa sifatida ko'rsatilgan [3].

Ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasining bugungi sharoitida natijalarni tahlil qilish, umumlashtirish, xulosa chiqarish, muammoli vaziyatda mustaqil qaror qabul qilish, tizimli tadqiqot ishlari olib borish va ijobiy natijalarni amaliyotga joriy eta oluvchi kadrlarni tayyorlash zarurati tobora ortib bormoqda [10].

Psixologiya va pedagogika fanlarida inson izlanish tabiatining ikki xil turini o'rganishga alohida e'tibor qaratiladi [14]. *Birinchisi* – insonning "avtomatik tabiati". U kundalik standart vaziyatlar uchun tavsifli bo'lib, inson avtomatik ravishda tayyor modellardan foydalanadi, ya'ni izlanmaydi. *Ikkinchisi* – insonning "izlanish tabiati". Agar avtomatlashgan ijro istalgan natijaga olib kelmasa, "izlanish tabiati" ishga tushadi. U hali ma'lum bo'lmagan yangi modellarni izlashni nazarda tutadi. Izlanish faolligi qiziqish, bilishga bo'lgan ehtiyojdan kelib chiqadi. Izlanish va bilishga bo'lgan ehtiyoj, qobiliyat, izlanish faolligi turli insonlarda turlicha bo'ladi. Shu bois, psixologik-pedagogik adabiyotlarda insonning "izlanuvchanlik tabiati" turlicha talqin etiladi. Inson "sinov va xatolar" metodidan foydalanib, o'zining faoliyati natijalarini tahlil qiladi. Insondagi izlanish faolligi natijasida unda tadqiqotchilik qobiliyati rivojlanib boradi [4].

Amerikalik tadqiqotchi Jon Dyui o'zining "Demokratiya va ta'lim" asarida "ta'limni o'quvchining shaxsiy qiziqishlari va maqsadlarini hisobga olgan holda, uning maqsadga muvofiq faoliyati orqali olib borish zarur" deb ta'kidlaydi.

Tadqiqotchilik ko'nikmalari tadqiqot faoliyati davomida rivojlanib boradi. "Tadqiqot faoliyati" tushunchasini to'liq o'rganish uchun "tadqiqot" va "faoliyat" tushunchalarini tahlil qilamiz.

"Tadqiqot" uchun hamma jihatni qamrab oluvchi ta'rif yo'q, chunki u ko'p qirrali jarayon bo'lib, sohalar, maqsadlar va usullariga qarab farq qiladi. Turli sohadagi izlanishlar turlicha yondashuvlar va metodlarni talab qiladi, shu sababli yagona umumiy ta'rif berish murakkab.

Shunga qaramay, ayrim olimlar tomonidan tadqiqotga berilgan ta'riflarni keltiraman. Masalan, Fred Kerlinger tadqiqotni tizimli va nazorat qilinadigan ma'lumot to'plash va tahlil qilish jarayoni sifatida tasvirlaydi. Kresvell esa tadqiqotni "yangi bilimlarni yaratish uchun savollar berish va shu savollarga ilmiy asoslangan javoblarni izlash jarayoni" deb ta'riflaydi. Doktor Horun Ar Rashid tadqiqotni "muammoga yechim topishning obyektiv va tizimli usuli orqali bilimlarni izlash" deb ta'riflaydi. Frankis Rummel esa tadqiqotni "bilimlarni kashf qilish, rivojlantirish va tekshirishga intilish. Bu aqliy jarayon bo'lib, yillar davomida maqsadi va shakli o'zgarib turadi, ammo har doim haqiqatni izlaydi" deb ta'riflaydi.

Redman va Mori tadqiqotni "yangi bilimlarni olishga qaratilgan tizimli harakat" deb ta'riflaydi. Gratton va Jones esa tadqiqotni "inson bilimlarini ochish va rivojlantirishning tizimli jarayoni" sifatida ko'rsatadilar. Rokko (Rocco) tadqiqotni "chuqur o'rganish yoki tekshirish, ayniqsa, bilimning har qanday sohasida yangi faktlarni izlash" deb izohlaydi.

Ushbu ta'riflar tadqiqotning ko'p qirraliligini va uning turli olimlar tomonidan turli jihatlari qanday talqin qilinishini ochib beradi.

Demak, tadqiqot – insonning bilishga bo'lgan intilishi natijasida shakllangan, ilmiy va obyektiv yondashuvga asoslangan, yangi ma'lumotlarni kashf qilish, yangi tushunchalarni ishlab chiqish yoki mavjud bilimlarni tasdiqlash yoki rad etish uchun ma'lum bir mavzu yoki savolni o'rganish jarayonidir. Turli olimlar tadqiqotning qirralarini har xil nuqtai nazardan ta'riflashsa-da, barchasi uning maqsadga yo'naltirilgan va nazorat qilinadigan xususiyatiga urg'u beradi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi to'g'ri xulosaga kelishdir. O'tkazilgan tadqiqotdagi har qanday xato natijaning to'g'riligiga ta'sir qiladi. O'quvchilar tadqiqotchilik ko'nikmalariga ega bo'lmasa, to'g'ri xulosaga kelishlari juda qiyin bo'ladi.

Faoliyat – bu subyekt va dunyo o'rtasidagi faol o'zaro ta'sir jarayoni (jarayonlari), bu jarayon davomida subyekt o'z ehtiyojlarining bir qismini qondiradi. Faoliyatni "shaxsning biron bir ma'noga ega bo'lgan har qanday faoliyati" deb atash mumkin. Faoliyat shaxsning ongli tomonini xarakterlaydi [11].

"O'quv-tadqiqotchilik faoliyati", "o'quv-tadqiqot ishi", "tadqiqotchilik ko'nikmalari" atamaları pedagogik adabiyotlar va tadqiqot ishlarida ko'p qo'llaniladi. Ammo bu atamalar turli adabiyotlarda turlicha talqin qilingan. Masalan, A.V.Leontovich o'quvchilarni o'quv faoliyatiga tayyorlash – bu ularni mustaqil faoliyatga, bevosita kuzatishga va tadqiqotchilik ishlariga jalb etish metodi, deb tavsiflaydi [7]. Umumiy o'rta ta'limda "o'quv-tadqiqot ishi" so'zining ma'nosi o'quv tavsifidagi faoliyat ishi mazmunida talqin qilinadi [8].

O'zbek tili izohli lug'atida tadqiqotchilik tadqiqot ishi bilan mashg'ul bo'lgan ishlar deb tavsiflangan [2]. "Tadqiqotchilik faoliyati" tushunchasi falsafa, psixologiya va pedagogikada ko'p qirrali ma'nogo ega. B.G.Mesheryakov, V.P.Zinchenkolar

tadqiqotchilik faoliyatini insonning bilish faoliyati turlaridan biridir, deb tavsiflagan [9].

I. A. Zimnyaya va E. A. Shashenkova ta'rifiga ko'ra, "tadqiqot faoliyati – individning ongi va faoliyati bilan tartibga solinadigan, kognitiv va intellektual ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan o'ziga xos faoliyat bo'lib, uning mahsuli yangi bilimlarga muvofiq olingan. Tadqiqot faoliyatining qo'yilgan maqsad va obyektiv qonunlarga, shuningdek, maqsadga erishishning haqiqati va erishish mumkinligini belgilaydigan mavjud sharoitlarga muvofiq amalga oshirilishi muhimdir" [5].

Bola shaxsini har tomonlama rivojlantirish uchun maktab o'qituvchisi o'quvchilar bilan tadqiqotchilik faoliyatini tashkil qilishi zarur. O'qituvchi tashkilotchi, tarbiyachi va yo'naltiruvchi sifatida o'qitish sifatini, o'z ishining samaradorligini oshirishga intiladi [10]. Bunda sinfda ham, darsdan tashqari ishlarda ham o'quvchilarning tadqiqot faoliyati elementlaridan foydalanish muhim rol o'ynaydi [12].

A.I.Savenkov tadqiqot faoliyatini "ilgari mavjud bo'lmagan yangi narsalarni yaratishni o'z ichiga olgan ijodiy faoliyat turlaridan biri" deb hisoblaydi [13].

Tadqiqot faoliyati o'quv jarayoniga innovatsion yondashuvni jamlaydi. Bunda o'rganish maqsadi o'quvchilarning yangi tajribalarni o'zlashtirish qobiliyatini rivojlantirishdir. Hozirgi vaqtda o'quvchilarning tadqiqotchilik faoliyati – o'quvchilarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini to'liq aniqlash va rivojlantirishga imkon beradigan zamonaviy ta'lim texnologiyasidir, shuningdek, tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish uchun noyob imkoniyat yaratadi [15].

Bugungi ta'lim sharoitida o'quvchilarning tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish, ularning o'qish va kasbiy muvaffaqiyatlari uchun juda muhimdir. Biologiyadan amaliy ishlarni tashkil etish rivojlanish uchun ideal yechim bo'lib, o'quvchilarga ma'lum natijalarni tasdiqlovchi oddiy laboratoriya yoki amaliy mashg'ulotlardan, nazariy bilimlardan tashqariga chiqish va bevosita ilmiy jarayonga kirishish imkonini beradi. Pedagoglar amaliy ishlarni tashkil etish orqali o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, muammoni yechish, muloqot qilish va tadqiqotchilik ko'nikmalarini samarali rivojlantirishlari mumkin.

Biroq, bugungi kunda ko'plab maktab o'qituvchilari an'anaviy shaklda ishlashni afzal ko'rgan holda, o'quvchilarni o'quv-tadqiqot faoliyatiga jalb qilish bo'yicha faol choralar ko'rmaydilar. Bilimlarning aksariyati tayyor shaklda taqdim etiladi va qo'shimcha izlanishlarni talab qilmaydi. O'quv jarayonining samaradorligini oshirishning eng muhim shartlaridan biri – o'quv-tadqiqot faoliyatini tashkil etish va uning asosiy tarkibiy qismi bo'lgan tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishdir [6]. Bu nafaqat maktab o'quvchilariga dastur talablarini to'liq bajarishga yordam beradi, balki ularning mantiqiy tafakkurini rivojlantiradi hamda umumiy o'quv faoliyati uchun ichki motivini oshiradi [1].

Biologiya o'quv-tadqiqotlar uchun istiqbolli sohadir, chunki u kundalik hayot bilan chambarchas bog'liq. Shuningdek, tadqiqot faoliyati o'quvchilarga

muammolarni hal qilishda innovatsion yondashuvlar qo'llash imkonini beradi, bu esa o'quvchilarning ijodiy salohiyatini oshiradi. O'quvchilarda o'zlarining tadqiqot faoliyatlarini erkin rejalashtirish va amalga oshirish qobiliyatini rivojlantirish, ularni mustaqil fikrlash va o'z fikrlarini asoslashga o'rgatadi. Natijada, biologiya fanida tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish, o'quvchilarning nafaqat bilimini, balki shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini ham ta'minlaydi, bu esa ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- L. Karakhonova. "Organization of research activity of schoolchildren at the lessons of biology" Science and innovation, vol. 2, no. B2, 2023, pp. 430-438. doi:10.5281/zenodo.7665954.
- O'zbek tili izohli lug'ati. "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi". – Toshkent, Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. 2-jild. 461–532 b.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son farmoni.
- Suyarov K.T. / Maktab o'quvchilarda o'quv-tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishning psixologik pedagogik shart-sharoitlari / Monografiya. – Chirchiq: "Zebo Prints", 2023. 8-bet.
- Зимняя И.А., Шашенкова Е.А. Исследовательская работа как специфический вид человеческой деятельности. – М.: Изд-во Удмуртского гос. ун-та, 2001. – 103 с.
- Иванкина Л. И. Синтез "Большой науки" и профессиональной подготовки в модели научно исследовательской деятельности студента / Л. И. Иванкина, Е. Е. Емельяненко // Вестник науки Сибири. – 2017. № 2 (25). – [С. 1–7].
- Леонтович А.В. Концептуальные основания моделирования исследовательской деятельности учащихся // Школьные технологии. – 2006. №5. 63–71 стр.
- Леонтович А.В. Об основных понятиях концепции развития исследовательской и проектной деятельности учащихся // Исследовательская работа школьников. 2003. №4. 12–17 стр.
- Мещеряков Б.Г., Зинченко В.П. Большой психологический словарь. М.: АСТ. – 2009. – 816 стр.
- Ничкало Н.Г., Филонова Г.Н., Суходольская-Кулешова О.В., Современное образование как открытая система: Коллективная монография. /Под ред. Н.Г. Ничкало, Г.Н. – М.: Институт научной и педагогической информации РАО, издательство издательство "ЮРКОМПАНИ", 2012. – 576 с.
- Подолец В.В. Деятельность как социальная форма самоорганизации //Российская идея и идея глобализации. – 1993.
- Решетникова О.Д. Организация исследовательской деятельности с учащимися на уроках химии и во внеурочной деятельности // Современные подходы к преподаванию предметов естественнонаучного цикла в процессе реализации ФГОС ОО: сб. науч. ст. – Комсомольск-на-Амуре, 2017. 111–115 стр.
- Савенков А.И. Примерная программа учебно-исследовательской и проектной деятельности. Принципы исследовательского обучения // Директор школы. № 9. 50–55 стр.
- Савенков А.И. Психологические основы исследовательского подхода к обучению.– М.: Ось-89, 2006. 480 стр.
- Слесарева Т.Э. Роль педагога в осуществлении учащимися исследовательской деятельности // Амурский научный вестник, 2016. – Вып. 2. 210-216 стр.

Omonqulov U.M., Maxmudov U.Sh.*
(Toshkent, O‘zbekiston)

UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTABLARIDA IQTIDORLI O‘QUVCHILARNI TANLASH OLISH HAMDA ULAR BILAN ISHLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya: Maqolada umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida tahsil olayotgan iqtidorli o‘quvchilarning tanlash hamda ularni ta‘lim jarayonlarini tashkillashtirish va takomillashtirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, iqtidorli o‘quvchilar uchun maxsus dasturlarning yaratilish tarixi, nazariyasi va tajribalari bayon etilgan. Bundan tashqari maqolada umumta‘lim maktablari yuqori sinf iqtidorli o‘quvchilari uchun jadallashtirilgan ta‘lim tizimi asosida olib boriladigan dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlar uchun tavsiyalar ham berilgan.

Kalit so‘zlar: Iqtidorli o‘quvchi, layoqat, savodxonlik, kompetensiya, bilim, ko‘nikma, pedagogik mehanizm, o‘quv reja, maqsadli dastur, ustoz-shogird an‘anasi, umumkasbiy fanlar, salohiyat.

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ
ОТБОРА И РАБОТЫ С ОДАРЕННЫМИ
УЧАЩИМИСЯ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ
ШКОЛАХ**

Аннотация: В статье рассказывается об обучающихся в общеобразовательных школах освещаются вопросы отбора одаренных учащихся, организационные и совершенствования их образовательного процесса. Также изложены история создания, теория и опыт специальных программ для одаренных школьников. Кроме того, в статье даны рекомендации по урочной и внеурочной деятельности, проводимой на базе ускоренной системы образования для одаренных старшеклассников общеобразовательных школ.

Ключевые слова: одаренный ученик, способности, грамотность, компетентность, знания, умения, педагогический механизм, учебный план, целевая программа, традиция наставника-ученика, общепрофессиональные дисциплины, потенциал

Kirish: Maktabga ilk qadam qo‘ygan har bir sog‘lom bola qaysidir yo‘nalishda layoqatga ega bo‘ladi. Bolalardagi layoqatlarni aniqlash tashxislash orqali amalga oshiriladi. Birinchi sinfda ta‘lim olishga kirishgan bolalarning mavjud layoqatlari, bilimdonlik darajalarini belgilaydi.

Bugungi kunda ilm-fan, texnika va ishlab chiqarish sohalarining tez sur‘atda jadallik bilan rivojlanishi barcha ta‘lim muassasalarida ta‘lim-tarbiya sifatini

**IMPROVING THE METHODS OF SELECTION
AND WORK WITH GIFTED STUDENTS IN
SECONDARY SCHOOLS**

Abstract: The article tells about students in secondary schools, highlights the issues of selecting gifted students, organizing and improving their educational process. The history of creation, theory and experience of special programs for gifted students are also described. In addition, the article provides recommendations on scheduled and extracurricular activities conducted on the basis of an accelerated education system for gifted high school students of secondary schools.

Keywords: gifted student, abilities, literacy, competence, knowledge, skills, pedagogical mechanism, curriculum, target program, mentor-student tradition, general professional disciplines, potential

*Omonqulov Ulug‘bek Maxsiddin o‘g‘li - Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, o‘qituvchisi. (omonqulovulugbek11@gmail.com)

Maxmudov Uchqunbek Shuxrat o‘g‘li - Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 3-kurs talabasi. (uchqunmahmudov9@gmail.com)

mazmunan yangi bosqichga ko'tarishni talab etmoqda. Bu esa yoshlar bilan olib borilayotgan ishlar ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. O'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, muammolariga mas'uliyat bilan yondashish iqtidorli bolalar orqali komil insonni tarbiyalab, voyaga yetkazish bugungi kun talabiga aylanmoqda. Buning yorqin dalili sifatida, O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev «Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida» qarorni imzolagani va ular bo'yicha olib borilayotgan ishlarni keltirishimiz mumkin.

Iqtidorli o'quvchilarni erta aniqlash va ularning iqtidorini ro'yobga chiqarishda jahon miqyosidagi buyuk kashfiyotlarni jamiyatimizning negizini tashkil etadigan buyuk allomalarimiz merosiga tayangan holda bugungi zamon talabalaridan kelib chiqib, xalq farovonligiga xizmat qiladigan buyuk kashfiyotlar yaratish ko'nikma va malakalarini hosil qilish muhim ahamiyat kasb etdi.

Iqtidorli o'quvchilarni izlash, aniqlash va tarbiyalashning asosiy maqsadi Respublikaning ilmiy va ijodiy salohiyatini rivojlantiruvchi intellektual salohiyati bor yoshlarni tayyorlash, ularga yordam berish, iste'dod sohiblariga bilimning tegishli sohalari va fanning aniq yo'nalishlari bo'yicha o'z qobiliyatlarini aniq namyish etish, rivojlantirish hamda ulardagi noyob iste'dodlarni ro'yobga chiqarish uchun imkoniyatlarni yaratishdan iboratdir. Bir so'z bilan aytganda, ta'lim muassasalarida o'quvchilar shaxsining rivojlanishi, ularning qiziqishlari, iqtidorlarini ro'yobga chiqishi, mustaqil bilim olishlariga va ijodiy mehnat qilishlariga shart-sharoit yaratish lozim. Shuning uchun ham davlat iste'dodli o'quvchilarni alohida qo'llab-quvvatlaydi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida iqtidorli o'quvchilarni maqsadli tayyorlash mazmuni quyidagi tartibda amalga oshirilishi mumkin:

Maqsadli dastur bo'yicha yakka tartibda (individual) o'qitish;

Chuqurlashtirilgan dastur bo'yicha o'qitish (fundamental fanlar, umumkasbiy fanlar); oliy ta'lim muassasalari, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi va akademik litsey talablariga asoslangan holda maktabda iqtidorli o'quvchilarning kasbiy, o'quv-ijodiy va tarbiyaviy tayyorgarligining qo'shimcha yo'nalishi va ta'lim xizmatlarini joriy etish.

Iqtidorli o'quvchilarni maqsadli tayyorlash dasturlarida ular egallashi zarur bo'lgan quyidagi omillar nazarda tutiladi:

Fanlarni yuqori darajada o'zlashtirish;

Kompyuter bilimdonligi hamda dasturlashtirishni chuqur bilish;

Chet tillaridan savodxonlik; ilmiy-ijodiy ishlarni bajarish jarayonida mustaqil fikrlash, yangi fikr-mulohazalarni bildira olish ko'nikma va malakalarini egallash;

Soha bo'yicha yangiliklarni tezkorlik bilan egallash;

Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashda ustoz-shogird an'anasiga qat'iy rioya etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonga ilmiy rahbar sifatida o'quvchilarni

maqsadli tayyorlash dasturi bo'yicha yetarli bilimga ega bo'lgan o'qituvchilar jalb etiladi. Bunday qobiliyatli o'quvchilarga ilmiy rahbar etib ijodiy va uslubiy ishlash tajribasiga ega bo'lgan o'quv-uslubiy va ilmiy faoliyati bo'yicha reytingi yuqori bo'lgan o'qituvchilar tanlanadi.

Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash orqali ta'lim muassasalari o'z oldiga qo'ygan vazifalarni, ya'ni yoshlarni mustaqil fikrlash, bo'sh vaqtlarini tashkil etish, ularning qaysidir kasb-hunar egallashi uchun poydevor yaratish, iqtidorli, ijodkor o'quvchilarni rag'batlantirish ishlarini mahalla hamkorligida amalga oshirish orqali iqtidorli o'quvchilar safini kengaytirishga erishadi. Bilimli, iqtidorli o'quvchi nafaqat o'zining, balki xalq, millatning ham kelajagini belgilaydi. Iqtidorli yoshlar O'zbekistonning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotining hamda uning jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi

Xulosa: Shunday qilib, iqtidorli o'quvchilarni aniqlash, tanlash va tarbiyalash borasida mamlakatimiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan ishlar, jamiyat taraqqiyotini ta'minlash, vatanimiz iqtidoriy salohiyatni dunyo miqyosida namoyon etish imkonini beradi.

Shuningdek: Umumiy o'rta ta'lim maktablarida iqtidorli bolalarni aniqlash va tarbiyalashning pedagogik mehanizmini yaratish; iqtidorli bolalarning qobiliyatlarini rivojlantirish mazmunini ishlab chiqish (o'quv reja, maqsadli dastur); umumiy o'rta ta'lim maktablarida mavjud pedagogik sub'ektlar imkoniyati va salohiyatini shu jarayonga safarbar etish; umumiy o'rta ta'lim maktablari qoshida «Iqtidorli bolalar maktabi», «Kichik akademiya»lar tashkil etish va ularda iqtidorli bolalarning qiziqishlariga ko'ra iqtidorlarini tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Омонкулов, У. (2024). IQTIDORLI O 'QUVCHILAR BILAN ISHLASH METODIKASI. ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 4(2)..
2. Doniyorov, M. (2022). methodology of using pisa tasks in teaching biology. Science and Innovation, 1(8), 1534-1541.
3. Doniyorov, M. (2023). "Biologiya darslarida pisa topshiriqlaridan foydalanish". Biologiyaning Zamonaviy Tendensiyalari: Muammolar va Yechimlar, 1(5), 789–791. Retrieved from <https://inashr.uz/index.php/bztmy/article/view/4679>.
4. OMONQULOV, U. B. (2024). BO'LAJAK BIOLOGIYA O'QITUVCHILARINING IQTIDORLI O 'QUVCHILAR BILAN ISHLASHGA METODIK TAYYORLASHNING KONSEPTUAL ASOSLARI. News of UzMU journal, 1(1.2), 177-180.
5. ZAYNIYEV S. MAKTAB-UNIVERSITET TIZIMIDA IQTIDORLI O 'QUVCHILARNI ANIQLASH VA ULAR BILAN ISHLASH //News of the NUUZ. – 2024. – T. 1. – №. 1.7. 1. – C. 89-91.
6. S.Jumayev. (2022). Pedagogical foundations of the development of educational and creative activities in the teaching of molecular biology in the continuing education system. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7309412>
7. Zayniyev S.I. Olimpiada tashkil etishning metodik asoslari // O'zbekiston Milliy Universiteti Xabarlari, 2022, [1/12] ISSN 21817324: 64-66 c.

Qalandarova M.A., Norboboyeva R.B., Narzullayeva I.U., Nazarov B.*
(Toshkent O‘zbekiston)

**MAKTABLARDA BIOLOGIYA FANIDAN
“YOSH CHORVADOR” TO‘GARAGINI TASHKIL ETISH ORQALI
O‘QUVCHILARNI KASBGA YO‘NALTIRISH**

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktab darsligida mikroorganizmlar dunyosini o‘quvchilarga o‘rgatish orqali ulardan oqilona foydalana olish, chorvachilikda mahsuldorlikni oshirish va yem-xashak mahsulotlarini tayyorlash usullari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *maktab, bakteriya, fitotron, kultura, batsilla.*

БИОЛОГИЯ В ШКОЛАХ

**ОРИЕНТАЦИЯ УЧАЩИХСЯ НА
ПРОФЕССИЮ ЧЕРЕЗ ОРГАНИЗАЦИЮ
КРУЖКА “МОЛОДНЯК ЖИВОТНОВОДСТВА”**

Аннотация: *в данной статье анализируются способы, с помощью которых школьный учебник может грамотно использовать мир микроорганизмов при обучении учащихся, повысить продуктивность животноводства и приготовить кормовые продукты.*

Ключевые слова: *школа, бактерии, фитотрон, культура, batsilla.*

BIOLOGY IN SCHOOLS

**ORIENTATION OF STUDENTS TO THE
PROFESSION THROUGH THE ORGANIZATION
OF THE “YOUNG LIVESTOCK” CIRCLE**

Annotation: *this article analyzes the ways in which the school textbook can use the world of microorganisms wisely by teaching students, increase productivity in livestock and prepare fodder products.*

Keywords: *school, bacteria, phytotron, Cultura, batsilla.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-avgustdagi PQ-4805-son Qaroriga asosan yoshlarni kimyo va biologiya fanlari bo‘yicha chuqur o‘qitish, hududlarda yangi-yangi ishlab chiqarish korxonalarini barpo etish, xalqimiz turmush sharoiti va daromadlarini oshirish bugungi kunning pirovard maqsadlariga aylandi. Shu sabab, o‘simliklar fiziologiyasi fanidan erishilgan fan yutuqlari negizida olimlarimizning yangi navlarni ishlab chiqarishga bo‘lgan qiziqishini orttirdi. Bu esa o‘simliklar fiziologiyasi rivojlanishiga maxsus qurilmalar — fitotronlarning yaratilishi katta ahamiyat kasb etishini bildiradi. Bunday ishlar o‘simliklarni iqlimlashtirish, introduksiya qilish, duragaylash, geterozis olish, navlarni mintaqalarga qarab joylashtirish, turli xil agrotexnik tadbirlar: o‘g‘itlash, sun‘iy sug‘orish kabi muhim masalalarni hal qilishga imkon berdi. Qarorga asosan o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish maqsadida maktablarda to‘garaklar tashkil etish orqali ularga ko‘nikmalar berish maqsadida tashkil etiladi. Biz o‘rgangan pichan yem-xashak sifatida foydalaniladigan o‘simliklar bo‘lib uning tarkibida uchraydigan mikroorganizmlar bilan to‘liq tanishtirishdan iborat edi.

*Qalandarova M.A. – Nizomiy nomidagi TDPU o‘qituvchi.

Norboboyeva R.B. - Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti.

Narzullayeva I.U. - Nizomiy nomidagi TDPU o‘qituvchi.


Nazarov B. - Nizomiy nomidagi TDPU o‘qituvchi

Maktab darsligida mikroorganizmlar dunyosini o'quvchilarga o'rgatish orqali ulardan oqilona foydalana olish, chorvachilikda mahsuldorlikni oshirish va yem-xashak mahsulotlarini tayyorlash usullari o'rgatiladi. Mikroorganizmlardan ayniqsa bakteriyalar guruhi foydaliligi bilan ajralib turadi. Dastlab bakteriyalarning kimyoviy tarkibi va tuzilishi bilan tanishtiriladi. Bakteriya hujayrasi murakkab tuzilishga ega. Elektron mikroskopning yaratilishi, o'ta yupqa kesmalar tayyorlash usullarining ishlab chiqilishi, mikrobiologiya usullarini rivojlanishi bakteriya hujayrasining tashqi va ichki qurilmalarini o'rganishga katta imkon yaratdi. Bakteriya hujayrasining sxematik ko'rinishi quyidagilarni o'z ichiga oladi: tashqi tomondan kapsula, xivchin, fimbriy, pili, ichki qismida: sitoplazma, nukleoid, ribosomalar, membrana qurilmalari, kiritmalar (zahira moddalar), ba'zi bakteriyalarda sporalar mavjud.

Tayoqchasimon bakteriyalar uzunligi, diametri, hujayra oxirining shakli, spora hosil qilishi va boshqa xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi. Spora hosil qilish qobiliyati bo'yicha tayoqchasimon bakteriyalar, bakteriya va batsillaga bo'linadi. Asbob va reaktivlar: quruq pichan, tarozi, bitta katta va bir nechta kichik kolba, elektr plitka, oq bo'r, termostat kerak. Bir necha xil mikroorganizmlar aralashmasida bir turning rivojlanishini ta'minlash usuli elektiv kultura tayyorlash deb ataladi. Elektiv kultura tayyorlashdan oldin tekshiriladigan organizmning yashash va rivojlanish sharoitini bilib olish kerak.

Pichan batsillasi yaxshi rivojlanishi uchun aerob (kislrodli) sharoit bo'lishi zarur. Bundan tashqari, bu batsilla geterotrof bo'lganligi sababli u rivojlanishi uchun etarli miqdorda organik oziq ham bo'lishi kerak. Bunday sharoitda ko'pchilik mikroorganizmlarning yashashi va rivojlanishi ancha qulay bo'ladi. Ular orasidan pichan batsillasini ajratib olish uchun sporasining issiqqa chidamliligidan foydalaniladi.



Pichan batsillasining sporalari 2 soat qaynatilganda ham o'z hayot faoliyatini saqlab qoladi. Lekin spora hosil qiluvchi bakteriyalarning ko'pchiligi va spora hosil qilmaydigan bakteriyalarning hammasi eritma qaynatilganda nobud bo'ladi. Pichan batsillasining elektiv kulturasi quyidagicha tayyorlanadi: 10-15 g maydalangan quruq pichan hajmi 200-300 ml bo'lgan suvli kolbaga solinib, 30 minut qaynatiladi.



1-rasm (qaynatilgan holatdagi pichan).

Bu aralashmani neytrallash uchun unga 1-2 g maydalangan oq bo‘r qo‘shiladi. Aralashma qaynatilganda pichan tarkibidagi organik moddalar eritmaga o‘tadi va sporadan o‘rib chiqqan batsilla uchun oziq bo‘ladi. Keyin qaynatilgan suyuqlikdan 3 ta toza kolbaga 1-2 sm³ qalinlikda quyib olinadi. Kolbalarning og‘zi paxtadan qilingan tiqin bilan berkitiladi va 30°C issiq termostatda 1-4 kun saqlanadi. So‘ngra tekshiriladi.

Tekshirish jarayonida biz tayyor bo‘lgan suyuqlikning pardasidan buyum oynasiga tomizib uni mikroskopda kuzatganimizda tayoqchasimon bakteriyalarni ko‘rishimiz mumkin. Bundan tashqari biz uni ozuqa muhitiga ekib ko‘rganimizda bakteriyalar uchun universal ozuqa muhitiga MPA ekib ko‘rganimizda uni bo‘yab ko‘rganimizda esa uni yaqqol tayoqchasimon bakteriyalarni ko‘rishimiz mumkin bo‘ldi.



2-rasm. a). Pichan batsillasining ozuqa muhitida ekilgan holatdan tayyorlangan preparatini mikroskopda ko‘rilgandagi holati. b). Oddiy holatdagi ozuqa muhitiga ekilmagan holatda mikroskopda ko‘rilgandagi holati

Bu tajribamizdan maqsad shundaki talaba o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirgan holatda qishloq xo‘jaligida asosiy qo‘shimcha ozuqa sifatida pichan va boshqa yem xashak o‘simliklarni foydali xususiyatlari bilan tanishish va ular bilan birga uchraydigan mikroorganizmlarning bioekologik xususiyatlarini to‘laqonli bilish va kelgusida chorvachilikda yem xashak tayyorlashda turli yo‘l yo‘riqlar ko‘rsatish va undan foydalangan holatda uni tatbiq qilish mumkin bo‘ladi va bu kelgusida turli kasblarda faoliyat yuritganda undan foydalanish mumkin bo‘ladi. Bu orqali o‘quvchilar qishloq xo‘jligining turli sohalarida faoliyat yuritishi mumkin bo‘ladi va ular maktab davridayoq turli sohalarini tahlil qilish va ularni tanlashga bilim va ko‘nikma hosil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-avgustdagi PQ-4805-son qarori.
Vahobov A.H. Virusologiya asoslari. – Toshkent: Universitet, 2017. – B. 289-297
Nizametdinova Ya.F., Mansurova M.L., Muzaffarova I.A., Kondrateva K.V., Vahobov A.H. Mikrobiologiyadan amaliy mashg‘ulotlar. Metodik qo‘llanma. – Toshkent, ToshDU, 1992.
Burxonova X.K., Murodov M.M. Mikrobiologiya. – Toshkent, “O‘qituvchi”, 1975.

ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ЕСТЕСТВЕННОНАУЧНОЙ ГРАМОТНОСТИ В ДОПОЛНИТЕЛЬНОМ И ОСНОВНОМ ОБЩЕМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация: В статье рассматриваются важные аспекты, составляющие естественнонаучную грамотность, дефициты и профициты реализации развития естественнонаучной грамотности в рамках основного общего и дополнительного образования, и представлены краткие результаты опыта реализации программы дополнительного образования бионика.

Ключевые слова: естественнонаучная грамотность, компетенции, дополнительное образование, основное общее образование

QO'SHIMCHA VA ASOSIY UMUMIY TA'LIMDA
TABIIY FANLAR SAVODXONLIGINI
RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI

FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF
NATURAL SCIENCE LITERACY IN
ADDITIONAL AND BASIC GENERAL
EDUCATION

Annotatsiya: maqolada fan savodxonligini tashkil etuvchi muhim jihatlar, asosiy umumiy va qo'shimcha ta'lim doirasida fan savodxonligini rivojlantirishni amalga oshirishning kamchiliklari va profitsitlari ko'rib chiqiladi va bionik qo'shimcha ta'lim dasturini amalga oshirish tajribasining qisqacha natijalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: ilmiy savodxonlik, vakolatlar, qo'shimcha ta'lim, asosiy umumiy ta'lim.

Abstract: The article examines the important aspects that make up natural science literacy, the deficits and surpluses of the implementation of the development of natural science literacy within the framework of basic general and additional education, and presents brief results of the experience of implementing the bionics additional education program.

Keywords: natural science literacy, competencies, additional education, basic general education.

Одна из основных задач естественнонаучного образования и, в частности, биологического, является подготовка личности, способной эффективно и безопасно существовать в рамках сегодняшней действительности. Сама же естественнонаучная грамотность включает в себе определённый комплекс знаний, умений и навыков, которые позволяют интерпретировать, повсеместно окружающие его, природные явления и объекты. Учитывая важность проблемы развития естественнонаучной грамотности необходимо обратить внимание на Федеральные государственные образовательные стандарты (ФГОС), где содержится ключевая информация о целях и задачах формирования естественнонаучной грамотности у учащихся.

Формализация, описанного выше, требует соблюдения двух пунктов: установка определения, описывающее явление естественнонаучной грамотности и оценка состояния естественнонаучной грамотности в соответствии с современными исследованиями.

Естественнонаучная грамотность состоит из конкретных предметных знаний и метапредметных умений и мотивационного аспекта. Поэтому современные исследователи делят воздействие образовательного процесса, на

степень сформированности естественнонаучной грамотности, которое направлено на перечисленные позиции.

Исследователи проводили разнообразные замеры естественнонаучной грамотности у разных срезов учащихся, в следствии чего пришли к выводу слабого развития такого типа грамотности [2][3].

Была проведена и собственная работа в феврале 2024 года. В диагностике приняли участие 150 учащихся восьмых классов. Били разработаны авторские материалы оценивания и после анализа результатов, полученные данные соответствовали результатам независимых исследователей.

Для решения задач по формированию естественнонаучной грамотности было принято решение проанализировать основное общее образование и возможности дополнительного образования по формированию естественнонаучной грамотности.

Преимущества основного общего образования в контексте развития естественнонаучной грамотности включают в себя:

1. Формирование базовых знаний.
2. Развитие логического мышления.
3. Обязательность освоения.

Недостатки основного общего образования в контексте развития естественнонаучной грамотности включают в себя:

1. Приоритет предметных результатов.
2. Ограниченное количество времени на естественные науки.
3. Минимальное межпредметное взаимодействие.

Дополнительное образование в свою очередь имеет под собой сходные, как преимущества, так и недостатки:

1. Гибкость построения учебного плана.
2. Практическая деятельность учащихся.

Переходя к недостаткам, следует заострить внимание на следующем:

1. Невозможность охвата всего контингента учащихся.
2. Сложности из-за разного уровня подготовки школьников.

Для преодоления такого рода проблемных участков были сделаны следующие шаги:

- Выбор системы дополнительного образования, как ту систему, внутри которой можно построить план и предполагаемые результаты обучения, которые своей целью будут иметь формирование естественнонаучную грамотность

- Использование практикоориентированного, проблемного обучения, которое может покрыть все потребности в отношении формирования целевых единиц.

- Выбор определённой научной области, которая бы отвечала поставленной цели, ведь углублённое изучение школьного предмета вновь столкнётся с предметной доминансией.

Для решения проблемы была выбрана научная область – бионика. Сама концепция инженерной реализации биологических систем и процессов для жизни человека, включают в себе возможности биологии, физики, химии, математики и множества смежных областей. Наличие практикоориентированных заданий и интеграции предметных областей, которые способны в полной мере формировать естественнонаучную грамотность школьников, являются неоспоримым преимуществом.

В рамках формирования вышеописанных качеств и компетенций, была разработана программа дополнительного образования Бионика, где основную роль занимают практические задания. При прохождении данного курса у учащихся проявлялась значительная положительная динамика сформированности естественнонаучной грамотности, где большинство обучающихся достигала высоких результатов.

Содержание курса предполагало создание моделей и рассмотрение базового устройства систем органом не только с точки зрения биологии но и других естественнонаучных областей: особенности строения глаза и законы распространения света и оптики, как это отражалось в эволюционном процессе; взаимосвязь спиральных структур и математическая модель ДНК, как в клетке помещается такое количество информации и другое.

В совокупности всего вышеперечисленного ведётся дальнейшая апробация подхода реализации развития естественнонаучной грамотности и сравнения показателей успешности развития компетенций функциональной грамотности, как в дополнительном общем образовании, так и в основном общем образовании.

Список литературы:

1. Ибадулла, С.Н., Жумагулова К.А., Суматохин С.В. создание проекта steam с обучающимися как критерии эффективности обучения будущих биологов // Перспективные направления исследований проблем биологического и экологического образования в условиях современных вызовов Сборник статей XXI Всероссийской научно-практической конференции с международным участием (27-29 ноября 2023 г.) . – СПб : Самиздат, 2023. – С. 84-88.
2. Ковалева Г. С., Колачев Н. И. функциональность проекта «Мониторинг формирования функциональной грамотности обучающихся» // Отечественная и зарубежная педагогика. 2023. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/funktsionalnost-proekta-monitoring-formirovaniya-funktsionalnoy-gramotnosti-obuchayuschih-sya> (дата обращения: 28.01.2024).
3. Пентин А. Ю., Никифоров Г. Г., Никишова Е. А. Основные подходы к оценке естественнонаучной грамотности // Отечественная и зарубежная педагогика. 2019. №4 (61)..
4. Суматохин С. В. Биологическое образование на рубеже XX-XXI веков. – 2021.
5. Шелехова Л.В. К вопросу о личностной парадигме в образовании [Электронный ресурс].

Ro‘zmatova Sh.T., Abdurayimova X.I.*

(Chirchiq, O‘zbekiston)

O‘QUVCHILARDA INTERAKTIV METODLAR ORQALI DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Annotatsiya: Ushbu maqolada, maktab o‘quvchilariga biologiya fanini o‘qitishda jarayonida “Daraxt metodi”dan foydalanish masalasi yoritilgan. Ushbu metod orqali o‘quvchilarga bilim olish ushuni oldilariga maqsad quyishni va unga to‘g‘ri erishish yo‘llarini o‘rgatishdan iborat. O‘quvchilar metod orqali mustaqil o‘z fikrini bildirishga, nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: Biologiya, o‘quvchilar, “Daraxt metodi”, Maqsadlar daraxti, mustaqil fikrlash, motivatsiya.

ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ УРОКА ЧЕРЕЗ ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ДЛЯ ШКОЛЬНИКОВ

Аннотация: В данной статье описано использование «метода Дерева» в процессе обучения школьников биологии. Обучение с помощью этого метода направлено на то, чтобы научить студентов ставить цели и достигать их. Метод помогает студентам самостоятельно выражать свое мнение и развивать разговорные навыки.

Ключевые слова: Биология, студенты, «Дерево метода», Дерево целей, самостоятельное мышление, мотивация.

INCREASING THE EFFECTIVENESS OF A LESSON THROUGH INTERACTIVE METHODS FOR SCHOOLCHILDREN

Abstract: This article describes the use of the "Tree method" in the process of teaching biology to schoolchildren. Learning through this method is to teach students how to set goals and how to achieve them. The method helps students to express their opinion independently and develop speaking skills.

Key words: Biology, students, "Tree method", Tree of goals, independent thinking, motivation.

Hozirgi kunda o‘qituvchining asosiy faoliyati komil insonga ta‘lim va tarbiya berishdan iborat ekan, o‘zib borayotgan yosh avlodni bilimli, salohiyatli, qobilyatli, ijodkor, kreativ fikrlovchi qilib tarbiyalash pedagogning eng asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Pedagoglar dars samaradorligiga erishish uchun avvalom bor, pedagog o‘zi mahoratli, dars jarayonini to‘g‘ri tashkil eta olsa o‘quvchilar bilan erkin muloqot qila olsa samaradorlikka erishiladi.

Biologiya fanini o‘qitishda o‘quvchilar dunyoqarashini kengaytirish hamda ijodkorlikni shakllantirish uchun yordam beradigan pedagogik metodlar mavjud. Dars jarayonida mavzuga oid interaktiv metodlar orqali dars jarayonini tashkil etilsa maqsadga muvofiq hisoblanadi. Jumladan, “Daraxt” metodini o‘rganish jarayonida quyidagi jarayonda tashkil qilish mumkin.

Metod uchun kerakli jihozlar : Vatman qog‘ozga avvaldan chizilgan katta hajmdagi daraxt rasmi yoki doskaga rangli markerlar chizib ham foydalanish mumkin. Shu bilan birga yopishtirgich qog‘ozlar (stikerlar) kerak bo‘ladi.

*Ro‘zmatova Sharofat Toshmatjonovna – Chirchiq davlat pedagogika universiteti Biologiya kafedrasida o‘qituvchisi.
Abdurayimova Xulkaroy Islomjonovna - Chirchiq davlat pedagogika universiteti Biologiya kafedrasida 2-kurs magistranti.

Ushbu metod orqali dars jarayonida o‘quvchilarga maqsad quyishni o‘rgatamiz. Bu metodni o‘quvchilarga quyidagicha tushuntirib beriladi. Demak o‘quvchilarga bu daraxt oddiy daraxt emasligini “Maqsadlar daraxti” ekanligini aytamiz. O‘quvchilar yangi mavzu va rejasi qisqacha tushuntirib beriladi. So‘ng o‘quvchilarga topshiriq beriladi: “Bugungi darsdan yoki mavzuni o‘rganishdan maqsadingiz nima? qo‘lingizdagi stikerlarga maqsadlaringizni yozing va daraxtimizni bezating, buning uchun sizga 2 daqiqa vaqt beriladi” deb topshiriq beriladi. O‘quvchilar stikerlarga yangi mavzudan organmoqchi bo‘lgan, ma’lumot, bilim yoki qandaydir bir hodisani yozadilar va o‘qib o‘quvchilarga eshittirib daraxtga yopishtiradilar.

Bu metod o‘quvchiga nima beradi

Mustaqil fikrlashga
kreativlikka o‘rganadi

Nutqiy ko‘nikmalari
rivojlanadi

Darsga qiziqishi,
motivatsiyasi oshadi

O‘quvchilar orasida o‘zaro
fikir va tajriba almashinuvi
yuz beradi

Bu metod o‘qituvchiga nima beradi:

O‘quvchilarning fikrlash doirasini tahlil
qilish imkoniyati paydo bo‘ladi

Ishtirokchilarning maqsad qo‘ya olish
tajribasini rivojlantirishga erishiladi

Darsni ishtirokchilarning belgilagan
maqsad va istaklariga mos ravishda
tshkillashtirishga undaydi

Ishtirokchilarni darsda maqsadli
ishtirok etishga erishish ,qiziqqan
sohalarini aniqlash va shunga ko‘ra
har bir ishtirokchiga individual
yondashish imkoniyati bo‘ladi

Bu metodda o‘quvchi xoh bir jumla, xoh bir so‘z yozsin muhimi oldiga maqsad quyishni o‘rganadi va shu maqsad sari intilishga harakat qiladi. Ushbu daraxt metodi birinchi bo‘lib Amerika Qo‘shma Shtatlari iqtisod olimlari tomonidan ilk bora iqtisodiyot sohasini tadqiq qilishda qo‘llanilgan. Hozirgi kunda ta’limda dars

jarayonida qollanilib kelinmoqda. Bugungi kunda maqsadli ta'lim juda muhim hisoblanadi. Ushbu metod orqali har bitta o'quvchiga oldilariga har bir darsdan bilim olish ushun oldilariga maqsad quyishni va unga to'g'ri erishish yo'llarini o'rgatgan bo'lamiz. Bugungi kunda o'quvchilarga dars berish jarayonini oddiylikdan uzoqlashgan holda noan'anaviy usullar orqali tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Darslarni samarali tashkil etish, vaqtdan oqilona foydalanish, o'quvchilarning kreativ fikrlashlarini rivojlantirish samarali bilim berish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- Tolipova J.O., G'ofurov A.T. Biologiya ta'limi texnologiyalari. — T.: «O'qituvchi», 2002. – 1286.
Xidoyatova D. Samarali interaktiv metodlar. Metodik qo'llanma., Toshkent., 2023.
Norbekova Gulzoda mahmud qizi “O'quvchilarni mustaqil fikrlashini o'stirishda interaktiv metodlar o'rni” // Pedagog respublika ilmiy jurnali B. 581-583.
Axmedova M.T. Pedagogik kompetentlik. Uslubiy qo'llanma. -T.: BROK. CLASS SERVIS, 2016. – 84 b.
Rahimov A.K. O'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish jaraayoniga mantiqiy yondashuvni amalga oshirish yo'llari. Uzluksiz ta'lim. Ilmiy-uslubiy jurnal №1. - Toshkent. 2018. 30-35 b.40.
Ro'zmatova Sh. T. “Biologiya o'qitish jarayonida didaktik-ko'rgazmali vositalardan foydalanish metodikasini takomillashtirish” – Chirchiq., 2023

Ortiqova N.B.*

(Toshkent, O'zbekiston)

SELEKSIYA FANIDA DURAGAYLASH METODINING AHAMIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada duragaylashning nima ekanligini, uning o'simlik va hayvonlar dunyosidagi va qolaversa seleksiya fanidagi ahamiyati haqida ma'lumotlar keltirilgan. Seleksiyada chatishtirishning u yoki bu tizimini ishlatish boshlang'ich materialning xarakteri, o'zgaruvchanlik turi va seleksionerning oldiga qo'yilgan maqsadlarga bog'ligi muhim ahamiyatga ega ekanligi aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: seleksiya, duragaylash, nav, zot, inbriding, autbriding, irsiy o'zgaruvchanlik, genetik injeneriya, biotexnologiya.

ЗНАЧЕНИЕ МЕТОДА ГИБРИДИЗАЦИИ В СЕЛЕКЦИОННОЙ НАУКЕ

Аннотация. В этой статье представлена информация о том, что такое гибридизация, ее значение в флоре и фауне, а также в селекционной науке. Было отмечено, что использование той или иной системы скрещивания в селекции имеет важное значение в зависимости от характера исходного материала, типа вариации и целей, поставленных перед селекционером.

Ключевые слова: селекция, гибридизация, сорт, порода, инбридинг, аутбридинг, генетическая изменчивость, генная инженерия, биотехнология.

THE IMPORTANCE OF THE HYBRIDIZATION METHOD IN BREEDING SCIENCE

Annotation. This article presents information about what hybridization is, its importance in the world of plants and animals and, moreover, in the science of selection. In selection, it was mentioned that the use of one or another system of crossbreeding is important, the character of the starting material, the type of volatility and the dependence of the selector on the goals set in front of it.

Keywords: selection, hybridization, variety, breed, inbriding, autbriding, hereditary variability, genetic engineering, biotechnology.

*Ortiqova Nargiza Baxtiyorovna - Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi. farishtalin@gmail.com

Duragaylash — irsiy belgi va xususiyatlari bilan farqlanuvchi o‘simliklar va hayvonlarni o‘zaro chatishtirish hisoblanadi. Natijada ota-ona organizmlarining belgi va xususiyatlariga ega bo‘lgan duragay organizm paydo bo‘ladi. Duragaylashda chatishtirish uchun olingan ota va ona organizmlar P harfi bilan (P, — ona; P2 — ota), ona shakli ♀ (ko‘zgu) otalik — ♂ (qalqon va nayza), chatishtirish esa x belgilari bilan; duragay avlodlari (bo‘g‘inlari) lot. F harfi ostiga qo‘yilgan tartib raqamlari bilan ifodalanadi (masalan; F, — birinchi, F2 — ikkinchi va h.k. avlodlar). Duragaylash jinsiy hujayralar ishtirokida hamda vegetativ tana organlari ishtirokida o‘tkaziladi. Jinsiy hujayralar ishtirokidagi duragaylashda asosan irsiy belgilarni belgilovchi genlar, xromosomalar qatnashadi. Bunda onalik va otalik shakllari gen va xromosomalarining o‘zaro favqulodda qo‘shilishi evaziga ko‘plab rekombinantlar — yangi belgi va xususiyatlarga ega o‘simliklar F2 va kelgusi avlodda ajralib chiqadi hamda bu seleksiya ishini olib borish uchun katta manba hisoblanadi. Jinsiy hujayralar ishtirokida duragaylash tabiiy va sun‘iy bo‘lishi mumkin.

Tabiiy duragaylash tabiatda juda keng tarqalgan hodisa bo‘lib, faqat tur-xillar, turlar o‘rtasidagina ro‘y berib qolmay, har xil turlar, hatto turkumlar o‘rtasida ham yuz berishi mumkin. Paydo bo‘lgan tabiiy duragaylar evolyusiya yoki seleksiya jarayonida tanlash uchun material bo‘lib xizmat qiladi. Sun‘iy duragaylash tezpishar, serhosil, kasallik va hasharotlarga chidamli yangi navlarni, chorvachilikda esa sermahsul, tabiiy iqlim zonalariga moslashgan hayvon zotlarini yaratishda qo‘llaniladi. Duragayni populyatsiyalar ichidan tanlash kerakli belgilar mujassamlangan yangi navlar va zotlar yaratish imkoniyatini beradi.

Duragaylash genetika va seleksiya fanlari asosida kelib chiqqan bo‘lib, genetikada irsiy belgi va xususiyatlarning avloddan-avlodga o‘tish qonunlarini, belgilarning o‘zaro uzviy bog‘lanishi — korrelyasiya ko‘rsatkichlarini o‘rganish va b. maqsadlarda; kasalliklarga va hasharotlarga chidamli, serhosil, hosilning sifati yuqori bo‘lgan qishloq xo‘jaligi ekinlarining yangi navlarini, chorvachilikda sermahsul hayvon zotlarini yaratishda qo‘llaniladi.

Duragaylashning bir qancha uslublari va shakllari mavjud. Duragaylash tur ichida Duragaylash (bir turga mansub, lekin genetik jihatdan farqlanuvchi individlarni chatishtirish), turlararo duragaylash (har xil turga mansub individlarni chatishtirish) va turkumlararo duragaylash (turli turkumga mansub individlarni chatishtirish), navlararo duragaylash (genetik farqlanuvchi ikkita navga mansub individlarni chatishtirish) va boshqalarga bo‘linadi. Turlararo va turkumlararo duragaylash geografik uzok shakllarni duragaylash yoki genetik uzok, duragaylash, tur ichida va navlararo, nav ichida chatishtirish tur ichida duragaylash deyiladi.

Geografik uzoq, duragaylashning genetik hamda seleksiyada amaliy va nazariy ahamiyati katta, chunki unda tur ichida duragaylashda hosil qilib bo‘lmaydigan" belgi va xususiyatlarga ega shakllar paydo bo‘ladi. Genetik uzoq, duragaylash imkoniyatlari bir qator omillar: turlarning xromosomalari soni yoki ularning genetik

konstitutsiyasi bilan farqlanishi; turlarning geografik ajralib qolishi; ko‘payish sikllarining mos kelmasligi; jinsiy ko‘payish organlari tuzilishidagi farqlar; chang naychalari va urug‘chi to‘qimalarining nomutanosibliği singari chetdan changlanishga to‘sqinlik qiluvchi omillar; qo‘shiluvchi gametalarning genetik nomutanosibliği, yadro va sitoplazmaning fiziologik nomutanosibliği; zigotaning yashash sharoitiga moslasha olmaganligi tufayli rivojlanishning boshlan-g‘ich davrida nobud bo‘lishi va b. bilan cheklangan. Mas. go‘zada xromosomalari har xil turlarning uzoq duragaylashda chatishmasligini bartaraf etish uchun payvand qilish yo‘li bilan oldindan vegetativ yaqinlashtirish usuli, ota-ona o‘simlik turlarining changi aralashmasi bilan changlash, F, dan vositachi sifatida foydalanish, changlashni onalik gullari ustuncha va tumshuqchalarining turli xil rivojlanish bosqichlarida o‘tkazish, onalik shakllari gulining tumshuqchasini o‘shishni tezlashtiruvchi moddalar bilan ishlash, kolxitsin ta’sir ettirib diploid otaona turlarining xromosomalari sonini ikki baravar oshirish kabi usullardan foydalaniladi. duragaylashning bir qancha usullari bor.

Oddiy duragaylashda — ota va ona sifatida olingan (ikki xil irsiy xususiyatga ega bo‘lgan) bir turga mansub ikki o‘simlik bir-biri bilan chatishtiriladi ($A \times B$). Oddiy chatishtirish ikki nav, ikki tur, ikki avlod o‘rtasida olib borilishi mumkin. Murakkab duragaylashda har xil shakllarni — bir turga mansub bir necha navni o‘zaro chatishtirishdan olingan duragaylar yana bir-biri bilan chatishtiriladi [$(A \times B) \times (B \times G)$]. Takroriy chatishtirish da oddiy chatishtirishdan olingan duragay yana o‘sha ona (A) yoki ota (B) forma bilan chatishtiriladi [$(A \times B) \times A$ yoki $(A \times B) \times B$]. Pog‘onali chatishtirishda oddiy duragay ($A \times B$) har yili boshqa-boshqa formalar bilan chatishtiriladi [$(A \times B) \times V$].

Resiprok chatishtirishda birinchi galda ona sifatida olingan o‘simlik ikkinchi galda ota, ota esa ona sifatida olinadi ($A \times B$ va $B \times A$). Bek kross duragaylash — birinchi yoki uchinchi bo‘g‘in duragaylarini ota-ona shakllarining biri bilan bir yoki ko‘p marta qayta chatishtirishdir. Bulardan tashqari, yaqin qarindoshlik chatishtirish (insuxt — o‘simliklarda, inbriding — hayvonlarda) usuli ham mavjud. Bunda chetdan changlanuvchi o‘simlik 5—6 yil o‘zidan chatishtirilsa, insuxt liniya hosil bo‘ladi. Bunday ikki xil liniyalar o‘zaro chatishtirilsa, liniyalararo duragay, ikki xil liniyalararo duragay o‘zaro chatishtirilsa, qo‘sh liniyalararo duragay hosil bo‘ladi. Oddiy va murakkab duragaylash chorvachilikda yangi zot yetishtirish va ayrim irsiy belgilarni yaxshilash maqsadida, o‘simlikshunoslikda esa yangi nav yetishtirish bilan birga o‘simlikning geterozis formalarini yaratish, ekinlar hosildorligini oshirishda qo‘llanadi. Vegetativ duragaylashning (tana qismlari) kurtak payvand (kurtaklar ko‘chatlar po‘stlog‘iga o‘tqaziladi) va iskana payvand ko‘rinishlari bor. Vegetativ duragaylash asosan meva-bog‘dorchilikda qo‘llaniladi.

Duragaylash mikroorganizmlarda ham o‘tkaziladi. Bunga genetik injeneriya va biotexnologiya uslublarida bir hujayrali organizmdan DNK tarkibi ajratib olinadi va uning o‘rniga inson yoki boshqa DNK moddasi kiritiladi va shu DNK topshirigiga

binoan yangi duragay organizm ishlay boshlaydi. Shu usulda o‘stirish gormoni, insulin kabi o‘ta kerakli moddalar ishlab chiqariladi.

Irsiy o‘zgaruvchanlik mavjudligi chatishtirishning turli tizimlari orqali bir organizmda ma‘lum irsiy belgilarni rajuassamlash hamda kerak bo‘lmagan xususiyatlarni yo‘q qilish imkoniyatini beradi. Bunda chatishtirish uchun boshlang‘ich shakllarni tanlash katta ahamiyatga ega. Seleksiyada ishlatiladigan chatishtirishning turli tizimlari quyidagi sxemada keltirilgan:

Chatishtirish (ko‘paytirish) metodlari:

Qarindosh bo‘lgan turlar uchun (o‘zini o‘ziga changlash);

Qarindosh bo‘lmagan turlar uchun: a) zot ichida (nav ichida); b) zotlararo (navlararo); c) uzoq tur yoki formalarni chatishtirish.

Avvalo, chorvachilikda qo‘llaniladigan qarindoshli chatishtirish yoki inbridingni, o‘simliklarda qo‘llaniladigan o‘z-o‘zidan changlantirish yoki insuxtni farqlash kerak bo‘ladi. Bu yerda qulaylik bo‘lishlik uchun bitta atama - inbridingdan foydalanamiz.

Qarindosh bo‘lmagan chatishtirish autbriding zot ichidagi (nav ichidagi), zotlararo (navlararo) va uzoq turlar yoki formalarni duragaylashga bo‘linadi. Zotlararo yoki navlararo chatishtirish krossbriding atamasi bilan ham nomlanadi. Seleksiyada chatishtirishning u yoki bu tizimini ishlatish boshlang‘ich materialning xarakteri, o‘zgaruvchanlik turi va seleksionerning oldiga qo‘yilgan maqsadlarga bog‘liq.

Inbriding - qarindoshli chatishtirish. Inbriding yoki qarindoshli chatishtirish (chorvachilikda ko‘paytirish) deb yaqin qarindoshlar orasidagi chatishtirishga aytiladi. o‘simliklarda inbriding o‘z-o‘ziga changlanganda amalga oshadi. Inbriding populyatsiyani gomozigota holdagi liniyalarga ajratish uchun ishlatiladi. Bu jarayon o‘z-o‘ziga changlanadigan o‘simliklarda tezkor va oson kechadi. Chetdan changlanadigan o‘simliklarda esa buning uchun qarindoshli chatishtirishlar zarur bo‘ladi. Shuni ta‘kidlash kerakki, qarindoshlik darajasi qancha yaqin bo‘lsa, gomozigotalanish jarayoni ham shuncha tez ketadi.

Autbriding - qarindosh bo‘lmagan chatishtirishlar. Qarindoshligi bo‘lmagan organizmlarning chatishishiga autbriding deyiladi. Bunda bir nav yoki zot (nav ichidagi yoki zot ichidagi), har xil nav yoki zot (navlararo yoki zotlararo) va har xil tur, turkum (avlod)larning organizmlari chatishtirilishi mumkin. Qarindosh bo‘lmagan individlarning chatishtirilishida gomozigota holatdagi zararli retsessiv mutatsiyalar geterozigota holatiga o‘tib, duragay organizmga o‘z ta‘sirini o‘tkazmaydi.

Qishloq ho‘jaligi amaliyoti tajribasi shuni ko‘rsatadiki, bir turning ichidagi qarindosh bo‘lmagan organizmlar chatishtirilganda birinchi avlod duragaylari ko‘pincha hayotchan va kasalliklarga chidamliroq bo‘lib, yaxshi mahsuldorlikka ega bo‘lishadi. Keyingi avlodlarda ajralish yuzaga keladi. Bir tur organizmlari orasidagi qarindoshlik yo‘qligi shartli tushunchadir. Bu yerda autbriding tushunchasini har xil

populatsiyalarga mansub bo'lgan organizmlar chatishishiga ko'proq to'g'ri keladi. Autbridning avloddagi geterozigotalik darajasini va populatsiyaning geterogenligini ko'paytiradi. Yuqorida qayd qilinganidek, tekis inbred liniyalar chatishtirilganda birinchi avlod duragaylari ham odatda tekis bir xil boiadi. Bu esa G. Mendelning F, duragaylarining bir xilligi qonuniga muvofiqdir. Keyingi ajralish esa geterogenlikni yuzaga keltiradi. Autbridningdan foydalanilganda kombinativ o'zgaruvchanlik hisobiga belgilaming yaxshi uyg'unlashishi bilan bir qatorda, salbiy uyg'unlashish holatlari ham vujudga kelishini doim inobatga olish kerak. Shuning uchun chatishtirishdan so'ng kerakli formalami tanlash bo'yicha seleksiya ishlari olib borilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. D.A.Musayev, Sh.Turabekov, A.T.Saidkarimov va boshqalar "Genetika va seleksiya asoslari" Toshkent "Voriz-nashriyoti" 2012y.
2. I.T.Ergashev, D.C.Normurodov, B.M.Eshonkulov "Umumiy seleksiya va Urug'chilik" Samarqand "SamDU nashri" 2021y.
3. A.T.G'ofurov, S.S.Fayzullayev "Genetika" "Tafakkur" nashriyoti Toshkent 2010y.

Ro'zmatova Sh.T.*
(Chirchiq, O'zbekiston)

BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA "DECODER" METODINING TUTGAN O'RNI

Annotatsiya. Maqolada Biologiya fanini o'qitishda "Decoder" metodining dars jarayonida qo'llanilishi masalasi yoritilgan. "Decoder" metodini qo'llash orqali talabalarni mustaqil fikrlashlari rivojlantiriladi. Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi fanida qo'llanilganda talabalarda so'zlarni va jummalarni tog'ri topish ko'nikmalari shakllanadi

Kalit so'zlar: decoder metodi, ijodkor, fiklovchi, izlanuvchan, samarali, ko'nikma, bilim, mutahasis.

РОЛЬ МЕТОДА "ДЕКОДЕРА" В ПРЕПОДАВАНИИ БИОЛОГИИ

Аннотация. В статье описано использование метода «Декодер» в преподавании биологии. С помощью метода «Декодер» развивается самостоятельное мышление учащихся. При использовании в науке возрастной физиологии и гигиены у учащихся развиваются навыки правильного нахождения слов и предложений.

Ключевые слова: метод дешифратора, творец, мыслитель, искатель, действенный, умение, знание, специалист.

THE ROLE OF THE "DECODER" METHOD IN BIOLOGY TEACHING

Abstract. The article describes the use of the "Decoder" method in the teaching of Biology. Using the "Decoder" method, students' independent thinking is developed. When used in the science of age physiology and hygiene, students develop the skills of finding words and sentences correctly.

Key words: decoder method, creator, thinker, searcher, efficient, skill, knowledge, specialist.

*Ro'zmatova Sharofat Toshmatjonovna - Chirchiq davlat pedagogika universiteti Biologiya kafedrasida o'qituvchisi.

Ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kuchayib bormoqda. Shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar asosida ular egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishga, mustaqil o'rganib tahlil qilishga, xulosani o'zlari chiqarishga undalmoqda. Bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olish va tarbiyalanishi uchun sharoit yaratiladi.

Dars jarayonlarini sifatli tashkil etish bu avvambor pedagogning yuksak mahoratiga bog'liq hisoblanadi. Dars jarayonlarini mazmunli va samarali tashkil etish va talabalarda bilim, ko'nikma malakalarni shakllantirishda metodlar orqali ishlash eng samarali usul hisoblanadi. Ma'ruza mashg'ulotlarida "Decoder metodi", orqali dars jarayonini tashkil etish bu talabalarni ilmiy pedagogik faoliyatini rivojlantirishga juda katta yordam beradi. Bu metod orqali talabalarda kreativ fikrlash, tezkorlik, xotirani mustahkamlash va ijodkorlik rivojlanadi. Bu metodni dars jarayoni boshida qo'llash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Masalan: Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi fani mavzusi misolida ko'rib chiqamiz. Yozuv taxtasiga mavzu raqamlarda yozib chiqiladi talabalar alifbodan foydalanib yangi mavzuni topishlari kerak bo'ladi.

I "Decoder metodi" (kodni yechuvchi) metodi (2 daqiqa)

Darsimiz mavzusi: 14,21,16,1,19, 7,1,24,12, 16,8,11,8,27,
 19,8,24,8,12,8,13,8,29, 23,14,27,6,1, 2,14,26,11,8,16,
 22,20,18,20,18,8,23,1,19,11,1,17,8, 21,1, 14,21,16,1,19,11,1,11,8,27,
 6,8,6,8,23,4,13,1,18,8.

Aa	Bb	Dd	Ee	Ff	Gg
Hh	Ii	Jj	Kk	Ll	Mm
Nn	Oo	Pp	Qq	Rr	Ss
Tt	Uu	Vv	Xx	Yy	Zz
O'o'	G'g'	Shsh	Chch	ng	'

Mavzu: Ovqat hazm qilish tizimining yoshga bog'liq xususiyatlari va ovqatlanish gigiyenasi.

"Decoder metodi" dan kutilgan natija

Bu metod talabaning ikkita miya sharlarini rivojlanishiga katta yordam beradi, masalan biz tabiiy fanlar yo'nalishi bo'yicha dars mashg'ulotlarini olib borsakda o'quvchilar orasida aniq fanlarga qiziquvchilar ham bo'ladi raqamlar bilan ishlash orqali biz o'quvchini darsga bo'lgan qiziqishini rivojlantiramiz. Metodni darsning kirish qismida talabalarni darsga jalb etish uchun, hattoki darsning o'rtasida muhim bo'lgan qoidalarni eslab qolish ushunchun qo'llasak ham bo'ladi. Talabalar metod bilan ishlash davomida raqamlarni tez topishga harakat qilishadi va shu orqali har bir so'z va jummalarni eslab qoladi.

Talabaga nima beradi:

- 1 Ijodkorligi rivojlanadi.
- 2 Soʻz boyligi oshishga erishadilar
- 3 Darsni takrorlab mustahkamlab oladi

Oʻqituvchiga nima beradi:

- 1 Darsni qiziqarli va samarali tashkil etishga yordam beradi
- 2 Darsda ijodiy muhit paydo boʻladi
- 3 Mavzu xotirada yanada yorqin va obrazli eslab qolinishiga yordam beradi

Talabani darsda faolligi va diqqatini boshqa vaziyatlar olib oʻtmasligi foydali boʻladi hamda taʼlim sifati oshib boradi. Ushbu jarayonga biz quyidagicha taklif bermoqdamiz:

- taʼlim jarayonida oʻquvchilarda tasavvur imkoniyati yetarli boʻlmaganligi uchun dars jarayoniga modellashtirish texnologiyalarini olib kirish;
- darslarda texnik qurilmalarni amaliy foydalanish imkoni boʻlmagan hollarda ishlash jarayonini virtual holda yaratish va natijani koʻrsatish;
- modellashtirilgan obyektlar asosida tahlilni olib borish;
- kimyoviy moddalar bilan ishlash jarayonida ularni koʻrsatishda;
- biologiya darslarida esa maketlar va jonli tabiatdan unumli foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyhati:

- Tolipova J.O., Gʻofurov A.T. Biologiya taʼlimi texnologiyalari. — T.: «Oʻqituvchi», 2002. – 1286.
- Xidoyatova D. Samarali interaktiv metodlar. Metodik qoʻllanma., Toshkent., 2023.
- Norbekova Gulzoda mahmud qizi “Oʻquvchilarni mustaqil fikrlashini oʻstirishda interaktiv metodlar oʻrni” // Pedagog respublika ilmiy jurnali B. 581-583.
- Axmedova M.T. Pedagogik kompetentlik. Uslubiy qoʻllanma. -T.: BROK. CLASS SERVIS, 2016. – 84 b.
- Roʻzmatova Sh. T. “Biologiya oʻqitish jarayonida didaktik-koʻrgazmali vositalardan foydalanish metodikasini takomillashtirish” – Chirchiq., 2023

Zarifov Sh. Sh^{5*}

(Qashqadaryo Oʻzbekiston)

ODAM VA UNING SALOMATLIGI FANINI OʻQITISHDA FANLARARO BOʻGʻLANISHLARNI AMALGA OSHIRISH IMKONIYATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada Biologiya(Odam va uning salomatligi) fanining mavzularini oʻqitishda fanlararo bogʻlanishlarning ahamiyati, imkoniyatlari, turlari, va fanlararo bogʻlanishlarni amalga oshirish yoʻllari yoritib berilgan.

Kalit soʻzlar: taʼlim, biologiya, kimyo, integratsiya, sinxron, asinxron, hujayra, kimyoviy tarkib, moddalar almashinuvi

* **Zarifov Sherdor Shuxratovich** – Nizomiy nomidagi TDPU mustaqil tadqiqotchisi

**ВОЗМОЖНОСТИ РЕАЛИЗАЦИИ
МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫХ СВЯЗЕЙ В
ПРЕПОДАВАНИИ НАУК О ЧЕЛОВЕЧЕСТВЕ
И ЕГО ЗДОРОВЬЕ**

Аннотация: В данной статье освещены значение, возможности, виды межпредметных связей в преподавании предметов Биологии (Человек и его здоровье) и способы реализации межпредметных связей.

Ключевые слова: образование, биология, химия, интеграция, синхронный, асинхронный, клетка, химический состав, метаболизм.

**POSSIBILITIES FOR IMPLEMENTING
INTERDISCIPLINARY CONNECTIONS IN
TEACHING SCIENCES ABOUT HUMANITY
AND ITS HEALTH**

Abstract: This article highlights the importance, possibilities, types of interdisciplinary connections in teaching Biology (Man and his health) and ways of implementing interdisciplinary connections.

Key words: education, biology, chemistry, integration, synchronous, asynchronous, cell, chemical composition, metabolism.

Ta'lim jarayonida fanlararo aloqadorlik o'qituvchining kasbiy, ilmiy-nazariy va ilmiy-metodik tayyorgarligi orqali hamda uning o'z fanini chuqur anglashi asosida samarali amalga oshirilishi mumkin. Buning uchun o'qituvchi faqat o'zi dars beradigan fanini chuqur va puxta bilib qolmasdan, balki unga yaqin integrativ bilimlardan ham xabardor bo'lishi lozim. Bu bilimlarning alohida turlari va ular o'rtasidagi aloqadorlik shakllarini egallashga yordam beradi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitilayotgan Odam va uning salomatligi o'quv fani kimyo, fizika, matematika o'quv fanlari bilan bog'lab o'qitish o'quvchilarni amaliy va kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Olib borgan tajriba - sinov ishlarimiz shuni ko'rsatdiki, kundalik turmushning barcha jabhalariga biologiya, kimyo, fizika, matematika fanlar integratsiyasi jarayonlari jadal kirib kelmoqda. Shuning uchun maktabda o'quvchilarni integrativ bilimlar bilan qurollantirish ayni vaqtning dolzarb muammolaridan sanaladi. Bu muammoni hal etishda biologiya o'qituvchisi **birinchidan** integratsiya, integrallashgan bilimlar to'g'risida bilim va malakalarga ega bo'lishi zarur. **Ikkinchidan**, shu maqsadga yo'naltirilgan, uslubiy asoslangan, ilmiy yo'nalishga ega ishni rejalashtirgan bo'lishi lozim. **Uchinchidan**, o'quv materiallarining ilmiy ahamiyatini asoslab beruvchi, mazmuni - mohiyati bo'yicha maqsadga muvofiqli integrativ materiallarni tanlay bilishi va amalda qo'llay olishi muhim. Binobarin, o'qituvchi nafaqat dasturdagi mavzularga oid integrativ materiallarni yig'ishi, balki uni tizimlashtirishi, ular bilan o'quvchilarni darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda foydalaniishning zaruriy yondashuv va metodlarni izlab topishi lozim[1].

Fanlararo aloqadorlikda bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish sohasida ham, ijodiy faoliyat va borliqdagi o'zlashtiriladigan ob'ektlarga hissiy qadriyatli munosabatni shakllantirishda ham o'rnatilishi lozim. Odam va uning salomatligi fanini kimyo fani bilan integratsiyani qaror topdirishda quyidagi vazifalarni hal etish lozim bo'ladi: Odam va uning salomatligi predmetida berilgan mavzularni tahlil qilish; kimyoviy tushunchalar berilgan bob va mavzularni aniqlash va tushunchalar tahlilini amalga oshirish; Odam va uning salomatligi kursidagi mavzularni o'qitishda

biologik tushunchalarni kimyo tushunchalari bilan birgalikda o'quvchilarga yetkazib berish; Odam va uning salomatligi kursini kimyo fani bilan bog'lab o'qitishda Fanlararo aloqadorlik o'quv-tarbiya jarayonining barcha tarkibiy elementlari (mazmun, shakl, metod va vositalari) ni yaxlit bir tizimga birlashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, u ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlashning muhim omili hisoblanadi.

Odam va uning salomatligi bilan kimyo fani o'rtasida fanlararo aloqadorlikni amalga oshirish yo'llari quyidagilar: Odam va uning salomatligi hamda kimyo fanini o'rganish ketma-ketligi va izchilligini vaqt bo'yicha shunday tanlash lozimki, ulardan birini o'rganish ikkinchisini o'rganishga ko'maklashsin; Odam va uning salomatligi bilan kimyo fanidagi umumiy tushuncha, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga bir xil yondashuvni ta'minlash; Odam va uning salomatligi bilan kimyo fani bilimlarni o'zlashtirish hamda ko'nikma va malakalarni egallashga bo'lgan talablar birligini ta'minlash; Odam va uning salomatligi bilan kimyo faniga oid bilim, ko'nikma va malakalarni o'rganishda boshqa fanlarga oid bilim, ko'nikma va malakalardan keng foydalanish.

Biologik-pedagogik tayyorgarlikning tadqiqot komponentini shakllantirish o'qituvchilardan ikki yo'nalishda tadqiqot o'tkazishni talab etadi: tabiiy muhit holatini o'rganish; o'quvchilarda biologik tafakkurni fanlararo shakllantirish samaradorligini oshirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash[1].

Umumiy o'rta ta'lim maktablardagi ilg'or o'qituvchilarning ish tajribalarini tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelinadi: dars, darsdan tashqari ishlar va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda ta'lim tarbiyaviy ishlar majmuasida fanlararo ekologik tafakkur elementlari tarkib topadi; Odam va uning salomatligi bilan kimyo fani mazmundagi ishlar fanlararo bog'lanishlarni dars va darsdan tashqari vaqtda umumiy vazifalarga muvofiq tashkil etiladi; Odam va uning salomatligi bilan kimyo fanlariga oid tafakkurni fanlararo shakllantirishga doir ishlarni amalga oshirishda maktabning fermer xo'jaliklari va boshqa tashkilotlar, muassasalar bilan hamkorligi samarali natija beradi.

Fanlararo bog'lanish turlari maxsus bilimlar yoki faktik, tadqiqot ishi maxsus bilim sohasi hisoblangan biologiyani tabiiy fanlar bilan bog'lab o'qitishni asos qilib, unda umumiy va xususiy biologik tushunchalar bilan kimyoviy va fizik tushunchalar o'rtasidagi sinxron va asinxron bog'lanishlar ko'zda tutiladi[4].

Sinxron bog'lanish deganda, o'quv fanlari mavzulari dastur va o'quv rejasi asosida sinflararo parallel bog'lanishlar tushuniladi. U quyidagicha ifodalanadi: "Odam va uning salomatligi", VIII sinfda "Odam organizmining hujayraviy tuzilishi", "Tayanch-harakatlanish tizimining tuzilishi", "Moddalar va energiya almashinuvining ahamiyati", "Bosh miyaning tuzilishi va funksiyasi", "Eshitish a'zosi (analizatori)" mavzularini "VIII sinf "Anorganik kimyo" darsligidagi "Atom yadrosi tarkibi," "Atom elektron qavatlarining tuzilishi" "Oqsillar" mavzularini, IX sinf "Kimyo" darsligidagi "Uglerodning tabiatda tarqalishi va biologik ahamiyati",

“Uglerodning fizik va kimyoviy xossalari” mavzulari bilan, “Uglevodlar va lipidlar”, “Oqsillar” mavzularini, X sinf “Organik kimyo” darsligidagi “Organik birikmalarning tuzilish nazariyasi”, “Yog‘lar”, “Uglevodlar” mavzulari bilan, mavzularni X sinf “o‘qitishda gorizontol bog‘lanish asosida amalga oshiriladi[2].

Asinxron bog‘lanish deganda, o‘quv fanlari mavzulari dastur va o‘quv rejasi asosida avvalgi sinflarda o‘zlashtirilgan bilimlardan foydalanish orqali sinflararo bog‘lanish tushuniladi. “Odam va uning salomatligi”, VIII sinfda “Odam organizmining hujayraviy tuzilishi”, “Qon va uning vazifasi”, “Tayanch - xarakatlanish tizimining tuzilishi” mavzularini o‘zaro bog‘lab tushuntirish misol bo‘ladi. Bu kabi bog‘lanish turlari asosan, sinfdan tashqari (xar xil to‘garaklarda, olimpiada, konferentsiya va boshkalar bo‘yicha) o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazish mumkin[1].

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida kimyoviy va biologik tushunchalarning o‘zaro aloqadorligi hamda bog‘liqligi

Kurs mavzulari	Kimyoviy tushunchalar	Biologik tushunchalar (odam va uning salomatligi)
Odam organizmi bilan umumiy tanishuv	Kimyoviy elementlar. Tabiatda suv (7-sinf) Katalizatorlar (7-sinf)	Organizmning kimyoviy tarkibi. Fermentlar – biokatalizatorlardir.
Tayanch harakatlanish sistemasi	Tuzlar to‘g‘risidagi tushunchalar. Tuzlarga misollar, ularning formulalari CaCO_3 , $\text{Ca}_3(\text{PO}_4)_2$ va boshqalar (7-8-sinflar)	Suyaklarning kimyoviy tarkibi. Suyaklarning kalsiysizlanishi
Qon	Gazlarning suyuqlikdagi eruvchanligi (7-sinf). Oksidlanish va qaytarilish reaksiyasi (7-8- sinflar) Moddalarning o‘zaro ta’sir qilishda reaksiyaga kirishuvchi massalar yuzasining ahamiyati (8-sinf). Mineral tuzlar CaCO_3 , va boshqalar (7-8-sinflar)	CO_2 va O_2 ning qondagi eruvchanligi. O_2 ni eritrotsit tarkibidagi gemoglobin bilan birikishi. Eritrotsitlarning tuzilishi Qonning ivishi
Nafas olish sistemasi	Havoning tarkibi. Kislorodning ahamiyati va xossalari (7-sinf). Ohakli suv bilan CO_2 reaksiyasi (7-sinf). Energiya ajralib chiqishi bilan boradigan oksidlanish reaksiyalari (7-8-sinflar). Gazlarning suyuqliklarda eruvchanligiga xarorat va bosimning ta’siri (7-sinf)	Nafas olganda va chiqargandagi havo tarkibi. Organizmnda issiqlik ajralib chiqishi va oksidlar hosil bo‘lishi bilan boradigan oksidlanish jarayonlari. Qonda va o‘pkada gazlar almashinuvi.
Ovqat hazm qilish sistemasi	Xlorid kislotaning xossalari (7-8- sinflar) Parchalanish reaksiyasi (7-sinf). Kimyoviy reaksiya tezligining reaksiyaga kirishuvchi moddalar-ning bir-biriga ta’sir qiluvchi yuzasiga bog‘liqligi (8-sinf). Kislotali va ishqoriy muhitning lakmus reaksiyasi (7-8- sinflar). Eruvchanlik to‘g‘risida tushuncha(7-sinf). Filtrlanish, diffuziya to‘g‘risida tushuncha (7-8-sinflar). HCl va NaCl to‘g‘risidagi tushunchalar (7-8-sinflar).	Me‘da shirasining tarkibi. Oziq mrdalarning organizmda va hazm qilish organlarida parchalanishi Hazm qilish sistema-sining turli bo‘lim-larining lakmusga reaksiyasi. Glyukozaning jigarda glikogenga aylanishi. So‘rilish Me‘da shirasining tarkibi[2].
Moddalar almashinuvi	Moddalar va energiya o‘zgarishlari (7-sinf). Moddalar massaslaining saqlanish qonuni (7-8-sinflar). Oksidlanish reaksiyasi (7-sinf). Mineral tuzlar (7-sinf)	Dissimilyatsiya jarayonida issiqlik ajralib chiqishi. Moddalar almashinuvi. Dissimilyatsiya. Tuzlar almashinuvi.

Biologiya o'qitish jarayonida, integrativ bilimlarni tanlash quyidagi tamoyillar asosida amalga oshirildi: o'qitishning maqsadga mos bo'lishi; o'quvchilarning yoshi, psixologik va fiziologik xususiyatlarini inobatga olishi; o'quvchi uchun yangilik bo'lgan materiallarni qamrab olishi va ularni izlanuvchanlikka bo'lgan qiziqishini orttirishi; o'quvchi tushunadigan oddiy, sodda tilda bayon etilishi; o'quvchilar ongida ilmiy tushunchalarni shakllanishiga xizmat qiladigan bilimlarni o'z ichiga qamrab olishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Raxmatov, U. (2024). Integrativ yonashuv asosida biologiyadan masala va mashqlar yechish fanini o'qitishning nazariy asoslari. News of UzMU journal, 1(1.2. 1), 178-181.
2. Mavlonov O., Tilovov T., Aminov B. Biologiya (Odam va uning salomatligi): Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. -T., 2019. -192 b.
3. Гофуров А.Т., Рахматов У.Э. Биологияни ўқитишда табиий фанлар билан фанларaro боғланишни амалга ошириш. //Халқ таълими. -2007. -2-сон. - Б.60-63.
4. Xolmurodova O.S., A.A.Ishanov, Pardayeva M.S., Omonqulov U.M. Biologiyani o'qitishda innovatsion texnologiyalar. O'quv qo'llanma.T.2024.-272 b.

Rashidova S.Z.*

(Toshkent, O'zbekiston)

STEAM YONDASHUVI ORQALI O'QUVCHILARDA HAYOTIY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: Ushbu maqolada STEAM yondashuvining maktab o'quvchilarida hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish, fanlarni o'zaro uyg'unlikda o'qitish, ta'lim tizimini integrallashuvi kabi masalalar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikani uyg'unlashtirgan holda o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini va real muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirish, STEAM ta'limi bo'yicha qisqa xorij tajribasi ham ko'rib chiqiladi. Bunda asosan e'tibor fanlararo olingan bilimlarni integratsiyalashgan holda o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratiladi.

Kalit so'zlar: STEAM yondashuvi, xalqaro tajriba, XXI asr ko'nikmalari, integratsiya, ijodkorlik, tanqidiy fikrlash.

РАЗВИТИЕ ЖИЗНЕННЫХ НАВЫКОВ У УЧАЩИХСЯ С ПОМОЩЬЮ ПОДХОДА STEAM

Аннотация: В данной статье рассматриваются такие вопросы, как формирование жизненных навыков школьников, гармоничное преподавание предметов, интеграция в образовательную систему подхода STEAM. Также будет рассмотрен краткий опыт обучения за границей в сфере образования STEAM, которое объединяет науку, технологии, инженерию, искусство и математику для развития творческих способностей учащихся и навыков решения реальных проблем. Основное внимание уделяется развитию практических навыков

DEVELOPING STUDENTS' LIFE SKILLS THROUGH THE STEAM APPROACH

Abstract: This article discusses the issues such as developing students' life skills, teaching subjects in a harmonious way, and integrating the STEAM approach into the educational system. It also provides a brief overview of the experience of implementing STEAM project in China's education system, which combines science, technology, engineering, art, and mathematics to develop students' creativity and real-world problem-solving skills. The focus is on developing students' practical skills by integrating interdisciplinary knowledge.

Key words: STEAM approach, international

*Rashidova Sanobar Zokirovna - A. Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot institute Doktorantura bo'limi bosh mutaxassisi. Sanobarrashidova07@gmail.com

студентов *путем* *интегрatsiu* experience, 21st century skills, integration,
междисциплинарных знаний. creativity, critical thinking.

Ключевые слова: *STEAM-подход,*
международный опыт, навыки 21 века,
интегрatsiя, креативность, критическое
мышление.

Respublikamizda bugungi kunda ta'limning umumiy tamoyillaridan kelib chiqqan holda tub islohotlar amalga oshirilayotgani barchamizga yangilik emas. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi farmonida xalq ta'limi tizimini isloh qilishning asosiy yo'nalishlari sifatida xalq ta'limi tizimiga ilg'or xorijiy tajribalar, o'quv-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, shu jumladan ta'lim berishning noan'anaviy, yangicha usullarini joriy etish belgilangan. Mazkur farmon ijrosini ta'minlash maqsadida "2018-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi" tasdiqlangan. Unga muvofiq umumiy o'rta ta'limning yangi davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarini takomillashtirish va shu bilan birga STEAM yondoshuvini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish vazifalari belgilab qo'yilgan. Xorijiy tajribani o'rgangan holda, ishlarni tahlil qilish, milliylikimizni singdirish va amaliyotga qo'llash choralari ko'rilmogda.

Shu munosabat bilan ta'lim jarayonini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish hamda 5-6 sinf o'quvchilarining tabiiy-ilmiy savodxonligini shakllantirishga qaratilgan fanlararo bog'liqlikni ta'minlash, amaliy ish, loyiha va tadqiqot faoliyatga yo'naltirilgan "Tabiiy fanlar"(Science) dasturini joriy etishga katta e'tibor qaratilmogda.

Xalqaro tajribalar asosida STEAM (tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, dizayn va matematika)ni tadbiq etilishi bugungi kunda ta'lim tizimiga yondashuvni o'rganish va ta'limga bo'lgan munosabatini o'zgartiradi albatta.

Hozirgi vaqtda STEAM ta'limi ko'plab mamlakatlarda fan ta'limi siyosatida ilmiy tadqiqotlar markaziga aylandi. STEAM ta'limini Xitoy madaniyati bilan integratsiya qilish maqsadida ko'plab xitoylik olimlar hozirgi vaqtda Xitoyning barqaror rivojlanish jarayoni uchta asosiy muammoga duch kelmogda: yuqori darajadagi mutaxassislarining etishmasligi, iqtisodiy o'zgarishlar bosimi hamda ta'lim islohotining qiyinligi, shuning uchun Xitoy zudlik bilan yuqori darajadagi bitiruvchilarga muhtoj. Shuning uchun Xitoyda STEAM milliy iste'dodlarni rivojlantirish strategiyasining muhim elementi sifatida qaraladi.[4]

Umumta'lim maktablarida STEAM yondashuvi oqrali o'quvchilarda o'rganiladigan fanlarni o'zaro bog'liqligini ta'minlagan holda mustaqil fikrlovchi, olgan nazariy bilimlarni o'z o'rnida amaliyotga tadbiq eta oladigan, kreativligini shakllantiruvchi, taqqoslovchi kabi kompetensiyalarni shakllantirishini ko'zda tutadi. STEAM yondashuvining ta'lim jarayoniga joriy etilishi natijasida kelajakda

innovatsion iqtisodiyotni yaratish uchun zarur bo'lgan kasblarni egallashga, o'quvchilarni hayotga tayyorlash, XXI asr ko'nikmalariga ega, tashabbuskorlik, liderlik qobiliyatlarini namoyon etadigan, kreativ, tanqidiy fikrlash orqali o'z g'oyalarni ilgari suradigan, jamiyatda faol fuqarolik pozitsiyasini egallaydigan **shaxsni** shakllantirishga zamin yaratamiz.

STEAM yondoshuvida faqat nazariy bilimlar emas, balki amaliy bilimlar ya'ni amaliyot ham yuqori o'ringa qo'yiladi. Bunda, bolalar bilimlarni o'zlashtirib, ularni amaliyotda qo'llashni o'rganadilar. Natijada, o'quvchilar mustaqil hayotga qadam qo'yishganda, turli hayotiy vaziyatlarda, hayotda uchraydigan muammolarda, masalan, atrof-muhitni ifloslanishi yoki global iqlim o'zgarishi bilan yuzma-yuz kelganda, bunday murakkab masalalar faqat turli sohalardan olingan bilimlarga tayangan holda va birgalikda hal qilinishi mumkinligini tushunishadi. Faqat bitta fan bilimiga tayanish yetarli emas. Demak, biz endi nafaqat biologiya, fizika, kimyo, geografiya fanlarini alohida o'rganishimiz, balki fanlarning bog'liqlikni, integratsiyani ta'minlashimiz zarur. Amaliyot bilan bog'liq ko'nikmalarga e'tibor qaratish orqali, o'quvchilar o'z irodasini, ijodkorligini, moslashuvchanligini rivojlantiradi va boshqalar bilan hamkorlik qilishni o'rganadilar. Ushbu ko'nikmalar va bilimlar ta'limning asosiy vazifasini tashkil etadi, ya'ni bu butun ta'lim tizimining maqsadiga aylanadi.

STEAM yondashuvi o'ziga tabiiy fanlar, texnologiya, injenerlik, san'at, ijodkorlik, matematika fanlarini umumlashtirib integratsiyalashni nazarda tutadi. Bunday yondashuvdan maqsad – bugungi kundagi barcha sohalardagi muhandis, texnolog kadrlarga bo'lgan talabni ta'minlashga va STEAM ta'lim berish orqali butun dunyo taraqqiyoti va iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashda maktab, jamoatchilikni jalb qilib, ilmiy savodxonlik, raqobatbardoshlikni targ'ib qilishdan iborat.

Dunyo o'zgarayapti, ta'lim ham bir joyda turmaydi. So'nggi o'n yilliklardagi o'zgarishlar yoqimli, lekin bir vaqtning o'zida bizni xavotirga soladi. Ushbu yangi narsa ixtiro qilingani bilan bir qatorda, odamlar ilgari duch kelmagan ko'plab yangi muammolar paydo bo'ladi. Har kuni yangi ish turlari va hatto butun professional sohalar paydo bo'ladi, shuning uchun zamonaviy o'qituvchilar o'qitayotgan bilimlar va ko'nikmalar vaqt talablariga javob berishiga ishonch hosil qilishlari kerak. Bilim o'z g'oyangizni topishga yordam beradi, lekin haqiqiy ish ushbu g'oyani haqiqatga aylantiradi. Agar an'anaviy ta'limning asosiy maqsadi bilim berish va ushbu bilimdan foydalanib fikrlash va yaratish bo'lsa, STEAM yondashuvi olingan bilimlarni haqiqiy ko'nikmalar bilan birlashtirishni o'rgatadi. Bu o'quvchilarga nafaqat ba'zi g'oyalarni olish, balki ularni amalda qo'llash va amalga oshirish imkoniyatini beradi. Faqat haqiqatan ham foydalanish mumkin bo'lgan bilimlar haqiqatan ham ahamiyatli, qimmatlidir.

STEAM texnologiyasining yana bir afzalligi shundan iboratki, bu yondashuvorqali o'quvchilarda eshitish 40% ga, o'qish, eshitish 65% ga, o'qish,

eshitish hamda ko‘rish 75% ga va muammolarni hal qilish uchun ijodiy yondashuv hamda berilgan topshiriqni mustaqil bajarish 90% ortadi.

O‘quvchilar STEAM yondashuviga asoslangan noan’anaviy darslar natijasida: Bilimlarini turli vaziyatlarda qo‘llaydilar tajriba va tadqiqotlar o‘tkazadilar ijodiy fikrlash va mas’uliyatli bo‘ladilar hamkorlikda tadqiqot o‘tkazishning turli usullarini taklif etadilar dalillarni o‘rganish va ilmiy izlanishga kirishadilar fanni chuqur o‘rganishga yordam beradi; muammoni hal qilish orqali o‘quvchilar bilimi mustahkamlanadi; o‘quvchining ijodkorlik qobiliyatini namoyon qiladi; nazariy olgan bilimni real hayotda qo‘llashni o‘rganadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi jadal rivojlanayotgan dunyoda o‘quvchilarni muvaffaqiyatga erishishlari uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar bilan qurollantirish uchun faqat an’anaviy o‘qitish usullarining o‘zi etarli emas. Bu esa o‘z navbatida o‘qituvchilardan ta’limga innovatsion hamda integratsiyalashgan usullarda yondashishlarini talab etmoqda. Yuqoridagi fikrlarimizga tayangan holda STEAM yondashuvini ana shunday usullardan biri ekanligini tushunishimiz mumkin.

STEAM yondashuvi o‘quvchilarni kelajak muammolariga tayyorlashning yangi va samarali usulini o‘rgatadi. Fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika fanlarini integratsiyalashgan holda talabalar bugungi rivojlanayotgan mehnat bozorida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lgan keng ko‘lamli ko‘nikmalarni rivojlantiradilar. STEAM yondashuvining afzalliklari, jumladan, ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, hamkorlik, nazariy bilimlarni amaliy qo‘llash va faollikni oshirish kabi ijobiy hislatlarni inobatga oladigan bo‘lsak, ta’lim jarayonida bu yondashuvdan foydalanish zamon talablariga javob bera oladigan hamda mehnat bozorida o‘z o‘rnini topa oladigan kadrlar yetishitirishimizga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta’limi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-son Farmoni, <https://lex.uz/docs/3893445>

Z.B.Sangirova va boshqalar., *Umumta’lim maktablari uchun STEAM ta’limini joriy etish*, Toshkent 2022

<https://www.arduino.cc/education/how-steam-education-develops-life-skills> How STEAM Education Develops Life Skills

The Trend of STEAM in China’s Education Industry. Интернет-ресурс. Режим доступа: <https://equalocean.com/education/20190425-the-trend-of-steam-in-chinas-education-industry>

<https://intboard.ua/ru/press-sluzhba/blog-intboard/stem-obrazovanie-spetsifika-i-preimushchestva/> STEM – obrazovanie. Spesifika i preimushchestva.

Xing B., & Marwala, T. Implications of the fourth industrial age on higher education//. Retrieved from The Thinker, 2017: <http://arxiv.org/abs/1703.09643>

<https://dppo-edu.ru/revolyuciya-v-obrazovanii-raskrytie-potenciala-podxoda-steam/>

<https://equalocean.com/education/20190425-the-trend-of-steam-in-chinas-education-industry>

<https://www.chinadaily.com.cn/a/201901/14/WS5c3bf77aa3106c65c34e43f6.html>

Tojiboyev M.S., Nomonov J.N., Akbarova G.O.*
(Toshkent, O‘zbekiston)

O‘ZBEKISTONNING SHIMOLI-SHARQIY VA SHARQIY QISMIDAGI BALIQCHILIK XO‘JALIKLARIDAGI BALIQLARINING INVAZION QO‘ZG‘ATUVCHILAR BILAN ZARARLANISHI

Annotatsiya: Hozirgi kunda kasallik suv muhitining sifatsizligi va bioxavfsizlikni boshqarishning yetishmasligi tufayli yuzaga kelishi mumkin. Bu holat baliqlarda immunitetini tushib borishiga patogenlarga tez chalinishiga olib keladi. Tadqiqotimizda O‘zbekistonning shimoli-sharqiy va sharqiy qismidagi baliqchilik xo‘jaliklaridagi hovuz baliqlarining parazitofaunasi haqida qisqacha ma’lumot berilgan. Baliqchilik xo‘jaliklaridagi baliqlarning parazitlar bilan zararlanishi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich sifatida *Dactylogyrus spp* va *Argulus foliaceus* mavjudligi aniqlandi.

Kalit so‘zlar: *Argulus foliaceus*, *Diplostomum spathaceum*, *Lernaea cyprinacea*, invaziya ekstensivlik, invaziya intensivlik.

ЗАРАЖЕНИЕ ИНВАЗИОННЫМИ ПАТОГЕНАМИ РЫБ РЫБНЫХ ХОЗЯЙСТВ СЕВЕРО-ВОСТОКА И ВОСТОЧНОЙ ЧАСТИ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация: В настоящее время заболевание может быть вызвано плохим качеством водной среды и отсутствием контроля биобезопасности. Это состояние вызывает у рыб снижение иммунитета, что приводит к быстрому заражению болезнетворными микроорганизмами. В нашем исследовании представлена краткая информация о паразитофауне прудовых рыб в рыбных хозяйствах северо-востока и Востока Узбекистана. Наличие *Dactylogyrus spp* и *Argulus foliaceus* было признано самым высоким показателем паразитарного заражения рыб в рыбных хозяйствах.

Ключевые слова: *Argulus foliaceus*, *diplostomum spathaceum*, *lernaea cyprinacea*, инвазия экстенсивность, инвазия интенсивность.

INFECTION WITH INVASIVE PATHOGENS OF FISH FARMS IN THE NORTH-EAST AND EASTERN PART OF UZBEKISTAN

Abstract: Currently, the disease can be caused by poor quality of the aquatic environment and lack of biosafety control. This condition causes a decrease in immunity in Fish, which leads to rapid infection with pathogens. Our study provides brief information on the parasitofauna of pond fish in fisheries in the northeast and East of Uzbekistan. The presence of *Dactylogyrus spp* and *Argulus foliaceus* was recognized as the highest indicator of parasitic infection of fish in fisheries.

Keywords: *Argulus foliaceus*, *diplostomum spathaceum*, *lernaea cyprinacea*, invasion extensiveness, invasion intensity.

Kirish. Ma’lumki, parazitlar (jumladan, baliq gelmintlari) xo‘jayin tanasida parazitlik qilishi tarzi bo‘yicha umum-e’tirof etilgan qoidalarga ko‘ra ektoparazit va endoparazit toifalariga ajratiladi (Fenton et al., 2006).

O‘zbekiston va qo‘shni davlatlar suv havzalaridagi baliqlar parazitofaunasining bioekologik asoslarining o‘rganilganligi holatiga to‘xtalish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, O‘zbekistondagi baliq parazitlarini o‘rganish dastlab Orol

*Tojiboyev Mo‘minjon Samsqovich - Baliqchilik ilmiy-tadqiqot instituti, nominjon.tojiboev@mail.ru

Nomonov Jaloliddin Nosirxon o‘g‘li - Baliqchilik ilmiy-tadqiqot instituti, nomonov2022@inbox.ru

Akbarova Gulbaxor Olimovna - Toshkent davlat pedagogika universiteti, akbarova.gulbaxor@mail.ru

dengizida olib borilgan, 1874-yildan hozirga qadar hayvonot olamining 8 tipiga taalluqli 364 tur baliq parazitlari ro'yxatga olinib, ilmiy ishlarda umumlashtirilgan (Алламуратов, 2002). Hozirgi kunda suv havzalarida sodir bo'layotgan o'zgarishlar baliq parazitlari faunasining shakllanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqdaki, ayni shu yo'nalishda maxsus tadqiqotlar olib borish zaruriyati umum-zoologik, parazitologik hamda amaliy nuqtai nazardan dolzarbdir (Pons-Bordas et al., 2006).

Material va tekshirish usullari. Tadqiqot namunalari O'zbekistonning shimoliy sharqiy va sharqiy qismidan hamda Tojikiston respublikasidagi baliqchilik xo'jaliklaridan baliqchilik xo'jaliklarida yetishtirilayotgan karp baliqlaridan yig'ildi. Olingan baliq namunalari 2024-yilning yanvar va sentabr oyi mobaynida yig'ilgan bo'lib, tekshirilgan har bir baliq namunalari an'anaviy parazitologik tadqiqot usullari yordami yorilib, ichki a'zolari petri idishida alohida tekshirildi. Vizual tekshiruvdan so'ng, ichki organlar va muskul namunalari KERN OZL 463 stereomikroskopi (Germaniya) ostida ajratildi va chuvalchanglar har bir namuna uchun hisoblandi ya'ni, infeksiyani o'rtacha hudud bo'yicha tarqalishi, va o'rtacha intensivligi hisoblab chiqildi.

Olingan natijalar va ularning muhokamasi.

Baliq parazitlarining tarqalish tarixi ularning xo'jayinlari bo'lmish baliqlarning kelib chiqishi davriga to'g'ri kelishi, ya'ni parazitlarning tarqalishi baliqlarning qit'alardagi tarqalishi tarixi bilan chambarchas bog'liq ekanligini ta'kidlashimiz lozim (Осмаилов, 1967). Shunga ko'ra, o'z qarashlarimizni isbotlash uchun hududlar bo'yicha baliqlarning invazion qo'zg'atuvchilar tarqalishini qayt etdik (1-jadval).

1-jadval

Hududlar kesimida parzit turlarini qayt etilishi.

№	Parazit turlari	Qayt etilgan hududlar				
		Toshkent viloyati	Namangan viloyati	Sirdaryo viloyati	Jizzax viloyati	Tojikiston Respublikasi
1.	<i>Argulus foliaceus</i>	+	+			
2.	<i>Dactylogyrus spp</i>	+				+
3.	<i>Diplostomum spathaceum</i>	+		+		
4.	<i>Lernaea cyprinacea</i>	+				
5.	<i>Pseudomonas anguilliseptica</i>		+			
6.	<i>Sanguinicola inermis</i>				+	
7.	<i>Schyzocotyle acheilognathi</i>	+		+		
8.	<i>Trichodina reticulate</i>					+

Tadqiqot ob'yekti sifatida to'rtta viloyat kesimida hamda bitta qo'shni Tojikiston Respublikasida tadqiqot olib borildi. Toshkent viloyatidagi fermer xo'jaliklarida besh-turdagi parazit *Argulus foliaceus*, *Dactylogyrus spp*, *Diplostomum spathaceum*, *Lernaea cyprinacea* va *Schyzocotyle acheilognathi* turlari qayd etildi. Namangan viloyatida ikki tur mavjud bo'lib biri qisqichbaqasimon *Argulus foliaceus*

bo'lsa, ikkinchi kasallik tug'diruvchi *Pseudomonas anguilliseptica* bakteriyasi qayd etildi. Sirdaryo viloyatida ikki tur *Diplostomum spathaceum* hamda *Schyzocotyle acheilognathi* turi mavjudligi aniqlangan bo'lsa, Jizzax viloyatida esa faqat bir tur *Sanguinicola inermis* qayd etildi. Tojikiston Respublikasi hududida qisqa muddatli tadqiqot olib bordik. Shunday bo'lsa-da, baliqchilik xo'jaliklaridan ovlangan baliqlarni ixtiopatologik tekshirishlar natijasida ikki turdagi baliqlarda parazitlik qiluvchi *Dactylogyrus* spp va *Trichodina reticulate* turi qayd etildi. Ta'kidlash lozimki, bu yilgi tadqiqotlarimizda *Trichodina reticulate* uchramagan bo'lsa ammo, *Dactylogyrus* spp Toshkent viloyatida qayd etilgan.

Baliqlarning zararlanishini baholashda invaziya ekstensivligi (IE – umumiy tekshirilgan baliqlarga nisbatan zararlangan baliqlar sonining foizi), invaziya intensivligi (II – har bir dona zararlangan baliqda uchragan parazitlar sonining o'rtacha arifmetik qiymati) aniqlashda (Быховская-Павловская, 1985), usullarini qo'llagan holda o'z tadqiqotlarimizda quyidagi natijalarni qayd etdik (2-jadval).

2-jadval

Parazitlarni zararlanish ko'rsatkichlari

№	Parazit turlari	Zararlanishi	
		IE, (%)	II, nusxa
1.	<i>Argulus foliaceus</i>	28,25	1-4
2.	<i>Dactylogyrus</i> spp	33,3	1-6
3.	<i>Diplostomum spathaceum</i>	1,7	1-2
4.	<i>Lernaea cyprinacea</i>	20,5	1-4
5.	<i>Sanguinicola inermis</i>	2,25	1-2
6.	<i>Schyzocotyle acheilognathi</i>	4,5	1-2
7.	<i>Trichodina reticulate</i>	25,0	1-5

Olib borilgan tadqiqot natijasida eng ko'p uchragan parazit tur sifatida *Argulus foliaceus* 28,25 % ni, *Dactylogyrus* spp 33,3 % ni, *Diplostomum spathaceum* 1,7 % ni, *Lernaea cyprinacea* 20,5 % ni, *Sanguinicola inermis* 2,25 % ni *Schyzocotyle acheilognathi* esa 4,5 % ni va *Trichodina reticulate* esa 25,0 % ni tashkil etdi. Eng yuqori ko'rsatkich sifatida *Dactylogyrus* spp va *Argulus foliaceus* mavjudligi aniqlandi.

Xulosa Tadqiqot ob'yekti sifatida to'rtta viloyat kesimida hamda bitta qo'shni Tojikiston Respublikasida tadqiqot olib borildi. Toshkent viloyatidagi fermer xo'jaliklarda besh-turdagi parazit *Argulus foliaceus*, *Dactylogyrus* spp, *Diplostomum spathaceum*, *Lernaea cyprinacea* va *Schyzocotyle acheilognathi* turlari qayt etildi. Namangan viloyatida ikki tur mavjud bo'lib biri qisqichbaqasimon *Argulus foliaceus* bo'lsa ikkinchi kasallik tug'diruvchi *Pseudomonas anguilliseptica* bakteriyadasi qayt etildi. Sirdaryo viloyatida ikki tur *Diplostomum spathaceum* hamda *Schyzocotyle acheilognathi* turi mavjudligi aniqlangan bo'lsa Jizzax viloyatida esa, faqat bir tur

Sanguinicola inermis qayd etildi. Tojikiston Respublikasi hududida qisqa muddatli tadqiqot olib bordik. Shunday bo'lsa-da, baliqchilik xo'jaliklaridan ovlangan baliqlarni ixtiopatologik tekshirishlar natijasida ikki turdagi baliqlarda parazitlik qiluvchi *Dactylogyrus* spp va *Trichodina reticulate* turi qayd etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Fenton, A., Hakalahti, T., Bandilla, M. and Valtonen, E. T. (2006). The impact of variable hatching rates on parasite control: a model of *Argulus coregoni* in a Finnish fish farm. *Journal of Applied Ecology*, 43: 660–668

Pons-Bordas C., Hazenberg A., Hernandez-Gonzalez A., Pool R.V., Covelo P., SánchezHermosin P., López A., Saavedra C., Fraija-Fernández N., Fernández M., Aznar F.J. (2020). Recent increase of ulcerative lesions caused by *Anisakis* spp. in cetaceans from the north-east Atlantic. *Journal of Helminthology*, 94:e127.

Алламуратов Б.А., Алламуратова Г.Б. (2002). Зоогеографический анализ фауны паразитических простейших рыб водоемов Средней Азии // Актуальные проблемы современной науки: Тез. докл. — Москва, № 4 (7). — С. 346-347

Быховская-Павловская И.Е. (1985). Паразиты рыб. Руководство по изучению. — Л.: Наука, 21 с

Османов С.О. (1967). Характеристика паразитофауны рыб Зарафшанских водохранилищ // В сб. Полезные и вредные беспозвоночные Узбекистана. — Ташкент: Фан, С. 121-128

Raxmatov U.E.*

(Toshkent, O'zbekiston)

BIOLOGIYADAN MASALALAR YECHISHDA INTEGRATIV BILIMLARDAN FOYALANISH METODIKASI

Annotatsiya: *Ushbu tezisda bo'lajak biologiya fani o'qituvchilarning biologiya fani tarmoqlaridan masalalar yechish jarayonida integrativ bilimlardan foydalanish metodikasi bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *ta'lim sifati, integratsiya, biologiya, biologik masalalar, biologiya, kimyo, fizika.*

МЕТОДОЛОГИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНТЕГРАТИВНЫХ ЗНАНИЙ ПРИ РЕШЕНИИ ЗАДАЧ БИОЛОГИИ

Аннотация: *В данной тезисе описан метод использования интегративных знаний будущих учителей биологии в процессе решения задач из разделов биологии.*

Ключевые слова: *качество образования, интеграция, биология, биологические проблемы, биология, химия, физика.*

METHODOLOGY OF USING INTEGRATIVE KNOWLEDGE IN SOLVING BIOLOGICAL PROBLEMS

Annotation: *This thesis describes a method for using the integrative knowledge of future biology teachers in the process of solving problems from sections of biology.*

Keywords: *quality of education, integration, biology, biological problems, biology, chemistry, physics.*

Axborotlar globalashuvi jarayonida talabalarning kasbiy sifatlarini shakllantirishda integrasiyalashgan ta'limga bo'lgan yangi ehtiyojni keltirib

***Raxmatov Uchkun Ergashevich** - Nizomiy nomidagi TDPU Biologiya va uni o'qitish metodikasi kafedrasini mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

chiqarmoqda. Chunki fan asoslarini puxta egallash, o'rganilayotgan biologik hodisa va jarayonlarning mazmun-mohiyatini tub mohiyatini to'liq tushunib yetishlari uchun turdosh fanlar yutuqlaridan foydalanish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Talabalarda biologiyadan masalalar yechish jarayonida biologiya o'quv fanidan o'rin olgan mavzularni o'rganish borobarida dars jarayonini to'g'ri loyihalay olish, o'zlashtirgan bilimlardan yangi kutilmagan vaziyatlarda o'z pedagogik faoliyatiga tadbiiq eta olishlari uchun bo'lagak biologiya o'qituvchilari kimyo, fizika, matematika va boshqa tabiiy hamda aniq fanlar bilan integratsiyash mexanizmlarini o'zlashtirgan bo'lishlari lozim[1].

Integrasiya, mujassamlashtirish, yaxlitlash ma'nosini berib, u o'quvchilarning fanlardan olgan bilimlarini umumlashtirish asosida, hodisa va jarayonlarni yaxlit holda tushunishga, ilmiy dunyoqarashi kengayishiga, faol fikrlashiga imkon yaratishi bilan muhim vosita hisoblanadi.

Talabalar biologiyaga oid masalalarning yechish jarayonida integrativ bilimlarni o'zining pedagogik amaliyotiga tadbiiq etish orqali tabiat va jamiyat hayotida ro'y beradigan biologik voqea va hodisalar o'rtasidagi bog'lanishlar, sabab va oqibatlarini mazmun-mohiyatini tushunib yetadi, masala shartida berilgan yangi holatlar bilan tanishadi, zarur bo'lgan masalani yechishda biologiyaga tegishli qonun va nazariyalarni amaliyotda qo'llash orqali masalani yechishga oid yangi usullarni o'ylab topadi.

Integrativ bilimlar asosida ma'lum tipdagi masalalarni yechish usuli va uni bir necha marta takrorlash orqali o'quvchida ko'nikma va malakalar shakllanishi bilan bir qatorda tegishli kompetensiyalar shakllanib boradi.

Talabalar integrativ bilimlar asosida biologik masalalar yechish orqali aniq fikrlarini ajrata olish va xulosalar yasash, ma'lumotlar hamda ilmiy faktlarni aniqlaydi, ma'lumotlarni mos keltirish va qarama-qarshi qo'yish imkoniyatlariga ega bo'ladi. Integrativ bilimlar asosida masala yechishda fikrlar aniq ma'lumotlarga yo'naltirilgan, noqonununiy umumlashtirishlarga yo'l qo'yilmagan holda, masalada berilgan faktlarni to'liq qamrab olish, tasniflashga to'liq e'tibor berish muhim sanaladi[3].

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik talabalar biologiya darsliklarida berilgan mavzulardagi masalalarni yechishga qiynalishadi yoki umuman yecha olishmaydi, buning asosiy sababi masalalar yechish jarayonida integrativ bilimlardan masalalar yechish jarayonida to'g'ri foydalana olmasligidir[3].

Dars jarayonida biologik masalalar yechishning muhim didaktik talablaridan biri integrativ bilimlarni amalga oshirish jarayonida bo'lajak biologiya o'qituvchilari o'quvchilar uchun masala bayonini qulay variantlarini tanlay olishi hisoblanadi. Bu vazifalarni amalga oshirish jarayonida talabalar dars, darsdan va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda izchillilik tamoillari asosida biologik masalalar yechishi va bu jarayonda integrativ bog'lanishni amalga oshirish nazariyasi hamda amaliyotini uyg'un ravishda tashkil etishi lozim.

Ta'lim jarayonida fanlararo aloqadorlik o'qituvchining kasbiy, ilmiy-nazariy va ilmiy-metodik tayyorgarligi orqali hamda uning o'z fanini chuqur anglashi asosida samarali amalga oshirilishi mumkin. Buning uchun o'qituvchi faqat o'zi dars beradigan fanini chuqur va puxta bilib qolmasdan, balki unga yaqin integrativ bilimlardan ham xabardor bo'lishi lozim. Bu bilimlarning alohida turlari va ular o'rtasidagi aloqadorlik shakllarini egallashga yordam beradi. Maktabda o'qitilayotgan biologiya o'quv darsligini kimyo, fizika, matematika o'quv fanlari bilan bog'lab o'qitish o'quvchilarni amaliy va kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Integratsiya turlari maxsus bilimlar yoki faktik, tadqiqot ishi maxsus bilim sohasi hisoblangan biologiyani tabiiy fanlar bilan bog'lab o'qitishni asos qilib, unda umumiy va xususiy biologik tushunchalar bilan kimyoviy va fizik tushunchalar o'rtasidagi sinxron hamda asinxron bog'lanishlar amalga oshiriladi.

Sinxron bog'lanish deganda, o'quv fanlari mavzulari dastur va o'quv rejasi asosida sinflararo parallel bog'lanishlar (biologiya, kimyo, fizika, matematika, geografiya v.b.) tushuniladi.

Asinxron bog'lanish - o'quv fanlari mavzulari dastur va o'quv rejasi asosida avvalgi sinflarda o'zlashtirilgan bilimlardan foydalanish orqali sinflararo ("Biologiya" 5-6, "Biologiya" 7, "Biologiya" 8, "Biologiya" 9, "Biologiya" 10-11-sinflar) o'quv fanlarini bog'lanishi tushuniladi[4].

Barcha biologiya fanlar umumiyligi ular o'rtasida izchil aloqalar o'rnatish uchun qulay shart – sharoitlar yaratadi. Berilganlarga amal qilinganda o'tilgan mavzularni chuqur va atroflicha o'rganish va o'quvchilarning bilimni mustahkamlashga zamin yaratadi.

Tadqiq etilayotgan obyektни integrativ holda o'rganish ob'yektini har tomonlama - o'zaro alohidagi va munosabatdagi jihatlarini mukammal bilishga imkon beradi. Shuningdek, o'rganilayotgan ob'yektini yaxlit tizim shaklida, har tomonlama aloqadorlik nuqtai nazardan o'rganishni talab etadi[5].

Kundalik turmushning barcha jabhalariga biologiya, kimyo, fizika, matematika fanlar integrasiya jarayonlari jadal kirib kelmoqda. Shuning uchun talabalarni integrativ bilimlar bilan qurollantirish orqali kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan sanaladi. Bu muammoni hal etishda bo'g'usi biologiya o'qituvchisi *birinchi* navbatda integrasiya, integrallashgan bilimlar to'g'risida bilim va malakalarga ega bo'lishi zarur. *Ikkinchidan*, shu maqsadga yo'naltirilgan, metodik asoslangan, ilmiy yo'nalishga ega ishni rejalashtirgan bo'lishi lozim. *Uchinchidan*, o'quv materiallarining ilmiy ahamiyatini asoslab beruvchi, mazmuni - mohiyati bo'yicha maqsadga muvofiqlashgan integrativ materiallarni tanlay bilishi va o'zining pedagogik amaliyotiga tadbiiq etish kompetensiyasiga ega bo'lmog'i lozim. Binobarin, bo'lg'usi biologiya o'qituvchisi nafaqat dasturdagi mavzularga oid integrativ materiallarni ajrata olishi, balki uni tizimlashtirishi, ular

bilan o'quvchilarni darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda foydalaniishning zaruriy yondashuv va metodlarni izlab topishi lozim.

Pedagogik kuzatish va tajriba - sinov ishlarimiz shuningdek bu boradagi mavjud metodik adabiyotlar, biologiya o'qitish jarayonida bo'lajak biologiya o'qituvchilari integrativ materiallarni tanlashda quyidagi didaktik mezonlarga, xususiyatlarga ega bo'lmog'i lozimligini ko'rsatdi:


biologiyani o'qitishda tanlangan integrativ bilimlar mavzuga mos bo'lishi, uning mohiyatini, xususiyatlarini aniq qamrab olishi;

tanlangan integrativ bilimlar o'quvchilarda o'rganilayotgan ob'yektni har tomonlama izlanishga imkon berishi va bu bilan o'quvchilarda ilmiy dunyo-qarashni, olamning yaxlitligini anglashni, fan asoslariga qiziqishlarini shakllantirishga yordam bermog'i;

tanlangan integrativ materiallar, har bir mavzu uchun o'ziga xos xususiyatga ega bo'lishi kerak, biologiyani o'qitishda tanlangan integrativ materiallar bilimlar shu kunning talablariga mos istiqbolli mazmunga ega bo'lishi zarur[2].

Talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayonida o'rganish ob'yekti bir xil bo'lgan fanlardagi mavzular, masalan, hujayraning kimyoviy tarkibi, molekulyar massa, fotositezning yorug'lik va qorong'ulik fazalari, zichlik, moddalar va energiya almashinuvi, oziq zanjirida energiyaning saqlanish qonunlari, Quyosh spektrining tirik organizmlarga ta'siri, hujayraning turgorlik holati, oqsillar denaturasiyasi, organizmlarning modifikasion o'zgarishi, tirik organizmlarning Yer yuzida tarqalish qonuniyatlari, tirik organizmlar tuzilishini texnik sistemalar yaratishga tatbiq etilishi, Yerdagi hayotning paydo bo'lish bosqichlari kabi bilimlar o'rganilayotganda biologiya, kimyo, geografiya, fizika, matematika, informatika kabi fanlarning integratsiya mexanizmlarini o'zlashtirgan bo'lishlari talab etiladi.

Tadqiqot obyektlari bir xil bo'lganda integratsiyalash quyidagi sxemada amalga oshiriladi[3].



1 -rasm. Fanlarning tadqiqot obyektlari bir xil bo'lganda integrallashgan bilimlardan foydalanish.

Talabalar dars jarayonida integratsiyalashgan biologik masalalarni yechish natijasida *bir tomondan* o‘zining kasbiy kompetentligini shakllantirsa, *ikkinchi tomondan*, o‘quvchilarning masala yechish ko‘nikmalarini shakllantirishi va inson hayotida ro‘y beradigan muhim fiziologik, biokimyoviy va biofizik jarayonlarning mazmun - mohiyatining tom ma‘noda tushunib yetishiga hamda maktabda olgan bilimlaridan tayanch va fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirishga zamin tayyorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rakhmatov U.E. A perfection of the professional competence of teachers by using of creative works in biology lessons under solving tasks and exercises //European Science Review, Vena. № 3–4. 2018, – P. 225 – 228. ISSN 2310 – 5577
2. Rakhmatov U.E., Shakhmurova G.A. Methodical Instructions of Improving Biology Teachers’ Professional Competence for Conducting Modern Lesson (based on Solutions of Issues and Tasks) //Eastern European Scientific Journal. – №3. –2020. – P. 123 –16. ISSN 2199 –7977.
3. Raxmatov, U. (2024). Integrativ yonashuv asosida biologiyadan masala va mashqlar yechish fanini o‘qitishning nazariy asoslari. News of UzMU journal, 1(1.2. 1), 178-181.
4. Рахматов. У.Э Развитие творческих способностей учащихся при использовании задач и задач на уроках биологии // В XLIII международной научно-практической конференции «Международный научный обзор проблем и перспектив современной науки и образования» (2018). (стр. 112-113).
5. Ergashevich, R. U. (2024, January). Methodological principles of professional competence development of the future biology teacher. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 1-5).
6. Berdikulov R. S. Developmental factor of chemical thinking of future chemistry teachers // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. - 2020. - T. 8. - №. 9.
7. Kholmurodova O. S., Rakhmatov U.E. Problems of improving teaching in the process of biological education // Current research journal of pedagogics (ISSN –2767-3278) Volume 03 ISSUE 02 Sijif impact factor (2021:5. 714) OCLC – 1242041055 Metadata if – 8.145

N.A.Karimova, N.Sh.Mamajonova*
(Toshkent, O‘zbekiston)

BIOLOGIYA DARSLARIDA NOAN‘ANAVIY TA‘LIM TEKNOLOGIYASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolaning mazmuni shundan iboratki, maktab o‘quvchilarining bilimi va ko‘nikmalarini shakllantirish, ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlariga sodiqlik ruhida tarbiyalash, o‘qituvchilarda ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarni tushunib yetadigan yangi professional fikrlashni shakllantirish, o‘qitish texnologiyalarini o‘qituvchilar professional faoliyatining engyaqin vositasi sifatida o‘zlashtirilishiga erishish, o‘quvchilarning qiziqishlari, layoqati va talablarini hisobga olish asosida ular tomonidan bilimlarning puxta o‘zlashtirilishi uchun zarur sharoitlarni yaratishdan iborat

Kalit so‘zlar: dars, o‘quvchi, bilim, faoliyat, improvizatsiya, o‘qituvchi, usul.

*N.A.Karimova - Nizomiy nomidagi TDPU p.f.f.d.,(PhD) dotsenti
N.Sh.Mamajonova - Nizomiy nomidagi TDPU 4 kurs talabasi

ОТЛИЧИТЕЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ НЕТРАДИЦИОННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ БИОЛОГИИ

Аннотация: *Содержание данной статьи заключается в формировании знаний и умений школьников, воспитании их в духе верности национальным и общечеловеческим ценностям, формировании нового профессионального мышления у учителей, понимающих социальные и экономические реформы; Это достижение овладения технологиями обучения как лучшим средством профессиональной деятельности учителей, создание необходимых условий для всестороннего усвоения ими знаний на основе учета интересов, способностей и потребностей обучающихся.*

Ключевые слова: *урок, ученик, знания, деятельность, импровизация, учитель, метод.*

DISTINCTIVE FEATURES OF NON- TRADITIONAL EDUCATIONAL TECHNOLOGY IN BIOLOGY LESSONS

Abstract: *The content of this article is to develop knowledge and skills of schoolchildren, educate them in the spirit of loyalty to national and universal values, develop new professional thinking in teachers who understand social and economic reforms; This is the achievement of mastering learning technologies as the best means of professional activity of teachers, creating the necessary conditions for their comprehensive acquisition of knowledge based on the interests, abilities and needs of students.*

Keywords: *lesson, student, knowledge, activity, improvisation, teacher, method.*

Maktab o'quvchilarining bilimi va ko'nikmalarini shakllantirishda an'anaviy bo'lmagan dars - noan'anaviy (noma'lum) tuzilishga ega bo'lgan improvizatsiya qilingan o'quv mashg'ulotlaridir. Pedagogik adabiyotlarning tahlili bir necha o'nlab turdagi nostandart darslarni ajratish imkonini berdi, ammo ular bitta maqsadga birlashtirilgan - asosiy qonunning bajarilishiga olib keladigan yangi usullar, shakllar, texnikalar va o'qitish vositalarini ishlab chiqishdan iborat bo'ldi.

Darslarni o'tish jarayoni o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi aloqa bilan yaratiladi, an'anaviy dars - ko'p hollarda ta'lim jarayoning birdan-bir modeli bo'lib qo'lmoqda. An'anaviy dars - passiv dars berish usuli bo'lib, darsning samaraliligi uni rejalashtirilishiga bog'liq bo'ladi. Ma'lumki an'anaviy darsda ta'lim jarayonining markazida o'qituvchi turadi. An'anaviy dars o'tish modelida ko'proq ma'ruza, savol - javob, amaliy mashq kabi metodlardan foydalaniladi. Shu sabab, bu hollarda an'anaviy dars samaradorligi ancha past bo'lib, o'quvchilar ta'lim jarayonining passiv ishtirokchilariga aylanib qoladilar. {1}

Dars rivojlanishining asosiy tendensiyalari darsga bo'lgan talablarda o'zining aniq ifodasini topadi.

Zamonaviy darslar quyidagi talablarga javob bera olishi lozim:

- fanning ilg'or yutuqlari, pedagogik texnologiyalardan foydalanish, darsni o'quvtarbiyaviy jarayon qonuniyatlari asosida tashkil etish;

- darsda barcha didaktik tamoyil va qoidalarning optimal nisbatlarini ta'minlash;

- o'quvchilarning qiziqishlari, layoqati va talablarini hisobga olish asosida ular tomonidan bilimlarning puxta o'zlashtirilishi uchun zarur sharoitlarni yaratish;

- o'quvchilar anglab yetadigan fanlararo bog'liklarni o'rnatish;
- ilgari o'rganilgan bilim va malakalari, shuningdek, o'quvchilarning rivojlanish darajasiga tayanish; {2}
- shaxsning har tomonlama rivojlantirishni motivatsiyalash va faollashtirish;
- o'quv-tarbiyaviy faoliyat barcha bosqichlarining mantiqiyligi va emotsionalligi;
- pedagogik vositalardan samarali foydalanish;
- zarur bilim, ko'nikma va malakalar, fikrlash va faoliyat ratsional usullarini shakllantirish;
- mavjud bilimlarni doimo boyitib borish extiyojini yuzaga keltirish;
- har bir darsni puxta loyihalashtirish, rejalashtirish, tashxis va taxmin qilish. {2}

Ko'pincha o'quvchilar ijobiy nuqtai nazardan noan'anaviy darslarni idrok etishmoqda, aksariyat qiziqish o'quv jarayoniga kiritilgan va darslarda faol ish olib boradi. An'anaviy bo'lmagan darsning asosiy vazifalari umumiy madaniy rivojlanish shaxsiy rivojlanishiga ega bolishdan iborat. O'quvchilarning kognitiv motivlari, tashabbuslari va manfaatlarini rivojlantirish lozim. O'rganish qobiliyatini shakllantirish, kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirishdan iborat. Nostandart darslarning ijodiy qidiruv printsiplari qo'yidagilardan iborat: - o'quv sinfining maksimal ishtiroki taminlanadi; - o'yin-kulgi emas, balki hayajonli va ishtiyoq, hissiy ohang darsining asosi sifatida - ko'plab fikrlarning muqobilligini qo'llab-quvvatlanadi. Muvaffaqiyatsiz darsni tayyorlayotganda, nostandart darslar o'quvchilarning bilim, ko'nikmalari va ko'nikmalarini umumlashtirish va mustahkamlashda ishlatilishi kerakligini yodda tutish kerak. O'quv jarayonini tashkil etishning bunday shakllariga juda tez-tez murojaat qilinavermaydi. Chunki bu o'quv mavzusi va jismoniy mashqlar jarayoniga barqaror qiziqishning yo'qolishiga olib keladi. Noan'anaviy darslarga tayyorgarlik darajasini kam baholashning hojati yo'q, qoida tariqasida noan'anaviy bo'lmagan darsdan puxta tayyorgarlik ko'rish kerak. Noan'anaviy darslar shakllarini tanlashda o'qituvchi o'zining fe'l-atvor va temperamentining xususiyatlarini, umuman, individual o'quvchilar sifatida, tayyorgarlik va o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishi kerak. Buning natijasida bilimlarni o'zlashtirishning asosiy usullari an'anaviyda muloqot, muhokama, muzokara, bahs, munozara, mulohaza, tahlil, mushohada, mutolaa, noan'anaviyda muloqot, mutolaa, mushohada, muhokama, muzokara, bahs, munozara, mulohaza, tahlil tarzda namoyon bo'ladi. {4}

Biologiya o'quv fanining mazmuni dialektik-materialistik nuqtai nazardan yoritilishi, o'quvchilar tomonidan organik olam va unda sodir bo'ladigan o'zgarishlarni tushunibgina qolmasdan, balki tirik organizmlarda boradigan hayotiy jarayonlarning mohiyati, mazkur jarayonlarga ta'sir ko'rsatadigan omillar, tirik organizmlarning yashash muhitiga moslashishi va hilma hilligining sabablarini anglaydilar. O'qitishning bu shaklda tashkil etilishi o'quvchilarning faktlar,

hodisalarning o‘zaro bog‘liqligi ustida mulohaza yuritishiga yordam beradi. Mulohaza yuritish talabalarning o‘quv materialini ongli va puxta o‘zlashtirishiga imkon yaratib, ularning ilmiy dunyoqarashi, mustaqil va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini tarkib toptirish va rivojlantirishga zamin tayyorlaydi.

Xulosa qilib aytganda, biologiyani o‘qitishda, o‘quvchilarning barkamolligini ta‘minlash, tabiat va ijtimoiy muhitga nisbatan ongli munosabatini namoyon etishi, falsafiy, ilmiy, siyosiy, iqtisodiy, xuquqiy, axloqiy, estetik ideallar va e‘tiqodlar yig‘indisi, shuningdek, moddiy borliq haqidagi qarashlariga muayyan o‘zgartirishlar kiritish, ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, ilmiy dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirish maqsadida pedagogik va axborot texnologiyalardan o‘z o‘rnida va samarali foydalanish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Ergasheva G.S. Biologiya ta‘limida interaktiv dasturiy vositalardan samarali foydalanishni takomillashtirish. Monografiya. Fan va texnologiya, – T.: 2017. – 220 b.

19. Tolipova J.O. A.T.G‘ofurov “Biologiya o‘qitish metodikasi” T.: 2012. –128 b.

Saidaxmetov N. yangi pedogogik texnologiya: taxlil, ta‘rif, mulohazalar. Toshkent O‘qtuvchi 2000-yil.

Hayitov A, Boymurodov N, Ta‘limda noanaviy darslar va interfaol usullaridan foydalanish T Yangi asr avlodi. 2006-yil.

**Xidirov M.T., Abdualimova F.R., Zoirova M.Sh., Nuraliyeva M.X.,
Eshpo‘latova S.O’.***
(Toshkent, O‘zbekiston)

G‘O‘ZANING AYRIM TURLARI ISHTIROKIDA OLINGAN F₁C, F₂C ALLOPOLIPLD DURAGAYLARDA VEGETATSIYA DAVRINING DAVOMIYLIGI

Annotatsiya: *Tadqiqotda G. herbaceum turining yovvoyi va ruderal shakllarining vegetatsiya davri, shuningdek, diploid va tetraploid turlararo duragaylanish jarayoni o‘rganilgan. Yovvoyi G. herbaceum (subsp. africanum) va ruderal shakllari qisqa kunga talabchan bo‘lib, vegetatsiya davri mos ravishda 137,4 va 127,2 kunning tashkil etdi. Madaniy tropik subsp. frutescens va ruderal subsp. pseudoarborescens kenja turlari esa qisqa kunga talabchan emas, natijada dala sharoitida 117,2; 119,6 va 117,4 kun davom etdi. Yovvoyi tetraploid G. mustelinum turi ham qisqa kunga talabchan bo‘lib, 151,8 kunning tashkil qildi.*

Kalit so‘zlar: *vegetatsiya, ruderal, yovvoyi, diploid, tetraploid, G. herbaceum, G. mustelinum, tur.*

НЕПРЕРЫВНОСТЬ ВЕГЕТАЦИОННОГО ПЕРИОДА У АЛЛОПОЛИПЛОИДНЫХ ГИБРИДОВ F₁C, F₂C С УЧАСТИЕМ ОТДЕЛЬНЫХ ВИДОВ ХЛОПКОКОВ

Аннотация: *В ходе исследования изучен период вегетации диких и рудеральных форм видов G. herbaceum, а*

CONTINUITY OF THE GROWING PERIOD IN ALLOPOLYPLOID HYBRIDS F₁C, F₂C WITH THE PARTICIPATION OF INDIVIDUAL COTTON TYPES

Annotation: *The study examined the vegetation period of wild and ruderal forms of G. herbaceum species, as well as the*

*Xidirov Muxammad Tursunkulovich - Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Biologiya va uni o‘qitish metodikasi kafedrasida biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v/b.

Abdualimova Feruza Rizamat qizi, Zoirova Muxlisa Shavkat qizi, Nuraliyeva Maxliyo Xolboy qizi, Eshpo‘latova Sevinch O‘ktam qizi - Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti 4-boshqich talabalari.

также процесс гибридизации между диплоидными и тетраплоидными видами. Дикий *G. herbaceum* (subsp. *africanum*) и рудеральные формы были требовательны к короткому дню, вегетационный период составил 137,4 и 127,2 дня соответственно. Культивируемые тропический подвид *frutescens* и рудеральный подвид *pseudoarboreum* не требовательны к короткому световому дню, в результате в полевых условиях 117,2; Оно продолжалось 119,6 и 117,4 дня. Дикий тетраплоидный вид *G. mustelinum* также требовал короткого дня и составил 151,8 дня.

Ключевые слова: вегетация, рудеральный, дикий, диплоидный, тетраплоидный, *G. herbaceum*, *G. mustelinum*, вид.

process of hybridization between diploid and tetraploid species. Wild *G. herbaceum* (subsp. *africanum*) and ruderal forms were demanding of a short day, the vegetation period was 137.4 and 127.2 days, respectively. Cultivated tropical subspecies *frutescens* and ruderal subspecies *pseudoarboreum* are not demanding of a short day, as a result, in field conditions 117.2; It lasted 119.6 and 117.4 days. The wild tetraploid species *G. mustelinum* also required a short day and was 151.8 days.

Keywords: vegetation, ruderal, wild, diploid, tetraploid, *G. herbaceum*, *G. mustelinum*, species.

Poliploidiya o'simliklar evolyutsiyasida keng tarqalgan hodisa bo'lib, fenotipik diversifikatsiya va yangi turlar shakllanishiga yordam beradi. Poliploidlarda transkripsiya darajasidagi o'zgarishlar va regulyatsiyalar yaxshi o'rganilgan bo'lsa-da, translatsiya darajasidagi ta'sirlar kam o'rganilgan. Ushbu bo'shliqni to'ldirish uchun *G. hirsutum* (AD₁) va *G. barbadense* (AD₂) allopoliploid turlaridagi barglarning transkriptomik va translatomik tahlilini, ularning A-genom va D-genomli diploid ajdodlari bilan taqqoslab o'rgangan. Allopoliploid transkripsion landshaftga sezilarli ta'sir ko'rsatgan bo'lsa-da, translatsiyaga ta'siri nisbatan kam bo'ganligi aniqlangan. Buni ribosoma bilan himoyalangan fragmentlar darajasidagi ifoda diapazoni torligi va mRNA darajalaridagi o'zgarishlarning kamayganligi bilan isbotlagan. AD₁ va AD₂ da ko'p kuzatilgan allopoliploidlarga xos o'zgarishlar transkripsion yoki translatsion darajalarda jami 7393 ta genni o'z ichiga olganligi ko'rsatib o'tilgan [2].

A. Abdullaev va boshqalarning tadqiqot ishlarida, ertapisharlik belgisi muhitning biotik va abotik omillari ta'sirida madaniylashgan va yovvoyi g'o'za turlari evolyusiyasi jarayonida uzoq yillar davomida vujudga kelgan. *Gossypium* L. turkumiga mansub yovvoyi va madaniylashtirilgan turlarni shimoliy kengliklarga tarqalish tarixi uzluksiz sun'iy va tabiiy tanlash, duragaylash, mutatsiya va moslashuv jarayonlarida sodir bo'lgan. Natijada ba'zi bir muhit sharoitlarida ertapisharlik bo'yicha xar-xil turlar va navlar paydo bo'lgan [1].

Tadqiqot natijalariga ko'ra *G. herbaceum* turining yovvoyi (subsp. *africanum*) va ruderal (subsp. *pseudoarboreum* f. *harga*) shakllari qisqa kunga talabchan bo'lganligi bois, vegetatsiya davri 137,4 va 127,2 kunni tashkil qildi. Madaniy tropik subsp. *frutescens*, ruderal subsp. *pseudoarboreum* kenja turlari va madaniy subsp. *euherbaceum* A-833 navi qisqa kunga talabchan bo'lmaganligi sababli dala sharoitida mos ravishda 117,2; 119,6 va 117,4 kunni tashkil qildi. Yovvoyi tetraploid

G.mustelinum turi ham qisqa kunga talabchan tur bo'lib, vegetatsiya davri davomiyligi 151,8 kunni tashkil qildi.

Diploid *G.herbaceum* turichi vakillari va tetraploid *G.mustelinum* turi bilan turlararo duragaylanish asosida olingan F₁C subsp.*frutescens* × *G.mustelinum* allopoliploid duragaylarining vegetatsiya davri 128,6±0,9 kunni, variatsiya koeffitsienti 2,3% ni tashkil qildi. Dominantlik koeffitsienti $hp = 0,34$ qiymatga teng bo'lib, qisman dominantlik holati qayd etildi, F₂C avlodida vegetatsiya davri 134,4±3,3 kunni, irsiylanish koeffitsienti 88,0 % bo'lganligi kuzatildi.

F₁C subsp.*pseudoarboreum* f.harga × *G.mustelinum* va F₁C subsp.*africanum* × *G.mustelinum* allopoliploid duragaylarda ko'sak tugulmaganligi sababli vegetatsiya davri aniqlanmadi.

Yuqorida natijalari keltirilgan F₁C allopoliploid duragaylardan faqatgina subsp.*frutescens* × *G.mustelinum* kombinatsiyasining F₂C allopoliploid duragayi olishga muvaffaq bo'lindi. Ushbu o'simliklarda 50% birinchi ko'sak ochilguncha davr va ko'rsatkichlarining ba'zi o'zgaruvchanlik ko'lamlari aniqlandi. subsp.*frutescens* × *G.mustelinum* kombinatsiyasining F₂C allopoliploid duragayida umumiy 134 ta o'simlik olindi, shundan 53 tasi qisqa kunga kuchli talabchan bo'lganligi sababli dala sharoitida hosil elementlarini tugmadi. Qolgan 81 ta F₂C allopoliploid duragaylarida vegetatsiya davri 115-155 kun oralig'ida bo'lib, 8 ta sinfga ajratildi. F₂C duragay shakllar orasidan vegetatsiya davri 115-119 kun va 120-124 kun oralig'ida bo'lgan ertapishar rekombinant qimmatli shakllar tanlab olindi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, subsp.*frutescens* × *G.mustelinum* kombinatsiyasining F₂C allopoliploid duragayini olish muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Olingan duragayda 134 ta o'simlikdan 53 tasi qisqa kunga kuchli talabchan bo'lib, hosil elementlarini tugmasligi, ularning agronomik ahamiyatini kamaytiradi. Biroq qolgan 81 ta duragayda vegetatsiya davri 115-155 kun oralig'ida bo'lib, bu o'simliklarning turli agronomik sharoitlarda o'sish potentsialini ko'rsatadi. E'tiborga molik qimmatli ertapishar rekombinant shakllar 115-119 kun va 120-124 kun oralig'ida tanlab olingani, kelajakdagi seleksiya jarayonlari uchun qimmatli ma'lumotlar taqdim etadi. Ushbu natijalar *G.herbaceum* va *G.mustelinum* turlari o'rtasida turli qishloq xo'jaligi sharoitlarida o'sish va ishlab chiqarishni yaxshilash imkoniyatlarini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдуллаев А.А., Ризаева С.М., Клят В.П. Эволюционно-исторические аспекты естественного и искусственного отборов на повышение скороспелости хлопчатника // Эвол. и сел. асп. скоросп. и адап. хл-ка и др. к-р: Мат. межд. конф., посв. 95-лет. со дня рожд. акад. С.С.Садыкова.- Ташкент.: Фан, 2005. –С. 9-12.
2. Guiling F., Haotian L., Juqing J., Mingming H., Guanqing H. Translational Regulation of Duplicated Gene Expression Evolution in Allopolyploid Cotton // Published in Genes journal, 2024. p. 1-14. doi.org/10.3390/genes15091130.

Yeshmamatova Sh N., Xonnazarova M.T.*

(Toshkent, O‘zbekiston)

O‘ZBEKISTONDA KALTAKESAKLARNI TUR TARKIBI, TARQALISHI VA YASHASH TARZI

Annotatsiya. *Bu tezisda O‘zbekistonda uchraydigan sudralib yuruvchi hayvonlar (Kaltakesaklar)ning yashash tarzi, tarqalishi hamda ularning biologiyasi to‘g‘risida ma‘umotlar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Yashash joyi, tuzilishi, maqomi, tarqalishi, ko‘payishi, ahamiyati*

ВИДОВОЙ СОСТАВ, РАСПРОСТРАНЕНИЕ И ОБРАЗ ЖИЗНИ ЯЩЕРИЦ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. *В данной диссертации представлены сведения об образе жизни, распространении и биологии рептилий (ящериц), обитающих на территории Узбекистана.*

Ключевые слова: *ареал, структура, статус, распространение, воспроизводство, значение.*

SPECIES COMPOSITION, DISTRIBUTION AND LIFESTYLE OF LIZARDS IN UZBEKISTAN

Abstract. *This thesis provides information on the way of life, distribution and biology of reptiles (lizards) found in Uzbekistan.*

Key words: *habitat, structure, status, distribution, reproduction, importance.*

Kaltakesaklar, sudralib yuruvchilar sinfining kenja turkumi. 2000 tacha turi bor. Gekkonsimonlar, tangacha oyoqlilar, agamalar, iguanalar, urchuqsimonlar, zahartishlilar, echkemarsimonlar, amfisbenalar, asl kaltakesaklar, ssinksimonlar kabi oilalarga bo‘linadi. Kaltakesaklarning tana shakli turli-tuman. Besh barmoqli oyoqlilari ham, oyoqsizlari ham uchraydi. Oyoqsiz Kaltakesaklarda to‘sh suyagi va oyok kamari saqlangan.

Kaltakesaklar keng tarqalgan. O‘zbekistonda ularning 38 turi, mas, fotmanchiq, echkemar, toshkaltakesak, kunkarg‘ar, sariq ilon, bot-bot, qizilquloq va hokazo bor. Asl kaltakesaklar oilasi mazkur turkum uchun tipik vakildir. Bu oilaning 156 tacha turi bor. Ular 21 ta uruqqa kiradi. Gavdasi silindr shaklida; bo‘yni yaqqol ajralib turadi; dumi uzun va uziluvchi; oyoqlari yaxshi rivojlangan; boshi va qorni qalqonlar, gavdasi tangachalar bilan qoplangan. Dumidagi tangachalar halqa shaklida. Quloq teshigi bor. Afrika, Osiyo va Yevropaning serquyosh, issiq mintaqalarida yashaydi.

O‘zbekistonda yozda kun qiziganda uyalariga (salqin joylarda) kirib oladi. Qishda (noyabrdan martgacha) karaxt bo‘ladi. Tuxum qo‘yadi; tuxumdan tirik tug‘uvchi turlari ham bor. Hasharot va boshqa jonivorlar bilan oziqlanib, ko‘p foyda yetkazadi.

Yugurdak kaltakesak, tirik tug‘ar kaltakesak, O‘zbekistonda keng tarqalgan ildam kaltakesakcha va hokazolar shu oilaga kiradi. Kaltakesaklar gavdasining shakli turli-tuman, asosan cho‘zinchoq, uzun harakatchan dumi, yaxshi rivojlangan bo‘yin,

Yeshmamatova Sh N. – Nizomiy nomidagi TDPU Biologiya yo‘nalishi talabasi.

Xonnazarova M.T. – Nizomiy nomidagi TDPU Zoologiya va anatomiya kafedrasida p.f.f.d. (PhD).

qisqa va besh barmoqli oyoqlari bor. Ayrim turlarining oyoqlari yo'qolib ketgan, lekin oyoqsiz kaltakesaklarda ilonlardagiga qarshi o'laroq to'sh suyagi, oyoq kamari, harakatchan ko'z qovoqlari va nog'ora pardasi bo'ladi. Gavdasining uzunligi 3,5 sm dan 4 m gacha va og'irligi 150 kg gacha boradi. Yozda ko'pchilik tangachalilar qumli cho'llarda isib ketishdan aochib. uyalariga yashirinadi yoki daraxt shoxlariga chiqib oladi D.N. Kashkarovning kuzatishlariga qaraganda O'rta Osivoning qumli cho'llarida yozda harorat yerdan 2 m balandlikda (daraxt shoxlarida) yerda soya joydagiga nisbatan 10°C past, quyosh nuri turgan joydagiga nisbatan esa 28°C past bo'lishi aniqlangan [1;2] .



1 rasm: Agama.

O'zbekistonda uchraydigan kaltakesaklarning tarqalishi, yashash tarzi va biologiyasi.

Asl kaltakesaklar mayda va o'rtacha kattalikda bo'ladi, dumi uzun va uziluvchan, son teshiklari bor. Aksariyat turlari cho'l va dashtlarda hamda tog' etaklarida yashaydi.

Rossiyaning salqin o'rmonlarida tiriktug'ar kaltakesak, o'rta mintaqada, jumladan, O'zbekistonning cho'lmintaqalarida targ'il chiziqli rangbarang kaltakesakchalar, togli va shimoli-sharqiy hududlarda ildam keltakesak uchraydi. Ildam kaltakesak (*Eremias velox*) — chin kaltakesaklar oilasining turi. Eron, shim.-g'arbiy Xitoy, Kavkaz, Rossiyaning jan. hamda O'rta Osiyoda tarqalgan. O'zbekistonda I.k. ni sho'rxok taqirlar, qumli cho'llar, to'qay chakalakzor, ariq va hovuzlar bo'yida uchratish mumkin. Tanasining uz. 8,5 sm gacha, dumi tanasidan 1,4—2 marta uzun. Gavdasining usti kulrang, to'q jigarrang yoki qoramtir, orqa tomonida tana bo'ylab ketgan bir necha qator qora xollari bor. Qorin tomoni oq, dumining osti qizil. Har xil hasharotlar bilan oziqlanadi. Urg'ochisi may — iyulda, hatto avg. boshlarigacha 2—3 marta 3—5 tadan tuxum qo'yib ko'payadi [3;4]



2-rasm: Asl kaltakesak.

O‘zbekiston faunasida sudralib yuruvchilar sinfining 58 turi uchraydi. Vakillari tog‘ va tog‘oldi, dasht, cho‘l, to‘qay, o‘zlashtirilgan hududlar hamda aholi punktlarida qayd etiladi. Kaltakesaklar yilning sovuq davrida qishki uyquga ketadi. Bahor, yoz, kuz, oylarida hayot kechiradi. Ularning terisining shox bilan qoplanishi va teri orqali nafas olish funksiyasining yo‘qolishi, ularga nomi kam yerlarga ham yashashga imkon beradi. Shox bilan qoplangan teri reptiliyalarga sho‘r erlar bilan dengiz suvlariga , ya‘ni suvda va quruqda yashovchilar mutlaqo yasholmaydigan makonlarga kirish uchun yo‘l ochdi. Shu bilan birga , o‘pkaning ichki tuzilishi murakkablashib va xalqum bilan nafas olish o‘rniga ko‘krak qafasining harakati orqali nafas olish qaror topib, nafas olish funksiyasi zo‘raydi.

Kaltakesaklar qutblar oldidagi erlar hisobga olinmaganda, er yuzining barcha iqlimiy viloyatlariga tarqalib, juda turli-tuman hayot formalari hosil qildilar. Ularning orasida quruqda, er ostida, suvda va daraxtda yashovchi formalar bor[3;4].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shernazarov E.,Jumanov M. O‘zbekiston suvda hamda qururlikda yashovchilariari va sudralib yuruvchilari. . O`quv qo`lanma “Xorazim nashriyoti “ Urganch .2015.102 b.
2. Назаров И.Қ., Аллаёров И.Ш. Бухоро географияси Бухоро, 1994 йил,
3. Богданов О.П. Ўзбекистон ҳайвонлари (умуртқалилар) Тошкент, “Ўқитувчи.” 1983.
4. Лаханов Ж.Л. “Ўзбекистоннинг умуртқали ҳайвонлари аниқлагичи”

Yo'ldosheva G.T., Xonnazarova M.T.*

(Toshkent, O'zbekiston)

MADANIYLASHTIRILGAN SUV HAVZALARI (G'OFUR G'ULOM ISTIROHAT BOG'I MISOLIDA) QUSHLARINI HAYOTI

Annotatsiya. *Qushlar — umurtqali hayvonlar sinfi. Trias davrida yashagan sudralib yuruvchilarning psevdozuxlar turkumidan kelib chiqqanligi taxmin qilinadi. Ayrim morfologik belgilar (orqa oyoqlardagi muguz tangachalar, muguz tumshuq va boshqalar) hamda fiziologik xususiyatlari (tuxum qo'yishi)ga ko'ra qushlar sudralib yuruvchilarga o'xshaydi, lekin tanasi pat bilan qoplanganligi tufayli ulardan farq qiladi.*

Kalit so'zlar. *Qushlar, yashash tarzi, xonaki, ahamiyati, oziqlanishi, ko'payishi.*

ЖИЗНЬ ПТИЦ КУЛЬТИВНЫХ ВОДНЫХ ПРУДОВ (НА ПРИМЕРЕ САДА ОТДЫХА ГОФУР-ГУЛАМА)

Аннотация. *Птицы — класс позвоночных животных. Предполагается, что рептилии, жившие в триасе, произошли от рода псевдозоо. Птицы сходны с пресмыкающимися по некоторым морфологическим особенностям (черная чешуя на задних лапах, черный клюв и др.) и физиологическим признакам (яйцекладка), но отличаются от них тем, что тело покрыто перьями.*

Ключевые слова. *Птицы, образ жизни, жилище, значение, кормление, размножение.*

BIRD LIFE OF CULTURED WATER PONDS (EXAMPLE OF GOFUR GULAM RECREATION GARDEN)

Abstract. *Birds are a class of vertebrates. It is assumed that the reptiles that lived during the Triassic originated from the genus of pseudozoans. Birds are similar to reptiles due to some morphological features (black scales on hind legs, black beak, etc.) and physiological characteristics (egg-laying), but they differ from them due to the fact that the body is covered with feathers.*

Key words. *Birds, way of life, home, importance, feeding, reproduction.*

Yer yuzida 10 mingga yaqin qushlarning turi bor. Ular turli oilalarga mansub bo'lib, ko'rinishi, hajmi, harakatlari bilan ajralib turadi. Patlar qushlar tanasida issiqlikni saqlaydi; uchishda havo qarshiligini kamaytirib, havoda ko'tarish yuzasini hosil qiladi (qanot, dum). Uchish va har xil harakatlanish (yugurish, suzish, sho'ng'ish)ga moslanish qushlar tayanch-harakat sistemasining o'ziga xos tuzilishiga sabab bo'lgan. Qanotlarning paydo bo'lishi bilan oldingi oyoqlar, yelka kamari suyaklari va muskullari shakllangan (ko'krak toj suyagi rivojlangan, uchish muskullari tana vaznining 25% ini tashkil etgan); yerda 2 oyoqda yurganida murakkab yaxlit tuzilgan dumg'aza va orqa oyoqlari muskullari qayta muvozanat saqlash vazifasini bajaradi. Qushlarning qovurg'alari o'zaro harakatchan qo'shilgan 2 qismdan iborat bo'lib, nafas olishda ko'krak qafasi hajmining o'zgarishiga, ya'ni elastikligi kam o'pka to'qimasi orqali havoni havo xaltalariga va naysimon suyaklar bo'shlig'iga o'tishiga yordam beradi.

Qushlarda nafas olish jarayoni o'ziga xos kechadi. Qushlarning bronxlari havo xaltachalari bilan (9–10 tacha) tutashgan. Nafas olish havo o'pkadan xaltachalarga o'tayotganida va ulardan yana o'pka orqali qaytib chiqayotganida sodir bo'ladi. Havo xaltachalari termoregulyatsiyada ishtirok etadi; suvda suzuvchi qushlarda esa

Yo'ldosheva G.T. – Nizomiy nomidagi TDPU Biologiya yo'nalishi talabasi.

Xonnazarova M.T. – Nizomiy nomidagi TDPU Zoologiya va anatomiya kafedrasida p.f.f.d. (PhD).

sho'ng'ishda tana tig'izligini o'zgartirishga imkon beradi. Ovqat xiliga moslanish qizilo'ngachning ixtisoslashuvi (ayrim qushlarda jig'ildonning rivojlanishi), muskulli oshqozonning paydo bo'lishi va ichakning uzayishiga olib kelgan. G'ofur G'ulom istirohat bog'ida quyidagi qushlarni suv havzalarida uchratish mumkin.

G'oz, xonaki g'oz – o'rdaksimonlar oilasiga mansub parranda turi. Yevrosiyoning tundra va o'rmon tundra zonasida yashovchi kulrang turi g'ozlarning urug'boshi hisoblanadi. G'oz parhez go'shti uchun deyarli barcha mamlakatlarda boqiladi. G'ozning tana tuzilishi qayiqsimon, bo'yni uzun, oyoq barmoqlari suzuvchi parda bilan o'ralgan. Tumshug'ining shakli har xil(to'g'ri, qayrilgan, cho'qqaygan kabi). Ayrim g'ozlarining tumshug'i ustida do'mbog'i bor. Patlarining rangi oq, kulrang, qo'ng'ir, dog'li bo'ladi. Tumshug'i sarg'ish-qizil. Kamdan-kam qora. Pat qoplami tig'iz, sovuqdan yaxshi himoya qiladi.

G'ozlar boshqa xonaki parrandalarga nisbatan kechroq (34-44 haftaligida) jinsiy yetiladi. Xo'jalikda 3-4 yil foydalaniladi (ayrim hollarda 5 yil). To'dada 3-4 ta urg'ochi g'ozga 1 ta erkak g'oz qoldiriladi. Urg'ochi g'oz 265-350 kunligida iqlim sharoitlariga ko'ra (qishda, bahorda) tuxumga kiradi. Bir mavsumda 30-50 (ba'zan 100 tagacha) yoki undan ko'p tuxum qiladi. Jo'jasi 29-30 kunda tuxumdan chiqadi.

G'ozning xitoy, kuban zotlari birinchi yili foydalanishda eng mahsuldor hisoblanadi. Voyaga yetgan erkak g'ozlarning vazni 5-8 kg (15), urg'ochilariniki 4-7 (12) kg gacha. Yaxshi boqilgan g'ozlar 9 oyligida (3.5-4,5 kg) go'shti uchun so'yiladi. Asosan, go'shti uchun boqiladi (go'shti tarkibida 16% oqsil, 35% ga yaqin yog' bor). Go'sht ishlab chiqarish uchun yirik kulrang, kuban, xolmogor, italiya, reyn zotli g'ozlar boqiladi. Pati va momig'i sanoat uchun qayishqoqligi, suv o'tkazmasligi, issiqlik o'tkazuvchanligi, chidamliligi tufayli qimmatli xomashyo hisoblanadi.



1-rasm: Kulrang g'oz.

G'ozlar maxsus fermalarda boqiladi. Yosh jo'jalari go'sht uchun 9 haftaligida so'yiladi. Naslchilik to'dalarida katta yoshli g'ozlar bir yilda 130 kg to'la qimmatli aralash yem bilan boqiladi. Bir sutkada bitta g'oz uchun ozuqa ratsioni (grammda): don – 150-200, kunjara va shrot – 15-20, yashil va shirali ozuqalar – 400-500, o't uni – 20-30, achitqi yem – 7-10, mineral ozuqalar [1;2]

Oʻrdak, xonaki oʻrdak — oʻrdaksimonlar oilasiga mansub parranda. Milloddan ming yil oldin xonakilashtirilgan. Yovvoyi oʻrdak — kryakvadan kelib chiqqan. Oʻrdak deyarli barcha mamlakatlarda, ayniqsa, Xitoy (562 mln. bosh), Indoneziya (28 mln. bosh), Vetnamda koʻp urchitiladi. Jahonda jami 830 mln. bosh oʻlkalarda boqiladi.

Oʻrdakning tana tuzilishi qayiqsimon, koʻkragi keng, boʻyni va boshi uzun, oyoq barmoqlari suzuvchi parda bilan qoʻshilgan. Tumshugʻi sargʻishqizil yoki toʻq sariq, bir oz qayrilgan. Patlarining rangi oqish, sargʻimtir, kulrang, qora va boshqalar Erkagining dumida bir nechta yuqoriga qayrilgan patlari bor. 24—28 haftaligida jinsiy yetiladi. Toʻdada 5—6 makiyonga bitta erkak oʻrdak qoldiriladi. Bir mavsumda (5—6 oy) 90—130 ta tuxum qiladi (sunʼiy tullatib yiliga 250 tadan tuxum olish mumkin). Tuxumi vazni 85—90 g. Tuxumidan tuxum poroshogi, melanj tayyorlashda va konditer sanoatida foydalaniladi. Tuxumdan joʻja ochib chiqish (inkubatsiya) muddati 27—28 kun. Voyaga yetgan erkak oʻrdak vazni 3—4, makiyoni 2,5—3 kg.

Beradigan mahsulotiga qarab oʻrdak goʻsht, goʻshttuxum yoki tuxumgoʻsht, serpusht (sertuxum) zotlarga ajratiladi. Xoʻjaliklarda zotli oʻrdak xususiy xoʻjaliklarda oq moskva, ukraina oq va kulrang oʻrdak hamda xakikempbell va boshqalar zotlari boqiladi. Oʻrdak goʻshti, asosan, ixtisoslashtirilgan xoʻjaliklarda intensiv texnologiya asosida yetishtiriladi. Sanoat usulida yetishtirishda oʻrdaklar goʻsht uchun maxsus kataklarda boqiladi [1;2].

Oqqushlar (*Cygnus*), — gʻozlar oilasiga mansub yirik qushlar. Boʻyni tana uzunligiga teng. Patlari koʻpincha oq rangda. Oʻzbekistonda 3 turi uchraydi. Vishildoq Oqqushlar — tumshugʻidagi qora gʻurrasi bilan boshqa turlardan ajralib turadi. Gavdasining uz. 180 sm, vazni 13 kg. Gʻarbiy Yevropadan Tinch okeanigacha boʻlgan hududlarda uya quradi.

Kichik Oqqushlarning urgʻochisi 5—12 ta tuxum qoʻyib, 35—40 kun bosadi. Nari ham uya qurishda va bolalarini boqishda qatnashadi. Oqqushlar juda yaxshi suzadi va uchadi; oʻsimliklar, mayda suv jonivorlari bilan oziqlanadi. Ular chiroyli boʻlgani uchun hayvonot bogʻlarida boqiladi. Tutqinlikda koʻpayadi. Vishildoq va baqiroq oqqushlarlar Oʻzbekiston Qizil kitobiga kiritilgan. [3]



2-rasm. Oqqush

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zoologiya (Umurtqalilar zoologiyasi) [Matn]: darslik / S.Dadayev . Saparov K. –Toshkent: “Turon Iqbol”, 2019. -720 b.
2. Zoxidov T.Z. Zoologiya ensklopediyasi. Qushlar. – T.: “Fan”, 1957, 128 b.
3. Sagitov A.K. Ptitsi Uzbekistana. T.1. – T.: “Fan”, 1987, 291 s.

Zayniyev S.I., Jalilov D.K.*
(Toshkent, O‘zbekiston)

“NAFAS OLISH SISTEMASI” MAVZUSI BO‘YICHA NAZARIY MASHG‘ULOTLARNI TASHKIL ETISH VA O‘TKAZISH

Annotatsiya: Odam va uning salomatligi fanidagi nafas olish organlarining tuzilishi mavzusini maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, amaliy ahamiyati va o‘quv mashg‘ulotini o‘tkazish metodikasini o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish texnologiyalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Venn diagrammasi, Sinkveyn metodi, burun bo‘shlig‘i, hiqildoq, kekirdak, bronx, o‘pka.

ОРГАНИЗАЦИЯ И ПРОВЕДЕНИЕ ТЕОРЕТИЧЕСКИХ ЗАНЯТИЙ ПО ТЕМЕ “ДЫХАТЕЛЬНАЯ СИСТЕМА”

Аннотация: освещены цель, задачи, объект, предмет, практическая значимость темы строение органов дыхания в науке о человеке и его здоровье и технологии использования интерактивных методов при обучении методике проведения учебного занятия.

Ключевые слова: диаграмма Венна, метод синквейна, носовая полость, гортань, гортань, бронхи, легкие.

ORGANIZATION AND CONDUCT OF THEORETICAL CLASSES ON THE TOPIC “RESPIRATORY SYSTEM”

Abstract: the goals, objectives, object, subject, practical significance of the topic the structure of the respiratory organs in the science of man and his health and the technology of using interactive methods in teaching the methodology of conducting an educational session are highlighted.

Keywords: Venn diagram, sinquain method, nasal cavity, larynx, larynx, bronchi, lungs.

Umumta’lim maktablarida dars mashg‘uloti-ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning asosiy shakllaridan biri hisoblanadi, shu sababli o‘qituvchi mazkur mashg‘ulotni tashkil etish va o‘tkazish zamon talablariga mos loyihalashi zarur.

O‘qituvchi o‘quv fanining namunaviy dasturi asosida shakllantirilgan kalendar reajaga asosida mavzuni aniqlashi, taqdimot tayyorlashi, mavzu bo‘yicha Keys-stadi topshiriqlari, kichik guruhlarda o‘qitish metodidan foydalanish imkonini beradigan o‘quv topshiriqlari majmuasini tuzishi lozim [3, 150-b.].

Mashg‘ulotning tashkiliy qismida salomlashish odobiga muvofiq salomlashish, guruhda ongli intizomni vujudga keltirish, davomatni aniqlash, o‘tgan mavzu bo‘yicha berilgan topshiriqlarni aniqlash nazarda tutiladi.

*Zayniyev Suxrobjon Islombek o‘g‘li - Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Biologiya va uni o‘qitish metodikasi kafedrasida pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v/b. zayniyevsuxrobjon@gmail.com

Jalilov Doston Komil o‘g‘li - Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti 4-boshqich talabasi.

O'qituvchi yangi mavzu mazmuniga asos bo'ladigan tushunchalarni nazarda tutgan holda mashg'ulotning o'quvchilarning bilimlarini faollashtirish qismida Keys-stadi topshirig'i asosida fanlararo, boblararo, mavzulararo bog'lanishni amalga oshirishi, mazkur topshiriqlar keng qamrovli, topshiriqlarning murakkablik darajasi va ketma-ketligi talab darajasida bo'lishiga e'tibor qaratishi va o'quvchilarning o'quv motivlarini kuchaytirishi lozim. Shu bosqichda o'qituvchi o'tgan mavzuni yakunlash va yangi mavzu bilan bog'lash maqsadida muammoli metodlar va ko'rgazma vositalari yordamida muammoli vaziyatni vujudga keltirishi, o'quvchilar faoliyatini muammoni hal etishga yo'llash, o'quvchilarning avvalgi mavzularda o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarni yangi vaziyatda qo'llashga zamin tayyorlashi, ulardagi tipik xato va kamchiliklarni bartaraf etishi, yakunlashni keng qamrovda o'tkazib, asosiy tushuncha va tayanch so'zlarga urg'u berishi, xulosa yasashi zarur [5, 110-b.].

Mashg'ulotning yangi mavzuni o'rganish qismida o'quvchilarni yangi mavzuning o'quv maqsadlari, vazifalari, ma'ruza davomida kichik guruhlarining mashg'ulot davomida bajariladigan ishlar bilan tanishtirishi, Blum taksonomiyasi bo'yicha shakllantirilgan o'quv maqsadlarini o'quvchilar zimmasiga yuklashi talab etiladi. Yangi mavzuning mazmunidagi asosiy g'oya, qonunlar, qonuniyatlar ko'rgazma vositalar yordamida keng qamrovli yoritilishi, mavzu bo'yicha tushuncha, ko'nikma va malakalar o'quvchilar tomonidan o'zlashtirish bosqichlariga amal qilingan holda shakllantirilishi lozim [4, 200-202 c.].

Mavzu bayonida ilmiylik, tushunarlik, tizimlilik, keng qamrovlilik, nazariya va amaliyot birligi, ta'lim-tarbiya uzviyligi kabi o'qitish prinsiplariga amal qilish, mavzu mazmunini mahalliy hamda qo'shimcha materiallar bilan kengaytirishni amalga oshirishga e'tibor qaratish nazarda tutiladi.

Mavzu bayonining samaradorligini reproduktiv (og'zaki, ko'rgazmali, amaliy) va faol (muammoli, mantiqiy, ijodiy izlanishli, didaktik o'yinli va h.k.) metodlar, vositalar (ko'rgazmali qurollar, laboratoriya jihozlari, tarqatma va didaktik materiallar, o'quv-texnik va kompyuter vositasi va h.k.)dan uyg'un foydalanish orqali orttirish talab etiladi [7, 229-234 p.].

Dars jarayoni o'rganiladigan mavzuning mazmuniga muvofiq innovatsion va axborot texnologiyalar (muammoli, modulli, didaktik-o'yinli, hamkorlikda o'qitish) tanlanadi. Innovatsion texnologiyalar tanlaganda mazkur texnologiya talablariga muvofiq o'quvchilar bilish faoliyatini tashkil etish nazarda tutiladi va ularning bilim zahirasi, egallangan ko'nikma va malakalari, ergonomik, yosh va psixologik xususiyatlariga mosligi e'tiborga olinadi.

O'qituvchi o'quvchilarning diqqatining davomiyligini e'tiborga olgan holda mashg'ulot davomida Keys-stadi va aqliy hujum topshiriqlari asosida muammoli vaziyatlarning tug'dirishi, ularni hal etishda o'quvchilar bilimidan foydalanishi, o'quvchilarning bilish faoliyati va ularning mashg'ulotda faol ishtirokini ta'minlashi lozim.

O'qituvchining vaziyatga qarab nutqining hissiyotli, og'ir-vazmin bo'lishi, diksiyaning aniqligi, yuqori saviyadagi muloqot madaniyati, o'quv maqsadlari va topshiriqlarini qo'ya olishi, o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish ko'nikmalari, o'zini tutishi, mimikasi, his-hayajonini boshqara olishi, o'quvchilarga nisbatan pedagogik insonparvarlashgan munosabati uning yuksak pedagogik mahoratga ega ekanligidan dalolat beradi.

Dars mazmunida bugungi kunning dolzarb muammolarini qamrab olingan, o'quvchilarning g'oyaviy-siyosiy yetukligini rivojlantirishga yo'naltirilgan, mavzu mazmuniga bog'liq holda kasbiy yo'naltirilganlik, shuningdek, ta'lim-tarbiyaning uzviyligi amalga oshirilgan bo'lishi lozim.

Mashg'ulot davomida mantiqiy ketma-ketlikda mavzu rejasi to'liq yoritilishi, o'quvchilar tomonidan mavzu mazmunidagi nazariya, g'oya, qonuniyatlar, tushuncha, atamalarni o'zlashtirish jarayonida didaktik qonuniyatlarga amal qilinishi, tushuncha va atamalarning izohi yoritilishi mashg'ulotning zamon talablariga javob berishini ta'minlaydi [1, 18-19 b.].

Darsning yakunida o'qituvchi mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda mashg'ulotni yakunlashi, mazkur jarayonda o'quvchilarning ishtirokini ta'minlashi, o'quvchilar javobidagi tipik xato va kamchiliklarni bartaraf etishi, yakunlashni keng qamrovli, asosiy tushuncha va tayanch so'zlarga urg'u berishi, xulosalashi lozim [2, 70-72 b.].

Fan: Odam va uning salomatligi.

Darsning mavzusi: Nafas olish organlarining tuzilishi.

Darsning ta'limiy maqsadi: O'quvchilarni nafas olishning ahamiyati, nafas olish organlarining tuzilishi va ularning vazifasi bilan tanishtirish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: O'quvchilarni nafas olishning ahamiyati, nafas olish organlarining tuzilishi va ularning vazifasi bilan tanishtirish orqali o'z salomatligini asrash, gigiyenik, jismoniy tarbiya berish.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: O'quvchilarning nafas olishning ahamiyati, nafas olish organlarining tuzilishi va ularning vazifasi haqidagi bilimlari, darslik ustida mustaqil ishlash ko'nikmalari, muloqot madaniyatini rivojlantirish.

Darsni jihozlash: Sekundomer, odam nafas olish sistemasining tuzilishi barelef modeli. Mavzuga oid plakatlar va proeksion ko'rgazmali-metodik qo'llanmalar.

Darsda foydalaniladigan texnologiya: Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi (kichik guruhlarda o'qitish metodi)

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism

II. O'tgan mavzu yuzasidan o'quvchilarning bilimlarini nazorat qilish va baholash. (Keys, Venn diagrammasi, Sinkveyn metodi)

III. O'quvchilarni dars mavzusi, maqsadi, borishi bilan tanishtirish.

IV. Yangi mavzu bo'yicha o'qituvchining axboroti:

Reja:

1. Nafas olishning ahamiyati va funksiyasi.

2. Nafas olish organlarining tuzilishi:

- Burun bo'shlig'i;
- Hiqildoq;
- Kekirdak;
- Bronxlar;
- O'pkalar.

O'qituvchi yangi mavzuni reja asosida ko'rgazmali vositalar yordamida bayon etganidan so'ng, o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etadi.

V. O'quvchilarni kichik guruhlariga ajratish hamda o'quv topshiriqlarini mustaqil ravishda sifatli bajarilishiga erishish.

№	O'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan materiallar yuzasidan o'quv topshiriqlari	Topshiriqni bajarish yuzasidan ko'rsatmalar
Darslikdagi matnni diqqat bilan o'qib, quyidagi savollarga javob toping va topshiriqlarni bajaring:		
1	Nafas olishning ahamiyati va funksiyasini o'rganing. Fikringizni asoslang.	Fikringizni asoslang
2	Nafas olish qanday qismlardan iboratligini aniqlang.	
3	Hiqildoqning tuzilishi va vazifasini o'rganing.	
4	Ovoz apparatining tuzilishi va vazifasini o'rganing.	
5	Kekirdakning tuzilishi va vazifasini o'rganing.	
6	Bronxlarning tuzilishi va vazifasini o'rganing.	
7	O'pkalarning joylashgan o'rnini o'rganing, u qaysi organlar oralig'ida joylashgan?	
8	O'pka alveolarining tuzilishi va vazifasini o'rganing.	
9	Plevra pardasi qanday qavatlardan iborat?	
10	Plevra bo'shlig'i qanday xususiyatga ekanligini aniqlang.	

O'zlashtirgan bilimlaringiz asosida 1-jadvalni to'ldiring.

1-jadval


Nafas olish organlarining tuzilishi va funksiyasi

№	Nafas olish organlari	Tuzilishi	Funksiyasi
1.	<i>Burun bo'shlig'i</i>		
2.	<i>Hiqildoq</i>		
3.	<i>Kekirdak</i>		
4.	<i>Bronxlar</i>		
5.	<i>O'pkalar</i>		

VI. Yangi mavzu yuzasidan o'quvchilar o'rtasida savol-javob, o'quv bahsi uyushtirish.

VII. O'quvchilar bilimini nazorat qilish va baholash. (Sinkveyn, Venn diagrammasi)

Topshiriq: "Venn diagrammasi" grafik organayzeri asosida nafas olish va nafas chiqarilish organlarining mexanizmlarini taqqoslash



"Sinkveyr" metodi asosida Nafas olish organlaridan "O'PKA" so'zini tahlil qiling

O'PKA

1. nomi (1 ta ot - kim? nima?)

2. tavsifi (2 ta sifat - qanday? qanaqa?)

3. harakati, vazifasi (3 ta fe'l - nima qildi?)

4. ketma-ketlik bog'lanishini ko'rsatish (4 ta so'zdan iborat jumla)

5. mazmuni-mohiyatini anglatuvchi gap (1 ta gapdan iborat jumla)

45

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azimov I.T., Raxmatov U.E., Zayniyev S.I., Jumayev S.Z. Biologiyadan olimpiada masalalarini yechish metodikasi. O'quv qo'llanma. - T.; 2024. - 272 b.
2. Mavlonov O., Tilovov T., Aminov B. Biologiya (Odam va uning salomatligi): Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. -T., 2019. -192 b.
3. Tolipova J.O. Biologiyani o'qitishda pedagogik texnologiyalar / TDPU, 2011. - 162 b.
4. Zayniyev S.I. O'quvchilarni masala va mashqlar yechish orqali olimpiadaga tayyorlashni ayrim jihatlari // "Biologiyada zamonaviy tadqiqotlar: muammo va yechimlar" Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2022: 200-202 c.
5. Shaxmurova G.A., Azimov I.T., Raxmatov U.E., Axmadaliyeva B.Sh. Biologiyadan masala va mashqlar yechish (Odam va uning salomatligi) Uslubiy qo'llanma. -T., 2017. -152 b.
6. Zayniyev S. Methodology of preparing students for international olympiads through solution of problems related to the Hardy-Weinberg law. // EUROPEAN INTERNATIONAL JOURNAL OF PEDAGOGICS 2023. - S. (pp.16-21)
7. Zayniyev, S. "FAN OLIMPIADALARINING TASHKIL ETISH MAZMUNI, TAHLILI VA TA'LIM-TARBIYADAGI O'RNI." *Science and innovation* 1.B8 (2022): 229-234.
8. OMONQULOV U.B. (2024). BO'LAJAK BIOLOGIYA O'QITUVCHILARINING IQTIDORLI O'QUVCHILAR BILAN ISHLASHGA METODIK TAYYORLASHNING KONSEPTUAL ASOSLARI. *News of UzMU journal*, 1(1.2), 177-180.

Zayniyev S.I.*
(Toshkent, O‘zbekiston)

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MAKTAB OLIMPIADALARINI TASHKIL ETISHDA SINGAPUR TAJRIBASI VA UNING TAHLILI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Singapur maktab o'quvchilarining xalqaro fan olimpiadalarida muvaffaqiyat qozonishining sabablari, natijalari va tajribasi chuqur o'rganilib tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *Singapur, xalqaro olimpiada, maktab o'quvchilari, integratsiyalashtirilgan ta'lim dasturi*

СИНГАПУРСКИЙ ОПЫТ ОРГАНИЗАЦИИ
ШКОЛЬНЫХ ОЛИМПИАД В
ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ И ЕГО
АНАЛИЗ

SINGAPORE'S EXPERIENCE IN ORGANIZING
SCHOOL OLYMPIADS IN SECONDARY
SCHOOLS AND ITS ANALYSIS

Аннотация: В этой статье подробно рассматриваются и анализируются причины, результаты и опыт успешных сингапурских школьников на международных предметных олимпиадах.

Abstract: This article examines and analyzes in detail the causes, results and experience of successful Singaporean schoolchildren at international subject Olympiads.

Ключевые слова: Сингапур, Международная олимпиада, школьники, интегрированная образовательная программа

Keywords: Singapore, International Olympiad, schoolchildren, integrated educational program

Mamlakatimizda tashkil etilayotgan turli fan olimpiadalari tizimi uzoq yillar davomida yurtimizning barcha hududlaridan kelgan o'quvchilar ilmiy-ijodiy faoliyat bilan mashg'ul bo'lib, zamon talabiga mos bilimlarga ega bo'lgan hamda Yangi O'zbekiston kelajagiga xizmat qilishga tayyor bo'lgan iqtidorli yoshlarni aniqlash hamda saralash bo'yicha samarali ishlar olib bormoqda. Biroq olimpiada qatnashchilarini tayyorlashda katta tajriba ega bo'lishiga qaramay, maktab o'quvchilari xalqaro fan olimpiadalarida har doim ham raqobatga bardosh bera olmaydilar. Dunyoning turli mamlakatlaridagi intellektual musobaqalar o'quvchilarning naqadar ilmiy fikrlashi va ijodkorligi yuksak rivojlanganini namoyon etib, turli fanlar bo'yicha xalqaro fan olimpiadalariga eng iqtidorli o'quvchilarni tanlab olishning umummilliy markazi bo'lib xizmat qilmoqda [1; 34-35 b.].

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda dunyo ilg'or mamlakatlarining tajribasini o'rganish va chuqur tahlil etish orqali xalqaro standartlar talablariga moslashtirilgan ta'lim dasturlari ishlab chiqilmoqda. Bu jarayonda ta'lim tizimimiz xalqaro ta'lim standartlari bilan uyg'unlashtirilmoqda.

Quyida Singapur davlatida fan olimpiadalarini o'tkazishning milliy tizimlari va tajribalari haqida to'xtalib o'tamiz.

*Zayniyev Suxrobjon Islombek o'g'li - Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Biologiya va uni o'qitish metodikasi kafedrasida pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v/b. zayniyevsuxrobjon@gmail.com

Quyida biologiyadan xalqaro fan olimpiadalari natijalariga e'tibor beramiz (1-jadvalga qarang). Ushbu statistik ma'lumotlar xalqaro biologiya olimpiadasi (IBO) tashkiliy qo'mitasining ibo-info.org rasmiy sayti tahlili asosida olingan [11].

1-jadval

T/r	Davlat	30-Xalqaro biologiya olimpiadasi, 2019-yil	31-Xalqaro biologiya olimpiadasi, 2020-yil	32-Xalqaro biologiya olimpiadasi, 2021-yil	33-Xalqaro biologiya olimpiadasi, 2022-yil	34-Xalqaro biologiya olimpiadasi, 2023-yil
1.	Singapur	3 ta oltin, 1 ta kumush	1 ta oltin, 3 ta kumush	1 ta oltin, 3 ta kumush	2 ta oltin, 1 ta kumush, 1 ta bronza	4 ta oltin

Singapur. Ta'lim tizimiga ko'p mablag' kiritish orqali yuqori natijalarga erishayotgan mamlakatlardan biri Singapurdir. Hozirgi kunda Singapur olimlarining ko'pligi jihatdan dunyodagi besh mamlakatdan biri hisoblanadi [1; 36-b.].

PIRLS tashkiloti xodimlari tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijasiga ko'ra, Singapur aholisi savodxonlik darajasi borasida dunyoda birinchi o'rinda turadi. Singapurlik o'quvchilar 1995-yildan buyon o'tkazib kelinayotgan tabiiy fanlar va matematika (TIMSS) bo'yicha nufuzli xalqaro tanlovlarda yuqori natijalarga erishmoqda [2; 38-43-b., 3; 200-202 c., 4; 160 c.]. Bundan tashqari, biologiya fanidan o'tazilib kelinayotgan xalqaro fan olimpiadasida ham Singapur maktab o'quvchilari yuqori o'rinlarni egallab kelishmoqda. Xususan, so'nggi 5 yilda Singapur maktab o'quvchilari xalqaro biologiya olimpiadasida (IBO) qatnashib, 11 ta oltin, 8 ta kumush va 1 ta bronza medallari qo'lga kiritishgan. Taqqoslash uchun xalqaro biologiya olimpiadasining (IBO) so'nggi 5 yilida faqat Xitoy va Rossiya maktab o'quvchilari Singapur maktab o'quvchilaridan yuqori natijani qayd etishgan. Singapur davlatini xalqaro darajadagi musobaqalarda yuqori natija qayd etayotganligi ta'lim tizimiga bo'lgan yuqori e'tibor natijasi hisoblanadi [11].

2016-yildan buyon o'tkazilayotgan Singapur yoshlar biologiya olimpiadasining (SJBO) tashkil etishili hamda o'tkazilishi Singapurda o'tkazilayotgan ko'p yillik biologiyadan olimpiadaga qo'shimcha ravishda o'quvchilarni xalqaro fan olimpiadalariga puxta tayyorlashga asos bo'ldi.

Singapur maktab o'quvchilarining xalqaro fan olimpiadalarda muvaffaqiyat qozonishining quyidagi sabablari mavjud:

o'qituvchilarni tanlash, tayyorlash, kerakli ishga joylashtirish hamda rag'batlantirishga alohida e'tibor berilishi;

ta'limdagi qat'iylik, raqobatdoshlik va milliy imtihonlarning yuqori darajada bo'lishi;

maktablarda innovatsion pedagogika va ta'limga oid texnologiyalarni qo'llash orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga asosiy e'tiborini qaratish;

maktablarda o‘qituvchilar hamda o‘quvchilarning yaqinlari yoki ota-onalari bilan faol hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;

o‘quvchilarning o‘zlashtirishlari to‘g‘risidagi aniq ma’lumotlarni ota-onalariga muntazam taqdim etish orqali ularni to‘liq nazoratga olish;

o‘quvchilar o‘zi mustaqil ravishda o‘qituvchilarini tanlashlari;

integratsiyalashtirilgan ta’lim dasturlarining mavjudligi;

ta’limni “miqdori” ga emas, “sifat” ga asosiy e’tiborini qaratishi;

maktab o‘quv dasturini muammolarni hal qilishga yo‘naltirish va ko‘nikmalarga o‘rgatish [1; 36-37 b., 2; 38-43-b.].

Singapur o‘quvchilarining xalqaro fan olimpiadalaridagi o‘zlashtirishlarni o‘rganish va ularni O‘zbekiston maktab ta’limiga joriy etish olimpiadalarda qatnashayotgan o‘quvchilardan yuqori natijalarni kutish uchun asos bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zayniyev S.I. “O‘quvchilarni biologiya fanidan masala va mashqlar yechish orqali olimpiadalarga tayyorlash metodikasini takomillashtirish”: Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Nukus, 2024. –144 b.
2. Muxammadjonova X. Singapur ta’limi va uning o‘ziga xos yuksalishi // Innovative developments and research in education. 2022. - B.38-43.
3. Пентин А.Ю., Ковалёва Г.С., Давыдова Е.И., Смирнова Е.С. Особенности школьного естественнонаучного образования в России в ракурсе международных исследований TIMSS и PISA. Институт стратегии развития образования Российской академии образования, 2017. – 160 с.
4. Zayniyev S.I. O‘quvchilarni masala va mashqlar yechish orqali olimpiadaga tayyorlashni ayrim jihatlari // “Biologiyada zamonaviy tadqiqotlar: muammo va yechimlar” Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2022: 200-202 с.
6. Zayniyev S. Methodology of preparing students for international olympiads through solution of problems related to the Hardy-Weinberg law. // EUROPEAN INTERNATIONAL JOURNAL OF PEDAGOGICS 2023. – S. (pp.16-21)
7. Zayniyev, S. "FAN OLIMPIADALARINING TASHKIL ETISH MAZMUNI, TAHLILI VA TA’LIM-TARBIYADAGI O‘RNI." *Science and innovation* 1.B8 (2022): 229-234.
8. Zayniyev S.I. Umumta’lim maktablarida olimpiada o‘tkazishning metodik xususiyatlari // Hayot davomida ta’lim paradigmasi diskursida xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishning dolzarb muammolari xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, 2023. – B. 438-442.
9. Zayniyev S.I. Content and analysis of the organization of the olympiad in biological sciences in the 2023-2024 academic year (III stage) // American Journal of Interdisciplinary Research and Development ISSN Online: 2771-8948, Volume 23, December, 2023. P. 125-131.
10. Zayniyev S.I. Olimpiada tashkil etishning metodik asoslari (10-11 sinflar misolida) // O‘zbekiston Milliy Universiteti Xabarlari, 2022, [1/12] ISSN 2181-7324: - B. 64-66.
11. <https://www.ibo-info.org/en/info.html> - Xalqaro biologiya olimpiadasining (IBO) veb-sayti.

Айдарбаева Д.К., Джарылкапова С.Е. *
(Казахстан)

LOCAL LORE WORK ON BIOLOGY IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' RESEARCH SKILLS: A HISTORICAL ASPECT

Abstract: *The article examines the development of students' research skills based on independent local history work. More than seventy scientific papers have been analyzed on the topic of the study from the 40s to the present.*

Keywords: *research skills, local history, independent local history work, student development, school education*

TALABALARNING ILMIY-TADQIQOT
KO'NIKALARINI RIVOJLANTIRISHDA
BIOLOGIYA BO'YICHA O'LKASHUNOSLIK
ISHLARI: TARIXIY JIHAT

Annotatsiya: *maqolada mustaqil o'lkashunoslik ishlari asosida talabalarning tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirish ko'rib chiqiladi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha 40-yillardan hozirgi kungacha yetmishdan ortiq ilmiy ishlar tahlil qilindi.*

Kalit so'zlar: *tadqiqot qobiliyatlari, o'lkashunoslik, mustaqil o'lkashunoslik, o'quvchilarni rivojlantirish, maktab ta'limi.*

КРАЕВЕДЧЕСКАЯ РАБОТА ПО БИОЛОГИИ В
РАЗВИТИИ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ
НАВЫКОВ УЧАЩИХСЯ: ИСТОРИЧЕСКИЙ
АСПЕКТ

Аннотация: *В статье рассматривается развитие исследовательских умений учащихся на основе самостоятельной краеведческой работы. По теме исследования было analyzed более семидесяти научной работы начиная 40-х годов по настоящее время.*

Ключевые слова: *исследовательские умения, краеведение, самостоятельная краеведческая работа, развитие учащихся, школьное образование*

Studying the flora of the native land, observing the peculiarities of plant development in unity with habitat conditions help students understand the laws of life and development of plant organisms, plant diversity as a result of a long historical process in which plant diversity arose under the influence of changes in environmental conditions. In other words, the live communication of students with the plant objects of their native land, the objects themselves and materials about wildlife provide special opportunities for the development of students' desire for self-education.

Let's consider the issues of organizing the local history work of schoolchildren in teaching natural science and biology in the historical aspect.

The use of local material, as well as the creative work of teachers on the implementation of the local history principle in teaching biology in the 60s of the twentieth century are considered in the work of E.V. Savinov, N.M. Semchuk ("The history of the formation of the principle of local history in the methodology of school natural science") [9].

* Айдарбаева Д.К. - д.б.н., профессор КазНПУ им. Абая.
Джарылкапова С.Е. – преподаватель КазНПУ им. Абая.

The work of the famous methodologist P.I. Borovitsky [3] provides a detailed description (preparation, conducting excursions and processing material) of conducting school excursions on the topic of spring phenomena in the world of plants.

The local history approach in organizing students' work with wildlife objects on excursions has always been relevant, it is described in detail in the works of the last and present centuries (V.M. Korsunskaya [6], as well as in A.S. Semenov [10], etc.). Experiments and practical classes in botany as part of students' independent work with indoor plants were developed by A.A. Bystrov, Y.K. Kruberg [4], I.G. Belov [2], etc.

Back in the late 40s of the twentieth century, V.A. Kochaev raised the issue of local history activities of schoolchildren. In his article "On local history at school", he quotes the founder of the methodology of teaching natural science as a pedagogical science, the guide to school practice of the local history principle A.Ya. Gerd "teaching in natural science should, if possible, begin in the garden, in the field, in the forest, in the swamp" and emphasizes the importance of conducting local history work with an active relationship between student and teacher [7].

Conducting experiments and observations using the so-called "research method" was facilitated by the organization of local history corners and museums at secondary schools.

The rapid development of local lore in schools in the 50s of the last century is evidenced by numerous articles in the scientific and methodological journal "Natural Science at school" (P.D. Sazykin "School Museum of Local Lore" (1952, No. 6), P.I. Egorov "Local lore work of Tobokhoy schoolchildren" (1954, No. 5), N.V. Skrobova "Local history work" (1957, No. 6), M.G. Kozhevnikov "Studying the vegetation of the native land" (1957, No. 6), A.A. Streltsova "Familiarization of students with the nature of the native land (1959, No. 4), etc.).

It is impossible not to agree with the opinion of A.A. Streltsova [11] that in those schools where little attention is paid to introducing children to nature, schoolchildren are lost in front of the simplest natural phenomena, they do not know the most ordinary of the surrounding nature.

During the local history work on botany, children get acquainted with the species composition of the vegetation of the city and its surroundings, with the patterns of plant placement depending on habitat conditions (relief, soil, moisture, light), with the biological characteristics of various plant species; determine the botanical composition of weeds, identify the distribution sites of the most malicious of them, monitor changes their botanical composition ranges from early spring to late autumn. The results of the conducted local history work serve not only to enrich the knowledge of students, but also mainly to equip the biological classroom with visual aids.

In the 60s, the authors (P.F. Antonov (1960, No. 1), T.A. Rozina (1961, No. 1), V.A. Matisen, I.V. Syskova (1962, No. 3), I. Gavrilov (1962, No. 4), N.G. Kurbatova, L.D. Shlyapnikov (1965, No. 1), Z.V. Sudakova (1965, No. 3), etc.) the above-mentioned magazine mainly paid attention to local history thematic, seasonal excursions and excursions to natural communities (to a peat bog, to a forest, to a coniferous forest, etc.). They noted that conducting such excursions into nature, taking into account the basic methodological requirements, would revitalize the teaching of botany, make it more specific and visual.

In the 70s of the last century, the attention of teachers and scientists began to be paid to the local history works of students, which are of an environmental nature. When analyzing such methodological works (Russian R.D. "Udumrtia schoolchildren love and protect the nature of their native land" (1972, No. 4), L.T. Belyaeva, Z.V. Sudakova "Botanical works on nature protection" (1974, No. 1), etc.), it can be seen that the efforts of teachers were directed to the organization the nature conservation activities of the students, as a result of which they acquired new knowledge about nature, strengthened physically, and most importantly, they learned their native land with great diligence and interest.

In articles of the 80s, scientists and educators analyzed the possibilities of expeditions as a form of organizing the study of the native land (L.I. Debello) [5]. The purpose of the local history expeditions of pioneers and schoolchildren was to study their native land, to learn the secrets of nature. The materials collected as a result of the expedition served to decorate the biology and natural sciences classroom, and also allowed classes on certain environmental issues from grades 4 to 10.

In the 90s of the twentieth century, a new direction appeared in local history work - "ecological local history", which has two interrelated sides – cognition and transformation of the native land [1]. During this period, the national-regional component of general education became the object of intense discussion [8].

In Kazakhstan, local history studies in schools were mainly conducted in geography and history, the search for methodological materials for organizing local history work in biology did not yield significant results.

Unfortunately, due to the lack of hours and lack of scientific and methodological resources, the task of developing students' research skills while performing independent local history work becomes difficult.

In ancient times, our ancestors were well aware of the geographical, botanical, zoological, etc. features of their native land, passing knowledge by word of mouth. In order to preserve and enhance the value of the national heritage in the mental and axiological field of consciousness of students of secondary schools in Kazakhstan, it is advisable to direct efforts to develop a methodology for organizing independent local history work in biology, which is of a research nature.

List of literature:

1. Babakova T.A. "Ecological local lore"// Biology at school., - No. 4, 1996, - pp. 60-62.

2. Belov I.G. "The use of indoor plants in the classroom and in extracurricular work"// Natural science at school., - No. 6, 1946, - pp. 89-107
3. Borovitsky 2.P.I. "School excursion on the topic of spring phenomena in the world of plants"// Natural science at school., - M., - No. 1, 1946, - pp. 91-97.
4. Bystrov A.A., Yu.K. Kruberg "Indoor plants in educational work on botany at school"// Natural science at school., - No. 2, 1948, - pp. 42-53.
5. Debello L.I. "Expedition to study the native land"// Biology at school.,- No. 6, 1981, - pp. 58-59.
6. Korsunskaya V.M. "From the experience of excursion work of Leningrad teachers"// Natural science at school., - No. 7, 1947, - pp. 69-71.
7. Kochaev V.A. "On local history at school"// Natural science at school., - No. 3, 1948, - pp. 69-72.
8. Petrunko A.V. "What should be the regional content of biological education in the transition to new standards"// Biology at school., - No. 2, 2011, - pp. 30-35.
9. Savinova E.V., N.M. Semchuk "The history of the formation of the principle of local lore in the methodology of school natural science"// Successes of modern natural science. Russian Academy of Natural Sciences, No.6, 2008.
10. Semenov A.S. "An excursion through the traces of ancient life in the vicinity of Moscow"// Natural science at school., - No. 3, 1948, - pp. 72-74.
11. Streltsova A.A. "Familiarization of students with the nature of their native land"// Natural science at school., No. 4, 1959, pp. 65-67.

Pardayeva M. S^{6*}

BO‘LG‘USI BIOLOGIYA O‘QITUVCHILARINING INNOVATSION KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya: *Mazkur maqolada bo‘lg‘usi biologiya o‘qituvchilarining innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida yuzaga keladigan pedagogik muammo va ularni bartaraf etish metodikasi bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *modernizatsiya uzluksiz ta‘lim, innovatsiya, innovatsion faoliyat, integratsiya, biologiya, loyihalash.*

**ПОДГОТОВКА БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ
БИОЛОГИИ К ИННОВАЦИОННОЙ
ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ
КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА**

Аннотация: *В данной статье описаны педагогические проблемы, возникающие в процессе подготовки будущих учителей биологии к инновационной профессиональной деятельности и способы их устранения.*

Ключевые слова: *modernizatsiya, непрерывное образование, инновatsiu, инновatsionная деятельность, интегрatsiya, биология, проект.*

**PREPARATION OF FUTURE BIOLOGY
TEACHERS FOR INNOVATIVE
PROFESSIONAL ACTIVITIES AS A
PEDAGOGICAL PROBLEM**

Abstract: *This article describes the pedagogical problems that arise in the process of preparing future biology teachers for innovative professional activities and ways to eliminate them.*

Key words: *modernization, continuous education, innovation, innovative activity, integration, biology, project.*

Mamlakatimizning uzluksiz ta‘lim tizimida pedagogik faoliyatini amalga oshirayotgan har bir o‘qituvchi o‘zining mazkur faoliyati davomida o‘z malakasi, kasbiy kompetentligini davr talablarini chuqur anglagan holda xalqaro talablar

* **Pardayeva Matonat Salimovna** – Nizomiy nomidagi TDPU mustaqil tadqiqotchisi

asosida muntazam oshirib borishi kelajak avlodni tarbiyalash borasidagi dolzarb masala sanaladi. Chunki, Yangi O‘zbekiston yoshlarini xalqaro reyting natijalarida mislsiz yuqori bo‘lgan natijalarni qayd etishda qolaversa mamlakat iqtisodiotini keskin o‘shirish darajalarini intensiv ravishda ta‘minlashlari bugungi kunning dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

Bo‘lajak biologiya o‘qituvchisi innovatsion kasbiy faoliyati davomida mustaqil va faol bo‘lishi, noodatiy pedagogik faoliyati davomida duch keladigan turli darajadagi nizo va ziddiyatlarda aniq va to‘g‘ri qaror qabul qila olish va hayotning intensiv tarzda o‘zgaruvchan bo‘lgan sharoitlarida to‘liq moslasha olishi lozim bo‘lgan holda innovatsion loyihalar ishlab chiqish orqali vaziyatdan chiqish, turli ko‘ngilsiz vaziyatlarni oldindan ko‘ra olihi kompetentligini shakllantirgan bo‘lmog‘i lozim.

maktablarni, shu jumladan, o'quv sinflari ichini yangi qulay mebellar, zamonaviy o'quv va laboratoriya jithozlari, darsliklar va o'quv-uslubiy materiallar, komp'yuter va mul'timedia texnikasi, videokuzatuv tizimlari bilan jihozlash;

o'quv rejalari va dasturlarini optimallashtirish, innovatsion, shu jumladan, masofaviy pedagogik usullardan keng foydalanish, ushbu jarayonning samaradorligini butunlay oshirishni nazarda tutadi.

Shunga ko'ra, Respublikamizning har bir hududlarida iqtidorli yoshlarni aniqlash maqsadida Prezident maktablari ochildi. Ular STEAM fanlarini o'qitishga ixtisoslashtirildi [1]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-3931 son qarori hamda "2018-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha chora- tadbirlar dasturi" II bo'lim, 11- bandi: "umumiy o'rta ta'limning yangi davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarini takomillashtirish va shu bilan birga STEAM metodlarini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish" qabul qilindi.

STEAM yondashuvining eng mashhur namunasi — Massachusetts Texnologiya Instituti (MIT). Ushbu dunyo universitetining shiori «Mens et Manus» (Aql va qo'l). Massachusetts Texnologiya Instituti bolalarga STEAM tushunchasini oldindan o'rganish va tanishish imkoniyatini berish uchun STEAM kurslarini ishlab chiqdi va hattoki ba'zi ta'lim muassasalarida STEAM o'quv markazlarini yaratdi.

Statistikaga ko'ra, 2011 yildan buyon STEAM - kasblarga bo'lgan talab darajasi 17% ga oshdi, oddiy kasblarga bo'lgan talab esa faqat 9,8% ga oshdi, bu esa butun dunyo bo'ylab ushbu ta'lim tizimiga katta talabni ko'rsatadi [2].

Biz yoshlarga shunday ta'lim berishimiz kerakki, ular:

1. Olimlar kabi tajribalar o'tkazsinlar;
2. Texnologlar kabi modellashtirsinlar
3. Muhandislar kabi konstruksiyalar yaratsinlar;
4. Rassomlar kabi ijod qilsinlar;
5. Matematiklar singari analitik fikrlasinlar va bolalar kabi o'ynasinlar.

STEAM ta'limi amaliy yondashuvni qo'llash, shuningdek, barcha beshta fanni yagona ta'lim sxemasiga integratsiyalashuviga asoslangan. STEAM zamon talablari asosida xalqaro miqyosda o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish hisoblanadi. Ushbu ta'lim fanlararo bog'lanish va amaliy yondashuvni kuchaytirishga qaratilgan (1-rasm)

STEAM ta'limni rivojlantirish istiqbollari orasida ta'limni personallashtirishning uchta asosiy yo'nalishi, loyihaviy fikrlash va jamoaviy ishlashga e'tibor qaratish, aralash ta'lim formati mavjud. Uzoq muddatli istiqbolda STEAM nafaqat universitetlar, balki maktablar ta'lim dasturlarining bir qismiga aylanishi kerak. Bu tayyorgarlikning yagona tizimini qurishga, butun ta'lim

tizimining samaradorligini, mamlakatimiz fani va sanoatining raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi [3, 4].



1-rasm.

So'nggi bir necha yil ichida innovatsion iqtisodiyot sohasida intellektual va ijodiy faoliyat bilan bog'liq ijodiy sohalar tobora ko'proq ahamiyat kasb etmoqda: kompyuter texnologiyalari, virtual haqiqat, dizayn, moda, reklama, animatsiya va boshqalar.

Butun dunyoda ijodkorlik tarmoqlari iqtisodiy o'sishning haydovchisiga aylanib bormoqda va yoshlarning ijodiy sohalaridagi bandligi real sektordagi bandlikdan allaqachon ortib bormoqda. Bu o'zgarishlar ta'lim tizimi oldiga yangi vazifalarni, ya'ni ijodiy va badiiy fanlarni o'quv dasturiga ko'proq kiritish zaruriyatini qo'yimoqda [5].

Masalan, universitetda Steam nafaqat muhandislik va tabiiy fanlar STEAM fanlarini, balki gumanitar va ijodiy fanlarni ham kiritishni nazarda tutadi: adabiyot, dizayn, arxitektura, tasviriy san'at, ob'ektlar va texnologiya.

Gumanitar san'at - fanlar noaniqlik, bir xil ahamiyatlilik, ikki xil fikrlash va vaziyatdan chiqish yo'lini topish qobiliyatini rivojlantiradi.

Ilmiy qat'iylik va ijodiy erkinlikning uyg'un uyg'unligiga ana shunday erishiladi. Nonchiziqli fikrlash va tasavvurning rivojlanishi tufayli buyuk musiqachilar, yozuvchilar va rassomlar dunyoga eng katta kashfiyotlar berdilar. Masalan, STEAM yondashuvidan foydalangan holda talaba o'z fikrini himoya qilish, tanqid qilish, kompetentsiyani oshirish, ko'nikmalarni oshirish, yangi dizayn tamoyillarini qo'llash, marketingni rivojlantirish, ijodiy salohiyatni oshirish kabi muammolarni hal qilishi mumkin.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, STEAM ta'limini intensiv joriy etish, jamiyatning texnologik taraqqiotiga muvofiq ta'lim oluvchilarning kasbiy

tayyorgarligini takomillashtirish va zamonaviy kasblarga bo'lgan ehtiyojni istiqbolli hal etish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ – 3931- son Qarori Ten A.C. Новые тенденции в современном образовании.
2. Электр ресурс. <http://zkoipk.Kz/ru2016 SMART/2541-conl.html>.
3. Жумажанова С. Развитие STEAM - образования в мире и Казахстане" Б:лімгі ел" "Образованная страна" №20(57) от 25.10.2016.
4. Образование нового поколения: 10 преимуществ STEAM -образования. Электронный Ресурс: URL [https //ru linkedin. Com /pulse/-STEAM - rufat-azizov](https://ru.linkedin.com/pulse/-STEAM-rufat-azizov).
5. Анисимова.Т.И. Шатунова.О.В. STEAM образование как иновационная технология для Индустрии." Наука и образование" 2018.

Абдуғаниев Ойбек Абдахамидович.*

Собирова Ханифа Гуламжоновна

ЙИРТҚИЧ БАЛИҚЛАРИНИНГ РОМФОРХИНСХУС LAEVIS АКАНТОЦЕФАЛАСИ БИЛАН ЗАРАРЛАНИШИ

Аннотация. Ушбу мақолада Сырдарё сув ҳавзалари, дарё, каналлар, табиий ва сунний балиқчилик ҳовузлари, коллектор ва зовурларда яшовчи йиртқич балиқларининг (*Pomphorhynchus laevis*) акантоцефаласи билан зарарланиш динамикаси таҳлил қилинган. Олиб борилган тадқиқот ишларимиз давомида йиртқич балиқларнинг 3 турга мансуб, жами 180 нусхаси тўлиқ гельминтологик усулларда текширилди. Акантоцефала синфига мансуб *Pomphorhynchus laevis* турининг ривожланиш цикли ва патогенези тўғрисидаги илмий маълумотлар маълумотлар келтирилган.

Калит сўзлар: Акантоцефала, йиртқич балиқлар, гельминт, паразит, инвазия, сув ҳавзалари, патогенез, асосий ва оралиқ ҳўжайин.

ЗАРАЖЕНИЕ ХИЩНЫХ РЫБ
РОМФОРХИНСХУС LAEVIS
АКАНТОЦЕФАЛА.

INFECTION OF PREDATORY FISH WITH
POMPHORHYNCHUS LAEVIS
ACANTHOCEPHALUS.

Аннотация. В данной статье анализируется состояние заражённости хищных рыб акантоцефалами рыбоводческих прудах, реке, каналов, коллекторах, арыках водоёмов Сырдарьи. Было исследовано 180 экз. трёх видов хищных рыб. Представлены цикл развития, патогенез вида *Pomphorhynchus laevis* относящегося к классу акантоцефал.

Ключевые слова: Акантоцефала, хищные рыбы, гельминт, паразит, инвазия, водоемы, патогенез, основной и промежуточный хозяин.

Annotation. This article analyzes the state of infection of predatory fish with acanthocephali in fish ponds, rivers, canals, collectors, irrigation ditches of the Syr Darya reservoirs. 180 specimens of three species of predatory fish were examined. The development cycle and pathogenesis of the *Pomphorhynchus laevis* species, which belongs to the class of acanthocephali, are presented.

Key words: acanthocephala, predatory fish, helminth, parasite, invasion, water bodies, pathogenesis, primary and intermediate host.

* Абдуғаниев Ойбек Абдахамидович - ТКТИ Янгир филиали "Энергетика ва атроф мухит мухандислиги" кафедраси доценти

Собирова Ханифа Гуламжоновна - Toshkent University of Business and Science Аниқ ва табиий фанлар кафедраси доценти. oybekabduganiyev2601@mail.ru

Кириш. Бугунги кунда Республикамизда аҳоли сонининг ортиб бориши натижасида озик-овқат маҳсулотларига хусусан, балиқ ва балиқ маҳсулотларига бўлган талаб кундан кунга ортиб бормоқда. Мамлакатимизда балиқчилик соҳасини янада ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Ҳозирги кунда Ўзбекистон сув ҳавзаларида балиқларнинг 80 га яқин тури, хусусан Сирдарё сув ҳавзаларида 40 дан ортиқ балиқ турлари учрайди [4]. Аммо, балиқчилик соҳаси ривожига жиддий тўсиқ бўладиган омиллар ҳам мавжуд. Бундай омиллардан бири паразитар касалликлар бўлиб, Сирдарё сув ҳавзалари йиртқич балиқларининг ўсиши ва ривожланишига сезиларли даражада таъсир кўрсатиб, соҳада иқтисодий зарар етказмоқда. Балиқ турлари орасида 4 синфга мансуб паразитлар катта зарар келтириб чиқаради. Ушбу паразитлар ичида акантоцефала алоҳида аҳамиятга эга. Чунки акантоцефалалар ўта патоген паразитлар бўлиб йиртқич балиқлар организмига жиддий таъсир кўрсатади. Шу сабабли йиртқич балиқларнинг *Pomphorhynchus laevis* акантоцефалалари билан зарарланишини ўрганиш назарий ва амалий жиҳатдан алоҳида аҳамиятга эга ҳисобланади.

Тадқиқот ишининг мақсади: Сирдарё вилояти ҳудудидаги сув ҳавзаларида учровчи йиртқич балиқларининг *Pomphorhynchus laevis* (Muller 1776) акантоцефаласи билан зарарланиш динамикасини аниқлашдан иборат.

Тадқиқотнинг асосий объекти ва услублари: Ушбу тадқиқот ишларини 2022- 2024 йиллар давомида Сирдарё вилояти ҳудудидаги, Сирдарё дарёси унинг атрофидаги сув ҳавзалари, каналлар, табиий ва сунний сув ҳавзалари, коллектор ва зовурлардан тутилган турли ёшдаги - жами 180 дона йиртқич балиқлар: Чўртанбалиқ (*Esox Lucius Linnaeus*), Оддий лаққа (*Silurus glanis Linnaeus*) ва Оқ сла (*Sander lucioperca Linnaeus*) устида тўлиқ гельминтологик ёриб кўриш усуллари орқали олиб борилди. Балиқлар паразитологик жиҳатдан маълум методлар [2] асосида текширилди. Тўпланган (*Pomphorhynchus laevis* (Muller 1776) акантоцефала наъмуналари лаборатория шароитида 70% ли спиртда фиксация қилинди, дойимий ва вақтинчалик препаратлар тайёрланди. Гельминт турини систематик таҳлил қилишда адабиёт маълумотларидан фойдаланилди [1].

Тадқиқот натижалари: Ушбу касаллик кўзгатувчиси *P. laevis* – йирик ўлчамдаги акантоцефала бўлиб эркакларининг тана узунлиги 13-15 мм, эни 1.3-1.5 мм. Хартумчаси цилиндрик бўлиб, узунлиги 0.8-0.9 мм, эни 0.26-0.30 мм. Урғочиларининг тана узунлиги 22-28 мм, эни 3 мм. Хартумча 18-20 қатор илмоқлар бўлиб, ҳар бир қаторда 12 тадан илмоқчалар бўлади. Уруғдони чўзинчоқ, 1.47 мм узунлиги, 0.64 мм эни, тананинг ўрта қисмида жойлашади. Урғочилари эркакларига нисбатан йирик, узунлиги 22-24 мм, эни 3 мм гача. Тухумлари дуксимон, узунлиги 0.121 мм, эни 0.012 мм, қутбларида ингичка бўртмачалари мавжуд. Акантоцефалаларнинг ҳаёт циклларида оралик ва резервуар хўжайинлар иштирок этади. Оралик хўжайин вазифасини ёнсузар қисқичбақалар *Gammarus pulex* ва *G. lacustris* резервуар хўжайин вазифасини эса майда карпсимон балиқлар бажаради. Ёз мавсумида балиқлар *P. laevis* личинкалари билан зарарланган гаммаруслар билан озикланиши натижасида

касалликни ўзларига юктиради. Акантоцефалалар асосан чучук сув балиқлари ичагида жинсий вояга етади. Хартумчаси ёрдамида гельминтлар ичак деворини тешади ва жигар ҳамда бошқа органларга маҳкам ёпишиб олади [3].

Тадқиқот ишлари давомида Сирдарё вилояти ҳудудидаги сув ҳавзалари, дарё, каналлар, таъбий ва суний сув ҳавзалари, коллектор ва зовурлардан 180 дона йиртқич балиқлар: Чўртанбалиқ (*Esox Lucius Linnaeus*), Оддий лаққа (*Silurus glanis Linnaeus*) ва Оқ сла (*Sander lucioperca Linnaeus*) балиқлари тўлиқ текширилди.

Мирзаобод ва Сардоба туманлари ҳудудидаги сув ҳавзаларидан Чўртанбалиқ 27 нусха, Оддий лаққа 42 нусха ва 14 нусха Оқ сла балиқлари текширилди. Шундан, текширилган жами 83 нусха 3 турдаги йиртқич балиқларнинг 12 нусхаси *Pomphorhynchus laevis* акантоцефаласи билан зарарланган бўлиб, зарарланиш экстенсивлиги ўртача 14.5% ни ташкил этди.

Сирдарё дарёси ва унинг атрофидаги сув ҳавзалари каналлар, коллектор ва зовурлардан тутилган Чўртанбалиқ 18 нусха, Оддий лаққа 56 нусха ва 23 нусха Оқ сла балиқларининг жами 97 нусхасидан 16 нусхаси *Pomphorhynchus laevis* акантоцефаласи билан зарарланганлиги қайд этилди, бу эса инвазия экстенсивлиги 16,4% ни ташкил этди. Зарарланишнинг юқори кўрсаткичлари асосан Мирзаобод ва Сардоба тумани ҳудудидаги сув ҳавзаларидан тутилган балиқларда кузатилди. Акантоцефаланинг *Pomphorhynchus laevis* тури билан зарарланган йиртқич балиқларда маҳсулдорликнинг пасайиши аниқланди. Инвазия интенсивлиги 2 нусхадан 18 нусхагача ташкил қилди. Сирдарё дарёси ва унинг атрофидаги сув ҳавзалари каналлар, коллектор ва зовурларда яшовчи йиртқич балиқлар акантоцефаланинг *Pomphorhynchus laevis* тури билан етарли даражада зарарланганлиги аниқланилди. 3турга мансуб йиртқич балиқларининг зарарланиши 14.5% дан 16,4% гача ўзгариб туради, инвазия интенсивлиги эса 2-18 нусхани ташкил этди. Йиртқич балиқларнинг интенсив равишда *Pomphorhynchus laevis* тури билан зарарланиши ёз мавсумларида кузатилиб, бу даврда балиқлар ичагида 25-30 ва ундан ҳам кўпроқ акантоцефалалар кузатилади. Баъзан, гельминтлар ичак бўшлиғида тикилиб қолади ва озиканинг ичакнинг кейинги бўлимларига ўтишини тўсиб қўяди. Куз ва қиш ойларида гельминтларнинг ривожланиши маълум даражада паст кўрсаткичда бўлади [3].

Хулоса. Тадқиқотларимиз натижасида Мирзаобод ва Сардоба туманлари ҳудудидаги сув ҳавзаларидан текширилган жами 83 нусха 3 турдаги йиртқич балиқларнинг 12 нусхаси *Pomphorhynchus laevis* акантоцефаласи билан зарарланган бўлиб, зарарланиш экстенсивлиги ўртача 14.5% ни ташкил этди.

Сирдарё дарёси ва унинг атрофидаги сув ҳавзалари каналлар, коллектор ва зовурлардан тутилган жами 97 нусхасидан 16 нусхаси *Pomphorhynchus laevis* акантоцефаласи билан зарарланганлиги қайд этилди, бу эса инвазия экстенсивлиги 16,4% ни ташкил этди. Зарарланишнинг юқори кўрсаткичлари асосан Мирзаобод ва Сардоба тумани ҳудудидаги сув ҳавзаларидан тутилган балиқларда кузатилди. Акантоцефаланинг *Pomphorhynchus laevis* тури билан зарарланган йиртқич балиқларда маҳсулдорликнинг пасайиши аниқланди. Инвазия интенсивлиги 2 нусхадан 18 нусхагача ташкил қилди.

Тадқиқотларимиз давомида йиртқич балиқларнинг акантоцефала *Pomphorhynchus laevis* тури билан умумий зарарланиш динамикаси аниқланилди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Авдеев В.В. и др. Определитель паразитов пресноводных рыб фауны СССР. - Ленинград: Наука, 1987. Т. 3. – 583 с.
2. Быховская-Павловская И.Е. Паразиты рыб. Руководство по изучению. -Ленинград: Наука, 1985. - 342 с.
3. Османов С.О. Паразиты рыб Узбекистана. - Ташкент: Фан, 1971. - 532 с.
4. Мирабдуллаев И.М., Мирзаев У.Т., Хегай В.Н. Определитель рыб Узбекистана. - Ташкент: Chinor ENK, 2001. - 101 с., 2009. –С.108

Bekmatova E.E., Fayziev V.B., Jovliyeva D.T.*
(Chirchiq, O‘zbekiston)

KXV DIAGNOSTIKASI UCHUN SPETSIFIK ZARDOB TITRINI ANIQLASH

Annotatsiya: Ushbu maqolada immunolik tahlil va *D.stramonium L.* o‘simligidan ajratilgan KXVning titri aniqlash haqida ma‘lumotlar lektirilgan. olingan spetsifik zardob titri 1:512 ni tashkil etganligi bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: KXV, antigen, antitana, immunogenlik, IgG, antizardob.

ОПРЕДЕЛЕНИЕ СПЕЦИФИЧЕСКОГО СЫВОРОТОЧНОГО ТИТРА ДЛЯ ДИАГНОСТИКИ KXV

Аннотация: В данной статье тип *PVX*, выделенного из *D.stramonium L.*, был определен с использованием этого метода, учитывая высокую чувствительность метода иммуноферментного анализа. Титр антител к KXV, полученный при исследовании, составил 1:512.

Ключевые слова: *PVX*, антиген, антитело, уровень иммуногенности, IgG, антисыворотка.

DETERMINATION OF SPECIFIC SERUM TITER FOR DIAGNOSIS OF KXV

Abstract: In this article, the titer of *PVX* isolated from *D.stramonium L.* was determined using this method, taking into account the high sensitivity of the enzyme immunoassay method. The antibody titer obtained for KXV on examination was 1:512.

Key words: *PVX*, antigen, antibody, level of immunogenicity, IgG, antiserum.

O‘simlik viruslari mikroskopik infeksiyon agentlar bo‘lib, birinchi navbatda o‘simliklarga yuqib, qishloq xo‘jaligida katta iqtisodiy yo‘qotishlarga olib keladigan kasalliklarni keltirib chiqaradi. Kartoshka X virusi (KXV) o‘simlik patogen virusi bo‘lib, *Solanaceae* oilasiga mansub o‘simliklarni, xususan, kartoshkani (*Solanum tuberosum*) kasallantiradi. *Alphaflexiviridae* oilasiga kiruvchi *Potexvirus* avlodiga

*Bekmatova E‘zoza Elmurod qizi – Chirchiq Davlat Pedagogika universiteti, Biologiya kafedrası, o‘qituvchi. elmuradovna.ezo@gmail.com

Fayziev Voxid Bahramovich - Chirchiq Davlat Pedagogika instituti, Biologiya kafedrası, biologiya fanlari doktori, professor. fvahid@mail.ru

Jovliyeva Dilfuza Tilovovna - Chirchiq Davlat Pedagogika instituti, Biologiya kafedrası, biologiya fanlari doktori. d.jovliyeva@mail.ru

mansub KXV butun dunyo bo'ylab kartoshka ekinlariga ta'sir qiluvchi iqtisodiy jihatdan eng muhim viruslardan biridir [14].

Spetsifik zardob ma'lum bir antigenga qarshi maxsus ishlab chiqilgan antitanalarni o'z ichiga olgan qonning zardob qismi hisoblanadi. Ushbu antitanalar immunizatsiya yoki tabiiy infeksiya orqali antigen ta'siriga javoban immunitet tizimi tomonidan ishlab chiqariladi. Virusning immunogenlik darajasi nisbiy qiymat bo'lib, ko'pgina omillarga: immunogenning immunizatsiya qilingan hayvonning immun tizimiga nisbatan begonaligi, immunogenning molekulyar og'irligi, hayvon turlari va uning individual immunologik reaktivligiga, shuningdek antigenning dozasi, virusni kiritish usuli, adyuvantlardan foydalanish, immunizatsiya sxemasi va reimmunizatsiyaga bog'liq.

Adabiyotlar tahlili va olib borilgan tadqiqotlardan ma'lumki, organizmga virusni o'zini yubormasdan unga olingan IgG ni fermentlar bilan nishonlash orqali inert zarrachalarga antitanalarning (IgG) passiv adsorbsiyasi orqali antizardobning faolligini oshirish mumkin. Boshqa bir tarafdin hayvondagi immunitet jarayonlariga ta'sir qilish natijasida virusning immunogenligini oshirish mumkin. Ma'lumki, uch yoki to'rt marta immunizatsiya jarayonida kuchli immunogenlik xususiyatiga ega viruslar uchun bir martalik eng kam doza 10-200 mkg, ko'pi 1 mg dan oshmasligi kerak. KXV yaxshi immunogenligi sababli virusni hayvonga kiritishda deyarli har qanday usuldan foydalanish mumkin [3,6].

Viruslarga spetsifik zardoblarni olishda e'tiborga olinishi kerak bo'lgan eng muhim xususiyat bu virusning immunogenligi, ya'ni hayvon organizmida o'ziga xos antitanalar hosil qilish xususiyatidir. Immunogenlik o'simlik viruslari orasida sezilarli darajada farqlanadi. Tajribani olib borish uchun dastlab biologik tozalangan kartoshka X virusi *D. tatula* L. (qizil kurtak va binafsha gulli) va *D. stramonium* L. (yashil kurtak va oq gulli) o'simliklarida ko'paytirib olindi. Antigen sifatida esa yuqoridagi o'simliklarda ko'paytirilib, laboratoriya sharoitida gelfiltratsiya usuli yordamida tozalab olingan virus preparatidan, immunizatsiya qilish va virusga spetsifik poliklonal zardob olish uchun esa 2 ta shinshilla zotli erkak quyonlardan hamda antigenga qo'shilma sifatida natriy xlarning izotonik eritmasi va sikloferondan foydalanildi[4].

Virus (AG)ni quyonga yuborilish natijasida olingan spetsifik zardobning titri Uxterloni ishlab chiqqan Zilber va Abelevlar tomonidan mikromodifikatsiya qilingan IID usuli yordamida aniqlandi. Tajriba 1% li «Difco» agari solingan shisha plastinkada olib borildi.

Tadqiqot natijasi quyonlardan olingan zardob IID usuli yordamida tekshirilganda zardob titri 1:512 ni tashkil etdi. Shu bilan birga antitana titri immunoferment analiz usulining sezgirligi yuqori ekanligini hisobga olib, bu usul yordamida ham titri aniqlandi.

Olib borilgan tajribalardan ma'lum bo'ldiki ushbu tajriba orqali KXVni erta aniqlash orqali virus tarqalishini oldini olish mumkin. Shu bilan birga tajribani keng,

chuqurroq doirada, ya'ni boshqa viruslarni aniqlash, ular bilan bog'liqlik tomonlarini o'rganish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmad R, Takacs A, Taller J, Wolf I, and Polgar Z. (2012). Potato viruses and resistance genes in potato. *Acta Agronomica Hungarica* 60, 283–298.
2. Jovliyeva D.T., V.B. Fayziyev, A.H. Vaxobov. (2022) “Isolation of Potato X-Virus from Collecting Plants”. *Global Scientific Review A Peer Reviewed, Open Access, International Journal*. www.scienticreview.com Volume 10, ISSN (E): 2795-4951, pp.163-166
3. Jovliyeva D.T., (2024). Kartoshka x virusi diagnostikasi uchun IFA to'plamini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish. *Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya*.
4. Jovlieva D. Fayziyev V., Vakhobov A., et al. Preparation of Polyclonal Antiserum for potato X virus. *Journal of Wildlife and Biodiversity*, Volume 8, Issue 1, 2023, pp. 268-278 ISSN 2588-3526., DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10206960>
5. Fayziyev F.B., Bekmatova E.E. “Gelfiltrasiya usuli prinsipi va uning makromolekulalarni tozalashda qo'llanilishi” *Scientific- methodical journal of scientific progress* March 2021 549-552 page.
6. Fayziyev F.B., Jovliyeva D.T., “Bekmatova E.E. Kartoshka X virusi nekrotik izolyatini ajratish va ba'zi xususiyatlarini aniqlash” *Биология ва экология электрон журнали* 4(2) 2020.
7. Fayziyev F.B., Z. Sobirova, N. Shonazarova, G. Suyunova, N. Berdikulova, E.Bekmatova. “Identification of potato virus x in uzabekistan and its biological and molecular genetic characterization” *Eur. Chem. Bull.* 2023, 12 (Special Issue 4), 18254-18265 Section A-Research paper ISSN 2063-5346 DOI:10.48047/ecb/2023.12.si4.1620
8. Fayziyev F.B., Jovliyeva D.T., A.H. Vaxobov “Determination of the serum titre of isolated PVX-O” *International conference on higher education teaching Hosted from Hamburg, Germany, 2023.* Pp.28-32
9. Fayziyev F.B., Bekmatova E.E. O'simlik peroksidazasini aniqlash uchun zarur substrat tayyorlash va FEK yordamida ferment aktivligini o'rganish. *Scientific- methodical journal of scientific progress* March 2021 395-398 page
10. Bekmatova E.E. “Fermentlarning asosiy xossalari” “*Propects of development of science and education*” proceedings of third conference 26 june 2020 33-35 page.
11. Bekmatova E.E. Fermentlar, Fermentlarning ta'sir etish mexanizmi, biologik ahamiyati. CLXXI *Международная научно-практическая конференция* 24(171) Москва 2020 года
12. Bekmatova E.E. Enzimlarning faollanish energiyasi. *Biokatalizatorlar-Oksireduktazalar* . The journal of Academic research in educational sciences (ARES) February 2021 95-100 page
13. Bekmatova E.E. O'simlik peroksidazasini ajratish va tozalash muammolari. *The journal of Academic research in educational sciences (ARES)* April 2021 91-95 page
14. Vahobov A.H. (2017). *Virusologiya asoslari*. Toshkent: Universitet, 289-297 –bet.
15. Jovliyeva, V.B. Fayziyev, A.H. Vaxobov. (2022). “Change of enzyme dynamics in datura tatula plant under the influence of potato x virus” *Science and innovation international scientific journal* volume 1 issue 8 uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337. pp. 1031-1036
16. Ваҳобов А.Ҳ. (2004). Умумий вирусологиядан амалий машғулотлар. I-жилд, –Тошкент: Университет, 36-37 б.
17. Bekmatov B.D., Bekmatova E.E. Situational analysis method. *Academic research in educational sciences* 2 (1), 1035-1040
18. Bekmatov B.D., Bekmatova E.E Back to the future: higher education in 2022. *Academic research in educational sciences*, 2 (12), 1380-1383.
19. <https://www.dpvweb.net/dpv/showdpv/?dpvno=87>
20. <http://scholarworks.uark.edu/etd/643>

Paluaniyazova D.A., Dadayev S.D.*
(Toshkent O'zbekiston)

QORAQALPOG'STON MAYDA SHOXLII MOLLARI ASOSIY SESTODOZLARI VA TREMATODOZLARI EPIZOOTOLOGIYAS

Annotatsiya: Maqolada 2021-2024 yillar davomida Qoraqalpog'istonning turli hududlarida mayda shoxli mollar gelmintlari hamda ularda keng tarqalgan asosiy sestodozlar va trematodozlar epizootologiyasini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqot ishlar natijalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: qo'ylar, echkilar, gelmintlar, gelmintozlar, sestodozlar, trematodozlar, epizootologiya.

ЭПИЗООТОЛОГИЯ ОСНОВНЫХ ЦЕСТОДОЗОВ И ТРЕМАТОДОЗОВ МЕЛКОГО РОГАТОГО СКОТА КАРАКАЛПАКСТАНА

Аннотация: В данной статье приведены результаты исследовательских работ, проведённых в течение 2021-2024 годов по изучению гельминтов мелкого рогатого скота, а также эпизоотологии основных цестодозов и трематодозов, широко распространённых у мелкого рогатого скота в различных биоценозах Каракалпакстана.

Ключевые слова: овцы, козы, гельминты, гельминтозы, цестодозы, трематодозы, эпизоотология.

EPIZOOTOLOGY OF THE MAIN CESTODOSES AND TREMATODOSIS OF SMALL CATTLE IN KARAKALPAKSTAN

Abstract: The article presents the results of research conducted in 2021-2024 in various regions of Karakalpakstan to study the epizootology of helminths of small cattle and the main cestodes and trematodes common in them.

Keywords: sheep, goats, helminths, helminthoses, cestodoses, trematodoses, epizootology.

Chorvachilik yuritishning yangi shakllari-fermer, shirkat, shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklarini tashkil etilishi, endilikda hayvonlarni saqlashda, oziqlantirishda hamda ko'paytirishda yangicha yondashuvlarni talab qiladi va bu esa turli gelmintozlar, shu jumladan sestodozlar hamda trematodozlarni oldini olish va ularga qarshi kurashishda samarali usullarni qo'llashni taqozo etadi.

Bunday holda mahsuldor hayvonlar, shu jumladan qo'y va echkilar gelmintlari faunasi, ularni tarqalishi, keng tarqalgan vakillarining bio-ekologik xususiyatlarini Respublikamizning barcha hudud va mintaqalarida, shu jumladan keng mintaqalardan biri hisoblanmish Qoraqalpog'istonda rejali asosda o'rganib borish, qo'ychilik va echkichilikka katta iqtisodiy zarar keltiruvchi dominant gelmintozlar, jumladan sestodozlar va trematodozlar epizootik holatini baholash hamda Qoraqalpog'istonning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, profilaktik chora-tadbirlarni takomillashtirish lozim.

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti, dilbarpaluaniazova@gmail.com
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, s_dadaev@mail.ru.

Ishning maqsadi. Qoraqalpog‘iston sharoitida mayda shoxli mollar gelmintlari hamda ularda keng tarqalgan sestodozlar va trematodozlarning epizootologik xususiyatlarini o‘rganish va tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot materiallari va metodlari. Gelmintologik tadqiqot ishlari 2021-2024 yillar davomida Qoraqalpog‘istonning turli tumanlaridagi chorvachilik fermer xo‘jaliklari hamda shaxsiy xonadonlarda 82 bosh qo‘y va 95 bosh echki K.I. Skryabinning to‘liq gelmintologik yorib ko‘rish usuli bilan tekshirildi [1].

Olib borilgan tadqiqotlarimiz natijasida Qoraqalpog‘istonning turli hududlarida mayda shoxli mollarda 37 tur gelmintlar parazitlik qilishligi qayd etildi. Shulardan 34 turi qo‘ylarda va 31 turi echkilarda uchrashligi aniqlandi [2,3].

Quyida olib borgan tadqiqot ishlarimiz natijasida, Qoraqalpog‘stonda mayda shoxli mollarda keng tarqalgan va ular mahsuldorligini keskin kamayishiga olib keladigan asosiy sestodozlar va trematodozlar qo‘zg‘atuvchilarining epizootologik xususiyatlari to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan.

Imaginal sestodozlar. Qoraqalpog‘stonda mayda shoxli mollarda parazitlik qiladigan imaginal sestodoz qo‘zg‘atuvchilariga - *Moniezia expansa*, *M. benedeni*, *Avitellina centripunctata* va *Thysaniezia giardia* kabi turlar kiradi. Bunda mayda shoxli mollarda, asosan *Moniezia expansa* va *M. benedeni* turlari keng tarqalgan bo‘lib, ularni mahsuldorligini keskin kamayishiga olib keladi. Moniezioz qo‘zg‘atuvchilarini qo‘ylarda invaziya ekstensivligi bahorda - 12,2-17,1 %, yozda - 17,4-21,7%, kuzda - 19,3-21,1% va qishda - 20,0-25,0% ni tashkil etilishi aniqlandi. Echkilarda esa bu ko‘rsatgich mavsumga qarab bahorda topilmadi, yozda - 7,4-25,9%, kuzda - 22,3-33,4% va qishda - 15,4% ga zararlanganligi kuzatildi.

Moniezioz qo‘zg‘atuvchilari bilan barsha yoshdagi qo‘y va echkilarni zararlanganligi aniqlandi, ayniqsa bir yoshgacha bo‘lgan hayvonlarning zararlanish darajasi yuqori bo‘lishi qayd etildi, ya‘ni bir yoshgacha bo‘lgan qo‘ylarda invaziya ekstensivligi - 21,4-25% ni, bir yoshdan ikki yoshgacha bo‘lgan qo‘ylarda - 16,9-18,6% ni va ikki yoshdan katta qo‘ylarda - 17,5-20,6% ni tashkil etdi. Bu ko‘rsatgich bir yoshgacha bo‘lgan echkilarda - 12,9-16,3%, bir yoshdan ikki yoshgacha - 14,7% va ikki yoshdan katta echkilarda - 10,4-12,3% ekanligi kuzatildi.

Larval sestodozlar. Qoraqalpog‘stonda mayda shoxli mollarda larval sestodozlar qo‘zg‘atuvchilaridan - *Echinococcus granulosus (larvae)*, *Multiceps multiceps (larvae)*, *Taenia hydatigena (larvae)* va *Alveococcus multicularis (larvae)* kabi turlari parazitlik qilishi aniqlandi. Qo‘y va echkilarda keng tarqalgan va ularga katta iqtisodiy zarar yetkazadigan turlaridan biri - *Echinococcus granulosus (larvae)* hisoblanadi. Qo‘ylar exinokokkoz bilan bahorda - 26,8%, yozda - 28,3%, kuzda - 31,6% va qishda - 35,0% zararlanishi aniqlandi. Echkilar esa *Echinococcus granulosus (larvae)* bilan bahorda - 16,3%, yozda - 22,2%, kuzda - 25,4% va qishda - 25,7% ga kasallanganligi ma‘lum bo‘ldi.

Exinokokkoz qo‘zg‘atuvchilari bilan kichik yoshdagi hayvonlarda zararlanish darajasi yuqori bo‘lishi qayd etildi, ya‘ni bir yoshgacha bo‘lgan hayvonlarda invaziya

ekstensivligi - 42,8% ni, bir yoshdan ikki yoshgacha bo'lgan qo'ylarda - 32,2% ni va ikki yoshdan katta qo'ylarda - 25,8% ni tashkil etdi. Bu ko'rsatgich bir yoshgacha bo'lgan echkilarda - 25,8%, bir yoshdan ikki yoshgacha - 22,0% va ikki yoshdan katta echkilarda - 22,6 % ekanligi kuzatildi.

Trematodoz qo'zg'atuvchilaridan Qoraqalpog'stonda mayda shoxli mollarda *Fasciola gigantica*, *Gastrothylax crumenifera* va *Schistosoma turkestanicum* turlari parazitlik qilishi aniqlandi. Bu trematodalardan qo'y va echkilarni eng yuqori darajada zararlanishi *Fasciola gigantica* va *Schistosoma turkestanicum* turlariga mansubdir.

Fassiolyoz. Qoraqalpog'istonda *Fasciolidae* oilasiga mansub *Fasciola gigantica* turi mayda shoxli mollar jigarida va jigar o't yo'llarida parazitlik qiladi. *Fasciola gigantica* turining qo'ylarning jigari bilan bir qatorda ularning o'pkasida ham parazitlik qilishi MDH, jumladan, O'zbekistonda ilk bor aniqlangan. Mayda shoxli mollarda *Fasciola gigantica* asosan tekislik mintaqasining sug'oriladigan hududlarida keng tarqalgan.

Qoraqalpog'istonning turli hududlarida *Fasciola gigantica* trematodasi bilan qo'ylarning umumiy zararlanishi 43,0% ni, echkilarda esa 38% ni tashkil etib, invaziya intensivligi 1 tadan 283 nusxagacha borishi aniqlandi. Bunda qo'ylarda fassiolyoz qo'zg'atuvchisini invaziya ekstensivligini yil fasllari bo'yicha o'zgarib borishi aniqlandi, ya'ni bahorda -29,3%, yozda -41,3 %, kuzda -49,2% va qishda-50,0% ni tashkil etishi qayd qilindi. Echkilarda esa fassiolyozni invaziya ekstensivligi mavsumga qarab bahorda - 26,5%, yozda -37,0%, kuzda -41,3% va qishda-46,2% ni tashkil etdi. Binobarin, olib borgan tadqiqot ishlarimizning ko'rsatishicha mayda shoxli mollarda fassiolyoz bilan maksimal darajada zararlanish kuz va qish fasllarga to'g'ri kelishi kuzatildi. Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, hayvonlarning yoshini kattalashib borishi, ularni fassiolyoz qo'zg'atuvchisi bilan zararlanish foizini ham orta borishi kuzatildi. Invaziyaning to'planib borishi va hayvonlarning qayta-qayta zararlanishi natijasida ular yoshi kattalashgan sayin fassiolyoz qo'zga'atuvchisi bilan zararlanish darajasi han ortib boradi.

Olib borilgan tadqiqot ishlarimiz natijasini ko'rsaticha yosh fassiolar yil davomida qo'y va echkilarda uchradi. Demak, hayvonlar butun yil davomida fassiolyoz bilan zararlanishi mumkin. Biroq, u yoki bu oy ichida yosh fassiolarlarning ustunligi shuni ko'rsatadiki, hayvonlar parazitlarning ommaviy mavjudligidan taxminan 2 oy oldin zararlanadi. Binobarin, bu hududda fassiolyoz bilan asosiy zararlanish iyul, avgust va sentyabr oylarida, ya'ni yozning ikkinchi va kuzning birinchi yarmida sodir bo'ladi. Fassiolyoz qo'zg'atuvchilari bilan barsha yoshdagi qo'y va echkilarni zararlanganligi aniqlandi. Lekin, ikki yoshdan katta bo'lgan hayvonlarning zararlanish darajasi ancha yuqori bo'lishi qayd etildi, ya'ni bir yoshgacha bo'lgan qo'ylarda invaziya ekstensivligi -21,5% ni, bir yoshdan ikki yoshgacha bo'lgan qo'ylarda -39,0% ni va ikki yoshdan katta qo'ylarda -51,6% ni tashkil etdi. Echkilarda esa bu ko'rsatgich, bir

yoshgacha bo'lgan echkilarda -19,3%, bir yoshdan ikki yoshgacha-33,8% va ikki yoshdan katta echkilarda-46,2% ekanligini kuzatdik.

Shistosomoz. Mayda shoxli mollar shistosomozini unlarning ichak tutqichi va jigar vena qon tomirlarida parazitlik qiluvchi *Schistosoma turkestanicum* trematoda turi qo'zg'atadi. Bunda qo'ylar shistosomoz bilan bahor va yozda-19,5% dan, kuzda-21,0% va qishda-32,5% zararlanganligi kuzatildi. Echkilar esa shistosomoz qo'zg'atuvchisi bilan bahorda-22,9%, yozda uchramadi, kuzda-34,9% va qishda-35,9% zararlanganligi aniqlandi. Qoraqalpog'stonda mayda shoxli mollar fassiolioz singari shistosomoz qo'zg'atuvchisi bilan ham asosan maksimal darajada kuz va qish fasllarida qayd etildi.

Shistosomoz qo'zg'atuvchilari bilan ham barsha yoshdagi qo'y va echkilarni zararlanganligi aniqlandi, ayniqsa katta yoshdagi hayvonlarning zararlanish darajasi ancha yuqori bo'lishi qayd etildi, ya'ni bir yoshgacha bo'lgan qo'ylarda invaziya ekstensivligi -10,7% ni, bir yoshdan ikki yoshgacha bo'lgan qo'ylarda -23,7% ni va ikki yoshdan katta qo'ylarda -25,8% ni tashkil etdi. Bu holat, bir yoshgacha bo'lgan echkilarda -12,9%, bir yoshdan ikki yoshgacha -22,0% va ikki yoshdan katta echkilarda -25,5% ekanligi kuzatildi.

Xulosa. Qoraqalpog'ston sharoitida mayda shoxli mollarda ancha keng tarqalgan yuqorida keltirilgan asosiy sestodozlar va trematodozlar qo'zg'atuvchilari chorvachilik xo'jaliklariga katta iqtisodiy zarar yetkazadi. Albatta, hayvonlarni ayrim gelmintozlar, jumladan sestodozlar va trematodozlar bilan zararlanish darajasi turli omillarga, birinchi navbatta abiotik va biotik omillarga hamda yil fasllari va hayvonlarni yoshiga qarab o'zgarib turadi. Bunda har bir sestodoz va trematodoz qo'zg'atuvchilarining mavsumiy o'zgarishiga qarab ularga qarshi asoslangan holda profilaktik chora-tadbirlar olib borish eng yaxshi natija beradi. Shunday ekan, olib borilgan tadqiqot ishlarimiz natijasida olingan ma'lumotlar Respublikamizning turli mintaqalarida, shu jumladan Qoraqalpog'ston sharoitida mayda shoxli mollarning asosiy gelmintozlari, xususan sestodozlar va trematodozlarni oldini olishda mutaxassislar uchun asosiy ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Скрыбин К.И. Метод полных гельминтологических вскрытий позвоночных, включая человека. М.: Изд. МГУ, 1928. - 45 с.
2. Палуаниязова Д.А., Дадаев С.Д. Қорақалпоғистон майда шохли моллари цестодофаунаси ва уларни тарқалиши. IX Международная научно-практическая конференция, посвященная 80-летию со дня образования Академии наук Республики Узбекистан «Проблемы рационального использования и охрана биологических ресурсов южного Приаралья», Нукус, 2023. С. 185-189.
3. Paluaniyazova D.A., Dadaev S.D. Janubiy Orol bo'yi sharoitida mayda shoxli mollar trematodalari. //O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Zamonaviy biologiyaning dolzarb muammolari: yechimlari, istiqbollari va o'qitishda fan ta'lim integratsiyasi" Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya to'plami. - Chirchiq, 2023. - B.34-36.

CHLOROPHYTUM COMOSUM (THUNB.) JACQUES (ASPARAGACEAE) O'SIMLIGI YER USTKI STALONINING ANATOMIK TUZILISHI

Annotatsiya. Mazkur maqolada *Chlorophytum comosum* xona o'simligi yer ustki stalonining anatomik tuzilishi o'rganish asosida turga xos bo'lgan diagnostik strukturaviy belgilar aniqlangan.

Kalit so'zi: morfologiya, anatomiya, yer ustki stalon, *Chlorophytum comosum*.

CHLOROPHYTUM COMOSUM (THUNB.) АНАТОМИЧЕСКОЕ СТРОЕНИЕ НАДЗЕМНОГО СТЕБЛЯ РАСТЕНИЯ ЖАК (ASPARAGACEAE)

Аннотация. В данной статье на основе изучения анатомического строения наземного стебля комнатного растения *Chlorophytum comosum* определены диагностические структурные признаки, характерные для вида.

Ключевое слово: морфология, Анатомия, наземный стайлон, *Chlorophytum comosum*.

CHLOROPHYTUM COMOSUM (THUNB.) ANATOMICAL STRUCTURE OF THE ABOVEGROUND STEM OF THE JACQUES PLANT (ASPARAGACEAE)

Annotation. In this article, based on the study of the anatomical structure of the aboveground plantain of the houseplant *Chlorophytum comosum*, diagnostic structural features characteristic of the species are determined.

Key word: morphology, Anatomy, terrestrial stylon, *Chlorophytum comosum*.

Chlorophytum comosum o'simligi Asparagaceae (qushqo'nmasdoshlar) oilasi *Agavoideae* kenza turkumining *Chlorophytum* turkumiga mansub bir urug'pallali gulli o'simlikdir. *Chlorophytum comosum* odatda o'rgimchak o'simligi yoki o'rgimchakka o'xshash ko'rinishi tufayli oddiy o'rgimchak o'simligi deb ataladi [1] lentasimon o'simlik (bu nom *Dracaena sanderiana* bilan nomlanadi) [2]. Uning vatani tropik va janubiy Afrika, ammo dunyoning boshqa qismlarida, jumladan G'arbiy Avstraliya va Bangladeshda ham tabiiy holga tarqalgan [3, 4]. *Chlorophytum comosum* o'zining chidamliligi tufayli xona o'simligi sifatida o'stiriladi, lekin u artizon suvidagi ftoridga sezgir bo'lishi sababli barglarining uchki qismi kuygandek ko'rinishga egadir.

Hozirgi vaqtda xlorofitum turlarining biologik faol moddalari ekstraktining antibakterial ta'siri keng patogen mikrofloraga qarshi isbotlangan: sil mikobakteriyasi, pnevmoniya patogenlari, *Pseudomonas aeruginosa* va *Candida*, *Aspergillus* avlodining zamburug'lari [5]. Laboratoriya qutilarida buzilmagan *Chlorophytum crestus* o'simliklarining fitonsid faolligi bahorgi faol o'sish davrida mikrobial sinov obyektlari - gramm-musbat bakteriyalar *Staphylococcus*

Duschanova G.M. – ¹Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Botanika ekologiya kafedrasida professor. guljon.duschanova@mail.ru

Husanova A.V - Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti talabasi

Abduxalilova F.A - Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti talabasi

Anvarjanova R.S. - Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

epidermidis, grammusbat bakteriyalar *Escherichia coli* va xamirturushga o'xshash zamburug'lar *Candida albicans* [6].

Tadqiqot ob'ekti *Chlorophytum comosum* o'simligi balandligi 60 sm. Etdor ildizlar har birini uzunligi 5–10 sm. Barglari uzun ingichka bo'lib, uning uzunligi 20–45 sm ga etadi va eni 6–25 mm ga etadi. Gullarining uzunligi 75 sm (30 dyuym) gacha bo'lib, uzun shoxlangan gulpoyada hosil bo'ladi hamda o'simlik erga egilib turadi. Gullar dastlab gulpoya (o'q) 1-6 bo'g'im oralig'ida hosil bo'ladi. Har bir generativ novda gulyonbarg asosida joylashgan, uning uzunligi 2 dan 8 sm gacha bo'lib, oxiri kichiklashib gulpoyaning oxirida joylashadi. Dastlab hosil bo'lgan gullarning ko'pchiligi nobud bo'ladi, shuning uchun ular nisbatan kamdan-kam hollarda gullaydi. Alohida gullar yashil-oq rangda bo'lib, uzunligi taxminan 4-8 mm bo'lgan gulpoyalarda o'sadi. Har bir gulning uzunligi 6–9 mm bo'lgan oltita uch tomirli gulqo'rg'onning uchlari qayiqsimon shaklga ega. Changdon uzunligi taxminan 3,5 mm bo'lgan bir xil uzunlikdagi yoki biroz uzunroq bo'lgan changchi ipidan iborat. Urug'chi ustunchasi uzunligi 3-8 mm. Urug'lar uzunligi 3-8 mm bo'lib, ular 12 mm gacha cho'zilgan urug' qobig'ida (kapsulada) shakllanib, gulpoyalarda hosil bo'ladi [7]. Gulpoya nafaqat gullarda, balki o'simliklar shoxlarining uchida joylashgan bo'lib, ular egilib tuproqqa tegib, qo'shimcha ildizlar shakllanadi. Gulpoya (strelkalari) ba'zi manbalarda "stolonlar" deb ataladi, lekin bu atama gul bermaydigan va tugunlarida ildiz bo'lgan poyalarga nisbatan to'g'ri qo'llaniladi [8].


Chlorophytum comosum xona o'simligi yer ustki stolonining morfologik va anatomik tuzilishini o'rganish uchun 70⁰ etil spirtiga fiksatsiya qilindi. Yer ustki stolonining anatomik tuzilishi ko'ndalang kesiklar qo'l yordamida tayyorlanib, preparatlar metilen ko'ki yordamida bo'yalib, glitserin-jelatin bilan qotirildi [9]. Asosiy to'qimalar va hujayralarning tuzilishi K. Esau [10], N. S. Kiseleva [11], G.M. Duschanovalarning [12] metodlari asosida tavsiflandi. Mikrofotosuratlar kompyuter mikrofonasatkasi, *Sanon* firmasining A123 rusumli raqamli fotoapparati hamda BioBlue S/N – EC-2209333 rusumli mikroskop yordamida tayyorlandi.

Xona sharoitida *Chlorophytum comosum* o'simligi yer ustki stolonining anatomik tuzilishi o'rganilmagan. Bu tadqiqotlarimizning dolzarbligi va ilmiy yangiligini ko'rsatadi.

Tadqiqot maqsadi – *Chlorophytum comosum* o'simligi yer ustki stolonining anatomik tuzilishini o'rganish asosida diagnostik strukturaviy belgilarini aniqlashdan iborat.

Chlorophytum comosum o'simligining yer ustki stoloni anatomik tuzilishi o'rganish asosida bir urug'pallali o'simliklarga xos bo'lgan poyaning birlamchi tuzilishi aniqlandi. Yer ustki stolonlarning ko'ndalang kesikda yumaloq shaklda bo'lib, bog'lamsimon tipga ega. Stolon tashqi tomondan bir qator epiderma hujayrasi bilan qoplangan. Epiderma hujayrasi ostida 3-4 qator po'stloq parenxima hujayralari joylashgan. Po'stloq parenximadagi 1-2 qator hujayralarining tarkibida xlorofill donachalari bo'lib fotosintez jarayoni aniqlandi. Po'stloq parenximasi hujayralari

ostida peritsikl sklerenxim halqa shakllangan bo'lib burchaksimon shakldagi sklerenxima hujayralari yaxshi rivojlangan. Mazkur hujayralar poyaga mustahkamlik beradi. Pertsikl sklerenxim halqa markaziy silindr va po'stloq parenximasini ajratib turadi. Markaziy silindr poyaning asosiy qismini tashkil qiladi. Markaziy silindr birlamchi o'tkazuvchi bog'lamlardan *prokambiy* hujayralaridan hosil bo'lgan.



Rasm. *Chloropyhtum comosum* o'simligi yer ustki stolonining anatomik tuzilishi: a – yer ustki stolonning umumiy ko'rinishi; b – detal; v – epiderma, po'stloq parenxima va peritsikl sklerenxima halqasi, g – parenxima hujayralari va o'tkazuvchi bog'lam. **Shartli belgilar:** Ks – ksilema, PP – po'stloq parenximasi, Px – parenxima, SK – sklerenxima, PS'H – peritsikl sklerenxima xalqasi, O'B – o'tkazuvchi bog'lam, F – floema, E – epiderma, HB – hujayralararo bo'shliq.

O'tkazuvchi bog'lamlar birlamchi floema (*protofloema*) va birlamchi ksilema (*protoksilema*) dan tashkil topgan yopiq kollateral tipdagi bog'lamga ega bo'lib, ularda kambiy hujayralari shakllanmagan. Markaziy silindrning asosiy qismini parenxima hujayralari tashkil etadi. Mazkur hujayralar yumaloq, ovalsimon shaklga ega bo'lib, hujayralararo bo'shliqlarga ega.

Bir urug'pallalilardan *Secale cereale* (qora bug'doy) poyasidagi o'tkazuvchi bog'lamlar po'stloq parenxemasida joylashgan va markaziy silindr bo'shliqqa aylangan. *Iris* turkum turlarida [13] va biz tomonimizdan olib borilgan tadqiqot natijasida *Chlorophytum comosum* o'simligining yer ustki stoloni anatomik tuzilishi o'xshash bo'lib, ularga xos bo'lgan strukturaviy belgilar – bog'lamsimon tipliligi, pertsikl sklerenxim halqaning shakllanganligi hamda markaziy silindr va po'stloq parenximasini ajratib turishi aniqlandi. Shuningdek, *Iris* turkum turlarining poyasida va *Chlorophytum comosum* turi yer ustki stolonidagi markaziy silindrning asosiy qismini yopiq kollateral tipli o'tkazuvchi bog'lamlar va parenxima hujayralari tashkil etib, yuqorida aniqlangan diagnostik belgilar ya'ni poyaning birlamchi anatomik tuzilishi bir urug'pallali o'simliklarga xos bo'lganligi bilan izohlanadi.

Xulosa qilib aytganda, *Chlorophytum comosum* o'simligining yer ustki stoloni anatomik tuzilishi bog'lamsimon tipga ega. Yuqorida aniqlangan strukturaviy va diagnostik belgilar turni identifikatsiyalashda foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Барыкина Р.П., Веселова Т.Д., Девятов А.Г. и др., Справочник по ботанической микротехнике (основы и методы). – Москва: Изд. МГУ. – 2004. – С. 6-68.

Duschanova G.M. Botanika o'simliklar anatomiyasi va morfologiyasi (laboratoriya mashg'ulotlari). – Toshkent: Bookmany print, – 2022. 184-195 b.

Киселева Н.С. Анатомия и морфология растений. – Минск: Изд. Вышэйшая школа, – 1971. – С. 89-119, 2015-227.

Рахимова Н.К., Дусчанова Г.М., Абдуллаева А.Т., Юсупова Д.М. Анатомическое строение некоторых эндемичных однодольных геофитов флоры Узбекистана. - Ташкент: Изд. «Фан» АН РУз, - 2021. – 31-89 с.

Цыбуля Н.В., Якимова Ю.Л. и др. Научные и практические аспекты фитодизайна. - Новосибирск: Новосибирское книжное изд-во, 2004, 150 с.iss. 6. P. 9–18. DOI: 10.2174/1573407216999201006124428.

Эсау К. Анатомия растений.–Москва: Изд. Мир, – 1969. – С. 138-416.

Sharma P., Singh V., Maurya S.K., Kamal M.A., Poddar N.K. Antimicrobial and antifungal properties of leaves to root extracts and saponin fractions of *Chlorophytum borivilium* // Current Bioactive Compounds. 2021. Vol. 17. iss. 6. P. 9–18.

“Airplane Plant or Spider Plant”. txmg.org. Retrieved March 2, 2024.

Poole R.T., Chase A.R. & Osborne L.S., Spider Plant Production Guide (CFREC-Apopka Foliage Plant Research Note RH-91-33), Central Florida Research and Education Center, University of Florida, 1991. retrieved 2011-09-26

Ernst van Jaarsveld. "*Chlorophytum comosum*". PlantZAfrica.com. South African National Biodiversity Institute. 2012. Retrieved June 27, 2016.

World Checklist of Selected Plant Families, The Board of Trustees of the Royal Botanic Gardens, Kew, retrieved 26 September 2011, search for “*Chlorophytum comosum*”.

Nadira B. Khanhodjaeva *
(O'zbekiston Toshkent)

GLOBAL CHANGES AND SUSTAINABLE PROGRESS: THE ROLE OF NATURAL RESOURCE MANAGEMENT IN PRESERVING THE PLANET

Annotation. *The modern world has witnessed remarkable achievements in technology and economics, but these successes come at a cost. It is essential to understand that nature is a central element of our existence, and sustainable progress is impossible without considering its needs and limitations.*

Keywords: *natural, existence, development, technology, short-term, progress*

GLOBAL O'ZGARISHLAR VA BARQAROR TARAQQIYOT: SAYYORANI SAQLAB QOLISHDA TABIIY RESURSLARNI BOSHQARISHNING ROLI

Annotatsiya. *Zamonaviy dunyo texnologik va iqtisodiy sohalarda ajoyib yutuqlarga guvoh bo'ldi, ammo bu muvaffaqiyatlar qimmatga tushadi. Tabiat bizning borlig'imizning markaziy elementi ekanligini va uning ehtiyojlari va cheklovlarini hisobga olmasdan turib barqaror taraqqiyotga erishib bo'lmasligini tushunish juda muhimdir.*

Kalit so'zlar: *tabiiy, mavjudlik, rivojlanish, texnologiya, qisqa muddatli, taraqqiyot*

ГЛОБАЛЬНЫЕ ИЗМЕНЕНИЯ И УСТОЙЧИВЫЙ ПРОГРЕСС: РОЛЬ УПРАВЛЕНИЯ ПРИРОДНЫМИ РЕСУРСАМИ В СОХРАНЕНИИ ПЛАНЕТЫ

Аннотация. *Современный мир стал свидетелем выдающихся достижений в области технологий и экономики, но эти достижения имеют свои издержки. Важно понимать, что природа является центральным элементом нашего существования, а устойчивый прогресс невозможен без учета ее потребностей и ограничений.*

Ключевые слова: *естественный, существование, развитие, технология, краткосрочный, прогресс*

Introduction

**"We must leave a healthy environment for our descendants."
President Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev**

The modern world has witnessed remarkable achievements in technology and economics, but these successes come at a cost. It is essential to understand that nature is a central element of our existence, and sustainable progress is impossible without considering its needs and limitations. In this article, we will explore the role of natural resource management in the concept of sustainable development, as well as the consequences of the contemporary environmental crisis caused by excessive consumption of natural resources. We will also analyze the state of our planet's ecosystems in the early 21st century, examine natural disasters, their dynamics, and the reasons for changes in Earth's climate on both long and short-term scales.

Relevance:

This article on the role of natural resource management in preserving the planet is relevant for the following reasons:

- **Global Challenges:** Climate change and biodiversity loss pose serious threats to the environment.
- **Sustainable Development:** Natural resource management plays a crucial role in achieving a balance between economic, social, and environmental interests.
- **International Agreements:** Global agreements, such as the Paris Agreement, focus on norms of natural resource management.
- **Economic and Social Aspects:** Natural resource management affects the economy and society, making its sustainability critically important.
- **Education and Awareness:** Raising awareness about natural resource management is essential.

1. Natural Resource Management as the Central Component of Sustainable Development

Natural resource management plays a pivotal role in the concept of sustainable development. This concept entails meeting the needs of current and future generations without compromising natural resources and ecosystems. Sustainable natural resource management includes rational resource utilization, restoring their natural balance, and protecting biological diversity.

Key aspects of natural resource management in the context of sustainable development include:

Odam tanasi suyuq o'tkazuvchi bo'lgani uchun yurakning biotoklari butun tana bo'ylab o'tkaziladi va ularni teri yuzasida qayd qilish mumkin. Bunda skelet mushaklari ta'siri va toki halaqit bermasligi uchun bemorni kushetkaga yotqizib, tinch yotishi so'raladi va elektrodlar qo'yiladi. EKG yozib olish uchun potensiallar qo'l-oyoqlardan va ko'krak qafasining ma'lum nuqtalaridan olinadi. Ko'pincha, elektrodlar uchta standart usul bo'yicha ulanadi. Birinchi usulda elektrodlar o'ng va chap bilakning ichki yuzasiga, ikkinchi usulda o'ng qo'l va chap oyoq, uchinchi usulda chap va qo'l chap oyoqqa ulanadi. V harfi bilan belgilangan ko'krak (perikardial) unipolyar otvedeniylarni yozganda nofol (indifferent) bitta elektrod chap oyoq terisiga, ikkinchi faol elektrod ko'krak qafasini oldingi yuzasidagi ma'lum nuqtalarga (V1, V2, V3, V4, V5, V6) qo'yiladi. Bu otvedeniylar yurak mushaklaridagi buzilishlar joylashgan joyni aniqlashga yordam beradi. Sog'lom odam EKG sida beshta tishcha: P, Q, R, S, T bo'ladi. P, R va T tish chalar yuqoriga qaragan bo'lib (musbat tishlar), Q va S tishchalar pastga qaragan (manfiy tishchalar) deyiladi. P tishchasi bo'lmachalar qo'zg'alishini ko'rsatadi. Qo'zg'alish qorinchalar mushagiga yetib, unga tarqalganida QRS tish chalari hosil bo'ladi. T tishchasi qorinchalar qo'zg'alishining tugaganini ko'rsatadi. Shunday qilib P tishchasi EKG ni bo'lmacha qismini hosil qilsa, Q R S T tishchalari majmuyi qorinchalar qismini hosil qiladi. EKG yurak ritmini, yurakning o'tkazuvchi tizimida qo'zg'alishning o'tkazishni buzilishini, ekstrasistoliya, ishemiya, yurak infarkti paydo bo'lganida, qo'zg'alishning qo'shimcha o'choqlarini hosil bo'lishini tek shirishda yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M. Mamajanov. YURAK QON TOMIR TIZIMI FIZIOLOGIYASI fanidan O'QUV USLUBIY MAJMUA. Namangan - 2023. 45-78 b.
2. A. SH. Xurramov "ODAM ANATOMIYASI VA FIZIOLOGIYASI". Termiz - 2021. 156 – 168 b.
3. A. Sh. Arziqulov, I. I. Alimdjonov, M. M. Djalalova, BOLALAR KASALLIKLARI PROPEDEVTIKASI (Tibbiyot oliy o'quv yurtlarining pediatriya fakulteti bakalavr yo'nalishi va OMX fakulteti uchun mo'jallangan darslik) ANDIJON – 2017. 194-197 b.
4. A.GadayeV, M. Sh. Karimov, X.S. Axmedov. "ICHKI KASALLIKLAR PROPEDEVTIKASI" Muharrir nashriyoti, Toshkent – 2012. 392 b.
5. A.G'. Ahmedov, G.X. Ziyamutdinova. "ANATOMIYA, FIZIOLOGIYA VA PATOLOGIYA" Tibbiyot kollejlari uchun o'quv qo'llanma. G'afur G'ulom nashriyoti. Toshkent 2009. 354 – 368 b.

Duschanova G.M., Asatova Z.O., Anvarjanova R.S.*
(Toshkent, O‘zbekiston)

TOSHKENT BOTANIKA BOG‘I SHAROITIDA *MAGNOLIA SOULANGEANA* SOUL.BOD. (CEM. MAGNOLIACEAE JUSS.) O‘SIMLIGI BARGINING ANATOMIK TUZILISHI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Toshkent botanika bog‘i introduksiya sharoitida Magnolia soulangeana o‘simligi bargining anatomik tuzilishi o‘rganilgan va turga xos bo‘lgan diagnostik va adaptiv belgilar aniqlangan.*

Kalit so‘zi: *anatomiya, barg, Magnolia soulangeana, introduksiya, Toshkent botanika bog‘i.*

МАГНОЛИЯ SOULANGEANA SOUL В УСЛОВИЯХ ТАШКЕНТСКОГО БОТАНИЧЕСКОГО САДА.БОДЕ. (СЕМ. MAGNOLIACEAE JUSS.) АНАТОМИЧЕСКОЕ СТРОЕНИЕ ЛИСТА РАСТЕНИЯ

Аннотация. *В данной статье изучено анатомическое строение листа растения Magnolia Soulangeana в условиях интродукции в Ташкентском ботаническом саду и выявлены характерные диагностические и адаптивные признаки данного вида.*

Ключевые слова: *анатомия, лист, Magnolia soulangeana, интродукция, Ташкентский ботанический сад.*

MAGNOLIA SOULANGEANA SOUL IN THE CONDITIONS OF THE TASHKENT BOTANICAL GARDEN.BODE. (FAMILY MAGNOLIACEAE JUSS.) ANATOMICAL STRUCTURE OF A PLANT LEAF

Abstract. *In this article, the anatomical structure of the plant Magnolia Soulangeana and its introduction to the Tashkent botanical garden and the diagnostic and adaptive features of this species have been studied.*

Key words: *anatomy, leaf, Magnolia soulangeana, introduction, Tashkent botanical garden.*

O‘zbekistondagi bog’ va hiyobonlar ekotizimining aksariyat qismini doimiy yashil, gullaydigan tabiiy va iqlimlashtirilgan gulli o‘simliklar – daraxtlar, butalar va chala butalar ko‘paytirish asosida bog’ va hiyobonlar ekotizimining dizayni asosiy tarkibiy qismini yaratish imkonini beradi. Barcha fasllarda gullaydigan bu guruh o‘simliklari orasida engmanzarali bargli butaga o‘xshash o‘simliklar magnoliyalardir [1]. Ularning manzarali bo‘lgan yirik gullar dastlab shakllanib, gullagandan keyin barglarning paydo bo‘ladi. Shu bilan birga, mazkur manzarali o‘simliklarni introduksiya sharoitida etishtirish va bioekologik xarakterdagi xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi [2; 3; 4]. Mintaqadagi bargli butali magnoliyalari orasida eng keng tarqalgan o‘simlikdan *Magnolia liliaeflora* Desr. hisoblanadi va uning ishtirokidagi duragaylari ya’ni *Magnolia soulangeana* dir [5; 6]. Ushbu turlar asosiy tadqiqot ob’ekti sifatida tanlab olinib, ular butun mintaqada olib borilgan. Bu magnoliyalar guruhi asosan urug’dan kelib chiqqan shakllari bilan ifodalanadi, shuning uchun ularning morfologik xilma-xilligini o‘rganish juda dolzarbdir [7].

Duschanova G.M. – ¹Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Botanika ekologiya kafedrasini professor. guljon.duschanova@mail.ru

Asatova Z.O. - Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti talabasi

Anvarjanova R.S. - Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Toshkent botanika bog'i introduksiya sharoitida *Magnolia soulangeana* o'simligi bargining anatomik tuzilishi o'rganish tadqiqotimizning dolzarbligi va ilmiy yangiligini ko'rsatadi.

Tadqiqot maqsadi – Toshkent botanika bog'i introduksiya sharoitida *Magnolia soulangeana* o'simligi bargining anatomik tuzilishi o'rganish asosida diagnostik va adaptiv belgilarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot ob'ekti va uslublari. Tadqiqotlar O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademik F.N. Rusanov nomidagi Toshkent botanika bog'idagi Shimoliy Amerika ekspozitsiyasida introduksiya sharoitida olib borildi. Anatomik tadqiqotlar uchun *Magnolia soulangeana* o'simlikning bargi 70 % etil spirtiga fiksatsiya qilindi. Epiderma paradermal va ko'ndalang kesiklar qo'l yordamida tayyorlanib, preparatlar metilen ko'ki yordamida bo'yalib, glitserin-jelatin bilan qotirildi. Ko'ndalang kesiklar bargning o'rta qismidan tayyorlandi [8]. Asosiy to'qimalar va hujayralar K. Esau [9], G.M. Duschanova [10], epiderma - S.F. Zaxarevich [11] uslublari asosida tavsiflandi. Mikrofotosuratlar kompyuter mikrofotonasadkasi, *Sanon* firmasining A123 rusumli raqamli fotoapparati hamda *BioBlue* S/N – EC-2209333 rusumli mikroskop yordamida tayyorlandi.

Magnolia soulangeana barglari lirasimon, ko'p hollarda to'rtta bo'lakdan iborat bo'lib, old tomoni yurak shaklida, tishli cho'qqiga ega. Barglarning kattaligi quyoshli va soyali sharoitlarga qarab o'zgaradi.

Toshkent botanika bog'i introduksiya quyoshli sharoitda *Magnolia soulangeana* bargining anatomik tuzilishi o'rganildi. Bargdagi epiderma hujayralari paradermal kesikda to'lqinsimon shakli, ko'pburchaklidir. Adaksial epiderma hujayralari abaksial epiderma hujayralariga nisbatan yirikroqdir. Epiderma hujayralaridagi yadrolar bargning har ikki tomonida ham aniq ko'rinadi. Adaksiyal va abaksiyal epiderma bir hujayrali trixomalar bilan qoplangan.


Barglari gipostomatik tuzilishga ega bo'lib, barg og'izchalar barg epidermasining abaksial (pastki) tomonida joylashgan bo'lib, adaksial epidermada mavjud emas. Bularning barchasi barg yuzasidan suvni yo'qotilishining kamayishiga olib keladi. Barg og'izchalarning shakli ovalsimon bo'lib, ularning uzunligi $23,7 \pm 0,2$ mkm, eni $13,2 \pm 0,09$ mkm, epiderma hujayrasida chuqur joylashmagan. Barg og'izchalarining loviyasimon hujayralari deyarli bir xil uzunlikda bo'lib, paratsit va gemiparatsit tiplari aniqlandi (1-rasm).

Magnolia soulangeana o'simligi barg mezofilli ko'ndalang kesikda dorsiventral tipli bo'lib, adaksial epiderma hujayralarining ostida ustunsimon hujayralari, abaksial epiderma hujayralarining ostida g'ovaksimon hujayralar joylashgan. Epiderma qalin devorli kutikuladan iborat bo'lib, bir qator hujayralar iborat.

Adaksial va abaksial epiderma hujayralarining o'rtasida assimilyatsiyalovchi to'qima – ustunsimon va g'ovaksimon hujayralardan tashkil topgan. Adaksial epiderma ostida ikki qator xlorofill donachalariga ega bo'lgan ustunsimon hujayralar

joylashgan. Ustunsimon parenxima hujayralarining balandligi $28,6 \pm 0,3$ mkm, eni $9,5 \pm 0,09$ mkm, ustunsimon hujayra indeksi (3) yuqoriligi aniqlandi. G'ovaksimon parenxima xlorofill donachasiga ega bo'lgan 6-7 qator hujayralardan iborat bo'lib, ustunsimon bilan abaksial epiderma hujayralarini orasida joylashgan. G'ovaksimon hujayra yumaloqsimon shakldagi kichik hujayrali bo'lib, yirik bo'shliqlarga ega. Ustunsimon va g'ovaksimon hujayralar o'rtasida ko'p sonli yon o'tkazuvchi bog'lamlar joylashgan bo'lib, 3-4 ta kichik naylardan iborat (2-rasm).


Bargning asosiy tomiri abaksiyal tomondan bo'rtgan bo'lib, qovurg'asimon qismidagi adaksial va abaksiyal epiderma hujayralarining ostida 2-3 qator plastinkasimon kollenxima joylashgan. Bargning asosiy tomirining qolgan qismini parenxima hujayrasi egallagan bo'lib, mazkur hujayralari qalin devorli va ko'p qirrali bo'lib, ular orasida gidrotsit hujayralari mavjud (2-rasm).



1-rasm. *Magnolia soulangeana* barg epidermasining anatomik tuzilishi:

a¹- a³ – adaksial epiderma; b¹-b³ – abaksial epiderma.

Bargning asosiy tomirida kollateral tipdagi o'tkazuvchi bog'lamlar 6 ta bo'lib, ulardan 4 tasi yirik va 2 tasi kichik bog'lamdan iborat. Yirik va kichik o'tkazuvchi bog'lamlar bir-biri bilan ketma-ket joylashgan. o'tkazuvchi bog'lamlarda mexanik to'qimalar (sklerenxima) shakllanganligi hisobiga yog'ochlashgan. O'tkazuvchi bog'lamdagi ksilem naylarining diametri $36,1 \pm 0,3$ mkm bo'lib, ular qalin devorli va cho'zilgan.



2-rasm. Magnolia soulangeana bargi mezofilining anatomik tuzilishi:

a^1 - b^1 – umumiy tuzilishi, a^2 - b^2 – bargning mezofilining detali; a^3 - b^3 – barg og'izchasining epiderma hujayrasida chuqur joylashmaganligi; a^4 – o'tkazuvchi bog'lam. Shartli belgilov: D – hujayralar

Xulosa qilib aytganda, Toshkent botanika bog'i introduksiya quyoshli sharoitda *Magnolia soulangeana* bargining anatomik tuzilishi o'rganish asosida turga xos

bo'lgan quyidagi diagnostik belgilar: barg mezofillinging dorsiventral tipliligi, barglarining gipostomatikliligi, barg og'izchalarining paratsit va gemiparatsit tipliligi, o'tkazuvchi bog'lamlarning kollateral tipliligi aniqlandi. Yuqorida aniqlangan strukturaviy diagnostik va adaptiv belgilar mazkur turni introduksiya quyoshli sharoitda yaxshi moslashganligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- Карпун Ю.Н. Принципы организации сада непрерывного цветения в условиях Черноморского побережья Кавказа // Лесная рекреация и интродукция на Северном Кавказе. – М.: ВНИИЛМ. – 1985 б. – Вып. 18. – С. 83-90.
- Истратова О.Т. Сезонное развитие интродуцированных деревьев и кустарников в условиях Сочи // Тр. Соч. – НИЛОС. 1964. – Вып. 6. – С. 72-81.
- Мисник Г.Е. Сроки и характер цветения деревьев и кустарников. – Киев: Наукова думка. 1976. – 384 с.
- Гарбузова Л.А. Фенологические наблюдения в «Дендрарии» в 2001 году // Материалы конференции к 110-летию Сочинского дендрария. – 2002. – С. 42-45.
- Карпун Ю.Н. Культивируемые древесные растения. Таксономический словарь. – СПб: ВВМ, – 2010 а. – 114 с.
- Карпун Ю.Н. Субтропическая декоративная дендрология. – СПб: изд-во «ВВМ», – 2010 б. – 580 с.
- Пилипенко Ф.С. Иноземные деревья и кустарники на Черноморском побережье Кавказа. – Л.: Наука, – 1978. – 293 с.
- Барыкина Р. П., Веселова Т. Д., Девятов А. Г. и др., Справочник по ботанической микротехнике (основы и методы). – Москва: Изд. МГУ. 2004. – С. 6-68.
- Эсау К. Анатомия растений. – Москва: Изд. Мир, 1969. – С. 138-416.
- Duschanova G.M. Botanika o'simliklar anatomiyasi va morfologiyasi (laboratoriya mashg'ulotlari). – Toshkent: Bookmany print, – 2022. 184-195 b.
- Захаревич С.Ф. К методике описания эпидермиса листа // Вестник ЛГУ. – Ленинград, 1954. – № 4. – С. 65-75.

Pozilov M.K., Abduraxmonova M.J., Mirhamidova P.
(Toshkent, O'zbekiston)

PESTITSIDLARNING KALAMUSHLAR JIGAR MITOXONDRIYASI PTP O'TKAZUVCHANLIGIGA TA'SIRI

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot ishida bugungi kunda qishloq xo'jaligida keng qo'llanilayotgan galoksifop-P-metil va indoksakarb pestitsidlarining kalamush jigar mitoxondriyasi PTP (mPTP–mitochondrial permeability transition pore-yuqori o'tkazuvchan pora) sining konformatsion holatiga ta'siri o'rganildi. Olingan natijalarga ko'ra galoksifop-P-metil pestitsidini hayvonlarga yuborilgandan 20 kundan so'ng jigar mitoxondriyasini bo'kishida barqaror dinamik holat saqlandi. Indoksakarb pestitsidi yuborilgan kalamushlarda esa 10 kundan boshlab 40 kungacha jigar mPTP o'tkazuvchanligi keskin organligi aniqlandi.

Kalit so'zlar. Jigar, mitoxondriya, pestitsid, galoksifop-P-metil, indoksakarb, jigar mPTP.

**ВЛИЯНИЕ ПЕСТИЦИДОВ НА
ПРОНИЦАЕМОСТЬ МИТОХОНДРИЙ
ПЕЧЕНИ КРЫСЫ**

Аннотация. В данной работе изучено влияние пестицидов галоксифоп-П-метил и индоксакарб, которые сегодня широко используются в сельском хозяйстве, на конформационное состояние митохондрий печени крысы PTP (mPTP—mitochondrial permeability transition pore-высокопроводящая пора). Согласно полученным результатам, через 20 дней после введения животным пестицида галоксифоп-П-метил в митохондриях печени сохранялось стабильное динамическое состояние. Установлено, что проницаемость печени mPTP резко возрасла от 10 до 40 дней у крыс, которым вводили пестицид индоксакарб.

Ключевые слова. Печень, митохондрии, пестицид, галоксифоп-П-метил, индоксакарб, mPTP печени.

**EFFECT OF PESTICIDES ON RAT LIVER
MITOCHONDRIA PTP PERMEABILITY**

Abstract. In this study, the effect of haloxyfop-P-methyl and indoxacarb pesticides, which are widely used in agriculture today, on the conformational state of rat liver mitochondria PTP (mPTP-mitochondrial permeability transition pore) was studied. According to the obtained results, a stable dynamic state was maintained in liver mitochondria 20 days after administration of haloxyfop-P-methyl pesticide to animals. It was found that mPTP permeability of the liver increased sharply from 10 days to 40 days in rats injected with indoxacarb pesticide.

Keywords. Liver, mitochondria, pesticide, haloxyfop-P-methyl, indoxacarb, liver mPTP.

So‘nggi vaqtlarda dunyo bo‘yicha pestitsidlar ro‘yxati juda tez sur‘atlarda ortib bormoqda. Hozirda butun dunyoda ko‘plab pestitsid turlari ishlab chiqarilmoqda va qishloq xo‘jaligida ekinlarning zararkunandalariga qarshi qo‘llanilmoqda. [3;6].

Pestitsidlar nafaqat zararkunanda hashorotlarga, balki odam va hayvon tanasiga ham zaharli ta‘sir etishi bilan e‘tiborni jalb etadi. Bunday paytlarda ko‘pchilik odamlarda surunkali zaharlanish holatlari namoyon bo‘lishi mumkin. Inson tanasiga turli yo‘llar bilan, jumladan ifloslangan muhitdan yoki oziq-ovqat bilan birga kirib, toksik, balki kantserogen ta‘sirga ham ega bo‘lishi mumkin [3]. Pestitsidlar jigarda o‘t yo‘llarini to‘sib, diabet va semirish kabi kasalliklarni keltirib chiqaruvchi omillardan biri ekanligi tajribalarda aniqlangan [1]. Ba‘zi pestitsidlarning perinatal ta‘siri aniqlanib, bunga ko‘ra yangi tug‘ilgan chaqaloqlarda insulin darajasining ortishi hamda bolalarda ortiqcha vazn bilan bog‘liq kasalliklarni yuzaga kelishi isbotlangan [5]. Pestitsidlardan xlorpirifos va imidoklaprid pre- va postnatal (homiladorlik va laktatsiya) davrlarning eng muhim bosqichlarida ta‘sir etib, metabolik kasalliklarni keltirib chiqarishi mumkinligi aniqlangan [4]

Pestitsidlar bilan zaharlanish barcha to‘qima va organlarga ta‘sir qiladi, ammo ularning ta‘siriga eng sezgir a‘zo jigar hisoblanadi. Ksenobiotiklar metabolizmida faol ishtirok etadigan gepototsit hujayralari ushbu pestitsidlarning asosiy nishoniga aylanadi. Hujayrada mitoxondriya va mikrosomal pestitsidlar ta‘sirida eng ko‘p zararlanadi. Jigardagi qoldiq pestitsid bir qator funktsional ozgarishlarga olib keladi ya‘ni LPO va fermentlar aktivligini o‘zgarishiga sabab bo‘ladi [2].

Tadqiqotlarimizda bugungi kunda qishloq xo'jaligida keng qo'llanilayotgan galoksifop-P-metil va indoksakarb pestitsidlarining kalamush jigar mitoxondriyasi PTPsining konformatsion holatiga ta'sirini o'rgandik. Olingan natijalarga ko'ra, nazorat sifatida olingan sog'lom I guruh tajriba hayvonlari jigar mitoxondriyasining bo'kishi 40 kun davomida dinamik holat kuzatilmadi. Ammo, galoksifop-P-metil pestitsidi yuborilgan tajribaning II guruh hayvonlarini jigar mitoxondriyasining bo'kishi nazoratga nisbatan 10 kunlikda $59,0 \pm 3,5\%$ ga, 20 kunlikda esa $65,7 \pm 4,6\%$ ga ortishi aniqlandi. Galoksifop-P-metil pestitsidi yuborilgan 30 va 40 kunlik kalamushlarda jigar mitoxondriyasining bo'kishi nazoratga nisbatan mos ravishda $70,1 \pm 4,1\%$ va $60,5 \pm 4,5\%$ ga ortishi aniqlandi. Demak, galoksifop-P-metil pestitsidini hayvonlarga yuborilgandan 20 kundan so'ng jigar mitoxondriyasini bo'kishida barqaror dinamik holat saqlandi. Ammo bu nazorat ko'rsatkichlaridan yuqori holatda bo'lganligi mitoxondriya membranasi LPO intensivligi ortganligi va ion transport tizimlari funktsional faolligi kamayganligi bilan izohlash mumkin.

Navbatdagi tajribalarimizda indoksakarb pestitsidining kalamushlar jigar mitoxondriyasi yuqori otkazuvchan porasiga ta'siri organildi. Olingan natijalarga ko'ra, ushbu tajribada ham nazorat sifatida olingan I guruh hayvonlarni jigar mitoxondriyasini bokishi 40 kun davomida dinamik holat kuzatilmadi. Ammo, indoksakarb bilan intoksikatsiya qilingan II guruh kalamushlarni jigar mitoxondriyasining bokishi nazoratga nisbatan 10 kunlikda $77,4 \pm 3,7\%$ ga, 20 kunlikda esa $95,5 \pm 4,2\%$ ga ortishi aniqlandi. Indoksakarb yuborilgandan keyin 30 va 40 kunlardan song kalamushlar jigar mitoxondriyasining bokishi nazoratga nisbatan mos ravishda $104,6 \pm 4,2\%$ va $90,4 \pm 3,7\%$ ga ortishi aniqlandi. Demak, indoksakarb pestitsidi yuborilgan kalamushlarda 10 kundan boshlab 40 kungacha jigar mPTP o'tkazuvchanligi keskin ortganligi ma'lum bo'ldi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, galoksifop-P-metil pestitsidida kuzatilgan mitoxondriya membranasi buzilishi indoksakarbdan ham kuzatildi. Demak, ushbu preparatlar kalamushlar jigar mitoxondriyasini disfunktsiyasiga olib keladi, natijada jigar hujayrasida energiya yetishmovchiligi, moddalar almashinuvi buzilishi va oxir oqibat hujayra zararlanishidan uning o'limigacha bo'lgan jarayonlarga sabab bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Guven C., Sevgiler Y., Taskin E. Pyrethroid insecticides as the mitochondrial dysfunction inducers // *Mitochondrial Diseases* – 2018. – P. 293-322.
2. Juliana C. Castanha Z., Marcos A. Maioli Hyllana C.D. Medeiros, Fabio E. Mingatto. Abamectin affects the bioenergetics of liver mitochondria: A potential mechanism of hepatotoxicity. // Elsevier Ltd. *Toxicology in Vitro*. – 2012. – V.26. – P.51–56.
3. Mirxamidova P., Pozilov M.K., Parpiyeva M.J., Shakhmurova G. A., Jumagulova K.A. Determination of the amount of residual pesticides in the liver tissue of rats poisoning with haloxyphop-r-methyl and indosacarb pesticides// *Journal of Pharmaceutical Negative Results*/ – 2022. – V.13(1).–P.738-745.

4. Toor, H.K.; Sangha, G.K.; Khera, K.S. Imidacloprid induced histological and biochemical alterations in liver of female albino rats. *Pestic. Biochem. Physiol.* – 2013. – V.105. – P.1-4.
5. Valvi D., Mendez M.A., Martinez D., Grimalt J.O., Torrent M., Sunyer J., Vrijheid M. Prenatal concentrations of polychlorinated biphenyls, DDE, and DDT and overweight in children: A prospective birth cohort study. *Environ. Health Perspect.* – 2012. – V.120. – P. 451–457.
6. Юрий В.М., Дитченко Т.И., Яковец О.Г., Крытынская Е.Н., Быховец А.И., Тимофеева В.А. Оценка избирательности действия пестицидов на растения (электрофизиологический метод)//МИНСК БГУ –2011., Т.66. 68 с.

Mirzayeva Z.Sh. Parvina M.A.*
(Chirchiq, O'zbekiston)

YOSH FIZIOLOGIYASI VA GIGIYENASI FANINING O'QITISH ORQALI TALABALARDA TO'G'RI OVQATLANISHNI YO'LLARINI O'RGATISH.

Annotatsiya. *Ovqat hazm qilishdagi hamma muammolar noto'g'ri ovqatlanish asnosida kelib chiqadi. To'g'ri ovqatlanish borasida ko'plab nazariyalar mavjud va deyarli har kuni yangi ma'lumotlar paydo bo'ladi. Ularning ba'zilari go'shtni cheklash kerak desa, boshqa birlari faqat ma'lum bir mahsulotlardan iborat taomnoma har qanday kasalliklardan forig' bo'lish kaliti deyishadi. Aslida inson tanasi juda murakkab tizimdir, uning normal ishlashi uchun u ham go'sht, ham sabzavotli taomlarni talab qiladi. Shu sababli to'g'ri ovqatlanish qoidalarini bilish juda muhim sanaladi.*

Kalit so'zi: *To'g'ri ovqatlanish, kun tartibi, ovqat hazm qilish a'zolari, inson organizmi.*

НАУЧИТЬ СТУДЕНТОВ ПРАВИЛЬНОМУ ПИТАНИЮ ЧЕРЕЗ ПРЕПОДАВАНИЕ ДИСЦИПЛИНЫ ВОЗРАСТНАЯ ФИЗИОЛОГИЯ И ГИГИЕНА.

Аннотация. *Все проблемы с пищеварением вызваны неправильным питанием. Существует множество теорий о правильном питании, и практически каждый день появляется новая информация. Некоторые из них говорят, что необходимо ограничить мясо, другие утверждают, что диета, состоящая только из определенных продуктов, является залогом избавления от любых заболеваний. На самом деле организм человека – очень сложная система, для нормального функционирования ему необходимы как мясные, так и овощные блюда. Поэтому очень важно знать правила правильного питания.*

Ключевые слова: *Правильное питание, режим дня, органы пищеварения, организм человека.*

TO TEACH STUDENTS PROPER NUTRITION THROUGH TEACHING THE DISCIPLINE OF AGE-RELATED PHYSIOLOGY AND HYGIENE.

Annotation. *All digestive problems are caused by poor nutrition. There are many theories about proper nutrition, and almost every day new information appears. Some of them say that it is necessary to limit meat, others claim that a diet consisting only of certain products is the key to getting rid of any disease. In fact, the human body is a very complex system, for normal functioning it needs both meat and vegetable dishes. Therefore, it is very important to know the rules of proper nutrition.*

Key words: *Proper nutrition, daily routine, digestive organs, human body.*

*Mirzayeva Zulxumor Shuxradovna – Chirchiq davlat pedagogika universiteti biologiya kafedrasida o'qituvchisi.

Parvina Murodova Adashovna - Chirchiq davlat pedagogika universiteti biologiya yo'nalishi 2-bosqichi talabasi.

Inson organizmi deyarli barcha kerakli moddalarni oziq-ovqat va suv orqali oladi. Oziq-ovqat mahsulotlarining tarkibi va ularning xususiyatlari salomatlik, jismoniy rivojlanganlik, mehnat qobiliyati, hissiy holat va umuman, umr ko'rish davomiyligi va sifatiga bevosita ta'sir qiladi. Inson organizmiga shu qadar ta'sir qilishga qodir bo'lgan yana boshqa bir omilni topish qiyin.

Ovqat hazm qilish a'zolarining tuzilishi va vazifasi.

Ovqat hazm qilish tizimi og'iz bo'shlig'i, halqum, qizilo'ngach, me'da, o'n ikki barmoq ichak, ingichka va yo'g'on ichaklar hamda me'da osti bezi va jigar kabi a'zolardan tashkil topgan.

Og'iz bo'shlig'i - ovqat hazm qilish tizimining boshlang'ich qismi bo'lib, unda tishlar, til va so'lak bezlarining kanalchalari joylashgan. Og'iz bo'shlig'ida oziq moddalar aksariyat fizik va qisman kimyoviy o'zgarishlarga uchraydi.

Ovqat hazm qilish-traktiga og'iz, halqum, oshqozon, ingichka ichak, yo'g'on ichak, to'g'ri ichak, orqa chiqaruv teshigi kiradi. A'zolar ko'p ekan, tarqalgan kasalliklar spektri ham katta: ovqat hazm qilish bilan bog'liq kasalliklarga 70 millionga yaqin odam duchor bo'lgan.

Bu buzilishlar hamma sohada doimo faqat katta narsaga erishmoqchi bo'lgan odamlarga hos. Haddan ziyod rag'batlantiradi va biz adrenalinda yashaymiz, chunki uning yuqori darajasi bizlarni yuqori darajada bo'lishimizga yordam beradi, odamlar hech narsaga qaramay bu poygada ishtirok etishga shoshiladilar. Ular juda ko'p ishlaydilar, toliqtiradigan kechalarda ham tinim bilmaydilar, yerga qulab tushmagunlaricha, shunchaki harakat qilaveradilar, katta va kattaroq hukmronlikka intilaveradilar. Chetdan qaraganda, shunday odamlarning hamma narsasi yetarli, ammo tiyib bo'lmaydigan ishtaxalari o'zlariga past baho beradi, miyasi nosog'lom fikrlarga to'la. Ular o'zlarini boricha qabul qilishga va o'zlaridan mamnun bo'lishga o'rganishlari kerak. Ularning butun hayotlari tashqi farovonlikka mo'ljallangan – o'z nafsoniyatlari deb, qimmatli, ulkan uylar va avtomobillarga intiladilar, shundagina o'zlarini buyuk va yaxshiroq ko'rinishlariga ishonadilar. Ammo ko'p bo'lishi har doim ham yaxshi emas. Odam o'z ichki dunyosini ham to'ldirib, o'ziga sog'lom baho bera olishi kerak.


Ovqat hazm qilish tizimini davolash uchun turli medikamentoz vositalar bor. Ovqat hazm qilish a'zolarining buzilishiga jig'ildon qaynashi, yaralar, qorin dam bo'lishi, kron kasalligi hamda yo'g'on ichakning qo'zg'alishi kabilar kiradi. Ammo medikamentoz vositalar (dorilar) kasallik ko'rinishini yo'qotadi, kasallik sababi ildizini yo'qotolmaydi.

Ovqat hazm qilishdagi hamma muammolar bir hissiyotga-qo'rquvga asoslanadi. Masalan, oshqozon kasalliklari bilan aziyat chekayotganlar hayotda yuz beradigan mushkul ahvoldan qutilish uchun qodir emasman deb o'ylaydilar, omilkor emaslar yoki yangiliklardan qo'rqishadi. Ular ko'pincha o'ziga ishonmaganidan, qo'rquv va havotirdan ruhlari tushgan bo'ladilar. Bu sizga tanish bo'lsa va yangi tajriba qo'rquvlaridan halos bo'lishni istasangiz, dadil intiling. Mana sizga ijobiy

qoida: “Men hayotim bilan totuv yashayman. Har damda qaysidir yangilikni qabul qilaman. Hamma ishlar joyida”.

Agar siz ovqat hazm qilishdagi kasalliklardan qiynalayotgan bo‘lsangiz, uni qo‘rquvga bog‘liq salbiy fikrlar keltirib chiqargan, sizga madadkor ijobiy qoida: “Men o‘zimga yoqaman. Men o‘z harakatlarimni qo‘llayman. Men xotirjamman. Mening ko‘nglim to‘q”

To‘g‘ri ovqatlanish borasida ko‘plab nazariyalar mavjud va deyarli har kuni yangi ma‘lumotlar paydo bo‘ladi. Ularning ba‘zilari go‘shtni cheklash kerak desa, boshqa birlari faqat ma‘lum bir mahsulotlardan iborat taomnoma har qanday kasalliklardan forig‘ bo‘lish kaliti deyishadi. Aslida inson tanasi juda murakkab tizimdir, uning normal ishlashi uchun u ham go‘sht, ham sabzavotli taomlarni talab qiladi. Shu sababli to‘g‘ri ovqatlanish qoidalarini bilish juda muhim sanaladi. Bu borada shubhali tavsiyalarga amal qilish salomatlikda jiddiy muammolar keltirib chiqarishi mumkin. Dastlab ishni to‘g‘ri ovqatlanish haqida qat‘iy qaror qabul qilishdan boshlash kerak. Deyarli butun zamonaviy dietologiya tayanadigan va sog‘lom ovqatlanish tamoyillarini tezda o‘rganishga yordam beradigan bir nechta oddiy qoidalar quyidagilardir:



1-qoida. Fast-fuddan butunlay voz kechish va shirinliklarni suiste'mol qilmaslikka harakat qilish;

2-qoida. Mavsumiy mahsulotlardan iloji boricha ko'proq iste'mol qilish — ularning tarkibida eng ko'p miqdorda ozuqaviy moddalar mavjud. Issiqxonalarda yetishtirilgan yoki uzoqdan olib kelingan qishki sabzavot va mevalar kimyoviy moddalarga boyligi va uzoq muddatli saqlash tufayli nafaqat o'zining barcha foydali xususiyatlarini yo'qotadi, balki nitratlar va boshqa zararli kimyoviy birikmalar akkumulyatoriga aylanadi;

3-qoida. Aralashmalardan tozalangan mahsulotlar: shakar, o'simlik moyi, oq bug'doy uni, tozalangan oq guruchdan foydalanishni iloji boricha cheklash. Ularda kletchatka yo'q, bu ovqat hazm qilish tizimi, shuningdek ichaklarda yashovchi foydali bakteriyalarni oziqlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun oq non o'rniga donli turini iste'mol qilish, tozalangan shakar o'rnini esa jigarrang yoki hatto asal bilan bosish yaxshiroqdir;

4-qoida. Suv ichish. Choy, qahva yoki sharbatlar suv o'rnini bosa olmaydi. Bir sutkada inson har 1 kg vazn uchun kamida 30-35 ml suyuqlik qabul qilishi kerak. Shirin gazlangan ichimliklar — to'liq taqiqlanadi, ular tarkibida juda yuqori miqdorda shakar mavjud;

5-qoida. Oqsilli taomlar haqida unutmaslik. Ular uzoq vaqt davomida to'qlik hissini saqlab turadi va aminokislotalarga boy sanaladi. Oqsillar tanaga mushak to'qimasini shakllantirish, eski hujayralarni yangilash uchun zarurdir. Oqsilga boy ovqatlarga turli xil go'sht, baliq, kalmar, qisqichbaqalar, yong'oqlar, qo'ziqorinlar, ba'zi dukkakli o'simliklar, tuxum va tvorog kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Aminov B., Tilolov T. "Odam va uning salomatligi" T. «O'qituvchi» 1993 yil.
2. Klemesheva L. Ergasheva M. "Yoshga oid fiziologiya" T. «O'qituvchi» 1991 yil.
3. Sharipova D. "Oilaning salomatlik sirlari" T. «O'qituvchi» 2006 yil.
4. <https://proza.uz/@mohichehraaxadovna>
5. www.ziyonet.uz
6. www.arxiv

Qalandarova M.A., Narzullayeva I.U.*
(Toshkent, O'zbekiston)

***PSEUDOMONAS CHLORORAPHIS* BAKTERIYASINING DUKKAKLI O'SIMLIK LARNING O'SISH VA RIVOJLANISHIGA TA'SIRI.**

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Pseudomonas chlororaphis bakteriya shtamining dukkakli o'simliklarning o'sish va rivojlanishiga ijobiy ta'sirini ko'rishimiz mumkun.*

Kalit so'zlar: *Pseudomonas chlororaphis, Navro'z, Qahrabo*

ВЛИЯНИЕ БАКТЕРИИ PSEUDOMONAS CHLORORAPHIS НА РОСТ И РАЗВИТИЕ БОБОВЫХ.

Аннотация: *В этой статье мы можем увидеть положительное влияние бактериального штамма Pseudomonas chlororaphis на рост и развитие бобовых.*

Ключевые слова: *Pseudomonas chlororaphis, Науруз, Янтарь*


THE EFFECT OF PSEUDOMONAS CHLORORAPHIS BACTERIA ON THE GROWTH AND DEVELOPMENT OF LEGUMES.

Abstract: *In this article, we can see the positive effect of the bacterial strain Pseudomonas chlororaphis on the growth and development of legumes.*

Keywords: *Pseudomonas chlororaphis, Navruz, Amber*

Pseudomonas turkumi juda xilma-xil va hamma joyda tarqalgan va hozirgacha u tuproq, suv, havo va cho'kindi kabi ko'plab turli muhitlardan ajratilgan. undan tashqari, bu turlar yoki shtammlarning ko'pchiligi inson, hayvon yoki o'simlik patogenlari katta ahamiyatga ega; aksincha, ba'zilar aslida o'simliklarning o'sishiga yordam beradi[1, 4]. Pseudomonas chlororaphis turkumi o'simlikning o'sishini rag'batlantiruvchi xususiyatlari va ayniqsa, o'simlikni zamburug'lar, nematodalar va hasharotlardan himoya qiluvchi ikkilamchi metabolitlarni ishlab chiqarish uchun o'rganiladi. Pseudomonas chlororaphis qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikda tuproq emlash vositasi sifatida ishlatiladi[4]. U fenazin tipidagi antibiotiklar ishlab chiqarish orqali ma'lum zamburug'li o'simliklar patogenlariga qarshi bionazorat agenti sifatida harakat qilishi mumkin[3]. 2020 yildagi qiyosiy genomik va filogenomik tadqiqotda butun Pseudomonas turkumining 494 ta to'liq genom tahlil qilindi, ulardan 43 tasi Pseudomonas chlororaphis shtammlari ushbu tadqiqotda Pseudomonas chlororaphis turi uning morfologiyasi va o'rtacha nukleotid identifikatori mezoni asosida aniqlanadi. Hozirgi kunda alternativ zararsiz kurash usulidan biri: foydali bakteriyalar, ularning ikkilamchi metabolitlaridan foydalanish usullari ishlab chiqilmoqda va bu juda samarali va ijobiy hisoblanadi[2].

*Qalandarova Madina Andrey qizi - TDPU o'qituvchisi.
Narzullayeva Iroda Uktam qizi - TDPU o'qituvchisi



1-rasm. Mikroskop ostida bakteriyaning ko‘rinishi

Biz tajribamiz orqali dukkakli o‘simliklardan mosh o‘simligining 2xil navlardan foydalandik. Bular Navro‘z va Qahrabo navlari ustida tajriba olib bordik. Bu tajribada Pseudomonas chlororaphis bakteriya shtammining suyuqlantirilgan holatlaridan foydalanamiz. Dastlab bakteriyalarni suyuqlantirib olamiz suyuqlanma ikki xil holatdagi nisbatda suyuqlantirib olamiz 1:19 va 1:49 nisbatlar.



2-rasm. Navro‘z navining bakteriya suyuqlanmasidan sepilganda urug‘ning unish holatidagi farqi



3-rasm. Qahrabo navining bakteriya suyuqlanmasidan sepilganda urug‘ning unish holati.



4-rasm. Nazorat bo'yicha urug'larning o'sish holati.

Bu jarayon 2 kun davom etdi. O'simliklarni ekishdan oldin petri idishlarni strelab olamiz va unga urug' nafas olishi yaxshi bo'lishi uchun filtr qog'oz qo'yib chiqamiz. Mosh o'simligining har bir navidan 50 donadan olib petri idishlarga ekamiz.

Tajribamizning 3-kuni esa urug'larning o'sib chiqish holatini kuzatganimizda sezilarli darajada farqlarini kuzatamiz. Nazorat uchun qo'yilganlarida esa o'sish darajasi ancha kam darajada ekanligini kuzatdik. *Pseudomonas chlororaphis* bakteriya shtammidan aynan dukkakli o'simliklarga nisbatan ijobiy foydalanishimiz mumkun bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Burxonova X.K., Murodov M.M. Mikrobiologiya. Toshkent, "O'qituvchi", 1975.
2. Synergistic antifungal mechanism of cinnamaldehyde and nonanal against *Aspergillus flavus* and its application in food preservation, *Food Microbiology*, 104524 (2024).
3. A. Abbas, S.U. Khan, W.U. Khan, Antagonist effects of strains of *Bacillus* spp. against *Rhizoctonia solani* for their protection against several plant diseases: Alternatives to chemical pesticides, *Comptes Rendus Biologies*, 342, 138–145 (2019).
4. Нармухамедова М.К., Хусанов Т.С., Жумаёров Ш.И., Кадырова Г.Х., Қаландарова М. А., Выделение и идентификация *Bacillus subtilis* и ее потенциал в биоконтроле фитопатогенных грибов, журнал E3S Web of Conferences, III Международной научно-практической конференции «Вопросы сельского хозяйства, экологии, пищевого производства и дистанционного зондирования земли».

Shoniyozova Sh.B., Dadayev S.D.*
(Toshkent, O'zbekiston)

O'ZBEKISTONDA TABIIY SHAROITDA UCHRAYDIGAN TUYOQLI HAYVONLAR VA ULARNI TARQALISHI

Annotatsiya: Maqolada uzoq yillar davomida Respublikamizning turli mintaqalarida mutaxassis olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlari natijasida O'zbekistonning tabiiy sharoitida tuyoqli hayvonlarning 13 ta turi uchrashligi, shulardan 9 ta turi O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilganligi aniqlangan.

Kalit so'zlar: antropogen, tuyoqli hayvonlar, populyatsiya, inventarizatsiya.

КОПЫТНЫЕ ЖИВОТНЫЕ, ВСТРЕЧАЮЩИЕСЯ В ПРИРОДНЫХ УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА И ИХ РАСПРОСТРАНЕНИЕ

Аннотация: В данной статье приведены результаты многолетних исследований учёных-специалистов в различных областях Республики по изучению копытных животных Узбекистана. Выявлено, что в природных условиях Узбекистана распространено 13 видов копытных животных, из которых 9 видов занесены в Красную книгу Республики Узбекистан.

Ключевые слова: антропоген, копытные животные, популяция, инвентаризация.

UNGULATE ANIMALS FOUND IN NATURAL CONDITIONS OF UZBEKISTAN AND THEIR DISTRIBUTION

Abstract: This article presents the results of many years of research by scientists-specialists in various regions of the Republic on the study of ungulates of Uzbekistan. It was revealed that in the natural conditions of Uzbekistan there are 13 species of ungulates, of which 9 species are listed in the Red Book of the Republic of Uzbekistan.

Keywords: anthropogen, ungulates, population, inventory.

Bugungi kunda dunyoda tabiiy landshaftlarning doimiy o'zlashtirilishi, antropogen bosimning ortishi va iqlimning global o'zgarishi hayvonot dunyosi xilma-xilligining inqirozini keltirib chiqarmoqda. Bu o'rinda, antropogen omillar ta'siriga sezgir umurtqali hayvonlar, shu jumladan tuyoqli hayvonlar alohida ahamiyatga ega bo'lib, ular resurslaridan nooqilona foydalanish populyatsiya-larining qisqarishiga olib kelmoqda. Shunga ko'ra, O'zbekiston tabiiy sharoitida uchraydigan tuyoqlilar xilma-xilligi va ularni tarqalish holatini aniqlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu o'rinda, kam o'rganilgan noyob faunistik hududlarda yovvoyi tuyoqli hayvonlar xilma-xilligini davriy ravishda inventarizatsiyalash, ular populyatsiyalari inqiroziga sabab bo'luvchi salbiy omillarni aniqlash, kamyob va iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan turlarning holatini baholash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Oxirgi yillarda xorijda, MDH mamlakatlarida, shu jumladan O'zbekistonning turli mintaqalari va hududlarida tuyoqli hayvonlarni o'rganish borasida mutaxassis

*Shoniyozova Sh.B. – TDPU, Tabiiy fanlar fakulteti, Biologiya ta'lim yo'nalishi, IV-kurs talabasi.
Dadayev S.D. - TDPU, Tabiiy fanlar fakulteti, Zoologiya va anatomiya kafedrasida professori.

olimlar tomondan qator tadqiqot ishlari olib borilib, ilmiy maqolalar va o'quv hamda uslubiy qo'llanmalar chop etilgan.

Umuman olganda, zamonaviy O'zbekiston faunasida umurtqali hayvonlarning 714 turi (sutemizuvchilar- 107, qushlar - 467, sudralib yuruvchilar-61, amfibiyalar - 3 va baliqlar - 76) mavjud, umurtqasiz hayvon turlari esa 15 mingdan ortiq.

Oxirgi yillarda tabiatdan foydalanishning kuchayishi oqibatida, O'zbekistondagi ko'plab hayvon turlari kuchli antropogen ta'siri ostida qolib, ularning yashash joylari va soni keskin qisqarib bordi, ba'zilari esa butunlay yo'q bo'lib ketdi.

Ushbu maqolada Respublikamizda tabiiy sharoitida yovvoyi holda uchrovchi tuyoqli hayvonlar va ularni tarqalishi haqida olimlarimiz tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlari bo'yicha chop etilgan ilmiy va o'quv adabiyotlar o'rganilib tahlil qilingan.

Chop etilgan adabiyotlarni o'qib tahlil qilish natijasida O'zbekistonda tabiatda yovvoyi holda asosan tuyoqli hayvonlardan quyidagi 13 ta turlari uchrashligi aniqlangan: Yovvoyi cho'chqa, ya'ni to'ng'iz (*Sus scrofa Linnaeus, 1758*), Jayron (*Gazella subgutturosa Guldenstadt, 1780*), Buxoro bug'usi (*Cervus elaphus bactrianus Lydekker, 1900*), yelik-kosulya (*Capreolus pygargus Pallass, 1771*), Sibir tog' echkisi (*Capra sibirica (Pallas) 1776*), Burama shoxli echki, ya'ni morxo'r (*Capra falconeri, Wagner, 1839*), Muflon, ya'ni yovvoyi qo'y (*Ovis vignei, Bluth, 1841*), Qizilqum yovvoyi qo'yi, ya'ni Severtsov qo'yi (*Ovis ammon ssp. Severtsovi Nasonov, 1914*), Tyan-Shan tog' qo'yi (*Ovis ammon, Linnaeus, 1758*), Ustyurt qo'yi - arqal (*Ovis ssp. arkal Eversmann, 1850*), Buxoro qo'yi (*Ovis vignei Blyth, 1841 ssp. bochariensis Nasonov, 1914*), Sayg'oq, ya'ni oq quyruq (*Saiga tatarica Linnaeus, 1758*) va Turkman quloni (*Equus hemionus Pallas, 1775*) [1,2,3,4].

Yuqorida keltirilgan tuyoqlilardan – Jayron, Buxoro bug'isi, ya'ni xongul, Ustyurt qo'yi, ya'ni arkal, Buxoro qo'yi (Tojik olqori), Qizilqum arxari, ya'ni Severtsov qo'yi, Tyan-Shan tog' qo'yi, ya'ni arxar (*Ovis ammon, Linnaeus, 1758*), Burama shoxli echki, ya'ni morxo'r, Sayg'oq, ya'ni oq quyruq (*Saiga tatarica Linnaeus, 1766*) va Turkman quloni O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan [5].

Quyida O'zbekistonda tabiatda uchraydigan ayrim tur tuyoqlilarning tarqalish areallari to'g'risida to'xtalaib o'tamiz.

Yovvoyi cho'chqa, ya'ni to'ng'iz (*Sus scrofa Linnaeus, 1758*) O'zbekistonda asosan tog' o'rmonlarida va to'qaylarda yashaydi. Hozirgi vaqtda yovvoyi cho'chqa Amudaryo deltasida, Qizilqumning shimoli-g'arbidagi tabiiy ko'llar va artezian quduqlari atrofida, shuningdek Orol dengizi va Shimoliy Ustyurt platosi oralig'idagi hududlarda keng tarqalgan.

Jayron (*Gazella subgutturosa Guldenstaedt, 1780*) O'zbekistonda asosan cho'lda yashagan. Hozirgi vaqtda jayron Surxon, Baday to'qay qo'riqxonalarida va Buxoro pitomnigida saqlanib qolgan, ya'ni Ustyurt yassi tekisligi, Janubiy Orolbo'yi,

Qizilqum sahrosi, Qarshi cho‘li, Surxondaryo viloyatining ayrim joylarida uchraydi. Hozirgi kunda jayronning maqomi zaif, kamayib borayotgan, mozaik tarqalgan kenja tur deb belgilangan.

Bug‘ulardan O‘zbekistonda Buxoro bug‘usi (*Cervus elaphus bactrianusi Lydekker, 1900*) uchraydi. Buxoro bug‘usi haqiqiy bug‘ularning mahalliy kenja turi bo‘lib, erkaklarida butoqlanib ketgan shoxi bor. Buxoro bug‘usi o‘tmishda Sirdaryo va Amudaryo havzalarining barcha to‘qayzorlarida keng tarqalgan. Hozirda esa Buxoro bug‘usi, ya’ni xongul tabiiy populyasiyasining alohida guruhlarida Amudaryo vodiylarida (Quyil Amudaryo biosfera rezervati, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, populyasiyalarning katta qismi faqat maxsus qo‘riqlanadigan hududlarda, xususan Surxon, Baday to‘qay qo‘riqxonalarida va Buxoro jayron pitomnigida ko‘paytirilmoqda. O‘zbekiston qo‘riqxonalarida, Amudaryo vodiysining yuqori (Surxondaryo viloyati) va o‘rta (Buxoro viloyati Qizilqum qo‘riqxonasi) oqimida, Zarafshon Milliy tabiat bog‘ida va Zarafshon daryosi yuqorisida tarqalgan. Ular Qayir to‘qayzorlari, ba’zan esa ularga yondosh qumli cho‘llarda yashaydi.

Yelik, ya’ni kosulya (*Capreolus pygargus Pallass, 1771*) faqat Toshkent viloyatining tog‘li tumanlaridagina uchraydi.

Tog‘ echkilaridan - Burama shoxli echki, ya’ni morxo‘r (*Capra falconeri Wagner, 1839*) Ko‘hitang, Bobotog‘ va Boysuntog‘ tizmalarida yashasa, Sibir tog‘ echkisi (*Capra sibirica Pallas, 1776*) esa Turkiston va Chotqol tizma tog‘larida uchraydi. Ular tog‘larning tosh-qoyali va siyrak archazorli yonbag‘irlarida yashaydi.

Qizilqum yovvoyi qo‘yi, ya’ni Severtsov qo‘yi (*Ovis ammon ssp. severtsovi Nasonov, 1914*) o‘tmishda - markaziy va g‘arbiy Qizilqumning qoldiq tog‘larida, Nurota, Qoratog‘, Molguzar, Turkiston, Zarafshon tizmalarida uchragan. Hozirda esa ular Qizilqum, Ustyurt, Nurota, Oqtog‘ tizmalarida, Tomditog‘ qoldiq tog‘larida, Turkiston tizmasida va ehtimol Bobotog‘, Ko‘hitang tog‘larida ham yashaydi.

Tyan-Shan tog‘ qo‘yi (*Ovis ammon, Linnaeus, 1758*) o‘tgan asrning o‘rtalarigacha Qorjontov tog‘ida uchratish tabiiy hol bo‘lgan. 1979-1999 yillarda esa Ugom bo‘ylab butun Piskom suv havzasida, Maydontol tog‘ida va Novalisoydan to Shovursoygacha bo‘lgan Olatog‘da (Talas vodiysi) kamdan-kam hollarda uchragan.

Ustyurt qo‘yi, arkal *Ovis vignei Blyth, 1841* hozirgi vaqtda Ustyurtning janubi, asosan Qozoqli–Qoplonqir qismi, «Quruq ko‘l», Sariqamish botiqlari, janubiy chinklarning sharqiy qismida tarqalgan.

Buxoro qo‘yi (*Ovis vignei Blyth, 1841 ssp. bochariensis Nasonov, 1914*) G‘arbiy Pomir-Oloy (Ko‘hitang, Boysuntog‘, Hisor, Bobotog‘ tizmalari) da tarqalgan. Ular tog‘ dashtlari va siyrak archazorli qismlarida yashaydi.

Sayg‘oq (*Saiga tatarica Linnaeus, 1758*)8. Hozirgi vaqtda bir necha sayg‘oq populyasiyalari mavjud. Ustyurt yassi tekisligi (Qoraqalpog‘iston), Sharqiy va Janubiy Orolbo‘yi, Orol dengizining qurib qolgan hududlarida yashaydi. O‘tmishda

Shimoliy Qizilqum, Sirdaryo qayirlari, jumladan, Farg‘ona vodiysining tekislik qismida ham tarqalgan.

Turkman quloni (*Equus hemionus Pallas, 1775*) XIX asrning oxirlarigacha Ustyurtda ko‘p uchragan. XX asrning 30-yillariga kelib butunlay yo‘q bo‘lib ketgan. 1982-1983 yillarda Turkmanistonning Qopl onqir qo‘riqxonasi hududidan 100 ga yaqin qulon O‘zbekiston hududiga kirib kelgan. Buxoro ixtisoslashgan “Jayron” pitomnigida yarim tutqunlikdagi qulonlar introdusiyalashtirilgan. Qulonlar tekislikdagi cho‘llar va yarim cho‘llar, tog‘ etaklarida yashaydi. O‘tmishda yoz faslida mavsumiy ko‘chish davrida boshqoqli va har xil o‘tli cho‘llarda yashagan.

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan ma’lumotlar asosida xulosa chiqaradigan bo‘lsak, uzoq yillar davomida Respublikamizning turli mintaqalari va hududlarida ko‘plab mutaxassis olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlari natijasida O‘zbekistonning tabiiy sharoitida tuyoqli hayvonlarning 13 ta turi uchrashligi, shulardan 9 ta turi O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilganligi qayd etilgan. Yuqorida ta’kidlanganidek, tuyoqli hayvonlarni ko‘pchiligi qizil kitobga kiritilgan bo‘lib, ular bizning milliy boyligimizdir. Tabiat tuhfa etgan bir necha ming yillar davomida bizgacha yetib kelgan, hozirda kamayib borayotgan noyob tuyoqli va boshqa hayvonlarni tabiiy sharoitda asrab avaylash, muhofaza qilish va ko‘paytirish chora tadbirlarini ishlab chiqish har birimizning insoniy burchimiz hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Богданов О.П. Редкие и исчезающие животные Узбекистана. Энциклопедический справочник. -Ташкент. 1992. 400 с.
2. Быкова Э.А., Есипов А.В. Современное состояние охотниче–промысловых копытных Узбекистана // Селевиния, 2006. С. 194-197.
3. Dadayev S., Saparov K. Umurtqalilar zoologiyasi. Oliy o'quv yurtlarining bakalavriat bosqichi biologiya yo‘nalishi talabalari uchun darslik. Toshkent, “TURON-IQBOL”, 2019, 720 b.
4. Toremuratov M.Sh. Qoraqalpog‘iston juft tuëqlilari (*Mammalia: Artiodastyla*) faunasining zamonaviy holati, ekologiyasi va ahamiyati. Biologiya fanlari bo‘yicha Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Nukus, 2022, 46 b.
5. O‘zbekiston Respublikasining Qizil kitobi, II jild: Hayvonlar; J.A. Azimovning umumiy tahriri ostida. T.: "Tasvir" nashriyot uyi, 2019. - 392 b.

Султонова Д.Ф.*
(Chirchiq O'zbekiston)

**ИНСОН ТАНАСИНИНГ ИМКОНИАТЛАРИНИ ОШИРИШДА ФУНКЦИОНАЛ
ТАЙЁРГАРЛИКНИНГ ЎРНИ**

Аннотация: Спортчилар танасининг юқори даражадаги функционал имкониятларини шакллантириши муаммосини ҳал қилиши функционал тайёргарликнинг тузилиши ҳақида аниқ тасаввурга эга бўлмасдан мумкин эмас. Организмни мушак кучланишларига адантсисясини намоён қилинишини ва спортчини юқори жисмоний ишчанлик қобилияти шартларини энг муҳими – организмнинг физиологик функцияларини сафарбарлик имкониятлари даражаси ҳисобланади, бу, физиологик тизимларни жисмоний юкламани бошланғич этапида функция қилишининг зарурий даражасига тезкор чиқишида, мушакларнинг ўзига хос фаолияти жараёнида организмни чегаравий имкониятларини ортишида ифодаланади.

Калит сўзлар: Жисмоний кўрсаткичлар, адантсися(мослаиши), стресс реакцияси, функционал захиралар, биологик ва ижтимоий захиралар.

**РОЛЬ ФУНКЦИОНАЛЬНОЙ ТРЕНИРОВКИ В
ПОВЫШЕНИИ ВОЗМОЖНОСТЕЙ
ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ОРГАНИЗМА**

Аннотация: при проведении тренинга по подготовке к занятиям можно точно представить себе решение задач функционалом подготовки к занятиям. Важнейшим условием проявления адантсися организма к мышечным напряжениям и высокой физической работоспособности спортсмена является уровень мобилизационных возможностей физиологических функций организма, выражающийся в быстром выходе физиологических систем на необходимый уровень функционирования на начальном этапе физической нагрузки, в повышении предельных возможностей организма в процессе конкретной мышечной деятельности.

Ключевые слова: физические показатели, адантсися(адантсися), реакция на стресс, функциональные резервы, биологические и социальные резервы.

**THE ROLE OF FUNCTIONAL TRAINING IN
ENHANCING THE CAPABILITIES OF THE
HUMAN BODY**

Abstract: When conducting training in preparation for classes, you can accurately imagine solving problems with the functional of preparing for classes. The most important condition for the manifestation of the body's adaptation to muscle stresses and high physical performance of an athlete is the level of mobilization capabilities of physiological functions of the body, expressed in the rapid output of physiological systems to the required level of functioning at the initial stage of physical activity, in increasing the maximum capabilities of the body in the process of specific muscular activity.

Keywords: physical indicators, adaptation (adaptation), stress response, functional reserves, biological and social reserves.

Ҳозирги вақтда функционал тайёргарлик спортчиларнинг махсус тайёргарлигининг ажралмас қисми сифатида эмас, балки физиологик асос сифатида, яъни бошқа барча турларнинг асоси сифатида қаралади. Шунинг учун ҳар бир махсус техник тайёргарлик туридаги функционал компонент ҳақида гапириш таклиф этилади - техник, жисмоний, тактик ва ақлий[4].

Жисмоний кўрсаткичларни баҳолашда турли хил спортчиларда унинг юқори даражасига турли омилларнинг турли даражадаги ривожланиши билан эришилиши амалда ҳисобга олинмайди. Тадқиқотлар шуни кўрсатдики, ташқи

*Султонова Дилфуза Фахриддин қизи - Ўзбекистон Давлат Университети таянч доктаранти, Чирчиқ давлат педагогика Университети Биология кафедраси ўқитувчиси

механик ишнинг ҳақиқий қийматини, уни белгиловчи омилларни ҳисобга олмасдан информatsioon деб ҳисоблаш мумкин эмас: жисмоний кўрсаткичларнинг ҳар бир ўсиши ижобий баҳоланмаслиги керак, уни камайтиришнинг ҳар бир варианты салбий бўлмаслиги керак.

Физиологик нуқтаи назардан, мушак фаолиятига мослашиш - бу юқори жисмоний тайёргарликка эришиш ва бунинг учун физиологик харажатларни минималлаштиришга қаратилган тананинг тизимли жавобидир. Узоқ муддатли мослашиш пайтида физиологик жараёнлар, албатта, тартибга солиш механизмларини қайта қуриш, тананинг физиологик захираларини сафарбар қилиш ва ишлатиш, инсоннинг муайян меҳнат (спорт) фаолиятига мослашишнинг махсус функционал тизимини шакллантириш билан давом этади. [5]

Жисмоний фаолиятга мослашишнинг тўртта асосий босқичини ажратиш одатий ҳолдир.

Биринчи босқич - "шошилиш мослашиш" - жисмоний фаолиятга мослашиш жараёнининг бошланғич "фавқулодда" босқичи, бу максимал эришиш мумкин бўлган даражага мослашиш учун масъул бўлган функционал тизимнинг мобилизацияси ва аниқ стресс реакцияси билан тавсифланади. Шу билан бирга, организмнинг реакцияси, асосан, назорат қилиш, тартибга солиш тизимининг номукамаллиги туфайли "номукамаллик" билан тавсифланади.

